



TA'LIM FIDOYILARI

GUVOHNOMA № 1170

ISSN:2181-2160

SJIFACTOR: 4.27

RESEARCHBIB(I.F): 6.2

U.I.F: 6.8



WWW.REANDPUB.UZ

TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

2023

PHILOLOGICAL SCIENCES

PEDAGOGICAL SCIENCES

SOCIAL SCIENCES AND
HUMANITIES

EXACT SCIENCES

NATURAL SCIENCES

ECONOMICS

ART AND CULTURE

MEDICAL SCIENCES

TECHNICAL SCIENCES



VOLUME 1



+998 97 277 78 01



WWW.REANDPUB.UZ



INFO@REANDPUB.UZ



CYBERLENINKA



BASE



OpenAIRE



Google
Scholar



«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

1-SON, 1-JILD DEKABR 2022 3-QISM

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

TA'LIM FIDOYILARI RESPUBLIKA JURNALIDA
TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNOVATSION
YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLAR MAVZUSI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI





EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim

Doctor of Philosophy (Ph.D) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Максудова Фируза Хуршидовна

Тошкент фармацевтика институтининг «Дори воситаларининг саноат технологияси» кафедраси мудири

Кожикбаева Зияда Адилбаевна

Қорақалпоқ давлат университети Журналистика кафедраси доценти

Аллабергганова Гулчехра Машариповна

Навоий давлат кончилиқ ва технологиялар университетининг "Умумий физика" кафедраси доценти

Shamshiyeva Hulkar

Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedras, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich

Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedras, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedras, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Мирзабдуллаева Гулнора Мухаммаджон кизи

Наманган муҳандислик-қурилиш институти менежмент кафедраси ассистенти

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov

Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Baratova Maxbuba Mubinjanovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Даулетмуратова Замира Уснатдиновна

Қорақалпоқ давлат университетининг Қорақалпоқ тилшунослиги кафедрасининг ассистент-ўқитувчиси

Шокирова Ҳавасхон Нурмаатовна

Фарғона халқ таълими бошқармаси Таълим маркази директори

Erkabay Yu. Dardibaev

Тошкент давлат аграр университети, Дехкончилик ва мелиорация кафедраси профессори

Saidova Markhabo Xabibullo kizi

DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMIC SCIENCES

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Қодиров Зиёидин Мамадалиевич

Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси катта ўқитувчиси

Алимжон Тожиев Мўйдинович

Андижон давлат университети ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти

Тожибоева Гулҳумор Раҳмонжоновна

Андижон давлат университети умумий психология кафедраси катта ўқитувчи

Юнусова Гулшод Назиховна

Наманган давлат университетининг «Амалий математика ва ахборотлартехнологиялари» кафедраси катта ўқитувчиси

Ergashev Bobirjon Boxodirovich

Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich

PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Набиева Саидахон Абдувахобовна

Тошкент давлат техника университети Саноат иқтисодиёти ва менежменти кафедраси доценти (PhD)

YOSH-AVLODNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA INNOVATSION YONDASHUV.

*Samarqand shahar 3-son Bolalar musiqa va san'at maktabi
o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
Murodov Texron Furkat o'g'li.*

Annotatsiya. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohatlar, jamiyatda yuz berayotgan ma'naviy-axloqiy yangilanish yoshlarni har tomonlama rivojlangan, erkin, ijodkor shaxs, komil inson sifatida shakllantirishga, ularning musiqiy-ijodiy faolligini oshirish, shu bilan birga o'z-o'ziga, jamiyatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga va shaxs sifatida o'z ma'suliyatini anglashga undaydi. Maqolada ushbu fikrlar keng bayon etilib, komil inson tarbiyalash, unga qo'yilgan sifatlar, kompetensiyasi, musiqa madaniyati darslari orqali yosh-avlodni komil inson qilib tarbiyalashning o'ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: komil inson, musiqa, musiqa madaniyati darslari, musiqa o'qituvchisi, ijodkorlik, metodlar, faoliyat turlari, kompetensiya.

Yosh-avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida olib borilayotga ta'lim jarayoni muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Prezidentimizning "Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹ deb ta'kidlagan so'zlari ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog kadrlarning o'z mas'uliyatiga sadoqat bilan yondoshishi va yoshlarni komillakka yetaklashga undaydi.

Inson shaxsining madaniy, ma'rifiy va tarbiyaviy jihatdan komillikka erishishida milliy g'oyalar, milliy qadriyatlar, shu jumladan musiqa san'ati ma'naviy kamolot muammolarini hal etadi.

Shaxs kamolotini rivojlantirishda musiqa san'atining o'rne beqiyosdir. Musiqa san'ati barkamol insonni shakllantirish vositasi hamdir. Shaxs kamolotida

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston". 2017 y.

va uning rivojlanishida musiqa tarbiyasining alohida o'rni bo'lib, shaxs madaniyatini shakllantirishga yo'naltirish zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrdagi tub islohotlar har bir kishidan bilim, salohiyat, samarali mehnat, madaniyatlilik, malaka, ijodkorlik, jamiyat oldida mas'uliyatni his etishni talab qiladi. Komil inson tarbiyasida maktab ta'limida yetakchi fan hisoblangan musiqa fanining ahamiyati katta. Ayni paytda musiqa fani o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, tabiiy jarayonlar va hodisalarni idrok qilish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llash, ya'ni kompetensiyaviy jihatlarini rivojlantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Shu o'rinda "kompetensiya" tushunchasiga izoh berib o'tsak.

"Kompetensiya" so'zi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo'llangan va insonning biror faoliyatni amalga oshirish layoqatini bildirgan. "Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi. Ularni umumlashtirgan holda, bugungi kunda ta'lim jarayonida faol qo'llanayotgan ushbu tushunchalarni sharhlashda quyidagi xulosaga keldik: "Kompetensiya" bilim, ko'nikma va malakalarning samarali qo'llanishi; "kompetentlilik" esa muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun mavjud hamda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan layoqatdir. Ta'limga kompetent yondashuv talabalarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi [5].

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "kompetensiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. "Kompetensiya" lotincha compete – erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma'nolarni anglatadi [4, 396-b].

Musika ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetentligining mohiyati shundaki hozirgi paytda oliy ma'lumotli mutaxassislar haqida gap ketganda, "kompetensiya" va "professionallik" tushunchalari keng qo'llaniladi. Shundan kelib chiqib, kompetensiya bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, professional-barkamol shaxs, fikrlar va mulohazalarni bildirishga imkon beradi va muayyan ko'p qirrali layoqatidan foydalanish bilan keng doiradagi vakolatlar kaliti degan xulosaga keldik [2].

Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetensiyaviy sifatlarini rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirishi, mustaqil o'qishi, o'zligini namoyon etishi, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Chunki musiqa madaniyati darslari o'quvchilarni Ona Vatanni sevrishga o'rgatadigan, musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rgatishga, musiqiy faoliyat turlarining mukammal egallashga, musiqani idrok etish yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylashga va raqsga tushish, ijodkorlik malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Musika san'at sifatida ijtimoiy ong shaklidir. U insonni his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga hayot, voqeylik davr aksidir.

Musika madaniyati darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, bir so'z bilan aytganda kompetensiyalarini shakllantirishda ijodiy jarayonga alohida e'tibor qaratiladi. Darsda musiqiy faoliyat turlarini amalga oshirishda musiqiy asar mazmunida aks ettirilgan mazmun, his-tuyg'u va fikrlarga tayaniladi. Bu jarayon musika madaniyati darslarining boshidan oxirigacha amalga oshadi. Musika darsi o'z-o'zidan ma'lumki, san'at darsidir. Darsning asosiylikini faoliyat turi tashkil etadi. Darsning asosiy faoliyatlari bo'lib esa musika tinglash va xor bo'lib kuylash hisoblanadi. Inson musika bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musika inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda o'quvchi shaxsini komillikka yetaklashdek oliy maqsadni amalga oshirish uchun musika o'qituvchisi oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi.

1. O'quvchilarda musika san'atiga bo'lgan qiziqish va mehr-muhabbatni oshirib borish.
2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish jarayonida badiiy ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish.
3. Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalab borish.
4. O'quvchilar ongiga musiqiy asarlar vositasida umuminsoniy qadriyatlarini singdirish.

Musika vositasida ifodalanadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. Shuning uchun "Qachonki so'z beoqibat qolsa, musika yordamga keladi" degan fikr bejiz aytilmagan. Musika insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi. Musika madaniyati darslari orqali o'quvchilar asarlarni tahlil qilish, kompozitor va bastakorlar ijodi, mahalliy musika uslublari, asar mazmuni yaratish tarixi bilan tanishib boradilar.

Musika ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida muhit tushunchasi va o'qitishning metodik ma'nosi, maktabda musiqani o'qitishning metodik tizimi asosiy kompetensiyalarning bilish bilan uyg'unlashuvi, u asosida ishlab chiqilgan

dastur va darsliklar, musiqani o'qitishning asosiy texnologiyasini bilish, ta'lim standartining belgilanishi va uning ma'nosini bilish, musiqa fani davlat ta'lim standarti mazmunini bilish, maktab darsligi savollari va alohida mavzularni o'qitish metodikasini egallash, metodik usullar butunligini maqsadli baholash va darsliklarning dasturiy yordamini qo'llashni tanlay bilish, maktabning yuqori bosqichida maxsus ta'limga javob beruvchi musiqani o'qitish mazmunini tabaqalashtirish tamoyillarini bilish, musiqa darsining bir-ikki kasbiy metodikasini egallash, musiqa o'quv jarayonini rejalashtira olish, o'rganuvchi materialning mazmuniga tashkiliy shakl va metodlarni tanlash, o'qitishning nazorat turlari va natijalarni baholash funksiyasini bilish, tekshirish vositalarini ishlab chiqish va qo'llay bilish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini ob'ektiv baholash, nazorat natijalariga ko'ra metodikani tuzatish.

Musiqa-ta'lim muhiti o'quvchi shaxsiga yo'naltirilib, ta'lim muhitining butunligini yaratish tamoyilidan tarkib topadi. Ta'limning yangi maqsad va yutuqlariga erishish uchun shaxsning ta'lim muhitida ko'p o'lchamli harakatlanishiga imkoniyat va bunday harakatlarga optimal sharoitlar yaratilishi kerak. Aks holda, ta'lim tizimi mavqei shaxsni rivojlantirishga yo'naltirish, zamonaviy jamiyatning talablari, yakka tartibda o'qitish, asosiy kompetensiyalarning shakllanishi, o'quvchilarning qobiliyatlari va bilish talablarining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Aynan shu sharoitlarda ta'limda musiqiy vositalardan foydalanish samarali bo'ladi, chunki bu yerda ushbu vositalarga tegishli moslashuvchanlik, egiluvchanlik, interfaollik, o'quv faoliyati turlarining kengaytirilishi vazifalari to'liq amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ta'limning maqsadi shunchaki bilim egasi bo'lgan o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash emas, balki ijodkor, iste'dodi bilan ajralib turuvchi faol o'quvchilarni tarbiyalash zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston". 2017 y.



2. Omankulova Sh.N. Factors influencing the pro-fessional competence of future teachers of music education Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, ISSN: 2249-7137 Impact Factor: SJIF = 7.13, Vol. 10, Issue 9, Sept 2020, -p 30-34

3. O'zbekiston Respublikasi milliy insiklopediyasi.
https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/

4. <https://www.google.com/>

FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH JARAYONI: O'ZGARISHLAR VA ISTIQBOLLAR.

Saparov Bobur Hudayberdievich

O'zMU HTO'M, Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning asosiy yoʻnalishlari masalasi muhokama qilingan. Ong va tafakkurning ijtimoiy oʻzgarishlarni amalga oshirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Fuqarolik jamiyatini oʻzgartirish va faoliyatini tashkil qilishga doir bir nechta konsepsiyasi va uning innovatsion mohiyati yoritib beriladi.

Kalit soʻzlar: inson kapitali, islohot, fuqarolik jamiyati, oʻzgarish, yangilanishongning oʻzgarishi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy-siyosiy tuzum.

CIVIL SOCIETY BUILDING PROCESS: CHANGES AND PROSPECT.

ABSTRACT

This article discusses the reforms being carried out in our country on the way to building a civil society and their main directions. The role of consciousness and thinking in the implementation of social change is analyzed in detail. Several concepts of civil society transformation and organization and its innovative nature are highlighted.

Keywords: human capital, reform, civil society, change, renewal, change of consciousness, rule of law, socio-political system.

KIRISH

Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki fuqarolik jamiyatining mavjudligi demokratik tipdagi siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Aslida biz o'rganishni boshlayotgan fuqarolik jamiyati aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'lmagan turli shakllarini o'zi ichiga olgan majmuani ifodalaydi hamda jamiyat tuzilishining haqiqiy darajasini namoyon etadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi ifodalaydigan ijtimoiy aloqalar majmui u yoki bu mamlakat xalqiga xos bo'lgan fuqarolik munosabatlarining sifat ko'rsatkichi bo'lib, ijtimoiy sohada davlat va jamiyat funksiyalarini farqlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Bu aloqalar majmui hamisha transformatsiyalashuvi va dinamik xususiyat kasb etishi bilan e'tiborni tortadi. Jamiyatda haqiqiy demokratiya sharoitida, ya'ni siyosiy hokimiyatning jamiyat va uning a'zolari ustidan hukmronligi emas, balki jamiyatning davlatga nisbatan so'zsiz birlamchiligi sharoitida insonning tom ma'nodagi erkinligi ta'minlanishi mumkin va bu darajaga erishish uchun davlat va jamiyat o'rtasida muntazam vakolatlar va vazifalarni o'zgarib turishi lozimligi namoyon bo'ladi. Bunday jamiyatga o'tish tarixiy jihatdan uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir. Jamiyat tushunchasi bilan "fuqarolik jamiyati" tushunchasi o'rtasida nafaqat chambarchas bog'liqlik, balki juda jiddiy farqlar ham mavjuddir. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar majmui hisoblangan jamiyat o'z taraqqiyotining takomilga etgan bosqichida, ma'lum sharoitlarda fuqarolik jamiyatiga aylanadi. SHu nuqtai-nazardan, garchi mohiyatida mavhumlik namoyon bo'lsa-da, "fuqarolik" tushunchasi negizida aniq va tugal mazmun mavjud. Fuqarolik jamiyati kategoriyasi jamiyatning tuzilishi va o'z-o'zini boshqarish nuqtai-nazardan sifat jihatidan yangi holatni ifodalaydi, davlat va shaxs manfaatlarning muqobilligini namoyon etadi. Bunda inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. SHu tufayli nafaqat oddiygina fuqarolik jamiyati xususiyatlariga ega bo'lmagan "nofuqarolik jamiyati"ni, balki shaxsga tazyiq o'tkazadigan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy va shaxsiy hayotini to'liq nazorat qiladigan jamiyatni ham fuqarolik jamiyatiga qarshi qo'yish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Fuqarolik jamiyati tushunchasining o'zi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda fuqarolik jamiyati jamiyatning davlat tuzilmalarining nazorati etib bora olmaydigan barcha qismini qamrab oladi. U tabiiy-tarixiy taraqqiyot davomida davlatdan mustaqil bo'lgan muxtor soha sifatida vujudga keladi va o'zgarib boradi. Bu fikrlarni tasdig'li o'laroq Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «Bugun biz yangi davlat, yangi jamiyat qurayotgan ekanmiz, - deydi I.Karimov, - bu tizimda

ijtimoiy - siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham oʻziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha maʼno kasb etishi shubhasiz. Avvalo, shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat munosabatlari batamom yangicha mazmun va shakl topishi, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillarga asoslanishi kerak»dir[1]. Fuqarolik jamiyati tor maʼnoda tushunadigan boʻlsak, shu tushuncha nuqtai- nazaridan, huquqiy jamiyat bilan bevosita bogʻliq boʻlib, boshqacha aytganda, bu ikki tushuncha biri ikkinchisiz mavjud boʻla olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitida davlat tomonidan boshqarilmaydigan, erkin va teng huquqli shaxslarning oʻzaro munosabatlarini ifodalaydi. Bu individualizm va xususiy manfaatlar erkin amal qiladigan ijtimoiy makon hisoblanadi. Shu bilan birga fuqarolik jamiyati muntazam oʻzgarishlarni boshdan kechiradi va bu jamiyat uchun normal holatdir. Fuqarolik jamiyatining huquqiy xarakteri, uning adolat va erkinlikning oliy talablariga javob berishi va shu jarayonni hosil qilishga qarab harakat qiladigan organizmga qiyoslash mumkin. Fuqarolik jamiyatining bu xususiyati adolat va erkinlik borasidagi tamoyillarning mazmun-mohiyatida va meʼyorlarida aks etadi va insonlarni yanada demokratik va insonning ishtiroki oshgan davlat tizimiga qarab olib boradi. Fuqarolik jamiyati sharoitida erkinlik va adolat insonlar, jamoalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga solib turuvchi ijtimoiy omil vazifasini oʻtaydi. Boshqa tarafdin, har bir inson jamiyatning aʼzosi sifatida meʼyorlarga tayanish zarurligini anglaganligi tufayli ularga boʻysunadi va shu asosda erkinlikka ega boʻladi. Fuqarolik jamiyatining ikkinchi xususiyati funksional xarakterga ega. Xususiy manfaatlarni amalga oshirish uchun, davlatdan rasmiy-huquqiy jihatdan mustaqil boʻlgan zaruriy shart-sharoitni yaratish emas, balki jamiyatda yuqori darajada tartib-intizom va oʻz oʻzini boshqarish xususiyatlari fuqarolik jamiyati mavjudligining asosini tashkil etadi. Mamlakatimiz oldida turgan, butun xalqimiz qalbi, ongu shuuri bilan anglab yetayotgan maqsad-vazifalar – dunyodagi taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun erkin va farovon hayot qurish yoʻlida hammamiz bir haqiqatni chuqur tushunib olishimiz lozim. Fuqarolik jamiyatidagi oʻzgarishlarni oʻrganishdan oldin umuman olganda oʻzgarish tushunchasining taʼrifini ketirish lozim. “Oʻzgarishlarning tabiati oʻzgarish har doim jarayon sifatida qaraladi. Buning sababi shundaki, berilgan konsepsiya aniqlanadigan kalit soʻzlar - oʻzgartirish, kuzatish, harakat, ketma-ketlik - bu jarayondir. Oʻzgarishlarning tabiati va xilma-xilligini tushunish uchun ularni turlarga, turlarga, manbalarga, kursga, miqyosga, davomiylikka, bashorat qilish qobiliyatiga, oqibatlari, dinamikasi, oʻziga xosligi, nazorat darajasi, oʻzgarishlarning muntazamligi, oʻzgarishlarning chuqurligi kabi bir qator belgilar boʻyicha tasniflash kerak. Oʻzgarishlar ijtimoiy; iqtisodiy; siyosiy; demografik texnologik; texnik; atrof-muhit



va boshqaturarga boʻlinadi. Aynan bugungi kundagi jamiyatimizdagi islohotlar natijasida chuqur oʻzgarishlar bizning hayotimizga kirib kelmoqda. Sodir boʻlayotgan tub siljishlar fuqarolik jamiyatini qurish boʻyicha qilayotgan isharimiz bilan chambarchas bogʻliqdir. Jamiyatimiz aʼzolarining har biri bugungi kunda farovon hayotda, rivojlanish va taraqqiyotga intilishlar asosida mana shunday oʻzgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchga aylanib kemoqdalar. Bugungi islohotlar aynan farovonlik va barqarorlikka intilish tufayli amalga oshirilayotganigini ham aytib oʻtish lozim. Oʻtgan 29 yil davomida hayotning oʻzi biz fuqarolik jamiyati qurish uchun amalga oshirayotgan islohotlarimizning samardorligini bugun namoyon qilmoqda. Bunda milliy gʻoyada oʻz oldimizga qoʻygan maqsadlarimizning naqadar toʻgʻri qoʻyganimiz bilan ham mavjudlik mavjud. Milliy gʻoyamiz insonlarni ishonchi va eʼtiqodiga aylanganligi bois demokratik-fuqarolik hamiyati qurishda yutuqlarga erishib kelmoqdamiz. Demokratik-huquqiy davlat asoslarini vujudga keltirilishi mustabid tuzum davrida moddiylashtirilgan inson ongi va tafakkurini oʻzgarishiga ham olib keldi. va bu jarayon milliy gʻoyamizning bosh va asosiy gʻoyalari, turli tamoyillari bilan bogʻliqlikda amalga oshirib kelinmoqda. Mustaqillik yillari davomida fuqarolik jamiyati qurish yoʻlida milliy gʻoya, milliy qadriyatlar asosida muayyan darajadagi inson ongi va tafakkuri oʻsib, rivojlanib bormoqda. Insonning yangilanayotgan ongi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan hamohang ravishda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-maʼnaviy turmush tarzidagi quyidagi yoʻnalishlardagi islohotlar bu ong oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi asosiy omillar boʻlib xizmat qilmoqda.

Siyosiy sohada

- Demokratik prinsiplarni qaror toptirish jarayonini chuqurlashtirish;
- fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etish tuizimlarining rivojlantirilishi;
- qonunlarni liberallashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini vakolatlarini kengaytirish

- Plyuralizmning siyosiy hayotga yanada chuqurroq kirib borishini taʼminlovchi

Iqtisodiy sohada;

- xususiy tadbirkorlikni tashabbuskorlik ishbilarmonlikni rivojlantirish;
- iqtisodiyotda mulkchilikning turli shakllarini qaror toptirish;
- mehnat munosabatlarini tartibga solish;

Ijtimoiy- maʼnaviy sohada;

- Insonparvarlikni haqiqiy ma"noda shakllantirish
- Ma"naviy- axloqiy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni inson hayotidagi o"rnini oshirish;
- Demokratik dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish
- Aholning konstitutsiyada ko"rsatilgan ijtimoiy- ma"naviy imkoniyatlardan baxramand bo"lishlarini ta"minlash va h.k.

NATIJALAR

Mamlakatimizning Birinchi prezidenti I.A. Karimov aytganidek, "har bir insonning, ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam g'ayratli shijoatli, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak.". chindan ham mamlakatimizdagi fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgan harakatlarda zamirida insonlarni ongi va tafakkurini o'zgartirish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ongni o'zgartirish masalasida asosiy prinsiplar mamlakatimizda insonning ongini o'zgartirish yo'llarini belgilashga negiz qilib olingan: Birinchidan, umuminsoniy prinsiplar ustuvorligi. Ya'ni har bir o'zgarish va yangilanishlar jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga yuqori ahamiyat qaratilib bu jarayonda dunyoda tan olingan prinsip va qadriyatlarning insonga ma'naviy ozuqa berishi va shaklanishiga xissa qo'shishi haqida konseptual asoslar inobatga olingan. Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiy-manaviy ehtiyojlarini hisobga olish. Ya'ni shaxsning jamiyat o'zgarishi jarayonidagi yetakchi o'rnini tan olish va faoliyatini barcha o'zgarishlarning mezonini qilib olishning ahamiyatini yuqori ekanligi bilan bog'liqdir.

Uchinchidan, o'zgarishlarning barchasi demokratik tarzda amalga oshirilishi. bunda jamiyatimizda olib borilayotgan keng islohotlar va samarador faoliyat eng avvalo o'zgarishlarning demokratik prinsiplarga sodiq holda uning huquqlarida daxl qilmagan holda olib borish muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolik jamiyatida amalga oshirilayotgan asosiy o'zgarishlar milliy g'oyaning o'z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlarni tushuntirib berishga va ular haqida odamlar ongida muayyan fikrlarni tug'dirishga harakat qilish kabi vazifalari bilan bog'liqdir. Natijadada odamlarda yangicha dunyoqarash shakllana boradi va quyidagi natijalarga erishish imkoniyati tug'iladi:.

- Mustaqil tafakkurini shakllantirish



- Ijtimoiy muhitni yaratish;
- Millatning ehtiyoj va manfaatlarini ifodalash
- Avloddan avlodga oʻtuvchanligini taʼminlash
- Shaxsning faoliyati mezonini boʻlishi va h.k.

MUHOKAMA

Bugun jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohalarida koʻplab masalalar muhokama qilinib, zaruriy yechimlar izlanmoqda va jarayonga taʼsir qiluvchi asosiy omil sifatida iqtisodiy potensila emas, balki inson ongi va tafakkurining potentsiallariga ahamiyat qaratilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek “Kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish uchun, bugun muhokama qilayotgan masalalarni amalga oshirish uchun, albatta, odamlarning ongi, dunyoqarashi oʻzgarishi kerak”. Ongni oʻzgarishi mexanizmlarini belgilashda esa zarur dasturiy asos sifatida aholining hayotida ijobiy oʻzgarishlar birinchi qadam boʻlishi ham metodologik asos sifatida koʻrsatilgan. “...xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun oʻz hayotida ijobiy oʻzgarishlarni koʻrishni istaydi”. Inson ongi va tafakkuri u yoki bu taarixiy davrda mavjud boʻlgan ijtimoiy-siyosiy tuzumga mos ravishda oʻzgarib takomillashib boradi. Yaʼni inson ijtimoiy taraqqiy etib borar ekan uning tushunchasi ongi, tafakkuri ham shunga mutanosib ravishda oʻzgarib boraveradi. bu jarayon esa jamiyatni oʻzgarishini keltirib chiqaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, demokratik-fuqarolik jamiyati qurish, yangi Oʻzbekistonni shakllantirishda inson ongi va tafakkuri masalasi yetakchi oʻrin tutadi va islohotlar aynan mana shu omillar asosida amalga oshirilib boradi va shakllanadi. Bunday jamiyatda islohotlar keng koʻlamli va jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan holda oʻtkaziladi. Ustuvor yoʻnalishlar taraqqiyotining birinchi oʻringa qoʻyish va islohotlarni amalga oshirishda oʻziga xos tamoyillarga tayanish esa bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Karimov I. A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakkaishonchdir. –Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: O„zbekiston, 2000. –B. 489.
2. Karimov .I A. O„zbekiston:milliy istiqlol, Iqtisod,siyosat, mafkura ”O„zbekiston – T.: 1996, B – 649
3. Sh.M.Mrziyoyev Milliy taraqqiyot yo“limizni qat“iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko“taramiz. –T.:, “O„zbekiston” 2017 58-b
4. O„zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. «Iqtisodni innovatsiyalarni keng jalbetgan holda har tomonlama rivojlantirish – xalq farovonligini yuksaltirishning muhimomili» // Xalq so„zi, 2018, 30 noyabr. – 2 b.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ZAMONAVIY HARBIY KADRLAR TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

O'zbekiston Milliy universiteti HTO'M boshlig'i

Podpolkovnik K.Xaydarov

Annotatsiya: Har qanday mamlakat o'zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini, fuqarolarining barqaror hayotini taminlash maqsadida o'zining Qurolli Kuchlarini barpo etadi. Institut sifatida Qurolli Kuchlar o'z vazifalariga ega bo'lib, unga oid an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar mavjud, uning asosiy vazifasi suverenitetni ta'minlashdan iboratdir. Harbiy kadrlarni tayyorlash (shartnoma asosidagi ofiserlarni), harbiy xavfsizlikni muhim qismlaridan hisoblanib, bunga xizmatga nomzodlarni tanlash, tarbiyalash, lavozimga tayinlash, malakasini oshirish, tizim doirasida ta'lim-tarbiya tizimini mukammallashtirish, harbiy boshqaruv tizimini zamonaviyligini ta'minlash kabi masalalar kiradi.

Kalit so'zlar: Armiya, harbiy kadrlar, harbiy o'quv yurtlari, havo desantlari.

Mamlakatimizning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta'minlash armiya zimmasida bo'lib, mustaqil davlatchiligimizga asos solingan birinchi kundanoq, davlatni, tabiat in'om etgan hamda mehnatkash xalqimiz tomonidan bunyod etilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni himoya qilish davlat siyosatining bosh masalalaridan biri sifatida qaraldi. O'zbekiston amalda o'zining zamonaviy, ixcham, harakatchan va yaxshi qurollangan, mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan milliy armiyasiga ega. "1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv yurtlari to'g'risida"² gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlarining barcha qismlari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlar ularning qarshiligiga

² <http://hydromet.uz>

qaramay, O'zbekiston tasarrufiga o'tkazildi. 1992-yil 24-martda Milliy xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo'shinlar boshqarmasi tashkil etilib, mamlakat hududidagi chegara qo'shinlar bo'linmalari uning tasarrufiga o'tkazildi”³.

“1992-yil 18-maydan e'tiboran havo desantlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlar, ta'minot qismlari⁴, 1992-yil 12-noyabrdan esa havo hujumiga qarshi harbiy qismlar, 13-noyabrdan kimyoviy harbiy qismlar davlat tasarrufiga olindi. Qurolli Kuchlar asosan quruqlikdagi qo'shinlar, xarbiy havo kuchlari, va havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus operatsiyalar kuchlari terrorizmga qarshi kurash bo'linmasidan iboratdir”⁵. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida 2005-yil 14-iyunda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi huzurida tashkil etilgan Terrorizmga qarshi kurash korpusi Respublika Qurolli Kuchlarining operativ birlashmasi bo'lib⁶, mamlakat hududida qurolli tahdid, terrorizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurash vazifalarini samarali hal etishga mo'ljallangan”⁷.

Quruqlikdagi qo'shinlar dushman qo'shinlarining har qanday turdagi zarbalarni bartaraf etib, ularni yakson qilish, dushmanning muntazam qo'shinlarini tor-mor etishga qaratilgan jangovar va maxsus operatsiyalar olib borish uchun mo'ljallangan. “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 23-yanvardagi qarori bilan Milliy gvardiyaga asos solindi⁸. Milliy gvardiyaning asosiy vazifasi – O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilishdir⁹. Gvardiya tarkibi fuqarolarni harbiy xizmatga majburiy va ko'ngilli ravishda chaqirish orqali tashkil etildi. Gvardiya zimmasiga bir qancha o'ziga xos vazifalar, jumladan, davlat hokimiyatining oliy organlarini qo'riqlash, jamoat tartibini ta'minlashda ishtirok

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5237649?ONDATE=23.01.2021%2000>.

⁴ Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012.

⁵ O'sha joyda.B-229.

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-1350820>

⁷ Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012.-B-228.

⁸ <https://uz.wikipedia.org/wiki/23-yanvar>

⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_Milliy_gvardiyasi



etish, chet davlatlarning rasmiy vakillarini tantanali kutib olish, davlat miqyosidagi marosimlarda ishtirok etish yuklangan. Shu maqsadda gvardiya tarkibida faxriy qorovul rotasi tuzildi”¹⁰. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyulda bo‘lib o‘tgan sessiyasida yosh mustaqil davlatning¹¹ mudofaa soxasidagi siyosatining asoslari belgilandi. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”¹², “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”¹³, “Harbiy qasamyod to‘g‘risida”¹⁴ va “Muqobil xizmat to‘g‘risida”¹⁵gi qonunlari qabul qilindi. Maskur hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari qurilishi uchun huquqiy asos bo‘ldi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarning maqsad va vazifalari aniq belgilab qo‘yildi. Xususan, uning 52- moddasida¹⁶ O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqarosining burchi ekanligi, fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburligi, 125-moddasida¹⁷ esa O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuzilishi, Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanishi, 126-moddasida¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi o‘z xavfsizligini taminlash uchun etarli darajada Qurolli Kuchlarga egaligi ko‘rsatib o‘tilgan”¹⁹. Yuqorida takidlab o‘tilgan davr ichida Qurolli Kuchlarimiz tubdan o‘zgartirilib isloh qilindi

¹⁰ Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012.-В-227.

¹¹ <https://lex.uz/docs/-102288?otherlang=1>. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 9-son, 368-modda)

¹² <https://lex.uz/docs/-108083?otherlang=1>. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 5-son, 80-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 51-son, 514-modda; 2009-y., 52-son, 553-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-y., 6-son, 262-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

¹³ <https://lex.uz/ru/docs/-78717>. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 12-son, 217-modda; 2003-y., 9-10-son, 149-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2

¹⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-86952>. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 9-son, 348-modda)

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-25796> (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 11-son, 434-modda)

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Т. “O‘zbekiston”-2019-B-18.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Т. “O‘zbekiston”-2019-B-72.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Т. “O‘zbekiston”-2019-B-72.

¹⁹ Зияева Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан. – Т.: Шарқ, 2012.

va hozirgi kunda biz qo'rqmasdan aytishimiz mumkin zamon talablariga javob beradigan dunyodagi ayrim rivojlangan mamlakatlar bilan baxslasha oladigan professional darajaga erishdi.

“O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov “Milliy armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir” asarida takidlaganidek, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida²⁰” gi tarixiy qonunning 6-moddasiga binoan davlatimiz, xalqaro huquq subyekti sifatida o‘z Qurolli Kuchlarini tashkil etish huquqiga ega bo‘lgani va bu huquqni izchil amalga oshira boshlaganidan dalolat beradi²¹. Respublikamizda o‘tkazilayotgan islohatlar Qurolli Kuchlar soxasida ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqilligimizning mustahkamligi haqida to‘xtalib, jumladan, shunday degan edi: “Harbiy qurilish sohasidagi maqsad professional armiyani, o‘z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta’lim olgan, o‘z xalqiga, ona zaminiga sadoqatli bo‘lgan, o‘z Vatanining sha’ni va qadr-qimmatini oxirigacha himiya qila oladigan jangchilarga ega bo‘lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirishdan iborat bo‘lishi lozim. Maqsad, miqdor jihatdan uncha katta bo‘lmagan, lekin yaxshi shaylangan, zamonaviy qurollar va harbiy texnika bilan bekamu-ko‘st qurollangan, O‘zbekistonning xavfsizligini mustaqil ravishda va puxta ta’minlashga qodir bo‘lgan Qurolli Kuchlarni shakllantirishdir²². Bu fikr yanada rivojlantirilib, aniq vazifalar ham o‘rtaga qo‘yilgan edi: Qurolli Kuchlarning harbiy qudrati va jangovar qobiliyatining tarkibiy omillarini ko‘rsatib o‘tib, bunda:

Birinchidan - bu, shaxsiy tarkibning miqdori va sifati. Bu ko‘rsatgich uning professional darajasi, axloqiy-ruhiy qat’iyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi

²⁰ <https://lex.uz/docs/-127899>. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 11-son, 246-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

²¹ Каримов И.А. Миллий армиямиз - мустакилликимизнинг, тинч ва осойишта ҳаётимизнинг мустаҳкам кафолатидир.-Т.: Ўзбекистон, 2003. Б-15.

²² Каримов И.А. “Миллий армиямиз - мустакилликимизнинг, тинч ва осойишта ҳаётимизнинг мустаҳкам кафолатидир”.-Т.: Ўзбекистон, 2003. Б-16.

bilan belgilanadi;

Ikkinchidan - bu, Qurolli Kuchlar harbiy qudratining eng muhim qismi bo'lgan qurol-yaroqlar va harbiy texnikaning miqdori va sifati masalasidir;

Uchinchidan - bu, harbiy infrastruktura bo'lib, Qurolli Kuchlardan jangovor holatda foydalanishda uning roli beqiyosdir;

To'rtinchidan - sanoatni tezda qayta qurish va safarbarlik rejasi toprishiqlarining bajarilishini ta'minlash uchun zamin xozirlash kabilar e'tirof etiladi. Olg'a surilgan mazkur g'oya va undan kelib chiqadigan aniq takliflarda Qurolli Kuchlarimizning doimiy shaylik darajasi, Vatanimizning xavfsizligi hamda ravnaqini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim bo'lgan muhim vazifalardan biri ekanligi belgilab berilgan. Yurtimizda barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, aholining tinch osuda hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlash va shu asnoda eng muhimi, suverenitetimiz, istiqlool tufayli erishgan yaxlit hududimiz mustahkamligini ta'minlash dolzarb harbiy strategik²³ masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda olib borilayotgan harbiy islohatlar, yurtimizda barqarorlikni yanada mustahkamroq ta'minlashga qaratilganligi barcha ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar bevosita professional harbiy xizmatchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriligi ma'lum. Shu asnoda ta'kidlash lozimki, armiya jamiyatning ajralmas qismi hisoblanib, uni davr talabi hamda jahon va mintaqadagi mavjud harbiy strategik vaziyatlar xarakteridan kelib chiqqan holda mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarga qat'iy muvofiqlashtirish davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mamlakat mustaqilligini hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayotini va mustaqillikni mustaxkamlash yo'lidagi bunyodkorlik mehnatini himoya qilishdagi, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatini, shuningdek, O'zbekiston hududida joylashgan harbiy tuzilmalarning 1992-yil 14-yanvardan²⁴ Respublika

²³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Harbiy_strategiya

²⁴ <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/1822>



yurisdiksiyasiga o'tkazilganligini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengishining 1993-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risida"²⁵gi qonuniga binoan 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlagach, oldindagi vazifa uni zamon talablari asosida isloh qilishdan iborat bo'ldi. Dastlabki yillarda Qurolli Kuchlarni shakllanish bosqichida avvalambor uni malakali kadrlar bilan to'ldirish tartibi izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirildi²⁶. Bunda avvalo qo'shinlarni qo'llanishining strategik va taktik jihatidan kelib chiqib, mamlakatni himoya qilishga qodir qo'shinlar turlarini tuzildi. Shu tariqa uch tashkiliy davrni (1992-1995, 1995-2000, 2001-2005) o'z ichiga olgan Qurolli Kuchlar ulkan rivojlanish samarasiga erishdi ya'ni:

- Qurolli Kuchlar tashkiliy-shtat tuzilishi takomillashtirildi va unga muvofiq harbiy qismlar, muassasalar va harbiy o'quv yurtlari isloh qilindi²⁷;
 - harbiy bilim yurtlari tarmoqlarini kengaytirish va Qurolli Kuchlar Akademiyasini barpo etish hisobiga milliy harbiy kadrlar tayyorlashning mukammal tizimi yaratildi;
 - mintaqadagi geostrategik vaziyat va harbiy-siyosiy holat hisobga olinib, qo'shinlarni joylashtirish tizimi takomillashtirildi. Bu - davlat chegaralarini hamda xalqimiz manfaatlarini ishonchli himoya qilish imkonini yaratdi;
 - harbiy xizmatni tashkil etishning infratuzilmasi yaratildi;
 - professional harbiy xizmatchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan serjantlar tayyorlash maktablari tashkil etildi;
 - harbiy okruglarning tashkil etilishi;
 - Mudofaa vazirligi va Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi vazifalari ajratildi.
- Amalga oshirilgan bu ishlar Qurolli Kuchlarni har tomonlama takomillashtirish,

²⁵ <https://lex.uz/docs/-112115>. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 27-modda)

²⁶ Ахмедов. А. Давлат суверенитети ва ҳудудий яхлитлиги посбонлари. -Т.: 1995, Б-21.

²⁷ <https://iv.uz/news/qurolli-kuchlarni-rivojlantirish-borasidagi-ishlar-sarhisob-qilindi-yangi-vazifalar-belgilandi>



jangovarlik kasb etdi, shaxsiy tarkibni jipslashtirdi, mavjud harbiy-siyosiy vaziyatda ma'sul vazifalarni bajarishga qodirligini oshirdi, mamlakatda hamda mintaqada tinchlik va barqarorlik kafolatiga aylantirdi. Respublikamiz rahbariyati islohotlar haqidagi qarorni qabul qilganda Qurolli Kuchlar jangovarlik qobiliyatiga faol ta'sir ko'rsatuvchi uchta asosiy omilni hisobga oldi²⁸.

“Mamlakatimiz taraqqiyotining asosi bo'lgan kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va yangilashga, ularning tarbiyasi, ma'naviyati, salohiyatiga xizmat qiladigan mukammal tizimni shakllantirishga yuksak e'tibor qaratilmoqda. Buning boisi shundaki, kadrlar jamiyatni harakatga keltiradi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotini jonlantiradi. Qachonki, rahbar xodimlar har jihatdan namuna bo'lsa, odamlarni ishontira olsa, jamiyat rivojlanadi”²⁹.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar, avvalombor, jangovar va mobilizatsiya tayyorgarligining o'sishiga, shaxsiy tarkibning kasbiy mahoratini rivojlantirishga, harbiy xizmatchilarning intellektual darajasini shakllantirishga, xizmatning mavqeini mustahkamlashga va harbiy xizmatchilarining ijtimoiy statusini oshirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.<http://hydromet.uz>

2. Ахмедов. А. Давлат суверенитети ва ҳудудий яхлитлиги посбонлари.- Т.: 1995

3. Рўзметов Р. Жамият ва бошқарув. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б.14

4. Каримов И.А. “Миллий армиямиз - мустакилликимизнинг, тинч ва осойишта ҳаётимизнинг мустаҳкам кафолатидир”.-Т.: Ўзбекистон, 2003. Б-16.

²⁸ Ахмедов. А. Давлат суверенитети ва ҳудудий яхлитлиги посбонлари.-Т.: 1995,Б-22.

²⁹ Рўзметов Р. Жамият ва бошқарув. - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б.14.



5. <https://iiv.uz/news/qurolli-kuchlarni-rivojlantirish-borasidagi-ishlar-sarhisob-qilindi-yangi-vazifalar-belgilandi>

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T. "O'zbekiston"-2019-B-72.

SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROSIDA HARBIY KADRLAR MASALASINING YORITILISHI

MULLAJONOV Islomjon Yuldashevich

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти
Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining oila, unda farzand tarbiyasi, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol va vatanparvar etib kamol toptirish haqidagi qarashlari va fikr-mulohazalari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: *Tarbiya, burch, vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat, odamiylik, ma'naviy salohiyat, intellekt.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны взгляды и мнения восточных мыслителей о семье, воспитании в ней детей, воспитании молодого поколения зрелыми, зрелыми и патриотичными во всех отношениях.

Ключевые слова: *Воспитание, долг, патриотизм, человечность, верность, человечность, духовный потенциал, интеллект.*

ABSTRACT

This article describes the views and opinions of Eastern thinkers about the family, raising children in it, raising the young generation to be mature, mature and patriotic in all aspects.

Keywords: *Education, duty, patriotism, humanity, loyalty, humanity, spiritual potential, intellect.*

Ulugʻ mutafakkirlar, olimu fuzalolar, aziz-avliyolar Vatani boʻlmish Oʻzbekistonimizda keyingi vaqtlarda xalqimizning ezgulikka yoʻgʻrilgan anʼanalari, urf-odatlarini qayta tiklash hamda rivojlantirish, muqaddas qadamjolar va obidalarni obodonlashtirish, yosh avlod va harbiy kadrlarni boy tariximizga hurmat, vatanparvarlik va odamiylik fazilatlarini ruhida voyaga yetkazishga alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Biz taʼlim va tarbiya tizimining barcha boʻgʻinlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni oʻzimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”, – degan fikri, shuningdek, Fitratning “Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand boʻlishi, baxtli boʻlib izzat-hurmat topishi, jahongir boʻlishi yoki zaif boʻlib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, eʼtibordan qolib, oʻzgalarga tobe va qul, asir boʻlishi ularning oʻz ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bogʻliq”, – degan fikrlariga davlatimiz rahbarining alohida urgʻu berishi zimmamizda xalq

manfaatlari, farzandlar kelajagi, ularning tarbiyasiga oid mas'uliyat nechog'li yuqori ekanidan dalolatdir. Zero, farzandlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi.

Yana Prezidentimiz e'tirof etganidek: "O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi"[2]. Ushbu qo'llanmadan ota-onalar, mahalla faollari, ta'lim muassasalari va yoshlar foydalanishi nazarda tutilib, mutafakkirlarning milliy fazilatlar, qadriyatlar, odob-axloq, tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari, o'g'itlari va hikmatlari tahlillar asosida yoritildi.

Farzand komilligi, uning tarbiyasi, sog'lomligi, milliy qadriyatlarga, Vataniga bo'lgan muhabbati kabi masalalar ko'tarilganda, mutafakkir Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir," – degan ma'noli fikrlari naqadar haqiqat ekanligini anglaymiz. Tarbiyaning o'chog'i bo'lgan oila – har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'nan va jismonan barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalab, vatanparvar yurt himoyachilarini voyaga yetkazuvchi muqaddas makondir. Inson ilk tarbiyani oiladan, mehr qo'ridan, onaning suti va o'ziga xos allasidan oladi. Uning ta'siri odam tabiatiga, qalbiga mustahkam joylashadi. Farzandning komilligi, ruhiyati, mehribonligi, odobi har bir oilada belgilangan ichki, o'ziga xos qonun-qoidalar asosida shakllanib boradi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi"[3]. Bunda farzandlarning ma'naviy tarbiyasi masalasi ham muhim o'rin tutadi. Ma'naviyat so'zini izohlagan olim Safo Ochil: "Ma'naviyat" deganda, inson xulq-atvorining go'zalligi, saxovatligi, olijanoblighi, va'dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag'rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi, xushmuomalaligi va shu singari yoqimli urf-odatlar tushuniladi,"[4], – degan fikrni ilgari suradi.

Mutafakkir Mavlono Sodiq Qoshg'ariy (XV asr) "Odobiya" asarida ustoz bo'lishning 400 dan ortiq qoidalarini bayon qilgan[5]. Bulardan eng muhimlarini ta'kidlab o'tamiz.

1. Ustozlikka da'vogarning avvalo bo'g'zi toza bo'lsin. Ustoz halol yeb, halol ichishi kerak. Aks holda uning so'zlari yolg'on bo'ladi.

2. Ustoz pokdomon bo'lsin. Ustoz kamtar va mag'rur bo'lishi kerakki, oddiy odamlar unga murojaat qila olishi va nopoklar uni bo'ysundira olmasligi kerak.

3. Ustoz zinda dil bo'lsin. Tirikko'ngil odam ruhiyatshunos bo'lib, inson shaxsini yaxshi tushunadi, hayotga optimal qaraydi, o'z kasbini sevadi. Bu o'rinda shaxs psixologiyasini yaxshi tushunish haqida so'z bormoqdaki, uning zamirida ko'ngil ko'zi yumuq odamning tarbiyachi bo'la olmasligiga ishora bor.

4. Ustoz nazarkarda bo'lsin. Ya'niki, Ustoz shogirdining issiq-sovug'idan, yurish-turishidan va fikru zikridan xabardor bo'lishi lozim.

Ustoz shogirdini turli usullarda tarbiyalaydi. Kimdir 20 yil, yana kimdir 7 yil tarbiya olishi mumkin. Jumladan, mashhur Bahouddin Naqshband ustozlari qo'lida bor-yo'g'i 7 yil tarbiya ko'rgan, xolos. Ta'kidlash joiz, qadimda agar ustoz shogirdining iste'dodini tarbiyalashga o'zini ojiz sezsa, uni darhol o'zidan kuchliroq ustoz huzuriga yuborgan, oki shogirdning yo'liga to'g'anoq bo'lmaslik uchun[6]. Bundan ko'rinadiki, farzand tarbiyasida, eng avvalo, ustoz tarbiyachilarimizning o'zlari tarbiyaning talablariga to'la javob beradigan, baxtli-saodatli, o'z oilasi va mavqeiga ega, ma'naviy barkamol, xushxulqli, go'zal muomalali, bugungi zamonaviy talablarga javob bera oladigan, farzandlar ko'ngliga yo'l topa oladigan bo'lishlari ham muhim ekan.

Yosh ofitserlar tarbiyasi, kelajagi va manfaatlari haqida so'z borganda "Bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qad riyatlarini inkor etadi[7].— degan so'zlarning bitib qo'yilgani yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida hozirgidek asosiy muammolardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi.

Amir Temur (1336-1405) – o'zbek davlatchiligini eng yuksak pog'onaga olib chiqqan buyuk shaxs. U o'z hayot faoliyati davomida doimo o'zining "Kuch – adolatda" degan shioriga amal qilgan holda ish yuritgan. Amir Temur farzandlari, nabiralari, yaqinlarining tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan.

Nabiralarni tarbiyalashda Amir Temurning rafiqasi Saroymulkxonim boshqosh bo'lgan. Saroymulkxonim shahzoda va malikalarni halol, mehnatsevar, aqlli, dono, odob-axloqli, mo'min va mo'minalar qilib tarbiyalagan. Amir Temur va Saroymulkxonimning tarbiyasini olgan Mirzo Ulug'bek dunyoga mashhur qomusiy olim bo'lib yetishdi va aqlu zakovati bilan ilm ahlini lol qoldirdi. Amir Temurning markazlashgan davlatini, mehnatkash xalqini ko'rolmaydigan davlat atrofidagi dushmanlar ko'p bo'lgani uchun ham sohibqiron harbiy yurishlar olib borishga majbur bo'lgan. Uning yozishicha, o'z yumushlarining o'ndan to'qqizini murosalyu madora asosida hal qilgan. Tanho o'ndan bir hissa ishlarda iloj topmagach, kuch ishlatishga majbur bo'lgan. Eng muhimi, Amir Temur qonun ustuvorligiga katta e'tibor qaratgan. Bunga Amir Temur tartib bergan "Temur tuzuklari" yorqin misol bo'la oladi. Sohibqiron davrida qonunlar barcha uchun barobar bo'lgan. Hatto uning ba'zi bir o'g'illari va nabiralari qonundan tashqari nолоyiq ish qilganlarida ular qattiq jazolanganlar. Amir Temur qattiqqo'l va shu bilan birga adolatparvar davlat



arbohi bo'lgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari" nomli kitobida uning adolatparvarligi va har bir ishga mas'uliyat bilan yondashganligini ko'rish mumkin. Ushbu tuzuklardan barchamiz turmush tarzimizda, farzand tarbiyasida, oilada ichki qonun-qoidalar o'rnatishda va tarbiyada ma'naviy meros, milliy qadriyat sifatida foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Barkamol inson, uning tarbiyasi haqidagi yuksak g'oyalar bayon qilingan zardo'shtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ning tub ma'no - mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar borligini ko'rish mumkin.

Somoniylar davrining ulkan shoiri, mutafakkiri Abu Abdullo binni Ja'far Ro'dakiy komil inson to'g'risida quyidagi misralarni yozib qoldirgan:

To'rt narsani berdi menga oqillarcha o'ylamoq:

Tansihatlik, yaxshi odat, yaxshi nom, yaxshi fikr.

Tangri kimga qilgan bo'lsa bu to'rt narsani nasib,

Mangu shodlik bilan yashab, g'am yemasa ham arzir[8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom Madaniyati Markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifat olamini dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, yangi kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir", deb ta'kidlagani barchamizni ruhlantirib, bu masalaga yanada mas'uliyat bilan yondashishimiz zarurligini ko'rsatmoqda[9].

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, bugungi kunda harbiy kadrlarni tarbiyalashda, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish va boyitishda, mutafakkirlarning fikr-mulohazalari, pand-nasihatlarini, hikmatlaridan foydalanish va barkamol insonni voyaga yetkazish barchamizning burchimizdir.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. 2016. 8 dekabr. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24 iyun. "Xalq so'zi" gazetasi.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2016. 8 dekabr. "Xalq so'zi" gazetasi.
4. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. "O'zbekiston", 1995. 6-6et
5. M.S.Qoshg'ariy. Odob saboqlari. "Sharq Yulduzi", 1991. 1-son. Fors tilidan N.Komilov tarjimasi
6. Sh.Abdusalilova. Abdurauf Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari. T., "Yozuvchi", 2002. B.16.
7. P.Taranov. Ensiklopediya visokogo uma. M., 1999. B-16.
8. Ro'dakiy. T; 1967, B. 67.



9. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24 iyun. “Xalq so‘zi” gazetasi.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

Musiddinova Shoira
Asaka tumani 36-son DMTT tarbiyachisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli islohatlarga munosabat va AKTdan foydalanish tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Yosh avlodni tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifalarni bajarishda ta'limga innovatsion g'oyalar, yangiliklar muhimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiya, pedagog, tizim, baza, video, audio, texnika, innovatsiya, intellektual, monitor, material, grafika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются подход к системным реформам в развитии дошкольного образования и принципы и особенности использования ИКТ. Была подчеркнута важность инновационных идей и инноваций в образовании для решения ответственных задач по воспитанию подрастающего поколения.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, педагог, система, база, видео, аудио, технологии, инновации, интеллектуал, монитор, материал, графика.

ANNOTATION

This article discusses the approach to systemic reforms in the development of preschool education and the principles and specifics of the use of ICT. The importance of innovative ideas and innovations in education in fulfilling the responsible tasks of educating the younger generation has been highlighted.

Keywords: Information and communication technology, educator, system, base, video, audio, technology, innovation, intellectual, monitor, material, graphics.

Maktabgacha ta'limni davr talablari asosida takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o'rin egallamoqda. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarni intellektual, jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga samarali tayyorlashdan iborat.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707 sonli qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Bu o'z navbatida, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yangicha yondashuv asosida takomillashtirish, ularda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni yangi mazmun va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkonini beradi.

S.S.Gulomov: "Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsalar axborotni xotirada saqlab qolishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab borish 75 % ga ortadi". deb ta'kidlagan.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha: bolalar asbob-uskunalariga, texnik qurilmalar va transport vositalarining modellariga, o'yinchoqlarga juda qiziquvchan bo'ladilar.



Shular qatorda, ularda ishlash ham bolalarning o'rganilayotgan materialga nisbatan qiziqishlarini ortib, bilim olishga ishtiyoqlarini kuchaytiradi, ko'nikma hosil qiladi va fikrlash doirasi oshadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turi bo'lgan multimedia texnologiyalarining asosiy tamoyili kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning maxsuldorligi, to'g'ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari multimedia vositalaridan MTT ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: "kompyuter monitori ko'rsatuvi kabi bajar" yoki "kompyuter monitoriga qarab bajar" bo'lib, umumiy tamoyillariga dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'liqligi, ko'rgazmalilik, tizimlilik, materialni tushunarli bo'lishi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vosita(kompyuter)ning ixchamligi va umumiyligi kirishini ko'rsatdi.

AKTdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiyalanuvchilarning faolligini oshirishda, o'rganiladigan o'quv materiallarni xajmini ko'paytirishda, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashda, natijani kafolatlashda, ta'lim shaklini qulaylashtirishda, shuningdek ta'lim mazmunida, tuzilishida, uslublarida va shakllarida namoyon bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarda olingan bilimlarini uzoq vaqt xotiralarida saqlash imkoniyati yaratiladi. Bolalarning qiziqishlarini va kompyuterga nisbatan ishtiyoqlarini ortiradigan o'ziga xos uslub multimedia texnologiyasidan foydalanish hisoblanadi.

Ta'lim tizimining bosh maqsadi yosh avlodni bilimli va barkamol etib tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifa turar ekan, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda yuqoridagi tamoyillarga asoslanib xar bir maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining AKTdan unumli foydalansh loyihasini ishlab chiqib amaliyotga joriy etishi va ota-onalarning kuzatuvini ta'minlanish ta'limda innovatsion yangiliklarni amalga oshirishga zamin bo'la oladi.

Modomiki, buyuk kelajakni qurmoq yo'lida ekanmiz, xalqaro talablarga javob bera oladigan loyihalar innovatsiyalar, kreativ g'oyalarni olib kirish va rivojlantirish vaqti keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev."2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.,2016. O'z. Res. Qonun hujjatlari to'plami.2017 y.
2. Ikromova X.,Z. "Zamonaviy axborot tizimlari",T:TIU, 2006 y.
3. Pfn. F.Voxobova, Sh.B.Nabixanova,D.T Karimova "Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari" pedagogika kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma.Toshkent-2015 y.
4. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish" MMXQTMORO'MM. Toshkent-2010 y.
5. P.Yusupova."Maktabgacha tarbiya pedagogikasi". Qo'llanma-1993 y.



Internet saytlari:

1. <http://www.botik.ru/ICCC/NewPage/ICCCpageRus/> - Xalqaro bolalar kompyuter markazi loyixasi sayti.
2. www.ilm.uz - Uzbekiston ta'lim portali.

**O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA TA'LIMY VA DIDAKTIK
O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**
Matchanova Yulduz Rahmanovna

“Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniy, Ibn Sino, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman.”
(Mirziyoyev Sh.M.)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodga har xil o'yinlar va psixologik harakatlar orqali ta'lim berish va yosh bolalarga ta'lim berishda ularni o'rganayotgan faniga qiziqtirish, ularni zeriktirmaslik va o'quvchi yoshlar bilan bilan muloqot qilishda nutq ma'daniyatini ham shakllantirishning zamonaviy uslub va tamoyillari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ta'limiy o'yinlar, ko'rgazmali material, didaktik o'yinlar, qoidali-harakatli o'yinlar, stol-bosma o'yinlar. Og'zaki so'zli o'yinlari, o'yin tempi va ritmi, sensor madaniyati.

**MODERN APPROACHES TO TEACHING THE GROWING YOUNGER
GENERATION THROUGH EDUCATIONAL AND DIDACTIC GAMES**

Annotation: this article provides information on the modern methods and principles of teaching the growing younger generation through various games and psychological movements and to interest young children in the science they are studying, not to make them bored, and also to formulate the meaning of speech in communicating with the young people of the reader.

Keywords: educational games, visual material, didactic games, rule-moving games, table-printing games. Verbal Games, pace and rhythm of the game, sensory culture.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ВОСПИТАНИЮ ПОДРАСТАЮЩЕГО
ПОКОЛЕНИЯ ПОСРЕДСТВОМ УЧЕБНО-ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРА**

Аннотация: В данной статье представлена информация о современных методах и принципах воспитания подрастающего поколения посредством различных игр и психологических действий и воспитания детей раннего возраста с целью заинтересовать их изучаемой наукой, не дать им скучать, а также сформировать речевую культуру в общении с учащейся молодежью.

Ключевые слова: развивающие игры, наглядный материал, дидактические игры, игры с правилами, настольно-печатные игры. Словесные игры, темп и ритм игры, сенсорная культура.

KIRISH.



Ta'lim sohasidagi bosh maqsad - ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim – tarbiya jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyat ochib berishdan iboratdir. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng mashg'ulotlar, o'yinlar, bilim berish orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlar va ularning ahamiyati. Ta'limiy o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin maqsadi, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin maqsadi o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta'limiy o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

O'quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o'zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materialini rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materialini o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirilish jarayonini qarasak, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqlik o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarini hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qilinmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak.

TA'LIMIY O'YINLARDA QUYIDAGI QOIDALARGA AMAL QILINISHI KERAK

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.



3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Ta'limiy o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta'limiy o'yinlarning quyidagi turlari mavjud: a) buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan; b) stol-bosma; d) og'zaki so'z o'yinlari. Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi. Stol-bosma o'yinlari bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, sintez, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin usulidir. Bu o'yin turiga

- a) loto;
- b) juft rasmlar;
- d) domino;
- e) labirint kiradi.

Lug'atni boyitish uchun yordam beradigan ta'limiy o'yinlarning turlari.

Ta'limiy o'yinlar. Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya etish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

DIDAKTIK O'YINLARDA QUYIDAGI QOIDALARGA AMAL QILINISHI KERAK

1. Navbatma-navbat ta'sir etish.
2. So'ralganda javob berish.
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.



4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin tempi va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin syujeti ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, «To'pni quvla!», «To'pni ushlab ol!». Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Qoidali-harakatli o'yinlar avval jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'rganiladi. So'ngra boshqa jarayonlarda takroran o'ynatilishi lozim. «Bolajon» dasturida turli yosh guruhlari bo'yicha o'tkaziladigan harakatli milliy o'yinlar turkumlari kiritilgan.

Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Milliy harakatli o'yinlar.
2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari bilan hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari jamlangandir.

XULOSA.

Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda o'z Vatanini sevis, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ulari, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. // Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori. –T.: 1997, 20–29 b.
2. «Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida»: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 2000-yil, 15-fevral // Xalq so'zi. 2000, 16-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: 1997, 46 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. –T.: 2016 y., 29-dekabr
5. NUTQ O'STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI \\\BABAYEVA DONO RAZZAQOVNA\\



6. Ochilov M. O'qitish usuli – pedagogik texnologiyalarning asosiy komponenti // Xalq ta'limi. 1999, №6, 32–35 b.
7. Otavaliyeva O'. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. –T.: O'qituvchi, 1994, 72 b.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Berdirasulova. E

Annotatsiya: maqolada kichi maktab yoshidagi o'quvchilarda tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishning bugungi kun talablarida kelib chiqqan holda, DTS talablariga mos ravishda pedagogik –psixologik xususiyatlarini ochib berish, tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish va shakllantirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga joriy qilish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, tafakkur operatsiyalari, analiz va sintez, taqqoslash, obstraktsiya, konkretlashtirish, mantiqiy shakllar, tushuncha, hukm, xulosa.

Mustaqil Respublikamizda yuz berayotgan islohotlar, yangilanishlar, jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari izchil suratda amalga oshirilayotgan bir vaqtda inson omili muammosini yanada chuqurroq va izchil ravishda tadqiqot etishni taqozo etmoqda. Yangi ming yillikda xalqimizning taraqqiyot yo'lida turli muammolar mavjud ekan, avvalo, ularning to'g'ri yechimini topish zarur. Bu asosan o'zligini anglayodgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga, ijtimoiy hayotda o'z mavqesiga ega bo'lgan ziyolilarga bog'liq. Bizning vazifamiz fan- texnikani yuksak saviyada egallagan jahon standartlari darajasidagi mustaqil fikrlovchi, intellektual ko'rsatgichlari yuqori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatining ongli hatti harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongda tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli hatti-harakati tufayli boshqa bilish jarayonlariga nisbatan tafakkur insonning aqliy va jismoniy faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. Inson fikr yuritish faoliyatida o'zi aks



ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi, haqqoniyligi yoki ularning voqelikka mos tushishini aniqlaydi. Bilish protsessida hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, farazlar, hulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi.

6- 7 yoshli bolaning tafakkur qilish jarayonida faoliyat bilan bog'langan konkret vazifalar hal qilishga qaratilgan yo'l ustunlik qiladi. Mana shu yoshdagi bolalarda umumlashtirish ko'pincha predmetlardan amaliy ravishda foydalanish taalluqli bo'lgan tashqi belgilarni o'z ichiga oladi. Bu hol bolaning narsalarga bo'lgan ta'rifida ko'rinib turadi. Masalan u "uy odamlar yashaydigan joy" deydi va hokazo. O'qishning boshlarida bolaga ko'pincha hodisalarning sababli bog'lanishlari sababi tushunarli bo'ladi. Biroq, bu tushunish ba'zan uning ko'p bo'lmagan shaxsiy tajribasi doirasidan chetga chiqadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashi shu bilan farq qiladiki, ko'pincha ular predmetlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni aniqlash uchungina emas, balki tevarak atrofdagi voqelikda mavjud bo'lgan ob'ektlarni o'ziga qiziqishlari tufayli bilim oladilar. Sistemali maktab ta'limining boshlanishi bilan bilim egallash bola faoliyatining alohida bir turiga aylanadi. Uning oldida maxsus vazifa ilmiy tasvurlar va tushunchalarni egallash, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini o'rganish turadi. Bu hol bolalar tafakkurining tez rivojlanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda fikrlar jarayoni odatda harakatlar bilan mahkam bog'langan bo'ladi. Bolalarga bevosita taassurotlar hali ko'proq egallaydigan, ular ba'zan obstrakt narsani tushunish uchun konkret narsadan zarur tarzda chetlanishni qiyinlashtirib qo'yishi mumkin.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchisi yetarli darajada ko'p tushunchalarga ega bo'ladilar. Lekin ular ko'pincha ilmiy tushunchalar emas, balki, hayotiy tushunchalarga ega bo'ladilar. Kichik yoshdagi maktab o'quvchisi mavhum, abstrakt tushunchalarni anglab olishda qiynaladi. Sinfda o'quvchilar ko'pincha majozlarni so'z yoki iboraning ko'chma ma'nosini tushunmaydilar. Shuning uchun matal va maqollarni hamisha ham tushuna olmaydilar. Ikkinchi sinf o'quvchisi



bo'lgan bir qiz bola Krilovning "Ninachi va chumoli" degan masalini o'qir ekan, "bechora" ninachini qornini to'ydirish uchun va unga issiq joy berishni istamagan chumolining xasisligidan g'azabga keladi. Birinchi sinf o'quvchisi "biri bog'dan kelsa, biri tog'dan keladi", degan matalni eshitib, "tog' uzoqdaku, nega u yerdan keladi", deydi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari o'z nutqlarida tur va xil tushunchalarini ishlatadilar. Holbuki, ana shu tushunchalarning tarifi ularga tanish bo'ladi. Bolalar suratdagi hayvonlarning nomini to'g'ri aytsalar ham, ularni biror bilan tushunchasiga kiritmaydilar.

Shunday qilib bolalarda umumlashtirish, predmet va hodisalarning muhim belgilarini ajratib ko'rsatish qobiliyati yil sayin rivojlanib boradilar.

Tafakkurni taraqqiy ettirish uchun ta'limning dastlabki yillaridanoq amalga oshirilishi lozim bo'lgan ijodiy ishlar: berilgan mavzuda yoki erkin mavzuda insho yozish, masallar tuzish va ularni ratsional usullarda yechish kabilar muhimdir.

Hozirgi paytda bolalar maktabdan tashqarida, radio, televidenie, kino, oliladagi subhat va kitoblar orqali nihoyatda ko'p yangiliklardanxabardor bo'ladilar. Shuning uchun uqituvchilar hatto kichik yoshdagi o'quvchilar bilan ham darslikdagi materailni o'zi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ba'zan bolalar bilan barq urib rivojlanayotgan fan va texnikaning turmushimizga kirayotgan yangiliklari haqida suhbatlar o'tkazib turish kerakki, ular bu haqda o'zlari to'la tushunia oladigan to'g'ri tasvirga ega bo'ladilar. Shuni unutmaslik lozimki, bilimlarni kengaytirish odamni aqliy kamolotiga yo'l ochib beradi. Tafakkurni fikrlash faoliyat jarayonidagi taraqqiy etishini hamda bolalarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatish lozimligini ham unutmaslik kerak. Ularni o'zlari bajargan ishga mustaqil baho berishga va uni nazorat qilishga o'rgatish zarur.

Kishilarning fikrlash faoliyati tafakkur operatsiyalari: analiz va sintez, taqqoslash obstraktsiya va konkretlashtirish yordamida amalga oshib, ma'lum mantiqiy shakllarda: tushuncha, hukm va xulosa chiqarishlarda o'tadi.

Tafakkur operatsiyalari – bu:

Taqqoslash – bu voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlik va farqlarni fikran aniqlashdir.

Taqqoslash istalgan faoliyatda qandaydir bilish maqsadiga xizmat qiladi va u hamma vaqt maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunga ko'ra taqqoslash bir qancha xil bo'ladi.

Taqqoslash yoki buyumlarning o'xshashligini yoki ularni tafovutligini, yoki bir vaqtda har ikkalasini aniqlashga qaratilgan bo'lishi mumkin. Demak, agar uy hayvonlarini kishi uchun foydaliligi nuqtai nazardan taqqoslab o'rganilsa, taqqoslash ular o'rtasidagi o'xshash belgilarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'ladi. Agar uy hayvonlarining tuzilishi va kelib chiqishi o'rganilsa, o'rganish davomida ular o'rtasidagi ko'pgina tavofutlar aniqlanadi.

Analiz – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, unin yordami bilan biz narsa va hodisalarni fikran yoki amaliy ravishda bo'lib (ajratib), ularning ayrim qismlari va xususiyatlarini tahlil qilamiz. O'quvchi va talaba yoshlar turmushda va darsa jarayonida analiz yordami bilan ko'pgina ishlarni amalga oshiradilar, topshiriqlar, misol va masalalarni echadilar. Demak, tabiat va jamiyatdagi bilim va tajribalarni inson tomonidan o'zlashtirib olish analizdan boshlanar ekan.

Sintez – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, biz narsa va hodisalarning analizdan bo'lingan ajratilgan ayrim qismlarini, bo'laklarini sintez yordami bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun holga keltiramiz.

Analiz va sintez o'zaro bevosita mustahkam bog'langan yagona jarayonning ikki tomonidir. Agar narsa va hodisalar analiz qilinmagan bo'lsa, uni sintez qilib bo'lmaydi. Har qanday analiz predmetlarni, narsalarni bir butun holda bilish asosida amalga oshirishi lozim.

Abstraktsiyalash shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya yordami bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning muhim xususiyatlaridan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib tashlaymiz. Abstraktsiya jarayonida ob'ektdan ajratib olingan belgining o'zi tafakkurning mustaqil ob'ekti bo'lib qoladi. Abstraktsiya operatsiyasi analiz



natijasida vujudga keladi. Ta'lim sistemasidagi bilimlarning aksariyati bilishning ratsional yo'li bilan egallashga qaratilgan bo'lib, abstraktsiyadan keng ko'lamda foydalanishni taqozo etadi. Shuning uchun o'quvchilarni abstraktsiyani amalga oshirish yo'l va usullari bilan tanishtirish kerak.

Abstraktsiyalash jarayoni yordamida qiymat, son, kenglik, tenglik, uzunlik, kattalik, qattiqlik, zichlik, bandlik, geometrik shakl, matematik ibora, tanqidiy realizm, bosim, solishtirma og'irlik, geografik tushunchalar sistemasi kabi abstrakt tushunchalar vujudga keltiriladi.

Konkretlashtirish. Umumiy, mavhum belgi va xususiyatlarni yakka, yolg'iz ob'ektlarga tadbiq qilish bilan ifodalanadigan fikr yuritish operatsiyasi insonning barcha faoliyatlarida aktiv ishtirok etadi. Voqelik qanchalik konkret (yaqqol) formada ifodalansa, inson uni shunchalik oson anglab etadi. O'zining genetik kelib chiqishiga qaraganda, kishilar dast avval tevarak-atrofni konkret belgilarga asoslanib, konkret holda aks ettirganlar, yaqqol obrazlarga suyanib, tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Shu boisdan to hozirgi kunga qadar konkretlik belgisi har qanday inson zoti uchun eng yaqin belgi bo'lib hisoblanadi.

Psixologiyada nutq fikr yuritish faoliyatining vositasi deb yuritiladi. Odatda nutq tafakkur protsessida hukmlar, xulosa chiqarish va tushunchalar formasida ifodalanib keladi. Shuning uchun hukm, xulosa chiqarish va tushunchalar tafakkurning spetsifik formalari deb ataladi.

O'z Vatanining jonkuyari bo'lgan haqiqiy insonni kamolga yetkazish uchun biz uzoq asrlik milliy an'analarni o'rganishimiz va milliy hamda umuminsoniy g'oyalarni, qadriyatlarni bugungi avlod ongiga singdirishimiz darkor. Chunki xalq tafakkuri, dunyoqarashi, pedagogikasi, urf-odatlar, rasm-rusumlari, uning boy ma'anaviy merosi-og'zaki ijodida, xususan, ertaklarda epik qahramonning dunyoga kelishi, o'sib ulg'ayishi, turli-tuman sarguzashtlarini bayon qilish jarayonida odob-axloq muammolariga keng o'rin beriladi, inson tarbiyasi, milliy qadriyatlar hamisha diqqat e'tiborda turadi.

Adabiyotlar:



1. X. Ibragimov, U. Yo'ldoshev, X. Bobomirzaev "Pedagogik psixologiya". Toshkent – 2017 y.
2. N. Boymurodov "Amaliy psixologiya". Toshkent – 2018 y.
3. D. Zunnunova "Bolangizni bilasizmi?". Toshkent – 2019 y.
4. Z. T. Nishonova "Bolalar psixologiyasini o'qitish metodikasi". Toshkent, – 2015y.

“BUGUNGI TA'LIM ERTANGI KELAJAK SARI ”

Kuchkarova Madina Abduxakimovna

Sirdaryo viloyati Xovos tumani 6- umumiy o'rta ta'lim maktabning oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Annotatsiya:Maqolada maktabning boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning tushunishlari va fanning qiziqarli bo'lishi uchun interfaol metodlardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar ,texnologiya, metodik vosita,axbarot texnologiyalari.

“ Dunyo imoratlarining eng ulug'i maktabdir”

Mahmudxo'ja Behbudiy

Yurtimiz kelajagi, ertangi farovon hayoti yoshlarimiz qo'lida. Bugun yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qilgan har bir harakatimiz, ularning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun zarur sharoitlarni yaratish bugungi kungi islohotlarning negizida, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning diqqat markazida turgani hammamizga yaxshi ma'lum.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasini to'g'ri, milliy manfaatdorlik nuqtai nazaridan qayta qurish bu jiddiy masaladir. Ta'lim – tarbiyaning sifati va tarkibi har qanday davlatning rivojlanishida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir.

Ta'lim – tarbiyaning dastlabki bosqichi boshlang'ich ta'limda bu narsalarga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. Farzandlarimizga yoshligidan to'g'ri tarbiya va ta'lim bersak bu kelajakda albatta o'z mevasini beradi, yurt rivoji uchun natijalar ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jaroyoni yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keladi.

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olish zarurdir. Bugungi kunda o'quvchilarimiz PIRLS, PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda faol ishtirok

etishi uchun ham ularni erkin fikrlash va og'zaki nutqlarini rivojlantirish uchun interfaol metodlarning o'rni kattadir. Boshlang'ich sinfda o'quv fanlarini o'zlashtirishda quyidagi metodlardan foydalanish ham samara beradi. Quyidagi metodlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini oshirishda samaralidir. Masalan: "Uch bosqichli intervyu", "Qor bo'ron", "Galeriyani aylanish" metodlari. "Galeriyani aylanish" metodi haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu metodda o'quvchilarni fikrlashlari, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishda samarali natijalarga erishish mumkin. Bu metodda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Bitta muammoli vaziyat o'rtaga tashlanadi, guruhlar o'z fikrlarini bayon qilishadi va qog'ozga yozishadi. Har bir guruhga 10 minut vaqt beriladi. Guruhlar javob varaqlarini boshqa guruh bilan almashadi va javob to'liq bo'lmasa, o'z fikrlari bilan to'ldirishi mumkin.

Haqiqatdan ham, o'quvchilarga ta'lim – tarbiya va malakali dars berish juda qiyin va murakkab ishlardan biridir. Bunday vazifani malakali o'qituvchigina bajara oladi. Bunday vazifalarni bajarishda malakali o'qituvchilarga interfaol ta'lim metodlari va didaktik o'yinlar darsni samarali va qiziq o'tishi uchun zamin yaratadi.

Boshqa tomondan nazar soladigan bo'lsak, o'qituvchilik ham yuksak san'at turlaridan biridir. O'qituvchi darsni samarali o'tishi uchun dars rejasini tuzib oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak zamonaviy dars o'tishda interfaol metodlarning o'rni juda muhim ekanligini bilib olmoqdamiz. Darslarimiz samarali bo'lishi uchun har bir darsning o'ziga mos metodlarini tanlab olsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Agar o'qituvchi interfaol ta'lim mazmunini va mohiyatini, uning metodlarini o'qib-o'rganib o'zlashtirib, o'z pedagogik faoliyatiga joriy qila olsa takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlarini va o'quv dasturlarini to'la o'zlashtirish kafolatlaydi, sifat va samaradorlikka erishni ta'minlaydi.

Bu rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun ajoyib kadrlarni yetishtirib berish uchun ham zamin yaratadi deb o'ylayman.

Bosh maqsadimiz o'quvchilarga sifatli ta'lim-tarbiya berishdek mashaqatli va sharaflı ishimizda, dunyo tan olgan buyuk allomalarimizdek, o'rganmog'imiz bilan erishamiz degan umiddaman. Buning uchun albatta tinmay o'qishimiz va izlanishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Interfaol ta'lim usullari" Sh.Shayakubov. R. Ayupov.
Toshkent 2012- yil
- 2." Boshlang'ich ta'lim" jurnali 2020 –yil
3. www.Ziyonet.uz;

Алимов Баходир Батирович

*Ўзбекистон Республикаси иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Бизнес ва тадбиркорлик олий мактабининг “Инвестициялар ва лойиҳа бошқаруви” кафедраси
профессори в.б., и.ф.ф.д. (PhD), доцент
bakhodir.alimov.84@gmail.com*

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲОЛАТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация

Мақолада Ўзбекистон суғурта бозорида фаолият олиб бораётган суғурта компанияларини молиявий таҳлилнинг анъанавий (горизонтал, вертикал, қиёсий, тренд) методлари асосида молиявий ҳолати таҳлил қилинган. Ушбу таҳлил натижалари асосида суғурта компанияларининг молиявий ҳолатини яхшилаш бўйича самарали бошқарув қарорлари қабул қилишга оид таклифлар келтирилган.

Суғурта компанияларининг тадбиркорларга ҳамда аҳолига соғлом ва самарали хизматлар кўрсатиши, давлатимизнинг олий мақсадларидан бири бўлган бизнес ва тадбиркорликни ривожланиши ҳамда аҳолини янада соғлом турмуш тарзини кечиришида ўз хиссасини қўшиб келмоқда. Бунинг учун эса суғурта компанияларининг молиявий ҳолатини мунтазам таҳлил қилиб туриш зарур ҳисобланади. Мақолада Ўзбекистон суғурта бозорида кўзга кўринган суғурта компанияларининг молиявий ҳисоботлари таҳлил қилинди ҳамда тегишли хулосалар келтирилди.

Калит сўз: суғурта, суғурта компаниялар, молиявий ҳолат, молиявий таҳлил, горизонтал, вертикал, қиёсий, тренд.

ANALYSIS OF THE FINANCIAL CONDITION OF INSURANCE COMPANIES ON THE BASIS OF METHODS OF FINANCIAL ANALYSIS

Annotation

The article analyzes the financial condition of insurance companies operating in the insurance market of Uzbekistan on the basis of traditional methods of financial analysis (horizontal, vertical, comparative, trend). Based on the results of this analysis, recommendations are made for effective management decisions to improve the financial condition of insurance companies.

The provision of healthy and effective services to entrepreneurs and the population by insurance companies contribute to the development of business and entrepreneurship, which is one of the highest goals of our state, as well as a

healthier lifestyle. To do this, it is necessary to regularly analyze the financial condition of insurance companies. The article analyzes the financial statements of insurance companies that are prominent in the Uzbek insurance market and draws relevant conclusions.

Keywords: insurance, insurance companies, financial condition, financial analysis, horizontal, vertical, comparative, trend.

КИРИШ

Ижтимоий суғурта ва ижтимоий таъминот масалалари ҳар қандай давлатнинг ижтимоий сиёсатида энг долзарб масалалардан биридир. Айниқса, бугунги пандемия шароитида давлат томонидан аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиниши янада муҳим аҳамият касб этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2-августдаги ПҚ-4412-сон “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорида келтирилишича “Республикада молия бозорини янада ривожлантириш, аҳолини сифатли молиявий хизматлар билан қамраб олиш кўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ушбу соҳада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга ислохотларнинг ҳозирги босқичида иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлашга, аҳоли ҳаётининг сифати ва даражасини оширишга йўналтирилган молиявий хизматларни фаол ривожлантириш республикада суғурта бозорининг ролини кучайтиришни ва суғурта воситаларини кенг қўллашни тақозо этмоқда.”[1]

Суғурта бозор муносабатларига ўтиш жараёнида давлат, фуқаролар ва хўжалик юритувчи субъектлар манфаатларини ҳимоя қилишнинг самарали воситаси ҳисобланади.

Замонавий миллий суғурта тизими қонунчилик базасини такомиллаштиришга, давлатнинг молия ва пул-кредит сиёсатининг самарадорлигига, суғурта фаолиятини назорат қилиш сифатига ва суғурта ташкилотларининг ишончилигига боғлиқдир.

Ўзбекистонда 2021 йил 1 январь ҳолатига суғурта фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини олган республикада 40 та суғурта компаниялари фаолият юритиб келмоқда.

Дунё маълумотларига назар ташлайдиган бўлсак, Бую Британиянинг New Frontier ташкилоти маълумотларига кўра, жами суғурта мукофотларининг ялпи ички маҳсулотга нисбати орқали аниқланадиган “Суғуртанинг кириб келиш даражаси” (Insurance Penetration Rate) кўрсаткичи дунё миқёсида 6,35 %ни, Ўзбекистонда эса бор-йўғи 0,35%ни ташкил этади. Дунёда аҳоли жон

бошига суғурта мукофотлари 847 еврони ташкил этган бўлса, Ўзбекистонда бу кўрсаткич 5 еврога тенг.

Бу эса мазкур хизматнинг паст даражасини англатади. Давлатлар ичида етакчилик Гонконгга тегишли бўлиб, суғурта мукофоти жон бошига 7,5 минг еврони, энг кам кўрсаткич эса 5 еврони ташкил қилиб, Нигерия давлатига тўғри келади.[2]

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда Ўзбекистон суғурта бозорини ривожлантиришда суғурта компанияларнинг молиявий ҳолатини молиявий таҳлил методлари асосида ўрганиб чиқиш ҳамда самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсадга мувофиқдир.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ.

Маълумки, таҳлил соҳаси бўйича янги билимларни олиш, соҳа масалалари ечими учун методология зарур. Бунда турли ёндашув, метод ва усулларни қўлланилади. Уларни таснифлаш муҳим аҳамиятга эга.

Ш.Ш. Шоҳаъзамийнинг “Мулк, қиймат ва нархнинг назарий асослари” номли асарида тизимли таҳлил ва прогнозлаштиришда қўлланиладиган математик аппарат турли мураккаб тадқиқот усуллари ва уларда қўлланиладиган кўрсаткичлар (индикаторлар) тизимини ўз ичига олиши, бунда тадқиқот усуллари ва кўрсаткичларини танлаш ва комбинациялаш тадқиқотчининг билим ва амалий тажрибаси билан белгиланиши такидлаб ўтилган. шу билан бирга ҳозирда қўлланиладиган барча тадқиқот усулларини шартли равишда тўртта йирик гуруҳга ажратиб берилган бўлиб, булар:

- тадқиқотчи билим ва интуициясига асосланган усуллар (ақлий ҳужум, сценариялар, эксперт баҳолаш(SWOT-таҳлил), делфи, морфологик ёндашув, иш ўйинлари);
- тадқиқот объектини формал ифодалашга асосланган усуллар (аналитик, статистик, назарий тўпламликлар, мантиқий, лингвистик, семиотик, график, тузилмали лингвистик моделлаштириш, имитацион динамик моделлаштириш);
- комбинациялаштирилган усуллар (комбинаторика, ситуацион моделлаштириш, топология, графо-семиотик моделлаштириш, ахборот оқимларини тадқиқ этиш, агентли моделлаштириш);
- ихтисослашган усуллар (эконометрика, маркетинг, финансометрика, секюриметрика, квалиметрия, техник таҳлил, фундаментал таҳлил, портфель таҳлил, мулк қийматини баҳолашнинг ёндашув ва усуллари)идан иборат.[3]

Dr. Donthi Ravinder, Muskula Anitha ларнинг “Financial Analysis – A Study” асарида Корхона позициясини шарҳлаш учун икки турдаги: вертикал ва горизантал методлар амалга оширилиши такидланган.[4]

Steven M. Bragg ўзининг “Business Ratio Guidebook” номли асарида молиявий аҳволни таҳлил қилишда иккита усул, яъни вертикал ва горизонтал усуллардан фойдаланиш зарурлиги такидланган. Бунда горизонтал таҳлил усули – молиявий маълумотларни даврлар бўйича таққослаш бўлса, вертикал таҳлил усули – ҳар бир молиявий ҳисобот фоизда тўпланади ва солиштирилади. А ва Б ҳолатни нечта фоизи ташкил этиши топилади деб такидлаган.[5]

Рус иқтисодчи олимларидан Л.Н. Чечевицынанинг “Анализ финансово-хозяйственной деятельности” номли асарида корхона ёки соҳалар бўйича амалиётда чуқурроқ ва ҳар томонлама вазиятни ҳал қилишда барча методлар таққослаш асосида таҳлил қилиб беради. Иқтисодий таҳлилда таққослаш таҳлилидан келиб чиқиб қуйидаги усулларни тақлиф этади: горизонтал (вақтинчалик) таҳлил, вертикал (структурали) таҳлил, тренд таҳлил, бир марталик таққослама таҳлил, кўп марталик таққослама таҳлилдан иборатлигини такидлаб ўтган.[6]

Яна бир рус иқтисодчи, бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудит соҳасининг етук олимларидан В.В.Бочаровнинг “Финансовый анализ ” номли асарида молиявий таҳлилнинг мақсадларидан энг асосийси (калити) хўжалик юритувчи субъектнинг молиявий ҳолатини асосий кўрсаткичларни таҳлил қилиш асосида объектив (аниқ ахборотли) натижага эга бўлишда: актив ва пассивларни структурасини ўзгариши; дебиторлик ва кредиторлик ҳисоб-китоблар динамикаси; фойда ёи зарарларни ўсиши, савдо ва активлар рентабеллигини ўсишини кўриш мумкин. Амалиётда қўлланилган ва танлаб олиш мумкин бўлган қуйидаги молиявий таҳлилнинг асосий усулларини танлаб олиш мумкин. Булар: горизонтал таҳлил, вертикал таҳлил, тренд таҳлил, солиштира (фазовий) таҳлил, омилли таҳлил ва молиявий коэффициентлар усулидан иборатлигини такидлаб ўтган.[7]

Рус олимларидан худди шундай мавқега эга бўлган иқтисодчи олим Г.В.Савицкаянинг “Хўжалик фаолиятида таҳлил назарияси ” номли асарида комплекс таҳлил усулларини тўрта гуруҳга ажратган. Булар: ахборотларни қайта ишлашдаги анъанавий усуллар (таққослаш, молиявий ажратмалар, нисбий ва ўртача миқдорлар, жадвал ва график кўринишлар, гуруҳлаштириш, балансли, эвристик), детерминантлашган омилли таҳлил усуллари (занжирли ўрин алмаштири, нисбий фарқлар, мутлақ фарқлар, индекс, интеграл, тенг тақсимот, логарифм), стохастик омилли таҳлил методлари (корреляцион таҳлил, дисперсион таҳлил, дискриминант таҳлил), иқтисодий вазифаларни оптимизациялаш усуллари (чизиқли ва чизиқсиз программалаштириш, назарий ўйин, оммавий хизматлар назарияси, жараёнлар устида изланиш ва бошқалар)дир. хўжалик фаолияти таҳлида методиканинг муҳим элементлардан бири бу техник қўллашлар ва таҳлил усуллар (таҳлил

инструментлари) таҳлил фарқли босқичларида изланишларда қўлланилишини такидлаб ўтган.[8]

Рус олимларидан Л.В.Донцова ҳамда Н.А.Никифороваларнинг “Анализ финансовой отчетности ” номли асарида Молиявий ҳисоботларни таҳлил қилишда турли хил (мантиқий, расмийлаштирилувчи) усуллардан фойдаланиш мумкин. Лекин кўпинча қуйидаги усуллардан фойдаланилади: мулоқ усул, нисбий ва ўртача қийматлар; таққослаш усули; вертикал таҳлил; горизонтал таҳлил; тренд таҳлил; омилли таҳлил; молиявий коэффициентлардан фойдаланиш таҳлили ва эксперт баҳолаш усулини такидлаб ўтганлар.[9]

Н.П. Любушиннинг “Анализ финансового состояния организации ” номли асарида горизонтал, вертикал, нисбий кўрсаткичлар таҳлили (коэффициентлар таҳлили), таққослаш, детерминантлашган омилли таҳлил, занжирли боғланиш, мутлоқ фарқлар, индекс, логарифм, интеграл усуллари келтириб ўтган. Шу билан бирга стохастик усулларга атрофлича тўхталиб ўтган ва уларни алоҳида усуллари масалани ҳал қилиш ва қаерда қўлланилишини айтилган. Стохастик усулларга: Корреляция, регрессия, дисперсия, компонент, дискриминация, кластер ва омилли таҳлил келтирган.[10]

Т.А. Молибоннинг “Комплексный экономический анализ финансово-хозяйственной деятельности организации” номли асарида корхонанинг молиявий-ҳўжалик фаолиятини таҳлилида қўлланиладиган усуллар ва воситаларни икки гуруҳга бўлиб, яъни: шакилланган ва тўла шакилланмаган (қўлланилмаётган)дир. Шакилланган усуллар гуруҳини ўзи ҳам бешта гуруҳга бўлиб кўрсатилган. Булар: микроиқтисодий таҳлилда элементар усуллар (баланс усули, занжирли боғланиш ва мутлоқ фарқлар усули, изоляция қилинган омилларни аниқлаш усули, дифференциал усул, интеграл усул, фоизларни нисбат усули); иқтисодий-статистиканинг анъанавий усуллари (нисбий ва ўртача миқдорлардан фойдаланиш усули, гуруҳлаштириш усули, динамик қаторларни қайта ишлаш усули, индекс усули); илмий изланишлардаги математик-статистик усуллар (стохастик усуллар: корреляцион таҳлил, регрессион таҳлил, дисперсион таҳлил, кластерли, замонавий омилли таҳлил усули, фазовий-даврий тўпламларни қайта ишлаш усули); қарор қабул қилиш усуллари (вазиятли таҳлил ва прогнозлаштириш усули, имитацион моделлаштириш, ечимлар дарахтини қуриш усули, чизиқли программлаштириш, сезувчанлик таҳлили); молиявий ҳисоблаш усуллари (дисконтлаш ва қуриш усули, пул оқимларини баҳолаш усули)дир. Тўла шаклланмаган усуллар гуруҳига: тизимли кўрсаткичларни қайта ишлаш усули, таққослаш усули, таҳлилий жадвалларга қурилган усул, деталлаш усули, эксперт баҳолаш усули, молиявий ҳисоботларни ўқиш ва таҳлил қилиш усулларида иборатлиги такидлаб ўтилган.[11]

М.Ю.Рахимовнинг “Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили” номли асарида ҳўжалик юритувчи субъектларнинг молиявий ҳолати юзасидан объектив ахборотларни олиш йўлларини белгилаб берувчи таҳлил усулларига, яъни: молиявий ҳисоботни ўқиш, горизонтал таҳлил, вертикал таҳлил, тренд таҳлил, қиёсий (таққослама) таҳлил, молиявий коэффицентлар, омилли таҳлил усуллари кириши ҳамда бу усулларнинг хар бирига атрофлича тўхталиб ўтган. [12]

Иқтисодчи олимларнинг адабиётларида келтирилган методлардан горизонтал таҳлил, вертикал таҳлил, тренд таҳлил, қиёсий таҳлил методларини таърифларини келтириб ўтамиз.

Горизонтал таҳлил усули. Горизонтал таҳлил – алоҳида молиявий кўрсаткичларни ўзаро таққослаш орқали молиявий ҳолатдаги ўзгаришларга баҳо бериш усули ҳисобланади. Молиявий ҳисобот элементлари ва моддаларини, молиявий кўрсаткичларини горизонтал таҳлил асосида уларнинг ўзгаришига мутлақ ва нисбий ифодаларда баҳо берилади. Молиявий таҳлилда горизонтал таҳлилнинг қуйидаги шакилларидадан фойдаланилади: ҳисобот кўрсаткичларини давр бошига ва охирига таққослаш; ҳисобот кўрсаткичларини ўтган йилнинг шу даври кўрсаткичлари билан таққослаш; ҳисобот кўрсаткичларини динамик таққослаш; турли ташкилотнинг молиявий кўрсаткичларини қиёсий таққослаш.

Вертикал таҳлил усули. Вертикал таҳлилни тўлдирувчи усул сифатида молиявий ҳисобот элементлари, моддаларининг таркибий жиҳатларига баҳо беришни ҳарактерлайди. Ушбу жиҳатларни молиявий ҳисоботларнинг барча шаклларига нисбатан қўллаш мумкин. Умумий таркибда якка бирликларнинг салмоғи ва уларнинг ўзгаришлари асосида корхона молиявий ҳолатини таҳлил қилиш яъни ташхислаш, бу унинг асосланганлигидан далолатдир. Корхона молиявий аҳволини англаш, билишда асосий жиҳатлар жами таркибда бирлик қаторларни тўғри нисбатлашга қаратилади.

Вертикал таҳлил горизонтал таҳлил асосидагина бир бутунликка эришади. Шу сабабли уларни доимо биргаликда ва умумийликда фойдаланиш кузатилади. Уларни бир-биридан ҳоли тарзда қўллаш орқали таҳлилнинг тўлиқлигини таъмин этиб бўлмайди.

Тренд таҳлил усули. Тренд таҳлил – асос таҳлили сифатида динамик ўзгаришлари баҳолашда энг кўп қўлланиладиган усул ҳисобланади. Ушбу усул ёрдамида яқин ва узоқ даврийликдаги ўзгаришларга мутлақ ва нисбий ифодаларда баҳо берилади. Тренд таҳлилидан кўпинча активлар ўзгаришини баҳолашда, фойда ва унинг ўсишини баҳолашда, инвестициялар ҳажмини баҳолашда фойдаланилади. Тренд таҳлили асосида молиявий ҳолатдаги ўзгаришларнинг айрим жиҳатларини башоратлаш (прогнозлаш) имкони беради.

Қиёсий таҳлил усули. Қиёсий таҳлил – бир ёки бир нечта кўрсаткичлар



тизимини, турли объектлар бўйича таққослаш усулидир.

Юқорида таърифлари келтирилган методлар асосида Ўзбекистон суғурта бозорида фаолият олиб бораётган суғурта компаниялари мисолида таҳлил қиламиз, хулосалар келтирамиз ҳамда самарали бошқарув қарорларини таклиф сифатида келтирамиз.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

Корхонанинг молиявий ҳолати иқтисодий категория сифатида корхонанинг ўз фаолиятини юритиш, ривожлантириш ва ўз ўзини молиялаштириш имкониятлари юзасидан капиталнинг ҳолатини ҳарактерлайди. [13]

Корхона молиявий ҳолати – бу корхонанинг ривожини таъминлайдиган, фойда ва капитал ўсишига асосланган ҳолда, мавжуд риск даражасида пул маблағларини қўйиш, тақсимлаш ва ишлатишдир. [15]

Ўзбекистон суғурта бозорида фаолият олиб бораётган суғурта компанияларидан “Ўзагросуғурта” АЖни “Кафолат” АЖ, “Gross Insurance” МЧЖ, “Universal Sug'urta” АЖ, “Инго-Ўзбекистан” АЖлар асосида горизонтал таҳлил, вертикал таҳлил, трент таҳлил ҳамда қиёсий таҳлил методлари ёрдамида таҳлилий амалларни кўриб чиқиш, хулосалар келтириш ва келтирилган хулосалар асосида самарали бошқарув қарорларини қабул қилиш мақсад қилиб олинган. Авваламбор горизонтал таҳлил методидан бошлимиз.



1-жадвал

“Ўзагросуғурта” АЖнинг бухгалтерия баланси кўрсаткичлари асосида горизонтал таҳлил (2021 йил якунлари бўйича)

№	Кўрсаткичлар номи	Ҳисобот даври бошига		Ҳисобот даври охирига		Фарқи (+;-)	Ўсиш суръати%
		Сумма	%	Сумма	%	Сумма	
Баланс активлари							
1.	Узоқ муддатли активлар	118515549,00	41,17	142081280,90	48,34	23565731,90	119,88
1.1.	Асосий воситалар (қолдиқ қийматида)	56583872,40	19,65	55211663,40	18,78	-1372209,00	97,57
1.2.	Номоддий активлар (қолдиқ қийматида)	0,00	0,00	201802,60	0,07	201802,60	-
1.3.	Узоқ муддатли инвестициялар	55304735,80	19,21	75299067,70	25,62	19994331,90	136,15
1.4.	Капитал қўйилмалар	2915882,70	1,01	7314338,10	2,49	4398455,40	250,84
1.5.	Узоқ муддатли дебиторлик қарзлари	3217975,10	1,12	3561326,10	1,21	343351,00	110,67
1.6.	Узоқ муддатли кечиктирилган харажатлар	493083,00	0,17	493083,00	0,17	0,00	100,00
2.	Жорий активлар	169378268,70	58,83	151845216,90	51,66	-17533051,80	89,65
2.1.	Товар моддий захиралар	3252346,90	1,13	3561639,10	1,21	309292,20	109,51
2.2.	Келгуси давр харажатлари	208729,50	0,07	141339,80	0,05	-67389,70	67,71
2.3.	Қисқа муддатли дебитор қарзлар	56884235,60	19,76	55600125,20	18,92	-1284110,40	97,74
2.3.1.	Суғурта операциялари бўйича қисқа муддатли дебиторлик қарзлар	747061,20	0,26	1542474,10	0,52	795412,90	206,47
2.4.	Пул маблағлари	8732956,70	3,03	4272112,80	1,45	-4460843,90	48,92
2.5.	Қисқа муддатли инвестициялар	100300000,00	34,84	88270000,00	30,03	-12030000,00	88,01
Баланс активларининг жами		287893817,70	100,00	293926497,80	100,00	6032680,10	102,10
Баланс пассивлари							
3.	Ўз маблағлари манбалари	73780619,10	25,63	78392141,60	26,67	4611522,50	106,25
4.	Суғурта захиралари (4 = 4.1. – 4.2.)	158429039,80	55,03	153270109,50	52,15	-5158930,30	96,74
4.1.	Суғурта захиралари	161953937,00	56,25	162604363,00	55,32	650426,00	100,40
4.2.	Қайта суғурталовчиларнинг суғурта захираларидаги улуши	3524897,20	1,22	9334253,50	3,18	5809356,30	264,81
5.	Мажбуриятлар	55684158,80	19,34	62264246,70	21,18	6580087,90	111,82
5.1.	Узоқ муддатли мажбуриятлар	25176,00	0,01	4087,50	0,00	-21088,50	16,24
5.2.	Жорий мажбуриятлар	55658982,80	19,33	62260159,20	21,18	6601176,40	111,86
Баланс пассивларининг жами		287893817,70	100,00	293926497,80	100,00	6032680,10	102,10

Хулоса. 1-жадвал маълумотларига кўра “Ўзагросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг бухгалтерия балансини кўрсаткичлари асосида горизонтал таҳлил методи асосида 2021 йил якунлари таҳлил қилинди. Унга кўра бухгалтерия балансининг жами активи 287893817,7 дан 293926497,8 га ўзгариб йил бошига нисбатан 6032680,1 минг сўмга, фоиз ҳисобида эса 2,1 га ўсган. Активларни ўсишига узоқ муддатли активлар ижобий таъсир кўрсатган бўлиб, йил бошига нисбатан 23565731,9 минг сўмга, фоиз ҳисобида 19,88 га ўсган. Бунда: узоқ муддатли инвестициялар 19994331,9 минг сўмга, фоизда 36,15; капитал қўйилмалар 4398455,4 минг сўмга, фоизда 150,84; узоқ муддатли дебиторлик қарзлари 343351 минг сўмга, фоизда 10,67 га ўсган. Асосий воситалар эса 1372209 минг сўмга, фоизда 2,43 га пасайган. Жорий активлар йил бошига нисбатан 17533051,8 минг сўмга, фоизда 10,35га камайган. Қайси кўрсаткичлар эвазига камайганини кўриш учун жорий актив тарикибидаги кўрсаткичларни кўриб чиқамиз. Булар: йил бошига нисбатан келгуси давр харажатлари 67389,7 минг сўм, фоизда 32,29 га; қисқа муддатли (бир йилгача бўлган) дебиторлик қарзлар 1284110,4 минг сўм, фоизда 2,26 га; пул маблағлари 4460843,9 минг сўм, фоизда 51,08 га; қисқа муддатли инвестициялар 12030000 минг сўм, фоизда 11,99 га камайган. Бунда келгуси давр харажатлар ва қисқа муддатли дебиторлик қарзларини камайгани яхши ҳолат бўлса, пул маблағлари ва қисқа муддатли инвестицияларини камайиши унчалик яхши ҳолат эмас. Товар-моддий захиралар 309292,2 минг сўм, фоизда 9,51 га ҳамда суғурта операциялари бўйича қисқа муддатли дебиторлик қарзлар 795412,9 минг сўм, фоизда 106,47 га кўпайган. Бу албатта компаниянинг мажбурияти кўпайганини билдиради.

Бухгалтерия балансининг пассив томонига ўтадиган бўлсак ўз маблағлари манбалари 4611522,5 минг сўм, фоизда 6,25 га ҳамда мажбуриятлар 6580087,9 минг сўм, фоизда 11,82 га кўпайган бўлса, суғурта захиралари 5158930,3 минг сўм, фоизда 3,26 га камайган. Бу ҳолатда ўз маблағларини кўпайгани яхши ҳолат бўлса мажбуриятларнинг кўпайиши компанияда маъсулиятни янада оширади. Суғурта захиралари бўйича мажбуриятларнинг 5158930,3 минг сўм, фоизда 3,26 га камайишига асосий сабаб қайта суғурталовчиларнинг суғурта захираларидаги улушини 5809356,3 минг сўм, фоизда 164,81 га йил бошига нисбатан ортиши бўлган. Суғурта компаниялари мажбуриятларни тўлаш рискинни камайтириш мақсадида қайта суғурталовчиларнинг суғурта захираларидаги улушини қанча оширадилар. Айниқса дунёни ривожланган давлатларида фаолият юритаётган суғурта компаниялари томонидан қайта суғуртани амалга оширадилар.

Хулоса сўнгида “Ўзагросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг активларини янада ошириш учун янги суғурта хизматларини яратиш ёки дунёда етакчилик қилаётган суғурта компаниялари томонидан яратилган суғурта хизматларини Ўзбекистонга тадбиқ этиш лозим. Шу билан бирга



суғурта хизматларидан келиб тушган маблағларни жаҳон қимматли қоғозлар бозорида самарали кўпайтириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш лозим.



2-жадвал

“Ўзгросуғурта” АЖ СКнинг бухгалтерия баланси кўрсаткичлари асосида вертикал таҳлил (2021 йил якунлари бўйича)

№	Кўрсаткичлар номи	Ҳисобот даври бошига		Ҳисобот даври охирига		Фарқи (+;-)	
		Сумма	%	Сумма	%	Сумма	%
Баланс активлари							
1.	Узоқ муддатли активлар	118515549,00	41,17	142081280,90	48,34	23565731,90	7,17
1.1.	Асосий воситалар (қолдиқ қийматида)	56583872,40	19,65	55211663,40	18,78	-1372209,00	-0,87
1.2.	Номоддий активлар (қолдиқ қийматида)	0,00	0,00	201802,60	0,07	201802,60	0,07
1.3.	Узоқ муддатли инвестициялар	55304735,80	19,21	75299067,70	25,62	19994331,90	6,41
1.4.	Капитал қўйилмалар	2915882,70	1,01	7314338,10	2,49	4398455,40	1,48
1.5.	Узоқ муддатли дебиторлик қарзлари	3217975,10	1,12	3561326,10	1,21	343351,00	0,09
1.6.	Узоқ муддатли кечиктирилган харажатлар	493083,00	0,17	493083,00	0,17	0,00	0,00
2.	Жорий активлар	169378268,70	58,83	151845216,90	51,66	-17533051,80	-7,17
2.1.	Товар моддий захиралар	3252346,90	1,13	3561639,10	1,21	309292,20	0,08
2.2.	Келгуси давр харажатлари	208729,50	0,07	141339,80	0,05	-67389,70	-0,02
2.3.	Қисқа муддатли дебитор қарзлар	56884235,60	19,76	55600125,20	18,92	-1284110,40	-0,84
2.3.1.	Суғурта операциялари бўйича қисқа муддатли дебиторлик қарзлар	747061,20	0,26	1542474,10	0,52	795412,90	0,27
2.4.	Пул маблағлари	8732956,70	3,03	4272112,80	1,45	-4460843,90	-1,58
2.5.	Қисқа муддатли инвестициялар	100300000,00	34,84	88270000,00	30,03	-12030000,00	-4,81
Баланс активларининг жами		287893817,70	100,00	293926497,80	100,00	6032680,10	0,00
Баланс пасивлари							
3.	Ўз маблағлари манбалари	73780619,10	25,63	78392141,60	26,67	4611522,50	1,04
4.	Суғурта захиралари (4 = 4.1. – 4.2.)	158429039,80	55,03	153270109,50	52,15	-5158930,30	-2,88
4.1.	Суғурта захиралари	161953937,00	56,25	162604363,00	55,32	650426,00	-0,93
4.2.	Қайта суғурталовчиларнинг суғурта захираларидаги улуши	3524897,20	1,22	9334253,50	3,18	5809356,30	1,95
5.	Мажбуриятлар	55684158,80	19,34	62264246,70	21,18	6580087,90	1,84
5.1.	Узоқ муддатли мажбуриятлар	25176,00	0,01	4087,50	0,001	-21088,50	-0,01
5.2.	Жорий мажбуриятлар	55658982,80	19,33	62260159,20	21,18	6601176,40	1,85
Баланс пасивларининг жами		287893817,70	100,00	293926497,80	100,00	6032680,10	0,00



Хулоса. 2-жадвал маълумотларига кўра “Ўзгросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг бухгалтерия балансини кўрсаткичлари асосида вертикал таҳлил методи асосида 2021 йил якунлари таҳлил қилинди. Унга кўра бухгалтерия балансининг жами активи 287893817,7 дан 293926497,8 га ўзгариб жами активларга нисбатан 6032680,1 минг сўмга ўсган. Активларни ўсишига узоқ муддатли активлар ижобий таъсир кўрсатган бўлиб, жами активларни йил бошига нисбатан 23565731,9 минг сўмга, фоиз ҳисобига ўзгариши 7,17 га ўсган. Бунда: узоқ муддатли инвестициялар 19994331,9 минг сўм, фоиз ўзгариши 6,41; капитал қўйилмалар 4398455,4 минг сўм, фоиз ўзгариши 1,48; узоқ муддатли дебиторлик қарзлари 343351 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,09 га ижобий ўзгарган. Асосий воситалар эса 1372209 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,87 га пасайган. Жорий активлар йил бошига нисбатан 17533051,8 минг сўм, фоиз ўзгариши 7,17 га камайган. Жорий активларни бундай камайишига қуйидаги кўрсаткичлар ўз тасирни кўрсатган. Булар: келгуси давр харажатлари 67389,7 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,02 га; қисқа муддатли (бир йилгача бўлган) дебиторлик қарзлар 1284110,4 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,84 га; пул маблағлари 4460843,9 минг сўм, фоиз ўзгариши 1,58 га; қисқа муддатли инвестициялар 12030000 минг сўм, фоиз ўзгариши 4,81 га камайган. Бунда келгуси давр харажатлар ва қисқа муддатли дебиторлик қарзларини камайгани компания учун яхши ҳолат бўлса, пул маблағлари ва қисқа муддатли инвестицияларини камайишини яхши ҳолат деб бўлмайди. Кези кеганда айтиб ўтиш керакки пул маблағлари ва қисқа муддатли инвестицияларни ошириш учун суғурта компания суғурта хизматлар ассортиментини кўпайтириш керак ҳамда амалдаги суғурта хизматларини қайта кўриб чиқиш керак. Жаҳон ва мамлакат қимматли қоғозлар фонд бозорини ўрганиш ҳамда бўш турган маблағларни самарали жалб қилиш керак. Товар-моддий захиралар 309292,2 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,08 га ҳамда суғурта операциялари бўйича қисқа муддатли дебиторлик қарзлар 795412,9 минг сўм, фоиз ўзгариши 0,27 га кўпайган. Бу албатта компаниянинг мажбуриятларини кўпайганини англатади.

Бухгалтерия балансининг пассив томонига кўриб чиқадиган бўлсак ўз маблағлари манбалари 4611522,5 минг сўм, фоиз ўзгариши 1,04 га ҳамда мажбуриятлар 6580087,9 минг сўм, фоиз ўзгариши 1,84 га кўпайган бўлса, суғурта захиралари 5158930,3 минг сўм, фоиз ўзгариши 2,88 га камайган. Бу ҳолатда ўз маблағларини кўпайгани яхши натижа бўлса мажбуриятларнинг кўпайиши компанияда маъсулия даражасини оширади. Суғурта захиралари бўйича мажбуриятларнинг 5158930,3 минг сўм, фоиз ўзгариши 2,88 га камайишига асосий сабаб қайта суғурталовчиларнинг суғурта захираларидаги улушини 5809356,3 минг сўм, фоиз ўзгариши 1,95 га жами пассивларга нисбатан улуши ортиши бўлган.



Хулоса сўнгида “Ўзагросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг активларини янада ошириш учун янги суғурта хизматларини яратиш ёки дунёда етакчилик қилаётган суғурта компаниялари томонидан яратилган суғурта хизматларини Ўзбекистонга тадбиқ этиш лозим.



3-жадвал

“Ўзгросуғурта” АЖ СКнинг бухгалтерия балансини кўрсаткичлари асосида тренд таҳлил (2017-2021 йиллар якуни бўйича)

№	Кўрсаткичлар	2017 йил		2018 йил		2019 йил		2020 йил		2021 йил	
		млн.сўм	%	млн.сўм	2016 й.га нисбатан %	млн.сўм	2016 й.га нисбатан %	млн.сўм	2016 й.га нисбатан %	млн.сўм	2016 й.га нисбатан %
1.	Узоқ муддатли активлар	70261233,4	100,00	78464100,1	11,67	102971557,3	46,56	114137662,7	62,45	142081280,9	102,22
1.1.	Узоқ муддатли инвестициялар	34479048,3	100,00	37982031,1	10,16	47691271,8	38,32	55304735,8	60,40	75299067,7	118,39
1.2.	Капитал қўйилмалар	5046129,1	100,00	4804734,3	-4,78	8387138,9	66,21	2740617,9	-45,69	7314338,1	44,95
2.	Жорий активлар	79045056,1	100,00	112392110,1	42,19	129765233,1	64,17	169378268,7	114,28	151845216,9	92,10
2.1.	Товар моддий захиралар	2399519,8	100,00	1815183,7	-24,35	2455594,8	2,34	3252346,9	35,54	3561639,1	48,43
2.2.	Дебитор қарзлар	33194093,4	100,00	106874078,3	221,97	54342746,1	63,71	56884235,6	71,37	55600125,2	67,50
2.3.	Пул маблағлари	5194183,5	100,00	2264751,8	-56,40	6110342,0	17,64	8732956,7	68,13	4272112,8	-17,75
2.4.	Қисқа муддатли инвестициялар	37560943,2	100,00	1242007,0	-96,69	66650000,0	77,44	100300000,0	167,03	88270000,0	135,00
Жами баланс активлари		149306289,5	100,00	190856210,2	27,83	232736790,4	55,88	283515931,4	89,89	293926497,8	96,86
3.	Ўз маблағлари манбалари	47372989,1	100,00	-29927795,4	-163,17	60990308,2	28,74	69402732,8	46,50	78392141,6	65,48
4.	Суғурта захиралари	82403543,2	100,00	109704366,9	33,13	123740109,6	50,16	161953937,0	96,54	162604363,0	97,33
5.	Мажбуриятлар	35419123,0	100,00	125095461,2	253,19	53037382,7	49,74	55684158,8	57,21	62264246,7	75,79
Жами баланс пассивлари		149306289,5	100,00	190856210,2	27,83	232736790,4	55,88	283515931,4	89,89	293926497,8	96,86

Хулоса. 3-жадвал маълумотларига кўра “Ўзгросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг бухгалтерия балансини кўрсаткичлари асосида трент таҳлил методи асосида 2017-2021 йилларнинг якуний йиллик молиявий ҳисобот маълумотлари таҳлил қилинди. Жами активлар йил давомида ўсиб борган. Унинг таркибига қарайдиган бўлсак:

- Узоқ муддатли активлар 2017 йилда 70261233,4 минг сўм бўлган бўлса, 2021 йилга келиб 142081280,9 минг сўмга етган. Йиллар давомида ўсиш суратига қарайдиган бўлсак 2018 йилда 11,67 %га, 2019 йилда 46,56 %га, 2020 йилда 62,45 %га ҳамда 2021 йилда 102,22 %га 2017 йилга нисбатан ўсган. 2017 йилга нисбатан 2021 йилда узоқ муддатли инвестициялар 75299067,7 минг сўм, фоизда 118,39 га, капитал қўйилмалар 7314338,1 минг сўм, фоизда 44,95 га кўпайиши эвазига узоқ муддатли активлар ўсган;

- Жорий активлар 2017 йилда 79045056,1 минг сўм бўлган бўлса, 2021 йилга келиб 151845216,9 минг сўмга етган. Йиллар давомида ўсиш суратига қарайдиган бўлсак 2018 йилда 42,19 %га, 2019 йилда 64,17 %га, 2020 йилда 114,28 %га ҳамда 2021 йилда 92,10 %га 2017 йилга нисбатан ўсган. 2017 йилга нисбатан 2021 йилда товар моддий захиралар 3561639,1 минг сўм, фоизда 48,43 га, қисқа муддатли дебиторлик қарзлари 55600125,2 минг сўм, фоизда 67,50 га, қисқа муддатли инвестициялар 88270000,0 минг сўм, фоизда 135,00 га кўпайиши эвазига жорий активлар ўсган. Пул маблағлари эса 4272112,8 минг сўмга ўзгарган ва 17,75 фоизга камайган. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда товар моддий захиралар ва дебиторлик қарзларини ошиб кетиши яхши ҳолат эмас, лекин фаолият жараёнида даромадларни ошиб бориши табиий. Қисқа муддатли инвестицияларни 135 фоизга кўпайиши эса, бўп турган маблағлардан самарали фойдаланилаётганлигидан далолатдир. Пул маблағларини 17,75 фоизга камайиши, ҳисоб рақамидаги маблағларни яна ҳаракатга келтириш ёки қисқа муддатли инвестицияларга йўналтириш деб қараш мумкин.

Жами пасивларни 293926497,8 минг сўмга, фоизда эса 96,86 га кўпайишига йирик уч та кўрсаткич таъсир кўрсатгани маълум. Яъни булардан бири ўз маблағлари манбалари бўлиб, 2017 йилга нисбатан 2021 йил 78392141,6 минг сўмга ўзгашиб, фоиз ҳисобида 65,48 га, суғурта захира мажбуриятлари 162604363,0 минг сўмга ўзгашиб, фоиз ҳисобида 97,33 га, мажбуриятлар 62264246,7 минг сўмга ўзгашиб, фоиз ҳисобида 75,79 га ўсган. пасив томондаги барча кўрсаткичлар ўсганлиги, суғурта компаниянинг фаолиятини ўсганлиги ёки мажбуриятларни меъёрдан ортиб кетишини айтишимиз мумкин.

“Ўзгросуғурта” АЖ суғурта компанияси молиявий хизматлар кўрсатишини инобатга олган ҳолда шуни айтиш мумкинки, ҳар бир хизмат турини кўпайиши ёки хизматларни ҳажмини ортиши, ўз-ўзидан мажбуриятларни кўпайишига олиб келади. Ҳозирда барча суғурта



компаниялари (ташкilotлари, корхоналари) ихтиёрий тиббий суғурта бўйича
янги маҳсулотларни яратиш билан шуғуланишмоқда.

4-жадвал

СКларининг бухгалтерия баланси таҳлилида қиёсий таҳлил усулидан фойдаланиш (“Ўзагросуғурта” АЖни “Кафолат” АЖ, “Gross Insurance” МЧЖ, “Universal Sug'urta” АЖ, “Инго-Ўзбекистан” АЖлар билан қиёслаш, 2021 йил якунлари бўйича)

№	Суғурта компаниялар		Бухгалтерия баланс кўрсаткичлари						
			Узоқ муддатли активлар	Жорий активлар	Жами баланс активлари	Ўз маблағлари манбалари	Суғурта захиралари	Мажбуриятлар	Жами баланс пасивлари
1.	“Ўзагросуғурта” АЖ	Сумма (а)	142081280,9	151845216,9	293926497,8	78392141,6	153270109,5	62264246,7	293926497,8
		Йил бошига нисбатан, %	119,88	89,65	102,10	106,25	96,74	111,82	102,10
2.	“Кафолат” АЖ	Сумма (b)	142637403,2	36821450,5	179458853,8	54263888,6	113479780,7	18206474,1	179458853,8
		Йил бошига нисбатан, %	117,71	105,72	115,03	97,71	118,24	166,03	115,03
	“Ўзагросуғурта”га нисбатан	Сумма (а-б)	556122,3	-115023766,4	-114467644	-24128253	-39790328,8	-44057772,6	-114467644
		%, ((а-б)/а)	0,39%	-75,75%	-38,94%	-30,78%	-25,96%	-70,76%	-38,94%
3.	“Gross Insurance” МЧЖ	Сумма (с)	38843486,0	172139620,0	210983106,0	49332135,6	167008605,0	13325753,8	210983106,0
		Йил бошига нисбатан, %	85,14	132,95	120,48	113,27	121,8	90,67	120,48
	“Ўзагросуғурта”га нисбатан, %	Сумма (а-с)	-103237794,9	20294403,1	-82943391,8	-29060006	13738495,5	-48938492,9	-82943391,8
		%, ((а-с)/а)	-72,66%	13,37%	-28,22%	-37,07%	8,96%	-78,60%	-28,22%
4.	“Инго-Ўзбекистан” АЖ	Сумма (d)	2539725,8	73979029,2	76518755,0	51691129,7	27209448,1	4801450,8	76518755,0
		Йил бошига нисбатан, %	92,85	123,11	121,79	124,54	89,24	165,29	121,79
	“Ўзагросуғурта”га нисбатан, %	Сумма (а-d)	-139541555,1	-77866187,7	-217407742,8	-26701011,9	-126060661,4	-57462795,9	-217407742,8
		%, ((а-d)/а)	-98,21%	-51,28%	-73,97%	-34,06%	-82,25%	-92,29%	-73,97%
5.	“Universal Sug'urta” АЖ	Сумма (k)	28315962,06	43496034,04	71811996,1	35566345,17	35399707,29	965543,22	71811996,1
		Йил бошига нисбатан, %	97,18	140,14	119,34	122,78	123,72	35,94	119,34
	“Ўзагросуғурта”га нисбатан, %	Сумма (а-k)	-113765318,8	-108349182,9	-222114501,7	-42825796,43	-117870402,2	-61298703,48	-222114501,7
		%, ((а-k)/а)	-19,93%	-28,64%	-24,43%	-45,37%	-23,10%	-1,55%	-24,43%



Хулоса. 4-жадвал маълумотларига кўра “Ўзагросуғурта” АЖни “Кафолат” АЖ, “Gross Insurance” МЧЖ, “Universal Sug'urta” АЖ, “Инго-Узбекистан” АЖ суғурта компанияларининг бухгалтерия балансини кўрсаткичлари асосида қиёсий таҳлил методи асосида 2021 йилларининг якуний йиллик молиявий ҳисобот маълумотлари асосида таҳлил амаллари бажарилди. Унга кўра жами активлар йил бошига нисбатан 2,1 % га ўсган. Бунга икки омил таъсир кўрсатган. Узоқ муддатли активлар 19,88 % га кўпайган. Жорий активлар эса 10,35 % га пасайган. Бухгалтерия балансининг пассив томонига юзланадиган бўлсак, жами пассивлар йил бошига нисбатан 2,1 % га ўсган. Бунга эса 3 та омил ўз таъсирини кўрсатган. Ўз маблағлари манбалари 6,25 % га, мажбуриятлар 11,82 % га кўпайган бўлса, суғурта захиралари бўйича мажбуриятлар 3,26 % га камайган.

Бундан ташқари 4 та суғурта компаниянинг ҳам 2021 йил якунлари бўйича молиявий ҳисобот маълумотлари таҳлил қилинди ҳамда “Ўзагросуғурта” АЖ суғурта компаниясининг 2021 йил якунлари бўйича молиявий ҳисобот маълумотлари билан қиёсланди. Бунга кўра “Кафолат” АЖ суғурта компанияси билан қиёсланганда жами активлар 38,94 % га (узоқ муддатли активлар 0,39 % га юқори, жорий активлар эса 75,75 % га паст) паст. Бухгалтерия балансининг пассив томонига қарайдиган бўлсак жами пассивлар ҳам 38,94 % га (ўз маблағлари манбалари 30,78 % га, суғурта захира мажбуриятлари 25,96 % га, мажбуриятлар 38,94 % га паст) паст.

Танланма сифатида олинган иккинчи суғурта компанияси “Gross Insurance” МЧЖ бўлиб, унга кўра жами активлар 28,22 % га (узоқ муддатли активлар 72,66 % га паст, жорий активлар эса 13,37 % га юқори) паст. Бухгалтерия балансининг пассив томонига қарайдиган бўлсак жами пассивлар ҳам 28,22 % га (ўз маблағлари манбалари 37,07 % га, мажбуриятлар 78,6 % га паст, суғурта захира мажбуриятлари эса 8,96 % га юқори) паст.

Танланма сифатида олинган учинчи суғурта компанияси “Инго-Узбекистан” АЖ бўлиб, унга кўра жами активлар 73,97 % га (узоқ муддатли активлар 98,21 % га, жорий активлар 51,28 % га паст) паст. Бухгалтерия балансининг пассив томонига қарайдиган бўлсак жами пассивлар ҳам 73,97 % га (ўз маблағлари манбалари 34,06 % га, мажбуриятлар 92,29 % га, суғурта захира мажбуриятлари эса 82,25 % га паст) паст.

Танланма сифатида олинган тўртинчи суғурта компанияси “Universal Sug'urta” АЖ бўлиб, унга кўра жами активлар 24,43 % га (узоқ муддатли активлар 19,93 % га, жорий активлар 28,64 % га паст) паст. Бухгалтерия балансининг пассив томонига қарайдиган бўлсак жами пассивлар ҳам 24,43 % га (ўз маблағлари манбалари 45,37 % га, мажбуриятлар 1,55 % га, суғурта захира мажбуриятлари эса 23,1 % га паст) паст.

Умумий қилиб айтганда суғурта хизматлар сонини ошириш ва мавжуд суғурта хизматларини янада яхшилар бўйича ишларни амалга ошириш керак.

Суғурта хизматларидан келиб тушган маблағларни узоқ ва қисқа муддатли қимматли қоғозлар ҳамда депазитларга қўйиб келинмоқда. Ушбу узоқ ва қисқа муддатли қимматли қоғозларни самарадорлик даражасини таҳлил қилиш ва депазитларни энг баланд фоизини қидириш ва шунга йўналтириш керак.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР.

Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва жадал ривожлантириш бўйича қуйидаги асосий йўналишларни сўнги меъёрий хужжатларга асосан белгилаб олиш зарур:

- суғурта соҳасида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, шу жумладан халқаро ташкилотларнинг стандартлари ва тавсияларини ҳамда ушбу соҳадаги энг яхши жаҳон тажрибаларини изчил жорий этиш;
- тартибга солиш ва пруденциал назоратнинг самарали механизмларини жорий этиш орқали суғурта бозорининг ишончилиги ва барқарорлигини таъминлашга қаратилган суғурта фаолиятини тартибга солиш тизимини институционал ривожлантириш;
- суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг капиталлашув даражасини, тўлов қобилияти ва молиявий барқарорлигини ошириш, уларнинг активлари сифатини яхшилаш, шунингдек, суғурталовчиларнинг инвестиция фаолиятини ривожлантириш;
- суғурта брокерлари фаолиятини фаоллаштириш, суғурта агентларининг ишлаш тизимини такомиллаштириш, банксуғурта механизмларини жорий этиш, шунингдек, умуман суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг ролини ошириш орқали суғурта бозори инфратузилмасини ривожлантириш ва кенгайтириш;
- суғурта хизматлари истеъмолчилари ва суғурта фаолиятининг бошқа субъектлари ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтириш, аҳолининг суғурта саводхонлигини ва суғуртага бўлган ишончини ошириш, суғурта бозорининг очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш;
- янги инновацион суғурта маҳсулотларини жорий этиш ва талаб юқори бўлган анъанавий маҳсулотларни ривожлантириш орқали кўрсатилаётган суғурта хизматлари ҳажмларини, турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш;
- суғурта фаолиятини ташкил этиш ва тартибга солиш соҳасида замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, суғурта хизматларининг электрон турларини фаол жорий этиш ва ривожлантириш;
- суғурта бозори мутахассисларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, суғурта соҳасида таълим беришнинг замонавий усуллари қўллаш, илмий-тадқиқот фаолиятини рағбатлантириш;

• миллий сўғурта бозорининг ижобий имижини шакллантириш ва юқори даражада ушлаб туриш ҳамда инвестициявий жозибадорлигини, шу жумладан миллий сўғурта бозорини халқаро ва хорижий сўғурта бозорлари билан интеграциялаш орқали ошириш.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2-avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror
2. <http://hudud24.uz> - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazining axborot-tahliliy sayti.
3. Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2018. -492 b. (222-223 betlar).
4. Dr. Donthi Ravinder, Muskula Anitha. Financial Analysis – A Study. IOSR Journal of Economics and Finance (IOSR-JEF) e-ISSN: 2321-5933, p-ISSN: 2321-5925. Volume 2, Issue 3 (Nov. – Dec. 2013), PP 10-22 www.iosrjournals.org.
5. Steven M. Bragg. Business Ratio Guidebook. 2017. 290 p.
6. L.N.Chechevitsina. Analiz finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti. Uchebnik. Izd. 3-ye, dop. i pererab. – Rostov n/D: Feniks, 2008.-379 s. (40-41 s.)
7. Bocharov V.V. Finansoviy analiz. –SPb: Piter, 2004. – 240 s.: il. – (Seriya "Kratkiy kurs"). (13 s.)
8. Savitskaya G.V. Teoriya analiza xozyaystvennoy deyatelnosti: Ucheb. posobiye. – M.: INFRA-M, 2008. – 288 s. (41 s.)
9. Donsova L.V. Nikiforova N.A. Analiz finansovoy otchetnosti. – M.: Izdatelstvo "Delo i Servis", 2005. – 368 s. (79 s.)
10. Lyubushin N.P. Analiz finansovogo sostoyaniya organizatsii: Uchebnoye posobiye. –M.: Eksmo, 2007. - 256 s. (26-45 s.)
11. Molibog T.A., Molibog Yu.I. Kompleksniy ekonomicheskii analiz finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti organizatsii: Uchebnoye posobiye. –M.: Gumanitar. izd. sentr VLADOS, 2007. – 383 s. (26 s.)
12. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2013/ 392 b. (40 bet)
13. Raximov M. Iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. T.; Iqtisod-moliya, 2015. -290 b, -34 b.
14. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F., Ibrohimov A.T. "Moliyaviy va boshqaruv tahlili". Darslik. T.; Iqtisod-Moliya, 2013. -600 b, 299 b.
15. Milovanov D.Yu., Isayeva G.V., Zenkovich V.G. Metodi otsenki finansovogo sostoyaniya organizatsiy. Molodoy ucheniy, 2018. №22. -426-427 str.



16. Alimov B.B., Ablazov Sh.A. ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR BASED ON THE PRINCIPLES OF COOPERATIVE RELATIONS AND INTEGRATION. EPRA International Journal of Agriculture and Rural Economic Research (ARER)- Peer-Reviewed Journal Volume: 9 | Issue: 9| September 2021 | Journal DOI: 10.36713/epra0813| Impact Factor SJIF (2021) : 7.604| ISSN: 2321 – 7847

17. Kholbaev, B. PhD and Alimov, B. PhD (2020) "IMPORTANCE OF THE PLANNING TOOL IN PROJECT EFFICIENCY," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 5 , Article 24. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss5/24>

18. Alimov B.B., Karaev P.Y., Mullabayev B.B. Improving the Efficiency of Management of Vertically Integrated Industrial Enterprises in the Management of Innovative Activities of Enterprises. Design Engineering ISSN: 0011-9342 | Year 2021. Issue: 8 | Pages: 10605 - 10618

УДК.595.786.(575.1)

Қорақолпоғистон Республикаси Амударё ва Ходжайли туманлари худудларида учрайдиган (*Hemiptera-Heteroptera*) туркуми ва мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи қандалаларнинг табиий экотизмда ҳамда ғўза, беда ва сабзавот агробиоценозларида ўсимликлар билан озиқланиши.

Адамбой Болтабаев Садуллаевич,

Ўзбекистон Миллий университети ўқитувчиси

Биология фанлари номзоди;

Абдусаматова Зебо Дилишод қизи

Ўзбекистон Миллий Университети бакалаври;

E-mail: adambaybaltabayev@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманлари худудларидаги қишлоқ хўжалик экинлари бўлган ғўза, беда, ва сабзавот агробиоценозларида ва табиий экотизмларида учрайдиган мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи қандалаларнинг ўсимликлар билан озиқланиши ва турлар таркиби, мавсумий динамика тарқалиши, фенограммаси келтирилган. Ғўза ўсимлигининг репродуктив аъзолари билан озиқланиши ва келтирадиган зарари аниқланган. Ғўза ва беда ўсимликларида табиий равишда кўпайиб бир неча авлод бериши аниқланди. Ғўза ва беда, ҳамда сабзавот экинларига катта зарар келтириши аниқланди. Шундай қилиб, ғўза, беда ва сабзавот экинларига катта зарар келтириб, ҳосилдорлигини камайтириб, давлатимиз иқтисодиётига катта зарар етказди.

Калит сўзлар: фитофаг, энтомофаг, личинка, имаго, агроценоз, биоценоз, биотоп, зараркунанда, эндемик, антропоген, дала қандаласи, беда қандаласи, яримқаттиққанотлилар.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье приводятся биологические, экологические и трофические связи клопов-мирид как вредителей сельскохозяйственных культур. В благоприятных условиях полевой и люцерновой клопы размножаются в хлопковом и люцерновом агроценозах, питаются соками репродуктивных органов дают несколько поколений. Таким образом они наносят вред и влияют на урожай хлопчатника, люцерне и овощных культур

как морковь, редка, репка приносят огромный ущерб сельскому хозяйству и экономике страны. Данное научное исследование проводилось в Амударьинском и Ходжайлинском районе в Каракалпакстане. Полученные результаты на таблицах и дано выводы.

Abstract: This article describes the biology, ecology, field nutrition, and damage of crops. Field and alfalfa cultivation develop in the natural ecosystem, cotton and alfalfa agrobiocenosis in the area. Feed a the plant's juices and reproductive organs and gives offspring. They cause a great deal of damage to cotton, alfalfa and vegetable crops. The study was conducted in the Amudarya and Khojeylib districts of the Republic of Karakalpak Stan.

Ключевые слова: фитофаг, энтомофаг, зоофаг, личинка, агробиоценоз, биоценоз, биотоп, эндемик, антропоген, полевой, люцерна, полужесткокрылые, вредители.

Кириш. Яримқаттиққанотлилар (*Hemiptera-Heteroptera*) турлар сони бўйича катта туркумлардан бири бўлиб, ҳашаротлар синфига киради.

Яримқаттиққанотлилар туркуми вакиллари орасида мирид қандалалар (*Miridae*) оиласи асосий ўринни эгаллайди. Бу оилага кирувчи ҳашаротлар табиатда экологик жиҳатдан катта аҳамиятга эга бўлган фитофаглар ва зоофаг йиртқичлардан иборат. [1]. Уларнинг кўпчилиги қишлоқ хўжалик экинларининг заракунандалари ҳисобланади. Айрим учрайдиган турлар жуда ноёб, эндемик тур ҳисобланади. Ҳозирги кунда мирид қандалалари катта бир оила бўлиб, ўз ичига 750 оила ва 6000 турни олади. Шундан Палеарктика фаунаси 220 оила ва 2000 турни, МДХ давлатларида учрайдиган 165 та оила ва 650 турдан иборат.[2].

Яримқаттиққанотлилар келиб чиқиши ва морфологияси бўйича цикадаларга жуда яқин туради. Бу иккита гуруҳ бир-бирига жуда яқин бўлиб, олдинги қанотлари ва хартумлар тузилиши билан бир-биридан фарқ қилади. Бутун дунё миқёсида қаттиққанотлиларнинг 45000 тури, 50 ортиқ оилалари мансуб (1995, 1996, 1999, 2005, 2006) айрим *Cimicidae* оилага кирувчи турлар бутун дунё бўйича тарқалган.[3]. Маълумотларига кўра қаттиққанотлилар триасюра даврига [4] таъллуқли эканлиги маълум. Илмий кузатиш ишларимизнинг долзарблиги шундан иборатки, шу ҳудуднинг ранг-баранг тирик ҳайвонот оламига таъллуқли. Бу ҳудудда учрайдиган ҳашаротларнинг инвентеризациясини ўтказиш, табиатда уларнинг фойдали ноёб турларини муҳофаза қилиш, уларни мониторинг қилиш, (ООН конвенциясига мувофиқ биохилма-хиллик 1992) биохилма- хилликни асраб қолиш. Худуд бўйича мирид қандалаларнинг фаунасини тадқиқ қилиш, Қарақолпоғистон



Республикаси бўйича илмий ишлар олиб бориш, бугунги куннинг долзарб муоммалардан биридир. Бу ҳашаротлар қишлоқ хўжалик экинларининг заракунандалари бўлганлиги учун тадқиқотларида уларнинг келтирадиган зарарини, экологиясини ва хўжалик аҳамиятини ўрганишдан иборат. Бу муоммаларнинг ечимини бирдан бир йўли мирид қандалаларнинг турлар таркибини аниқлаш, уларни озикланиши, популяцияларини, миграциясини ва ривожланиши, табиатда биохилма-хиллигини комплекс равишда тадқиқ қилишдан иборат. Биохилма-хилликни сақлаш уни муҳофаза қилиш табиий экотизмда мустақкам доимий равишда энтомофаг турларини сақлаб қолишни таъминлашдан иборат.

Тадқиқот услублари ва натижалари.

Қарақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманларида мирид қандалаларнинг фаунаси, мавсумий динамик тарқалишини, биологиясини, экологиясини ўсимликлар билан озикланиши, ғўза, беда ва бошқа қишлоқ хўжалик экинларига келтирадиган зарарини тадқиқ қилишдан иборат.

Ҳашаротлардан наъмуналар йиғишда қуйидаги анжомлардан фойдаланилди: Хлороформ, конвертлар, энтомологик матраб, қоғоз пахтали матрасиклар, пинцет, энтомологик игналар. Ҳашаротлардан наъмуналар йиғишда энтомологик матрабни 10-25-50-100 мартадан силташ орқали амалга оширилди. Силташлар мирид қандалалининг кундузги фаол вақтида соат 10:00-12:00-15:00 пайтларида амалга оширилди. Бутунли, ёмғирли, шамол тезлиг юқори ва булутли об-ҳавода кузатиш ишлари амалга оширилмади. Натижаларни солиштириш учун матраб билан материал йиғишни бир киши стандарт матрабдан фойдаланган ҳолда куннинг бир ваақтида амалга оширилди. Бир марта силташ 90 градус бурчакли қамраган ҳолда, матрабнинг бўйи ярми баландлиги амалга оширилди.

Палий В.Ф (1966) қўлланмаси асосида, шу ҳудуд бўйича ўсимликлардан наъмуналар йиғилди. Улардан гербариялар қилиниб, ўсимликларнинг турлари аниқланди.

Пучков В.А. (1974) қўлланмасига асосида, шу ҳудуд бўйича тарқалган яримқаттиққанотлиларнинг наъмуналари йиғилди ва уларнинг турлари аниқланди. Ҳашаротларни йиғиш қуйидаги услублар билан амалга оширилди.

1. Қўл билан йиғиш (пинсет ва қўл ёрдамида амалга оширилди), кам ҳаракат қилувчи ҳашаротлар учун.
2. Энтомологик матраб ёрдамида.

3. Ёруғлик ёрдамида.
4. Тупроқ чуқур қазиб ўра тутқичлар ёрдамида.
5. Озуқавий тутқичлар.
6. Йиғилган материалга ишлов бериш.

Қуйидаги анжомлардан фойдаланилди: хлороформ, конвертлар, энтомологик матраб, қоғоз, пахтали мартасиклар, энтомологик пинсет, энтомологик игналар.

Илмий тадқиқот ишининг назарий ва амалий аҳамияти шундан иборатки, олинган маълумотларда Қорақолпоғистон Республикаси қишлоқ хўжалигида катта аҳамиятга эга бўлган ғўза ва беда агроценозларида ҳамда сабзавот экинларида, шунингдек бошқа қишлоқ хўжалик экинларига зараркунанда ҳашаротларнинг келтирадиган зарарини аниқлаш ва унга қарши самарали кураш чораларини ишлаб чиқиш ва фермер хўжаликларига тавсия этишдан иборат.

Шу ҳудуд бўйича зараркунанда ҳашаротларнинг турларини биохилма-хиллигини ўрганиш учун асосий қўлланма бўлиб, олий таълим муассаларида энтомология фанидан дарслик сифатида, амалий ва семинар дарсларда фойдаланиш мумкин. Илмий Тадқиқот ишлари учун магистрлар ва докторантлар амалий қўлланма асосида сифатида фойдаланиш мумкин. Шу ҳудудда ҳашаротларнинг кадасртини тузишда, фермер хўжаликларини олдиндан огоҳлантириш, ҳашаротларга қарши курашиш чораларини олдиндан ишлаб чиқишга ёрдам беради. Табiiй экотизмда, шунингдек ғўза ва беда агроценозларида тарқалишини олдини олишда амалий ёрдам беради.

Қорақолпоғистон Республикаси бўйича қишлоқ хўжалик зараркунандалари ҳақида комплекс равишда энтомологик кураш чораларини ва экологик мониторингини тузишда катта ёрдам беради. Олинган маълумотлар илмий тадқиқот натижалари ўсимликларини ҳимоя қилишда агроценоз ва биоценозда қишлоқ хўжалик ўсимликларига зарар келтирадиган ҳашаротларнинг фитофаглари ва энтомофаглари аниқлашда юқори самара беради. Шу ҳудуд бўйича турли хил биотоплар тарқалган ноёб ўсимликлар ва ҳайвонот дунёсини асраш, ҳашаротларнинг фойдали энтомофаг турларини аниқлаш, уларни асраб қолиш ва уларнинг популяциясини кўпайтириш ва зарарли фитофаг турларини камайтиришда фойдаланиш, табиат экотизмларини муҳофаза қилиш, ҳамда келажак авлодга сақлаб қолишдан иборат.

Илмий изланишлар олиб борилган ҳудудда мирид қандалаларнинг синфи (*Insecta*), туркуми, (*Hemiptera*) кенжа туркуми (*Heteroptera*), оиласи *Miridae*



Lygus авлоди, тури *pratensis Lunaeus* дала қандаласи ва беда *Adelpocoris lineolatus Goeze* қандаласи учрагани аниқланди. Уларнинг турли хил биотопларда тарқалиши ва алоҳида ғўза ва беда агроценозларидаги ўсимликларнинг репродуктив аъзолари билан озиқланиши, ўсимликларнинг билан озиқланиши №1–жадвалда берилмоқда. Бу жадвалда кўриниб турубдики,мирид қандалаларнинг қайси ўсимликлар билан озиқланиши, тухум кўйиши, айрим ўсимликларида фақат имагоси учраши, айрим ўсимликларда личинкаси вояга етгунча учраши келтирилган.

Илмий тадқиқот ишлари Қорақалпоғистон Республикасининг Амударё тумани, Йўлдош Ўрозбаев жамоа хўжалиги ҳудудидаги, Отиқов Зафар фермер хўжалиги, Жамшид Олимбой фермер хўжалиги далаларида, Ходжайли тумани Оқ олтин ММТП ҳудудидаги, Танаров Соқий фермер хўжалиги, Дўстлик ММТП ҳудудидаги Абат Уйғур уруғчилик фермер хўжалиги суғориладиган ҳудуд ғўза ва беда агроценозларидаги ўрта тонали С-27-54 R-1 ғўза навларида кузатиш ишлари олиб борилди.

Қорақалпоғистон Республикасининг, Амударё ва Ходжайли туманларида ғўза, беда, олмабоғ, сабзавот ва табиий экотизимларидаги тарқалган мирид (*Miridae*) оиласига кировчи қандалаларнинг ўсимликлар билан озиқланиши.(1.04.30.09.2019й)

№ 1 жадвал

№	Ўсимликларнинг оиласи ва номи	Вояга етган имагоси учрайди	Қандала тухум кўяди	Личинка вояга етгунча ривожланади
I. Сем. Tamaricaceae				
1	<i>Tamarix arceuthoides</i>	+	-	-
2	<i>T arceuthoides Bge</i>	+	-	-
II. Сем. Chehopochiaceae				
3	<i>Spinacia L</i>	+	+	+
4	<i>Salicornia L</i>	+	-	-
5	<i>Ch album L</i>	+	-	-
6	<i>Ch glaucum L</i>	+	-	+
7	<i>Atriplex L</i>	+	+	+

III. Cem. Grucllferae Brasicacae				
8	<i>Sisembrium L</i>	+	+	+
9	<i>Sinapus L</i>	+	+	+
10	<i>Capsella Medic</i>	+	+	+
IV. Cem. Leguminosae Fabkceae				
11	<i>Medicago sativa</i>	+	+	+
12	<i>Alhagi adansPsoralea L</i>	+	+	+
13	<i>Psoralea L</i>	+	+	+
14	<i>Melilotus Mill</i>	+	+	+
15	<i>Lathyrus L</i>	+	-	+
16	<i>Onobrichis Adans</i>	+	+	+
17	<i>Tsifium L Trifdium</i>	+	+	+
V. Cem. Thymeliaceae				
18	<i>Diarthvon Nurez</i>	+	-	-
VI. Cem. Apiaceao				
19	<i>Daucus L</i>	+	-	-
20	<i>Prangos Lindi</i>	+	-	-
21	<i>Conium L</i>	+	-	+
22	<i>Ag vopyron Gaevtn</i>	+	-	+
VII. Cem. Gentianaceae				
23	<i>Centarium Gilib</i>	+	-	-
VIII. Cem. Gusgutaceae				
24	<i>Cbsctbta L Cneruta</i>	+	-	+
25	<i>Calystegia R</i>	+	-	+
26	<i>Convolvulus L</i>	+	-	-
IX. Cem. Verbenaceae				



27	<i>Mentha arvensis L</i>	+	-	+
X. Cem. Solanaceae				
28	<i>Solanum L</i>	+	-	-
XI. Cem. Plantaginaceae				
29	<i>Plantago L</i>	+	-	-
XII. Cem. Rubiaceae				
30	<i>Rubia</i>	+	-	+
31	<i>Galium L</i>	+	-	-
XIII. Cem. Compositae Asteraceae				
32	<i>Carthamnus L</i>	+	-	+
33	<i>Karelinia Lees</i>	+	-	+
34	<i>Artemisia Lees</i>	+	+	+
35	<i>Xanthiuml</i>	+	-	-
36	<i>Acropilon Cass</i>	+	-	-
37	<i>Dahlia pinnata Cav</i>	+	-	-
XIV. Cem. Gramineae				
38	<i>Bromus</i>	+	-	-
39	<i>Alopecurus L</i>	+	-	-
40	<i>Phragmites Alans</i>	+	-	-
XV. Cem. Cyperaceae				
41	<i>Bolboschoenus Palla</i>	+	-	-
XVI. Cem. Poiygonaceae				
42	<i>Rumex L</i>	+	+	+
43	<i>Fasopyrum Moench</i>	+	-	-
44	<i>Fasopyrym Gaerth</i>	+	+	+
XVII. Cem. Plantaginaceae				
45	<i>Plantaginaeae</i>	+	-	-

	<i>Laneolata L</i>			
XVIII. Сем. <i>Ranunculus L</i>				
46	<i>Ranunculus arvensis L</i>	+	-	-

Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманлари худудида учрайдиган мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи қандалаларнинг озикланадиган ўсимликлари 18 оилага мансуб бўлган 46 тур эканлиги аниқланди. Шундан 32 тур ўсимликларида мирид қандалалари тухум қўйиши аниқланди.

Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё тумани Йўлдош Ўрозбоев жамоа хўжалиги, Ортиқов Зафар фермер хўжалиги ғўза агроценозида тарқалган мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи (*Lygus ptatensis L*) дала қандаласининг ривожланиш фенограммаси. (1.04.1010.2019 йил)
№ 2-жадвал

Дала қанда сининг ривожла ниш даври(а влоди)	Март	Апрель	Май	Июнь	Июль	августъ	Сентябрь	Октябрь	Ноябрь
--	------	--------	-----	------	------	---------	----------	---------	--------





Мирид оиласига кирувчи беда *Adelphocoris lineolatus* Goeze (1778) қандаласи Ходжайли тумани Оқ олтин ММТП худуддидаги Танаров Сокий фермер хўжалиги ғўза даласи 12 га, ғўза С-27-54 R-1 навида учради ва унинг репродуктив аъзолари билан озиқланиб катта зарар келтирди. (2-расм)

Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманлари ғўза, беда, сабзаёт экинлари ва табиий экотизимларда учирайдиган мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи қандалаларнинг тур таркиби. (1.04.30.09.2019й)

№ 3 жадвал

№	Оилалар номи	Авлодлар сони	Турлар сони
1	<i>Miridae</i>	<i>Adelphocoris Reut</i>	<i>Adelphocoris lineolatus</i> <i>Goeze</i>
		<i>Lygus Hahn</i>	<i>Lygus pratensis L</i>
		<i>Lygus Hahn</i>	<i>Lygus gemellatus H-S</i>
		<i>Trigonatylus Fieb</i>	<i>Trigonatylus ruficornis</i> <i>Geoff</i>
		<i>Stenodema Lap</i>	<i>Stenatylus calcaratum</i> <i>Fieb</i>
		<i>Poecilocyttus Fieb</i>	<i>Poecilocyttus cognatus</i> <i>Fieb</i>
		<i>Poeciloscytus Fieb</i>	<i>Poeciloscytus vulneratus</i> <i>Pz</i>
		<i>Campylomma Reut</i>	<i>Campylomma verbasci</i> <i>M-D</i>



		<i>Atomoscelus Reut</i>	<i>Atomoscelus onustus Feieb</i>
		<i>Deraeocoris Cbm</i>	<i>Deraeocoris punctulatus Fall</i>
		<i>Dicyphus Fieb</i>	<i>Dicyphus sp</i>
		<i>Orthotylus Fieb</i>	<i>Orthotylus flavosparsus C</i>
2	<i>Pentatomidae</i>	<i>Dolicoris</i>	<i>Dolicoris baccarum</i>
		<i>Carpocoris</i>	<i>Carpocoris coreanus iran</i>
		<i>Carpocoris</i>	<i>Carpocoris fuscispinus</i>
		<i>Nezara</i>	<i>Nezara viridula</i>
		<i>Holcostethus</i>	<i>Holcostethus vernalsi</i>
		<i>Eurydema</i>	<i>Eurydema vernralis</i>
		<i>Graphosoma</i>	<i>Graphosoma Lineatum</i>
3	<i>Lygaeidae</i>	<i>Corzus</i>	<i>Corzus hyoscyami</i>
		<i>Pyrrhocoris</i>	<i>Pyrrhocoris apterus</i>
4	<i>Nabidae</i>	<i>Nabis</i>	<i>Nabis ferus</i>
5	<i>Antocoridae</i>	<i>Orius</i>	<i>Orius niger</i>

№ 5 жадвалда келтирилган ғўза, беда ва сабзавот экинлари ҳамда табиий экотизмларда тарқалган *Hemiptera* туркумининг 5 оиласига (*Miridae*, *Pentatomidae*, *Lygaeidae*, *Antocoridae*, *Nabidae*) мансуб, 20-авлодига таълуқли 23 тур эканлиги аниқланди. Шундан 19 тур фитофаг, 4 тур энтомофаг эканлиги аниқланди. Бу хашаротларнинг ичида *Hemiptera* туркумининг мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи турлар Қорақолпоғитон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманларидаги фермер хўжаликларида етиштириладиган ғўза, беда ва сабзавот агроценозларида учрайдиган даминант турлар эканлиги аниқланди.

Мирид оиласига, *Lygus Hahn* авлодига кирган 2 тур *Lygus pratensis L* ва *Lygus gemellatus H-S* ҳисобланди. Беда қандаласи *Adelphocoris Reut* авлодига кирувчи 1 тур *Adelphocoris Lineolatus Goeze* учради. *Trigonatylus fieb* авлодига 1 тур *Trigonatylus ruficornus Geoff* кириши аниқланди. *Stenodema Lap* авлодига 1 тур *Stenodema*

calcaratum Fieb кирди. *Pioecilosetus* авлодига мансуб, 2 тур *Pioeciloscytus cognatus Fieb* ва *Pioeciloscytus vulneratus Pz* тури кирди. *Campylomma Reut* авлодига 1 тур *Campylomma verbasci M-D* кирди. *Atomoscelus Reut* авлодига 1 тур *Atomoscelus onustus Fieb* тури кирди. *Deraeocoris Gbm* авлодига 1 тур *Deraeocoris punctulatus Fall* кирди. *Dicyphus Fieb* авлодига 1 тур *Dicyphus sp* тури кирди. *Orthotulus Fieb* авлодига 1 тур *Orthotulus flavosparsus C* тури кирди.

Pentatomidae оласига *Dolicoris* авлодига 1 тур *Dolicoris baccarum* тури кирди. *Carpocoris* авлодига 2 тур *Carpocoris coreanus iran* ва *Carpocoris fuscispinus* кирди. *Nezara* авлодига 1 тур *Nezara viridula* кирди. *Holcostethus* авлодига 1 тур *Holcostethus vernalis* тури кирди. *Eurydema* авлодига 1 тур *Eurydema vertralis* кирди. *Graphosoma* авлодига 1 тур *Graphosoma Lineatum* кирди.

Lygaeidae оиласига *Corizus* авлодига 1 тур *Corizus Hyoscyami* кирди. *Pyrrhocoris* авлодига 1 тур *Pyrrhocoris apterus* кирди.

Nabidae оиласига *Nabis* авлодига 1 тур *Nabis fesus* кирди. *Anthocoridae* оиласига *Orius* авлодига 1 тур *Orius niger* кирди.

Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжейли ғўза ва беда агроценозларида учрайдиган (*Miridae*) оиласига кирувчи йиртқич қандалаларнинг энтомофаг турлари.(1.04.30.09.2019й)

№ 4-жадвал.

№	оиласи	авлоди	тури	учираши	Учираган ойлар
1	Miridae	Nabis	ferus	+	IV-IX
2		Orius	niger	+	V-VIII
3		Campylomma	Verbasci M-D	+	V-IX
4		Deraeocoris	punctulatus Fall	+	VI-IX

1. *Nabidae* авлодига ва *Nabidae* оиласига кирувчи *Nabis fesus* тури кирди.
2. *Anthocoridae* оиласига , *Orius* авлодига *Orius niger* тури кирди.
3. *Miridae* оиласига *Campylomma Reut* авлодига *Campylomma verbasci M-D* тури кирди.
4. *Miridae* оиласига *Deraeocoris* авлодига *punctulatus Fall* тури кирди.

Бу оилага ва авлодларга кировчи *Nabis ferus*, *Orius niger*, *Campulomma verbasi* M-D ва *Deraecoris punctulatus* Fall турлари ғўза, беда ва бошқа қишлоқ хўжалик экинларида учрайдиган зараркундаларнинг популяциясини бутун мавсум давомида сонини табиий равишда камайтириб, бошқариб турувчи энтомофаг ҳашаротлар ҳисобланади. Улар табиатда агроценозларда ва биоценозларда табиий равишда кўпайиб фитофаг ҳашаротларнинг тухумлари, личинкалари ва имаголари билан озиқланиб, фойда келтириши аниқланди. Келажакда бу ҳашаротларга ўхшаган яримқаттиққанотлиларнинг энтомофаг турларини топишимиз ва уларни лаборатория шароитида кўпайтириб қишлоқ хўжалик экинлари экиладиган майдонларга қўйиб, юбориб улардан самарали фойдаланишимиз керак.

Қорақолпоғистон Республикасининг мирид қандалалари илмий тадқиқ қилинган ҳудудларнинг зоогеографик харитаси.

1. Қум ҳудуди фаунаси.
2. Бу ҳудудга Тохё - Тош Гресси атрофидаги катта қумлик ҳудудидаги қирғиз янтоқ, арчасимон юлғун. юлғун каби ўсимликларида учрайдиган қандалалар аниқланди.
3. Суғориладиган унумдор ҳудуд фаунаси.
4. Суғориладиган унумдор тупроқ ҳудуди фаунаси ҳисобланиб, унга ғўза ва беда агроценози киради. Бу ҳудудларга Амударё ва Ходжайли туманларидаги ғўза ва беда ҳамда сабзавот агроценозларидаги учрайдиган қандалалар аниқланди.



Амударё тумани, Йўлдош Ўрозбоев жамоа хўжалигидаги, Ортиқов Зафар фермер хўжалиги 8-га, даласидаги ғўза С-27-54 R-1 навининг кўсагидан дала ва беда қандалаларининг озикланганидан кейинги ҳосил бўлган қора доғлар келтирилган. Гулида ва шонасида ҳам шундай қора доғлар пайдо бўлади. (3-4 расм)

ХУЛОСА

Қорақолпоғистон Республикасининг Амударё ва Ходжайли туманлари ҳудудларида Мирид (*Miridae*) оиласига кирувчи 23 тур қандалалар аниқланди. Шулардан, 19 тур фитофаг, 4 тур энтомофаг турлари аниқланди. Бу қандалаларнинг ғўза, беда, сабзавот агроценозлардаги ва табиий экотизмлардаги озикланадиган ўсимликлари 18 оилага мансуб, 46 тур ўсимлик аниқланди. Шу ўсимликларнинг 32 турида дала қандалалари

Yosh bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, birinchi navbatda, oilaning ta'siri ostida. O'zida xatti-harakatlarning normalari va tamoyillari bolaning o'zi tomonidan qabul qilinadi va standart standart sifatida qabul qilinadi. Ota-onalarning misollari asosida, bola yaxshi va yomon narsalar haqida o'z fikrini qo'shib qo'yadi. 6 yoshgacha bo'lgan bola ota-onasini butunlay ko'chiradi. Agar siz ulardan uzoqroq bo'lsangiz, bolani oliy maqsadlarga rioya qilishga chaqirishingiz foydasiz. Misol keltiring, farzandlaringizning yashashini xohlaganingizcha yashashingiz ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'lida o'zini o'zi tarbiyalash yaxshi yordam berishi mumkin. Bolani har tomonlama rivojlantirish, boshqalarning xatti-harakatlarini muhokama qilish, yaxshi ishlarga rag'batlantirish. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning eng samarali va tasdiqlangan usullaridan biri bu ertakdir. Tasviriy va konkretlik bolalar uchun qanday xatti-harakatlarning joiz ekanligini tushunishga yordam beradi. Farzandlaringizni seving, ularga etarlicha e'tibor bering. Bu bolaning kuchiga, o'zlariga bo'lgan ishonchga ega bo'lishiga yordam beradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya hayot davomida davom etadi, ammo oila asosiy axloqiy tamoyillarning rivojlanishining ahamiyatini belgilaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab ish yuritishni talab qiladi.

O'sha paytda ba'zi odamlar, mana, biz mustaqillikka erishdik, endi faqat ota-bobolarimizdan qolgan qadriyatlar asosida yashashimiz kerak, boshqacha qarashlarning bizga hojati yo'q, degan asossiz fikrlarni ham bildirgan edi. Tabiiyki, bunday fikrlarga aslo qo'shilib bo'lmas edi. Bugun biz insonni birinchi o'ringa qo'yib, uning yaratuvchilik fazilati, ijtimoiy faolligi, ma'naviy qudratiga urg'u bermoqdamiz. Chunki O'zbekistonning buyuk kelajagini shakllantiruvchi bosh omillar – shular. Ammo yuqoridagi kabi ta'riflarda inson moddiy borliqning bir unsuri sifatidagina e'tirof etilib, boshqa maxluqotlardan farqli mustaqil mohiyati soyada qolib ketmoqda. Insonning mohiyati aslida murakkab bo'lib, ayni moddiyat va ma'naviyatning tutashuvi bilan izohlanadi. Ularning qaybiri ikkinchisi orqali ta'riflana boshlasa, inson mohiyati haqida beryoqlama tasavvur hosil bo'la beradi. Ma'naviy yuksalishga erishish - bu bir yillik yoki besh o'n yillik ish emas. Halq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib boyitib boradi. Chunki

ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy xarakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etarekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi. Xulosa o'rnida men shu masalaga to'xtalmoqchimanki ma'naviyat inson hayotini ko'zgusi, u inson qalbidagi nurdir. Manaviyatsiz hech bir shaxs komillika erisholmaydi. Shu o'rinda milliy ma'naviyatimizni bilmagan milliy qadriyatlarimiz urf-odat ananalarimizdan behabar bo'lishlik menimcha kechirib bo'lmas hatodir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.- «O'zbekiston» -1996. 2.. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. 1997.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O'zbekiston», 2000.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.
6. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo,raev N. Vatan tuyg,usi. T., O'zbekiston, 1996 y.
7. Xo, jamurodov I. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o,zlikni anglash. T., 1991 y.
8. Otamurotov S. Milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur; – Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug,,at. T., 1998 y



ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОЛИЯВИЙ МУАММОЛАРИ

Бобакулов Тулкин Ибодуллаевич
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби
кафедра мудири, и.ф.д., профессор

Аннотация

Мамлакат молия тизимининг барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларни ҳал қилиш миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг зарурий шартларидан бири ҳисобланади. Бунда инфляциянинг ўсишига йўл қўймаслик, миллий валютанинг барқарорлигини таъминлаш, давлат бюджети ижросининг мутаносиблигига эришиш, иқтисодиётни пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини ошириш каби масалалар мамлакат иқтисодиётининг барқарорлигини таъминлашнинг долзарб молиявий масалалари ҳисобланади.

Мақолада Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзарб молиявий муаммолари аниқланган ва уларни ҳал қилишга қаратилган илмий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, инфляция, бюджет, дефицит, пул массаси, фоиз ставкаси, кредит, экспорт, импорт, валюта курси, девальвация.

Кириш

Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегиясида молия тизимининг барқарорлигини таъминлаш макроиқтисодий ўсиш суръатларининг барқарорлигини таъминлашнинг зарурий шартларидан бири сифатида эътироф этилган. Хусусан, Тараққиёт стратегиясида 2023 йилдан бошлаб давлат бюджети дефицити суммасининг номинал ялпи ички маҳсулотга нисбатан даражасини 3 фоиздан ошмаслигини таъминлаш, инфляциянинг йиллик даражасини 5 фоиздан юқори бўлишига йўл қўймаслик, хусусий секторнинг банк тизимидаги улушини 60 фоизга етказиш, мамлакат фонд бозорининг йиллик айланмасини ҳозирги 200 млн. АҚШ долларидан 2026 йилнинг охирига бориб 7 млрд. АҚШ долларига етказиш вазифалари қўйилган [1]. Бу эса, мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзарб аҳамиятга эга бўлган молиявий муаммоларини аниқлаш ва уларни ҳал қилишнинг илмий жиҳатдан асосланган йўллари ишлаб чиқиш заруриятини юзага келтиради.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи

Молия тизимининг барқарорлигини таъминлаш, иқтисодиётнинг реал сектори ва молия сектори ўртасидаги алоқадорликни такомиллаштириш масалалари хорижлик ва ўзбекистонлик иқтисодчи олимлар томонидан илмий жиҳатдан тадқиқ қилинган ва тегишли илмий хулосалар, амалий тавсиялар шакллантирилган.

П. Грауд ва М. Полан томонидан амалга оширилган ва инфляцияга бағишланган илмий тадқиқотнинг натижалари кўрсатдики, биринчидан, инфляциянинг миқдорийлик назариясининг асосий қоидаларидан бири бўлган - пулларнинг ўсиш



суръати ва инфляция даражаси ўртасида тўғри мутаносиблик мавжуд, деган қоида тўғри ва статистик маълумотларда тасдиқланди; иккинчидан, инфляция даражаси паст бўлган мамлакатларда пуллар таклифининг ўсиш суръати ва инфляция ўртасида тўғридан-тўғри боғлиқлик мавжуд эмас; учинчидан, Марказий банкнинг мустақиллик даражасини юқори эканлиги ва пул агрегатларини мониторинг қилиш тизимининг ривожланганлиги пуллар таклифи ҳажмини назорат қилиш имконини беради ва бундай шароитда пуллар таклифининг ўсиши пулларга бўлган талабнинг ўсишига нисбатан ўзига хос реакция сифатида баҳоларнинг ўсишига олиб келмайди; тўртинчидан, инфляциянинг оқилона даражасига эга бўлган мамлакатларда корреляция коэффиценти 0,24 га тенг бўлган бўлса, инфляция даражаси юқори бўлган мамлакатларда ушбу коэффицент 1 га яқинлашди [2].

Л. Катао ва М. Терронза томонидан амалга оширилган илмий тадқиқот натижалари кўрсатдики, инфляция даражаси юқори бўлган мамлакатларда Давлат бюджети дефицитининг қисқариш суръати билан инфляция даражаси ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд, деган хулоса ҳисобланади. Ушбу хулоса аниқ ҳисоб-китобларга асосланган: инфляциянинг ўртача йиллик даражаси 50 фоизга яқин бўлган мамлакатларда Давлат бюджети дефицитининг ЯИМдаги салмоғини 1 фоизли пунктга қисқариши инфляциянинг 8,75 фоизли пунктга пасайишига олиб келади. Бунда Давлат бюджети дефицити ва инфляция ўртасидаги сезиларли статистик боғлиқлик нафақат юқори инфляция шароитида, балки оқилона инфляция шароитида ҳам кузатилди [3].

М.Фридменнинг илмий хулосасига кўра, пул массасининг йиллик 3-5 фоиз даражасида ўсиши иқтисодиётда иқтисодий фаолликни кучайтиради. Пул таклифининг ўсиши йилига 3-5 фоиздан юқори бўлса, унда инфляция ўса бошлайди, агар, иқтисодиётда пул таклифининг ўсиши 3-5 фоиздан кам бўлса, ялпи миллий маҳсулотнинг ўсиш суръати пасая бошлайди [4].

М. Фридменнинг пул қоидаси ўзининг амалий аҳамиятга эга эканлигини кўрсатди. Хусусан, муомаладаги пул массасининг ҳар йили 3-5 фоиздан ўсишини кўзлаган сиёсат натижасида АҚШда XX асрнинг 80-йилларида инфляция даражасининг йиллик 10 фоиздан 5 фоизгача пасайтириш, ЯИМ ҳажмини эса, йилига 3-5 фоиз атрофида ўсиб боришига эришилди.

Ж.Кейнс томонидан таклиф этилган монетар сиёсатнинг узатиш механизмига кўра, пуллар таклифининг ўсиши натижасида фоиз ставкасининг пасайиши инвестицияларнинг муқобил қийматини пасайтиради. Айтилишича, фоиз меъёрининг пасайиб бориши билан фирма ва компаниялар ўзларининг режали инвестициялари ҳажмини оширадилар. Бу харажатлар режали харажатларнинг умумий суммаси билан қўшилиб, товар захираларининг кўзда тутилмаган миқдорда сарфланишига олиб келади. Фирма ва компаниялар эса, бундай шароитда маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтирадилар. Бу эса, ўз навбатида, миллий даромаднинг кўпайишига олиб келади [5].

Фикримизча, ўтиш иқтисодиёти мамлакатларида Ж.Кейнс томонидан яратилган монетар сиёсатнинг узатиш механизми тўлақонли ва узлуксиз ҳаракатлана олмайди. Қимматли қоғозлар бозорининг ривожланмаганлиги, аҳоли ва корхоналарнинг қимматли қоғозлар эмитентларининг тўловга қобиллигига нисбатан ишончсизлигининг мавжудлиги, пул-кредит органларининг юқори репутацияга эга эмаслиги ва шу каби қатор омиллар монетар сиёсат узатиш механизмининг самарали ишлашига тўсқинлик қилади.

Ф.Мишкин пуллар таклифини тартибга солишда монетар сиёсатнинг очик бозор инструменти муҳимлигини эътироф эжтади ва фикрининг исботи сифатида очик бозор инструментининг қуйидаги афзалликларга эга эканлигини далил сифатида келтиради:

- очик бозор операцияларининг ҳажмини Марказий банк томонидан тўлиқ назорат қилиш имконияти мавжуд;
- очик бозордаги операциялар аниқ микдорга ва ўлчамга эга бўлиб, унинг мослашувчанлик даражаси юқоридир;
- очик бозордаги операцияларнинг осон қайтариловчанлик мазмунига эга эканлиги [6].

А.Тихоновнинг хулосасига кўра, иқтисодиётнинг пул маблағлари билан таъминланганлик даражаси М4 пул агрегати бўйича 50 фоиздан юқори бўлган мамлакатларда инфляция даражаси, одатда, 10 фоиздан ошмайди, реал фоиз ставкаси эса, 1,5-5,0% даражасида бўлади. Мазкур кўрсаткичнинг даражаси паст бўлган, яъни 20 фоизгача бўлган мамлакатларда инфляция даражаси нисбатан юқори бўлиб, реал фоиз ставкаси салбий бўлади ёки паст даражада бўлади [7].

Р.Шомуродовнинг хулосасига кўра, монетар сиёсат инструментларини такомиллаштириш орқали иқтисодиётнинг пулга бўлган реал талабини тўлиқ қондириш, тижорат банкларининг ликвидлилигини ва банк тизимида ҳисоб-китоблар самарадорлигини ошириш учун тижорат банкларининг вакиллик ҳисобрақамидаги ҳамда мажбурий захирадаги маблағларини бирлаштириб, уларнинг резерв активларини мажбурий захирадаги маблағлари ҳажмидан юқори бўлишини таъминлаш зарур [8].

Р.Шомуродовнинг ушбу хулосаси ҳозирги даврда ҳам амалий аҳамият касб этади. Бунинг сабаби шундаки, биринчидан, тижорат банкларининг мажбурий захира ажратмалари ҳозирга қадар Марказий банкнинг балансида депонент қилинмоқда; иккинчидан, Марказий банк томонидан тижорат банкларининг хорижий валюталардаги депозитларига нисбатан ўрнатилган мажбурий захира ставкалари сезиларли даражада юқоридир (18 %).

Таҳлиллар ва натижалар

Инфляцион таргетлаш режимига ўтилиши муносабати билан инфляцияга қарши курашиш Ўзбекистон Республикаси Марказий банки монетар сиёсатининг стратегик мақсадига айланди [9].

Шунингдек, тижорат банкларининг ликвидлилигини қўллаб-қувватлаш ва улар томонидан бериладиган кредитлар ҳажмининг барқарор ўсишини таъминлаш

мамлакат банк тизимини ислоҳ қилишнинг 2020-2025 йилларга мўлжалланган Стратегиясининг устувор йўналишлари сифатида белгиланган [10].

Қуйидаги жадвал маълумотлари асосида макроиктисодий монетар кўрсаткичларга баҳо берамиз (1-жадвал).

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида макроиктисодий монетар кўрсаткичлар [11]

(фоизда)

Кўрсаткичлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.
Инфляциянинг йиллик даражаси	14,3	15,1	11,1	10,0
Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасининг йиллик даражаси	16,0	16,0	14,0	14,0
Тижорат банкларининг миллий валютадаги кредитларининг ўртача йиллик фоиз ставкаси	20,5	24,2	22,3	20,8
Иқтисодиётни пул маблағлари билан таъминланганлик даражаси	19,7	17,9	18,5	19,1
Пул массасининг йиллик ўсиш суръати	13,3	13,8	17,8	30,3

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, республикада инфляция даражаси 2019-2021 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлган, аммо инфляциянинг йиллик даражаси 2021 йилда нисбатан юқори бўлган.

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг қайта молиялаш ставкаси 2021 йилда 2018 йилга нисбатан сезиларли даражада пасайган. Бу эса, ушбу даврда инфляция даражасини пасайганлиги билан изоҳланади. Ўз навбатида, Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини пасайиши тижорат банклари томонидан миллий валютада берилган кредитларнинг ўртача йиллик фоиз ставкасини пасайишига олиб келган.

1-жадвал маълумотларидан яққол кўринадики, 2018-2021 йилларда Ўзбекистон иқтисодиётини пул маблағлари билан таъминланганлик даражаси анча паст бўлган. Бу эса, макроиктисодий ўсиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади.

1-жадвал маълумотларидан кўринадики, республикада пул массасининг йиллик ўсиш суръати 2018-2021 йилларда юқори бўлган. Бу эса, макроиктисодий ўсиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади.

Эътироф этиш жоизки, Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзарб молиявий муаммоларидан бири – бу ташқи савдо баланснинг йирик миқдордаги дефицитга эга эканлигидир (2-жадвал).

2-жадвал



Ўзбекистон Республикасида экспорт, импорт ҳажми ва ташқи савдо балансининг дефицити, млн. АҚШ доллари [12]


Кўрсаткичлар	2018 й.	2019 й.	2020 й.	2021 й.
Экспорт	13 990	17 458	15 102	16 662
Импорт	19 439	24292	21 153	25 507
Ташқи савдо балансини дефицити	5 449	6 834	6 051	8 845

2-жадвал маълумотларидан кўринадики, 2018-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасида экспорт ва импортнинг ҳажми ўсиш тенденциясига эга бўлган. Аммо, ташқи савдо балансининг дефицити 2021 йилда 2018 йилга нисбатан юқори даражада (62,3 %) ошган. Бу эса, макроиктисодий ўсиш суръатларига салбий таъсир кўрсатади.

Ўз навбатида, ташқи савдо балансини йирик миқдордаги дефицитга эга эканлиги миллий валютанинг номинал алмашув курсига нисбатан кучли босимни юзага келтиради.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги ПФ-5177-сонли “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонининг қабул қилиниши ва унга мувофиқ, юридик ва жисмоний шахсларнинг чет эл валютасини эркин сотиб олиш ва сотиш ҳамда ўз маблағларини ўзининг ҳоҳишига кўра эркин тасарруф этиш ҳуқуқларини таъминланганлиги ҳамда миллий валютанинг номинал алмашув курсини шакллантиришнинг бозор механизмини жорий этилганлиги ташқи савдони ривожлантириш йўлидаги жиддий тадбирлардан бири ҳисобланади [13].

Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзарб молиявий муаммоларидан яна бири – бу миллий валютанинг қадрсизланиш суръатининг, яъни девальвация суръатининг юқори эканлигидир (1-расм).



1-расм. Ўзбекистон Республикасида миллий валютанинг 1 АҚШ долларига нисбатан номинал алмашув курси, сўм [14]



1-расм маълумотларидан кўринадик, 2018-2022 йилларда ўзбек сўмининг АҚШ доллариغا нисбатан қадрсизланиш суръати сезиларли даражада юқори бўлган.

Хулоса ва таклифлар

Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Тараққиёт стратегиясида молия тизимининг барқарорлигини таъминлашни макроиктисодий ўсиш суръатларининг барқарорлигини таъминлашнинг зарурий шартларидан бири сифатида эътироф этилганлиги мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзарб аҳамиятга эга бўлган молиявий муаммоларини аниқлаш ва уларни ҳал қилишнинг илмий жиҳатдан асосланган йўллари ишлаб чиқиш заруриятини юзага келтиради.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи кўрсатдики:

* пулларнинг ўсиш суръати ва инфляция даражаси ўртасида тўғри мутаносиблик мавжуд;

* инфляция даражаси юқори бўлган мамлакатларда Давлат бюджети дефицитининг қисқариш суръати билан инфляция даражаси ўртасида бевосита боғлиқлик мавжуд;

* пул массасининг йиллик ўсиш суръатининг барқарорлигини таъминлаш макроиктисодий ўсиш суръатларининг барқарорлигини таъминлашда муҳим ўрин тутди;

* пуллар таклифининг ўсиши натижасида фоиз ставкасининг пасайиши инвестицияларнинг муқобил қийматини пасайтиради ва фоиз меъёрининг пасайиб бориши билан фирма ва компаниялар ўзларининг режали инвестициялари ҳажмини оширадилар;

* иқтисодиётнинг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини ошириш миллий иқтисодиётни барқарор ривожлантиришнинг зарурий шартларидан бири ҳисобланади.

Тадқиқот жараёнида амалга оширилган таҳлиллар кўрсатдики:

* республикамызда инфляция даражаси 2019-2021 йилларда пасайиш тенденциясига эга бўлди, бироқ унинг даражаси юқорилигича қолди;

* мамлакатда Марказий банкнинг қайта молиялаш ставкасини 2021 йилда 2018 йилга нисбатан сезиларли даражада пасайганлиги ушбу даврда инфляция даражасини пасайганлиги билан изоҳланади ва ушбу ҳолат тижорат банклари томонидан миллий валютада берилган кредитларнинг ўртача йиллик фоиз ставкасини пасайишига олиб келди;

* 2018-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасида экспорт ва импортнинг ҳажми ўсиш тенденциясига эга бўлгани ҳолда, ташқи савдо балансининг дефицити 2021 йилда 2018 йилга нисбатан юқори даражада (62,3 %) ошди;

* 2018-2022 йилларда ўзбек сўмининг АҚШ доллариغا нисбатан қадрсизланиш суръати юқори бўлди.

Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётини ривожлантиришнинг молиявий муаммоларини ҳал қилиш учун қуйидаги тадбирларни амалга оширишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблайман:

1. Мамлакат иқтисодиётининг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини ошириш учун экспансионистик монетар сиёсатни Ж.М.Кейнс томонидан Иккинчи жаҳон урушидан кейин таклиф этилган умумий талабни рағбатлантиришга қаратилган бюджет сиёсати билан уйғунлаштирган тарзда олиб бориш лозим.

Экспансионистик монетар сиёсат тижорат банкларининг кредит экспансиясини рағбатлантиради ва кредитларнинг номинал ялпи ички маҳсулотга нисбатан даражасини ошириш имконини беради. Бу эса, пул массасининг мультипликатив кенгайишини таъминлаш имконини берган ҳолда, иқтисодиётнинг пул маблағлари билан таъминланганлик даражасини оширишга хизмат қилади.

Фикримизча, экспансионистик монетар сиёсатни амалга ошириш учун биринчидан, Марказий банк мажбурий захира талабномаси суммасини тижорат банкларининг “Ностро” вакиллик ҳисобрақамларида қолдириш йўли билан банкларнинг кредитлаш имкониятини ва ликвидлилигини ошириш лозим; иккинчидан, Марказий банкнинг дисконт ва ломбард кредитлари бериш амалиётини йўлга қўйиш билан тижорат банкларига бериладиган қайта молиялаш кредитлари ҳажмини ошириш зарур; учинчидан, тўловга қобиллик даражаси юқори бўлган тижорат банклари ва компанияларнинг депозит сертификатлари ва облигацияларини Марказий банк очик бозор операцияларининг объектларига айлантирган ҳолда, тўғри РЕПО ва тескари РЕПО операцияларининг ҳажмини ошириш керак; тўртинчидан, миллий ссуда капиталлари бозорини ривожлантириш асносида Марказий банк томонидан тижорат банклари кредитлари бозор баҳосининг паст ва барқарор даражасини таъминлашга эришиш.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан умумий талабни рағбатлантиришга қаратилган бюджет сиёсатининг амалга оширилиши номинал фоиз ставкасининг пасайишига олиб келади, монетизация коэффиценти даражасини ошириш имконини беради, Марказий банкнинг очик бозор операциялари ҳажмини оширишга замин яратади.

2. Ташқи савдо балансининг дефицитини қисқартириш учун, биринчидан, Миллий валютанинг Ўзбекистоннинг асосий ташқи савдо ҳамкорлари бўлган мамлакатларнинг (Россия, Хитой, Қозоғистон, Туркия, Жанубий Корея) миллий валюталарига нисбатан реал алмашув курсининг ошиб кетишига йўл қўймаслик орқали ушбу мамлакатларга экспорт қилинаётган товарларнинг рақобатбардошлигини ошириш лозим (бунда миллий валютанинг номинал алмашув курси ва инфляция даражалари ўртасидаги фарқ жиддий назорат остига олиниши керак); иккинчидан, миллий валютанинг девальвация суръатини пасайтириш мақсадида олтинни гаровга қўйиш йўли билан олинган халқаро кредитларнинг бир қисmini интервенция фондида йўналтириш орқали Марказий банкнинг валюта интервенциясини амалга ошириш имкониятини кенгайтириш лозим; учинчидан, ташқи савдо операцияларини молиялаштиришда тижорат банкларининг



кафолатларидан ва қопланмайдиган ҳужжатлаштирилган аккредитивлардан фойдаланиш кўламини кенгайтириш керак.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида//www.lex.uz.

2. Graude P., Polan M. Is Inflation Always and Everywhere a Monetary Phenomenon? Discussion Paper. №2841 CEPR. 2001. June. – P. 26-29.

3. Catao L., Terrones M. Fiscal Deficits and Inflation // Working Paper. 65. IMF. – P. 63 - 67.

4. Фридмен М. Если бы заговорили деньги. Пер. с англ.-М.:ИНФРА-М, 2001.- С. 63.

5. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с.

6. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 485.

7. Тихонов А. Коэффициент монетизации: некоторые аспекты теории, сравнительный анализ и практические выводы//Банковский вестник. – Минск, 2000. - №25 (132). - С. 4-9.

8. Шомуродов Р.Т. Банк тизимида монетар воситаларни такомиллаштириш йўллари. И.ф.н. илм. дар. ол. уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 19 б.

9. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 12.11.2019 й., 03/19/582/4014-сон.; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877-сонли “Инфляция таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида”ги фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2019 й., 06/19/5877/4036-сон.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги фармони//ҚХММБ:06/205992/0581-сон. 13.05.2020 й.

11. Пул-кредит сиёсати//www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикаси Марказий банки).

12. Ташқи иқтисодий фаолият//www.stat.uz (Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси).

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 2 сентябрдаги ПФ-5177-сонли “Валюта сиёсатини либераллаштириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – №36.– 945-модда.

14. Валюта курслари//www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикаси Марказий банки).



“YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BUGUNGI KUN TA'LIMI UCHUN DOLZARB”

Sherbekova Sevara Abduxakimovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahri Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktablarda yangi pedagogik texnologiyar bugungi kun uchun naqadar dolzarbli, qiziquvchi ijodkorlar foydalanishlari mumkin metodlardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, metodik vosita, axbarot texnologiyalari.

“Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat”

Abdulla Avloniy

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir katorida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun ixtisoslashgan maktablar va ijod maktablarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'zni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha **innovation**) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash, o'zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarni birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o`quvchi - talabaning bilimga bo`lgan kiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o`quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o`rganayotgan o`qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya - bu fakat axborot texnologiyasi bilan bog`liq, hamda o`qitish jarayonida ko`llanishi zarur bo`lgan texnik vositalar, kompyuter, masofali o`qish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyannng eng asosiy negizi - bu o`qituvchi va o`quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog`liq deb xisoblaymiz, ya`ni o`qitish jarayonida, maqsad bo`yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo`llaniladigan har bir ta`lim texnologiyasi o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil ega olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o`quv jarayonida o`quvchi - talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil ega olsalar, o`zlari xulosa qila olsalar, o`zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o`qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu, o`qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o`quv predmetining o`ziga xos texnologiyasi bor, ya`ni o`quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo`lib, u o`quvchi-talabaning extiyojidan kelib chikkan holda bir maqsadga yo`naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

O`qituvchi va o`quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o`quvchi-talabalarannng bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo`lar, bular o`qituvchi va o`quvchi-talabaga bog`liq.

Shu bilan bir qatorda o`qitish jarayonini oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonda o`qituvchi o`quv predmetining o`ziga xos tomonini, joy va sharoitni, texnik vositalarni, eng asosiysi, o`quvchining imkoniyati va extiyojini hamda hamkorliqdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkii. Qisqa qilib aytganda, o`quvchini ta`limning markaziga olib chiqish kerak.

O`qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko`ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo`lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o`qituvchiga u tomonidan bo`lajak darsni texnologik haritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik harigasi har bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayoggan predmet, fanning xususiyatidan, o`quvchi-talabalarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi

Bunday texnologik haritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar, usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir

darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyixalashtirilgan texnologik haritasiga bog'liq.

Darsning texnologik haritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish, bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit xolda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik haritani tuzilishi o'qituvchini darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday haritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."Interfaol ta'lim usullari" Sh.Shayakubov. R. Ayupov.

Toshkent 2012- yil

2. M.Usmanov Matematika Oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun ma'lumotnoma 1-qism
Toshkent 2017y

3. www.Ziyonet.uz;

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРАЗИТОВ РЫБ В ПРУДОВЫХ ХОЗЯЙСТВАХ БАССЕЙНА АМУДАРЬИ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ

Алламуратова З.Б.

Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы по изучению экологических особенностей паразитов рыб в прудовых хозяйствах бассейна Амударьи и меры борьбы с ними. При неблагоприятном изменении гидрохимического и газового режимов водных экосистем под влиянием факторов цивилизации, а также вследствие повышения численности популяций промежуточных хозяев гельминтов, увеличивается зараженность рыбы.

Ключевые слова: Низовья Амударьи, прудовые хозяйства, паразитофауна, экологические факторы, меры борьбы.

Успешное ведение рыбного прудового и озерного хозяйство нередко лимитируется паразитологическими факторами. Создание прудовых и озерных хозяйств открывает большие возможности для увеличения рыбной продукции. Поэтому кроме мер, направленных на охрану природы, улучшение состояние прудовых и озерных рыбных хозяйствах являются наиболее важными с точки зрения экологической безопасности продуктов питания [2, 10]. Болезни рыб не только нарушают производственную деятельность в прудовых хозяйствах, но при недостаточном внимании к оздоровительным мероприятиям, эти хозяйства могут превратиться в очаги распространения опасных заболеваний рыб в прудовых и озерных хозяйствах региона Южного Приаралья.

При неблагоприятном изменении гидрохимического и газового режимов водных экосистем под влиянием факторов цивилизации, а также вследствие повышения численности популяций промежуточных хозяев гельминтов, увеличивается зараженность рыбы. Снижению резистентности популяций рыб способствуют недостаточность и неполноценность корма. Следствием многофакторного воздействия, включающего влияние гельминтов, паразитических



простейших и ракообразных, является потеря биологической продуктивности водоема за счет замедления развития и даже гибели рыбы [9, 11].

Своевременное предупреждение эпизоотии возможно только при условии глубокого изучения биологии и экологии паразитов рыб. Поэтому изучение эпизоотического состояния наряду с изучением биотехники рыборазведения поможет разработать научно-обоснованные мероприятия, направленные на предупреждение массовых заболеваний рыб, а также разработать практические рекомендации по рациональному использованию прудовых озерных хозяйств. Эти вопросы решаются путем проведения комплексных рыбохозяйственных мероприятий, которые включают в первую очередь борьбу с паразитами и болезнями рыб.

Изучению фауны паразитов и болезней рыб водоемов бассейна Амударьи прудовых хозяйств были посвящены работы целого ряда исследователей. Определенный вклад в изучение паразитов и болезней рыб в прудовых рыб внесли Э.М.Ляйман (1966), О.Н.Бауер (1982), Османов С.О (1966), Алламуратов Б.А. (1986), Уразбаев А. и др. (2001) и др. Многие из этих работ были проведены с 1965 по 1980 годы XX века. Естественно с 1980 г. по настоящее время произошли существенные изменения в ихтиопаразитофауне водоемов в низовьях Амударьи прудовых и озерных хозяйствах.

Большинство обнаруженных нами паразитов являются обычными для пресных водоемов Узбекистана. Ряд видов впервые указываются для водоемов Средней Азии (*Hemiohrus branchiarum*, *Scyphidia doneccae*, *Apiosoma baninae*). Среди обнаруженных паразитов имеются виды, известные как возбудители опасных заболеваний рыб как в прудовых хозяйствах, так и в естественных водоемах. Это *Costia necatrix*, *Eimeria carPELLI*, *Glugea lucioperae*, *Myxobolus muelleri*, *M.pfeiferi*, *M.cyprini*, *Ichthyophthirius multifiliis*, *Apiosoma carPELLI*, *Trichodina nigra*, *Dactylogyrus vastator*, *D. extensus*, *Gyrodactylus elegans*, *Bothriocephalus opsarichthydis*, *Ligula intestinalis*, *Diplostomum spathaceum*, *Piscicola geometra*, *Argulus foliaceus* и другие.



По данным специалистов с 1980 г. XX века года по настоящее время произошли существенный изменения в ихтиопаразитофауне. В настоящее время в районах Туямуянского водохранилища у рыб обнаружили 55 видов паразитов. Нами установлено что обеднение паразитофауны рыб связано с обеднением фауны гидробионов и экологических ниш в данном регионе. Особенно большие изменения произошли в фауне сазана и некоторых других видов рыб.

Сазан - одна из наиболее ценных промысловых рыб бассейна Амударьи и в системах Турткульского прудового хозяйства. В разных водоемах хозяйства и в разные сезоны исследовано 75 экз. сазана, в том числе в канале Янбош-ёп - 15 экз., в коллекторах - 15, в озерах Турткуль - 15, Келтеминар -15 экз. Из 14 видов паразитов обнаруженных у сазанов (20-86,7%) заражения 4,6 прудов хозяйстве наиболее распространены патогенны *Eimeria carpellii* (13,3-53,3%), *Ichthyophthirius multifiliis* (13,3-60,0%), *Apiosoma piscicolum* (73,3), *Trichodina nigra* (26,7-66,7%), *Dactylogyrus vastator* (6,7-80,0%), *D.extensus* (6,7-53,3%), *Bothriocephalus opsarichthydis* (20,0-53,3%) и т.д. Видовой состав экстенсивность и интенсивность заражений сазана паразитами в канале Янбош-ёп, в коллекторах и озерах были не одинаковы, что зависит как от биотических, так и от абиотических факторов (скорость течения, мутность воды, газовый и солевой режим водоемов и т.д.). Кроме того, в пруды заходит много сорных и посторонних рыб из Туямуянского водохранилища через канал Янбош-ёп, а также ряд паразитов могут проникать в пруды с водой и уже зараженными рыбами. Многообразие источников формирования паразитофауны обусловлено богатым видовым составом паразитофауны сазанов. При соответствующих оптимальных условиях численность паразитов возрастает, что ведет к вспышкам заболеваний рыб.

Паразитофауна карпа (*Cyprinus carpio Linne*) оказалась более разнообразной в системах Турткульского прудхоза - 11 видов, в канале Янбош-ёп - 4 вида, 4,6 отделении прудов - 11 видов, коллекторах - 3 вида.



В прудах зараженными оказались 20,0-60,0%. У карпа наиболее распространенными патогенным паразитам были: *Eimeria carpelli* (13,3-50,0%), *Ichthyophthirius multifiliis* (45,0), *Dactylogyrus vastator* (13,3-65,0%), *D. extensus* (6,7-50,0%), *Bothriocephalus opsarichthydis* (13,3-40%). Это свидетельствует о том, что для развития указанных паразитов в прудах хозяйстве имеются более благоприятные условия чем на канале и коллекторах.

Туркистанский усач (*Barbus capito conocephalus Kessler*) является одной из наиболее ценных рыб. В системах Туркестанского прудхоза нами исследовано 49 экз. усаца, в том числе в канале Янбош-ёп-16 экз, в прудах хозяйстве - 20 экз, коллекторах - 13 экз. Сравнительно высокий процент заражения показали патогенный паразит *Myxobolus mueller* (18,7-35,0%), *Chilodonella piscicola* (30,0%), *Apiasoma piscicolum* (50,0), *Dactylogyrus linstowi* (25,0-60,0%), *D. kulwieci* (6,2-65,0%), *D. affinis* (12,5-70,0%). Это свидетельствует в том, что для развития указанных патогенных паразитов в хозяйстве имеются более благоприятные условия, чем канале Янбош-ёп и коллекторе.

Аральская плотва (*Rutilus rutilus aralensis Berg*). Общее заражение в системах Турткульского прудхоза у 75 экз. исследованных рыб составило 20,0-86,7%. В период существования Турткульского прудхоза 4,6 отделении прудов обнаружено 9 видов паразитов из них *Costia necatrix* (13,3-46,7%), *Scyphidia donecae* (6,7-60,6%), *Apiosoma piscicolum* (20,0-53,3%), *Dactylogyrus nanus* (6,7-46,7%). Это свидетельствует о том, что для развития указанных паразитов в хозяйстве имеются более благоприятные условия.

Аральский лещ (*Abranus brama orientalis Berg*). В системе Турткульского прудхоза нами исследовано 83 экз. леща, где заражение составило 10,0-80,9%. У леща в прудхозе нами зарегистрированы 8 видов паразитов, в 4,6 отделении прудов из 21 экз. исследованных рыб паразитофауне леща сравнительно высокой инвазии достигается патогенными являются *Doctylogyrus falcatus* (11,8-71,4%), *D.wunderi* (13,3-76,2%), *Ligula intestinalis* (6,7-52,4%) и т.д.



Такая неравномерность заражения леща паразитами, видимо связана с плотностью популяции хозяина и рядом экологических условий, к примеру в разных водоемах канал Янбош-ёп лещ заражен на 26,7%, в озере Келтеминар 10,0%.

Белый амур *Ctenophoringodoni idella Valenciennes*. Всего исследовано 49 экз. рыб и общая зараженность составляла 26,7-83,9%. У белого амура в Турткульском прудхозе зарегистрированы патогенные паразиты *Ichthyophthirius multifiliis* (44,4%), *Apiosoma piscicolum* (18,7-55,5%), *Trichodina nigra* (12,5-44,4%), *Dasytylogyrus lamellatus* (6,7-61,1%). Инвазия этой рыбы другими видами паразитов была сравнительно слабой (6,2-16,2%).

Серебряный карась (*Carassius auratus gibelio Block*). В системе Турткульского прудхоза из 80 исследованных особей карася обнаружено наиболее сильно инвазировались такими видами, как *Apiosoma carpelli* (25,0%), *Trichodina nigra* (6,7-35,0%), *Diplostomum spathaceum* (13,3-30,0%).

Из приведенных примеров видно, что видовой состав паразитов у одних и тех же видов в системе более разнообразен.

Сом (*Silurus glanis Linne*). В системе Турткульского прудхоза всего исследовано 64 экз. сома и обнаружено 6 видов паразитов, в 4,6 отделении прудов исследовано 18 экз. сома и зарегистрировано 6 видов паразитов. Сравнительно сильнее всего сома инвазируют патогены *Trichodina siluri* (44,4%), *Silurodiscoides siluri* (6,7-38,8%), *S.vistulensis* (6,2-33,3%), а остальными паразитами в отдельных водоемах минимально заражены 6,2-13,3%.

Судак (*Lucioperca lucioperca Linne*). В системах Турткульского прудхоза исследовано 50 экз. рыб, обнаружено 6 видов паразитов из которых зараженными оказались 18,7-61,1%. В 4,6 отделении прудах исследовано 18 экз. рыб, из которых 18,7-61,1% оказались зараженными. У судака в прудах обнаружены патогенный организмы *Trichodina luciopercae* (12,5-55,5%), *Trichodina domerguei* (38,9%), *Bothriocephalus opsarichthydis* (12,5-33,3%).

Большинство нами обнаруженных паразитов являются обычными для рыб пресных водоемов Узбекистана.

Среды обнаруженных паразитов имеются виды, известные как возбудители опасных заболеваний рыб как в прудовых хозяйствах, так и в естественных водоемах. Это *Costia necatrix*, *Eimeria carPELLI*, *Glugea luciopercae*, *Ichthyophthirius multifiliis*, *D. Extensus*, *D. vastator*, *Gyrodactylus elegans*, *Bothriocephalus gowkongensis*, *Ligula intestinalis*, *Diplostomum spathaceum*, *Piscicola geometra*, *Argulus foliaceus*, *Ergasilus sieboldi*, *Lernaea cyprinacea* и др.

В целом наблюдение над формированием паразитофауны рыб в системе Турткульского прудового хозяйства показывает, что в низовьях Амударьи паразитофауна отдельных рыб существенно обеднела. Это связано с влиянием целого ряда абиотических факторов: течение реки, колебание уровня воды, заиление и другие экологические факторы, которые создают неблагоприятные условия для паразитов рыб.

Таким образом, борьба с болезнями рыб должна быть направлена, прежде всего, на недопущение возбудителя в водоем или подавление его численности, усиление защитных сил организма хозяина, создание условий, препятствующих развитию заболеваний. Общие меры борьбы с болезнями рыб включают полноценное кормление рыб и создание богатой естественной кормовой базы, качественное проведение рыбоводных работ, содержание прудов в хорошем санитарно-рыбоводном состоянии, борьбу с сорными «посторонними» рыбами, недопущение чрезмерных плотностей посадки рыб у пруды, борьбу промежуточными и дефинитивными хозяевами паразитов, уменьшение травматизации при обловах прудов и пересадках рыб, сокращение сроков выращивания молоди в хозяйствах постоянный контроль за кормовой базой.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алламуратов Б.А. Паразитические простейшие и протозойные болезни рыб некоторых прудовых хозяйств Узбекистана и юга Казахстана.- Нукус: «Каракалпакстан», 1986.-с. 98.
2. Бауер О.Н. Регуляция численности паразитов пресноводных экосистемах // Гельминты в пресноводных биоценозах. -М., 1982.- С. 4-16.
3. Быховская-Павловская И.Е. Паразиты рыб // Руководство по изучению. 1985. – 120 с.
4. Догель В.А. Общая паразитология, Ленинград, 1962 г.
5. Лакин Г.Ф. Биометрия: 2-е изд., перераб. и дополн. -М.- 1973.- 343 с.
6. Ляйман Э.М. Курс болезней рыб. М., 1966. – с.331.
7. Мирабдуллаев И.М., Мирзаев У.Т., Хегай В.Н. Определитель рыб Узбекистана.- Ташкент: «Chinor ENK», 2001.
8. Османов С.О. Паразиты рыб бассейна Амударьи // Рыбы и гидробиологический режим Южно-Аральского бассейна. -Ташкент, 1966. -С. 44-56.
9. Османов С.О. Паразиты рыб Узбекистана. Ташкент, изд. «ФАН» УзССР, 1971. - С. 1-532.
10. Стрелков Ю.А. Концепция охраны здоровья рыб в современной аквакультуре // Проблемы охраны здоровья рыб в аквакультуре. Тез. на-уч.-практ. конф. М.: Россельхозакадемия, 2000. - С. 16-18.
11. Уразбаев А.Н., Юсупов О.Ю., Дильманова Р.С., Султанов Е.К. Паразиты некоторых рыб водоемов Южного Приаралья в экстремальных экологических условиях // В кн.: Проблемы охраны и рационального использования биологических ресурсов водоемов Узбекистана.-Ташкент: Chinor ENK, 2001. - С. 96-99.

IT-ЛОЙИХАЛАР ПОРТФЕЛИНИ БОШҚАРИШ: УСУЛ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ

*Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий тараққиёт ва
камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳузуридаги Бизнес
ва тадбиркорлик олий мактабининг “Инвестициялар ва
лойиҳа бошқаруви” кафедраси мудири, к.ф.н., доцент
Садриддинов Бахтиёр Бахриддинович*

Аннотация

Илмий мақолада лойиҳаларни бошқаришнинг тўғри усулини танлаш ва лойиҳанинг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда қийинчиликларга дуч келаётган мамлакатимиз иқтисодиётининг замонавий компаниялари томонидан IT-лойиҳалар портфелини бошқариш масаласини таҳлил қилишга бағишланган. Корхонанинг IT-лойиҳалари портфелини шакллантириш жараёнининг асосий босқичлари белгиланган. Маҳаллий компаниялар томонидан IT-лойиҳалар портфелини шакллантириш жараёнининг асосий вазифалари санаб ўтилган. IT-лойиҳалар портфелини бошқариш учун фойдаланиладиган лойиҳаларни бошқаришнинг асосий усуллариининг хусусиятлари кўриб чиқилади. Лойиҳаларнинг ҳар бирининг афзалликлари ва камчиликлари таҳлил қилинади. Лойиҳани бошқаришда муваффақиятсизликка олиб келадиган асосий муаммолар такидланган. Лойиҳаларни бошқариш усулларида фойдаланган ҳолда компаниялар учун асосий қийинчилик ва таҳдидларни тенглаштиришга қодир бўлган мувозанатли IT-лойиҳалар портфелининг роли таҳлил қилинади. IT-лойиҳалар портфелини шакллантиришнинг асосий моделлари ва усуллари, шу жумладан уларнинг қисқача тавсифлари ва хусусиятлари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: портфелни бошқариш; IT лойиҳалари; лойиҳа бошқаруви; инновацион лойиҳалар; лойиҳалар портфели.

Корхоналарнинг лойиҳаларини бошқаришнинг амалий қўлланилиши бошқарув фаолиятини такомиллаштириш учун триггер(триггер - бу тизимга маълум бир воқеа содир бўлганлиги ҳақида сигнал берувчи буйруқ ёки функция.)лар сони ортиб бораётган рақобат муҳити туфайли тобора долзарб бўлиб бормоқда. Корхоналар сони ортиб бормоқда, лойиҳаларни бошқаришда янги инновацион ёндашувлар ишлаб чиқилмоқда, бунинг натижасида янги стандартлар пайдо бўлмоқда. Ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида компаниянинг стратегик ўсиши ва ривожланишига эришиш учун энди алоҳида лойиҳа ва дастурларни муваффақиятли яқунлашнинг ўзи кифоя қилмайди - компанияда амалга оширилаётган барча лойиҳаларни яқунлаш керак.

Бундан ташқари, бизнес рақобатбардошлигининг барқарор ўсишига эришиш нафақат лойиҳаларни бошқариш бўйича тўғри иш натижасидир, балки компания раҳбарияти амалга ошириладиган лойиҳаларни тўғри танлашга мажбурдир.

Замонавий корхоналар дуч келадиган асосий муаммолардан бири бу улар амалга ошираётган кўплаб лойиҳа ва дастурларнинг компаниянинг стратегик мақсадлари билан боғлиқлиги ва барча лойиҳалар ўртасида чекланган ресурсларни самарали тақсимлаш жараёнидир³³.

Айнан шу сабабли, мамлакатимиз бозорида компаниянинг ИТ-лойиҳа портфелини бошқариш усуллари танлаш ва моделларни шакллантириш муаммоси бўйича илмий тадқиқотларнинг долзарблиги анча юқори.

Мақоланинг илмий тадқиқот мақсади лойиҳани бошқаришнинг тўғри усулини танлаш ва лойиҳанинг иқтисодий самарадорлигини баҳолашда қийинчиликларга дуч келадиган мамлакатимиз иқтисодиётидаги замонавий компаниялар томонидан ИТ-лойиҳалар портфелини бошқариш масаласини таҳлил қилишдир.

Илмий тадқиқот доирасида қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш зарур:

- корхонанинг ИТ-лойиҳалари портфелини шакллантириш жараёнининг асосий босқичларини ажратиб кўрсатиш;
- маҳаллий компаниялар томонидан ИТ-лойиҳалар портфелини шакллантириш жараёнининг асосий вазифаларини санаб ўтиш;
- ИТ-лойиҳалар портфелини бошқариш учун фойдаланиладиган асосий лойиҳаларни бошқариш усуллари хусусиятлари кўриб чиқиш;
- ҳар бир лойиҳанинг афзалликлари ва камчиликларини таҳлил қилиш;
- ИТ-лойиҳалар портфелини шакллантиришнинг асосий моделлари ва усуллари, шу жумладан уларнинг қисқача тавсифлари ва хусусиятларини кўриб чиқиш;
- лойиҳани бошқаришда муваффақиятсизликка олиб келадиган асосий муаммоларни ажратиб кўрсатиш;
- лойиҳаларни бошқариш усулларида фойдаланган ҳолда компаниялар учун асосий қийинчиликлар ва таҳдидларни тенглаштиришга қодир бўлган ИТ-лойиҳаларнинг мувозанатли портфелининг ролини таҳлил қилиш.

Аввало шуни таъкидлаймизки, компаниянинг ИТ-лойиҳалари портфелини шакллантириш жараёни бир неча босқичлардан иборат³⁴:

- ИТ портфели лойиҳаларини аниқлаш (жорий ва режалаштирилган лойиҳалар

³³ Матвеев А.А., Новиков Д.А. Модели и методы формирования портфеля проектов. URL: <http://econold.asu.ru/lib/sborn/model2006/pdf/24.pdf> (дата обращения: 26.11.2019).

³⁴ Емельянова К., Седова К. Отбор проектов в портфель: как сделать правильный выбор. URL: <http://www.pmexpert.ru/presscenter/publication/detail.php?ID=2811> (дата обращения: 26.11.2019).



рўйхати тузилади);

- IT-лойиҳаларни гуруҳлаш (гуруҳлар бизнес мақсадига қараб белгиланади, лойиҳалар ушбу гуруҳлар орасида тақсимланади);
- IT-лойиҳаларнинг сифат таҳлили (баҳолаш мезонлари ва кўрсаткичлари аниқланади, лойиҳалар баҳоланади, лойиҳаларни таҳлил қилиш ва танлаш амалга оширилади);
- IT-лойиҳаларнинг миқдорий таҳлили (иқтисодий самара ва лойиҳани амалга ошириш муддати ҳисоблаб чиқилади, харажатлар бюджетлари ва лойиҳа стратегиясини амалга ошириш муддатлари/режаси аниқланади);
- IT-лойиҳаларнинг устуворлиги;
- IT-лойиҳалар портфелини мувозанатлаш (портфелни молиялаштириш жадвали шакллантирилди, портфел ресурс режаси шакллантирилди).

Шундай қилиб, мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган компанияларининг IT-лойиҳалари портфелини шакллантириш жараёнининг қуйидаги вазифаларини ажратиб кўрсатиш мумкин³⁵:

- лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш;
- лойиҳалар портфелини шакллантириш;
- лойиҳани амалга ошириш жараёнини режалаштириш;
- портфел лойиҳалари ўртасида ресурсларни тақсимлаш;
- лойиҳа портфелини бошқариш.

IT-лойиҳаларни бошқаришнинг муҳим жиҳати амалий методология ҳисобланади. Бугунги кунга келиб, лойиҳа бошқаруви мавжуд бўлган вақт давомида деярли ҳар қандай эҳтиёж учун лойиҳани бошқаришнинг кўплаб турли усуллари яратилган.

Энг мос методологияни танлаш учун компаниянинг IT-лойиҳалари учун энг муҳим мезонларни, масалан, муддатлар (тугаш муддатлар), ресурслар, жараёнга риоя қилиш ёки бир вақтнинг ўзида бир нечта омиларни аниқлаш керак ва кейин лойиҳани бошқариш усулини танлаш керак. Албатта ижобий кўрсаткичга эришишга қаратилган.

Мослашувчан бошқарувнинг биринчи усули бу Агиле (Agile). Ушбу ёндашув лойиҳалар ва маҳсулотларни бошқариш учун мослашувчан итератив-инкрементал усуллар оиласидир. Ушбу ёндашувга кўра, лойиҳа кетма-кет босқичларга эмас, балки кичик кичик лойиҳаларга бўлинади, кейинчалик улар тайёр маҳсулотга “йиғилади”³⁶.

³⁵ Матвеев А.А., Новиков Д.А., Цветков А.В. Модели и методы управления портфелями проектов. URL: <http://www.mtas.ru/person/novikov/upp.pdf> (дата обращения: 26.11.2019).

³⁶ ТОП 7 методов управления проектами. URL: <https://www.pmservices.ru/project-management-news/top-7-metodov-upravleniya-proektami-agile-scrum-kanbanprince2-i-drugie/> (дата обращения: 26.11.2019).



Ушбу усулнинг асосий афзаллиги унинг мослашувчанлиги ва ҳар қандай ички шароитга, айниқса ташқи муҳитга мослашишидир.

Ушбу усулнинг камчиликлари жамоа аъзолари - ходимлар учун қўшимча масъулиятнинг мавжудлигидир.

Кейинги мослашувчан методология – СКРАМ (SCRUM). Бу IT лойиҳасини бошқариш учун идеал усул. Лойиҳа қисми корхона ичидаги ҳар қандай вазифа бўлиши мумкин³⁷.

Усул компаниянинг IT-лоyiҳаларини бошқариш воситаси сифатида қуйидаги афзалликларга эга³⁸:

- биринчидан, бу мажбурий жараён бўлиб, унда ҳар бир ходим ва жамоа аъзоси ҳар куни ўз ишини сарҳисоб қилади, ўз ҳамкасблари ва раҳбарлари билан ҳал қилинмаган вазифаларни муҳокама қилади, шунингдек, кейинги давр учун режаларни белгилайди;

- иккинчидан, ғоялар ва вазифаларни тизимлаштириш жараёни мавжуд, чунки жамоа аъзолари ҳар бир ходим ишининг асосий моҳиятини кўрсатадиган СКРАМ доскасига матн маъноси бўлган стикерларни ёпиштирадilar. Вазифалар бажарилгандан сўнг, жамоа стикерларни бир устундан иккинчисига ўтказди ва шу билан мувозанатли хаританинг стратегик мақсадларини амалга оширишга яқинлашади;

- учинчидан, лойиҳа якунида жамоа аъзолари ўз раҳбарлари билан ҳал қилинган вазифалар ва иш жараёнида юз берган ўзгаришларни муҳокама қиладilar. Натижалар компаниянинг лойиҳани амалга ошириш билан боғлиқ бўлган афзалликлари ва камчиликлари билан умумлаштирилади.

Шу билан бирга, СКРАМ моделидан фойдаланишнинг камчиликлари ҳам мавжуд:

- манфаатдор томонлар билан шартномалар тузишда қийинчиликлар;
- жамоа интизомига путур етказадиган истиснолар кўпроқ.

Кейинги усул – Лин (Lean), унда худди СКРАМда бўлгани каби, иш алоҳида ва мустақил равишда амалга ошириладиган кичик етказиб бериш пакетларига бўлинади. Лин СКРАМ каби мослашувчанлик ва тузилмани бирлаштиради, лекин бироз бошқача тарзда³⁹.

Бироқ, лойиҳанинг ҳар бир қисми бир хил батафсил ва синчковлик билан

³⁷ Впечатления от методологии Скрам. URL: <http://projectimo.ru/upravlenie-proektami/metodologiyascrum.html> (дата обращения: 26.11.2019).

³⁸ Как Amazon и Google: применяем Скрам в вашей команде. URL: <http://igate.com.ua/news/14921-kakamazoni-google-primenyaem-skram-v-vashej-komande> (дата обращения: 26.11.2019).

³⁹ ТОП 7 методов управления проектами. URL: <https://www.pmservices.ru/project-management-news/top-7-metodov-upravleniya-proektami-agile-scrum-kanbanprince2-i-drugie/> (дата обращения: 26.11.2019).

ўрганиш ва эътиборни талаб қилмайди. Аммо Лин ҳар бир вазифа ва босқичга айнан шундай ёндашувни назарда тутати. Бу йирик ва бир турдаги ИТ лойиҳалари учун Линдан фойдаланишнинг асосий камчилигидир.

ИТ-лойиҳаларни бошқаришдаги энг сўнгги тезкор методология Канбан ҳисобланади. Агар Лин биров мавҳум кўринса, Канбан билан биргаликда фойдаланиш осонроқ бўлади. Канбан СКРАМ усулида рухсат этилганидан камроқ қатъий интизомни ўз ичига олади. Ҳар бир жамоа аъзоси кўпроқ ҳаракат эркинлигига эга бўлиши ва бир вақтнинг ўзида бир нечта лойиҳаларни бошқариши мумкин.

СКРАМ сингари, Канбан ҳам яхши мулоқотга эга бўлган жуда қаттиқ боғланган жамоалар учун жуда мос келади. Канбан ёндашувининг заиф томони шундаки, у аъзоларнинг маҳорати бир-бирига мос келадиган жамоалар учун энг мос келади. Шундай қилиб, улар бир-бирларига муаммоларни ҳал қилишда қийинчиликларни енгишга ёрдам беришлари мумкин.

Бундай ижобий тахминларга қарамай, аксарият миллий ва хорижий корхоналар ИТ-лойиҳалар портфелини бошқаришни самарасиз жараёнга айлантирадиган турли муаммоларга дуч келишмоқда. Одатда, ИТ-лойиҳа эски хизматларни янгиларига алмаштириш, тижорат сайтини ишлаб чиқиш, янги турдаги иш столларини яратиш ёки маълумотлар базаларини бирлаштириш каби ноёб маҳсулот, хизмат ёки муҳит яратишга қаратилган қисқа муддатли ҳаракатдир⁴⁰.

Таниқли иқтисодчи олим ва лойиҳаларни бошқариш бўйича маслаҳатчи Жозеф Филипс Америка Қўшма Штатлардаги фаолияти давомида қуйидаги статистик маълумотларга дуч келганини таъкидлади: лойиҳаларнинг атиги 29 фоизи муваффақиятли якунланган. Бундай юқори носозликнинг асосий сабаблари (71%) қуйидаги асосий муаммолардир:

- ИТ соҳасида лойиҳаларни бошқариш одатий лойиҳаларни яратишга қараганда анча қийин;
- лойиҳани бошқариш етарли даражада ишлаб чиқилмаган режалаштириш босқичини ўз ичига олади;
- асосан, ИТ-лойиҳалар ўзини турли хавф-хатарларга дучор қилиб, шошқалоқлик билан амалга оширилади;
- қоида тариқасида, ИТ соҳасидаги лойиҳаларни бошқаришда менежерлар катта ҳажмдаги ишларнинг мавжудлигига дуч келишади, бу оптималлаштириш ва самарадорлик нуктаи назаридан тўғри эмас.

Ушбу муаммолар ва таҳдидларни текислаш учун компания раҳбариятининг

⁴⁰ Управление ИТ-проектами: определение и решение ключевых проблем. URL: <http://www.advantagroup.ru/blog/upravlenie-it-proektami/> (дата обращения: 26.11.2019).



тўғри қарори IT-лойиҳалар портфелини бошқаришнинг мувозанатли усулини танлаш бўлади. Бирок, мувозанатли портфелни шакллантириш қуйидаги қийинчиликка дуч келади. Мезонларни танлаш ва ҳар бир лойиҳа самарадорлигини баҳолашда.

IT-лойиҳаларнинг энг самарали портфелини шакллантириш учун турли модел ва усуллардан фойдаланиш керак. Шундай қилиб, келинг, IT-лойиҳалар портфелини шакллантиришнинг асосий моделлари ва усуллари, шу жумладан уларнинг қисқача тавсифлари ва хусусиятларини кўриб чиқайлик⁴¹:

- “Босқич-дарвоза” жараёни (Stage-Gate Process (SGP) - бу янги маҳсулотни (технологияни) ғоядан бошлаб тижоратга чиқаришгача тарғиб қилишнинг концептуал ва операцион модели. SGP инновацион жараёни олдиндан белгиланган босқичларга ажратади, уларнинг ҳар бири тадбирлар мажмуини ифодалайди.)га асосланган модел (моделнинг ўзига хос хусусияти шундаки, янги маҳсулотни яратиш лойиҳаси босқичларга бўлинади. Ҳар бир босқич бошланишидан олдин лойиҳа ўтиши керак бўлган эшиклар мавжуд. натижалари бўйича лойиҳа тақдири тўғрисида қарорлар қабул қилинади);

- Радулеск модели (моделнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у молиявий ресурсларни чеклаш билан хавф шароитида чизиқли бўлмаган математик 0-1 дастурлаш воситаларидан фойдаланган ҳолда эксперт баллари асосида мустақил лойиҳалар портфелини бошқаришга қаратилган);

- тармоқни ривожлантириш лойиҳаларини бошқариш модели (моделнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, тармоқни ривожлантириш мақсадлари ва ушбу мақсадларга эришишни таъминлайдиган дастур шакллантирилади. Ҳар бир лойиҳа “харажат – самарадорлик” мезони бўйича баҳоланади);

- Бабри-Девис модели (моделнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у ташкилотнинг бизнес жараёнларини амалга ошириш учун ахборот тизимлари, технологиялари, платформаларини жорий этиш бўйича лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш имконини беради);

- ўзаро боғлиқ лойиҳалар портфелини шакллантириш учун оптималлаштириш модели (моделнинг ўзига хос хусусияти шундаки, лойиҳалар ўртасидаги муносабатлар ҳисобга олинади, лойиҳа портфели компаниянинг стратегик мақсадларига мувофиқ мувозанатланади).

Шундай қилиб, лойиҳалар портфелини шакллантиришнинг асосий вазифаси лойиҳаларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқлаш, уларни амалга ошириш жараёнини режалаштириш ва портфелдаги лойиҳалар ўртасида ресурсларни

⁴¹ Аньшин В.М., Демкин И.В., Никонов И.М., Царьков И.Н. модели управления портфелем проектов в условиях неопределенности. URL: https://www.hse.ru/data/530/907/1224/Publ5_Anshin.pdf (дата обращения: 26.11. 2019).



тақсимлашдан иборат. Шу билан бирга, компаниянинг стратегик мақсадлари ва бизнеснинг тармоқ хусусиятларига қараб, лойиҳа портфелини шакллантириш учун тўғри методология ва моделни танлашнинг муҳимлиги ва зарурлигини билиш керак.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Матвеев А.А., Новиков Д.А. Модели и методы формирования портфеля проектов. URL: <http://econold.asu.ru/lib/sborn/model2006/pdf/24.pdf> (дата обращения: 26.11.2019).
2. Емельянова К., Седова К. Отбор проектов в портфель: как сделать правильный выбор. URL: <http://www.pmexpert.ru/presscenter/publication/detail.php?ID=2811> (дата обращения: 26.11.2019).
3. Матвеев А.А., Новиков Д.А., Цветков А.В. Модели и методы управления портфелями проектов. URL: <http://www.mtas.ru/person/novikov/upp.pdf> (дата обращения: 26.11.2019).
4. Аньшин В.М., Демкин И.В., Никонов И.М., Царьков И.Н. модели управления портфелем проектов в условиях неопределенности. URL: https://www.hse.ru/data/530/907/1224/Publ5_Anshin.pdf (дата обращения: 26.11. 2019).
5. Как Amazon и Google: применяем Скрам в вашей команде. URL: <http://igate.com.ua/news/14921-kakamazoni-google-primenyaem-skram-v-vashej-komande> (дата обращения: 26.11.2019).
6. Впечатления от методологии Скрам. URL: <http://projectimo.ru/upravlenie-proektami/metodologiyascrum.html> (дата обращения: 26.11.2019).
7. ТОП 7 методов управления проектами. URL: <https://www.pmservices.ru/project-management-news/top-7-metodov-upravleniya-proektami-agile-scrum-kanbanprince2-i-drugie/> (дата обращения: 26.11.2019).
8. Управление IT-проектами: определение и решение ключевых проблем. URL: <http://www.advantagroup.ru/blog/upravlenie-it-proektami/> (дата обращения: 26.11.2019).



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM- TARBIYA BERISH MASALALARI

Durmanova Gulchehra Dusiyarovna.

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi

Metodikalarga o'rgatish milliy markazi

“Pedagogika, psixologiya va ta'lim

texnologiyalari” kafedrasi

katta o'qituvchisi

Anatasiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish, tabiat, ularda atrof-muhitga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasiga oid masalalar yoritilgan, uning mazmuni ochib berilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: maktabgacha ta'lim, ekologik ta'lim, atrof-muhitga munosabat, ekologik madaniyat, bolani tabiat bilan tanishtirish, bola shaxsi, tabiatni asrash, tabiatni kuzatish.

Анастасия

В статье экологическое воспитание детей в дошкольных образовательных учреждениях, воспитание в них бережного отношения к природе и окружающей среде, бережного отношения и чувства ответственности за нее, освещаются вопросы, связанные с экологическим воспитанием детей дошкольного возраста, его содержание раскрыто.

Ключевые слова и понятия: дошкольное образование, экологическое воспитание, отношение к окружающей среде, экологическая культура, приобщение ребенка к природе, личность ребенка, охрана природы, наблюдение за природой.



Anatasia

In the article, environmental education of children in preschool educational institutions, education of respect for nature and the environment in them, careful attitude and a sense of responsibility for it, issues related to environmental education of preschool children are highlighted, its content is revealed.

Key words and concepts: preschool education, environmental education, attitude to the environment, environmental culture, introducing the child to nature, child personality, nature conservation, observing nature.

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza etish haqidagi yo'l-yo'riqlar ajdodlarimizdan asrlar osha ma'naviy meros sifatida ilhom manbai bo'lib kelgan. Tabiatga mehr odam dunyoga kelgan paytidan, go'daklik chog'idan boshlab uning qalbiga singa boshlaydi. Tabiatga mehri kuchli bo'lgan odamning el ulusga, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo'ladi. Ta'lim-tarbiyada, ayniqsa, tabiatni e'zozlash haqidagi sharqona, o'zbekona ta'lim-tarbiyada hikmat ko'p. Buning uchun eng avval maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni ekologik jihatdan ma'naviyatli yoshlar qilib tarbiyalashimiz lozim.

Jahonning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo'lmoqda. Ekologik ma'rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo'lga qo'yish, tabiatga, atrof-muhitga ko'rsatilayotgan salbiy antropogen ta'sirlarni kamaytirishga, insonning atrof-muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniiy va boshqalar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850) risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Bilingki, daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat



tushgan bo'radi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar!» Daryoning «yoshli ko'zlari» deganda Muhammad Muso al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning «bir-birlarini tushunishlari», o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan.

Kadrlar tayyorlashda ham "inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi"ga, "ta'lim oluvchilarning ... ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish"ga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablari, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo'yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas'uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi lozimligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Bularning barchasi shaxs kamolotining dastlabki bosqichlarida bolalarda shaxsiy munosabatlarni hosil qilish uchun ularni atrof-muhit qadriyatlariga o'rgatish zarurligidan dalolat beradi. Uning eng muhim vositalaridan biri esa bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish hisoblanadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ekologik madaniyatning maqsadi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ijtimoiy ekologik axloq qoidalariga mos keluvchi va uning holati uchun fuqarolik mas'ulligini ta'minlovchi dastlabki ekologik bilimlar, qarash va e'tiqodlar asoslarini majmua sifatida tarkib toptirishdan iboratdir.

Ayniqsa, tabiat bilan inson munosabatlariga oid muammolarni hal qilishda dastlab bu pedagogik jarayonni oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlamoq zarur. Shunga ko'ra bolalar bog'chalarida ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, uni sevishi, tabiatda yuz beradigan voqyea-hodisalar haqida tushunchaga ega bo'lishi, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalash muhim pedagogik muammo hisoblanadi

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni samarali amalga oshirish, bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat asoslarini shakllantirish psixologiya fani va amaliyotidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Zero, tabiatga muhabbat, unga mas'ullik tuyg'usi - juda keng qamrovli va murakkab psixologik-pedagogik



tushunchalardir. Ular yuksak ruhiy va aqliy qatlamlarni o'z ichiga oladigan yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Bunday tuyg'uni tarbiyalash ishini ilk bolalik yoshidan boshlash kerakligi uchun mazkur muammo o'ta dolzarb sanaladi.

Bolalarga hayvonlar va o'simliklarni qanday kuzatishni ko'rsatish, ularning diqqatini ularning tashqi ko'rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur narsa va hodisadagi nimaga qaratishni bilish zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida axloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur. Bolaning axloqiy rivojlanishida unda ona tabiatga muhabbat va tiriklikka ehtiyotkorona munosabatda bo'lish asosiy o'rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo'l ular o'sib o'lg'ayotgan joydir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida hayvonlar va o'simliklarning mavjud bo'lsa, bolalar ularni kuzatadi va boqadi, tarbiyachiga yordamlashadi. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas'uliyat o'z-o'zidan shakllanadi. Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o'simliklarni sug'orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o'rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o'zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim.

Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur. Bolalarning tabiatda bo'lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go'zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o'ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish jarayonida e'tiborlarini o'rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o'z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go'zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261sonli qarori. 2017 yil.

3.Sh.A.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2013 4,8,9-betlar.

4.M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.

5.R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev Pedagogika

t. «O'qituvchi» 2001. 420- b

УСТАНОВЛЕНИЕ ОБЪЕМА ЗАИЛЕНИЯ КАНАЛОВ И ОРГАНИЗАЦИЯ ОЧИСТНЫХ РАБОТ В УСЛОВИЯХ РЕКИ АМУДАРЬИ

Азамат Курбанов Илхом угли

БАССЕЙНОВОЕ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННОЕ ОБЪЕДИНЕНИЕ «СЫРДАРЬЯ»

ведущий инженер-экономист

*Магистр Высшая школа бизнеса и предпринимательства при министерстве
экономического развития и сокращения бедности республики Узбекистан*

azamat_jon1992@mail.ru

+99890 427-09-09

Аннотация. В статье рассматриваются методы для обеспечения гарантированного водозабора и процесс осаждения наносов в головном отстойнике. По результатам натурного исследования подводящего канала разработана рекомендация по улучшению его эксплуатации. Проанализировано и обобщено результаты обследований гидравлического и наносного режимов наносов в русле подводящих каналов. А также организация очистных работ и рекомендации соответствующей расстановки земснарядов по длине канала. Расстановку земснарядов осуществляют в зависимости от распределения объемов отложений по длине канала, с учетом типа и производительности каждого земснаряда.

Ключевые слова: русло, подводящий канал, русловой процесс, заиление, рекомендация, улучшение, режим наносов, отстойник, насосная станция

Введение. Прогноз влияния режима работы насосных станций на динамику и гидродинамическую характеристику потока является одной из самых важных задач русловой гидравлики. Особенно если водозабор осуществляется бесплотинным способом, одной из самой мутной реки Центральной Азии-Амударьи. Для повышения эффективности насосной станции и уменьшение абразивного износа насосных агрегатов обеспечение гарантированного объема воды в насосную станцию и осветлению потока на подводящем участке машинного канала приобретает особую актуальность. Проведение научного исследования по изучению динамики поступления наносов в аванкамеры насосных станции, которые влияет на надежность и функционирование насосной станции, по определению интенсивности и направленности заиления русла машинного канала уменьшающие его пропускную способность и разработку мероприятий по обеспечению поступления гарантированного объема воды с минимальном количеством объёма донных и взвешенных наносов считается актуальной задачей эксплуатационных служб насосных станций[6].

Изменение графика подачи воды в насосную станцию, изменение гидравлического и наносного режимов потока в русле подводящих каналов существенно изменяет естественный ход руслового процесса и требуется прогноз этого изменения. Поэтому проблема изучения русловых процессов и расчёт морфометрических характеристик в русле подводящих каналов насосных станций, влияющие на их пропускную способность всегда привлекала внимание многих ученых [7]. Однако, несмотря на обилие работ, посвященных этой проблеме, её решение ещё далеко до практического завершения [6]. Причиной этого является сложность и многофакторность протекания русловых процессов, происходящие в руслах подводящих каналов насосных станции в пространстве и во времени. Кроме этого в объект исследования вода поступает из реки Амударья, водный поток которой характеризуется с высокой степенью насыщенности наносами [8].

Методика исследований. Изучение результатов натурных исследований в русле подводящей участки насосной станции каскада Каршинского Магистрального Канала и оценка состояния пропускной способности канала является методом исследования настоящей работы.

В среднем течении Амударьи при бесплотинном водозаборе подводящая часть магистральных каналов сильно заносится донными и взвешенными наносами, что затрудняет эксплуатацию водозаборных узлов и отбор воды из реки (рисунок 1).



Рисунок 1. Подводящий участок насосной станции каскада Каршинского Магистрального Канала

Борьба с наносами осуществляется в основном путем основному крупных фракций наносов в головной части каналов и более мелких - на начальных участках межхозяйственных каналов. Осевшие наносы удаляются механизированным способом с помощью электрических и дизельных землесосов [7].

Основное затруднение, с которым приходится сталкиваться при организации производства очистных работ, - установление объемов заиления головного и межхозяйственного отстойников. Полный объем наносов, поступающих в канал на



входном створе его, складывается из объемов взвешенных ($W_{вз}$) и влекомых ($W_{вл}$) наносов, то есть

$$W_n = W_{вз} + W_{вл}, \quad (1)$$

Объем взвешенных наносов, поступающих из реки в оросительную систему, определяют, исходя из объема водозабора, мутности воды в **реке** и степени осветления воды на участках магистральных и межхозяйственных каналов:

$$W_{вз} = \frac{\sum Q \rho_0}{\gamma_n}, \quad (2)$$

где $\sum Q$ - суммарный объем (сток) водоподдачи, m^3 за декаду или месяц;
 ρ_0 - среднедекадная или среднемесячная мутность воды во входном створе канала, $кг/м^3$;
 γ_n - плотность донных отложений (для отстойников в среднем составляет $1250 кг/м^3$).

Объем влекомых наносов, поступающих в канал, из-за трудности измерений может быть принят в процентах от объема взвешенных наносов. По данным наших измерений, расход влекомых наносов на участке р. Амударья в районе головной части КМК составил 10...28 %, на участке в районе головной части АБМК 5...37 % и, по данным [2], - 8...2%. Приближенные значения расходов влекомых наносов во внутригодовом разрезе при расчетах могут быть приняты: в период половодья – 15...20 и в меженный период - 20...27 % от расхода взвешенных наносов [3-5].

В наших исследованиях было установлено р. Амударья является то, что она протекает в исключительно легкоразмываемых грунтах. Непостоянство русла р. Амударья, вследствие постоянных размывов и наращивания берегов, создает исключительные затруднения для стабильной работы водозаборных сооружений, в результате которых наблюдаются значительные колебания расходов воды, в том числе в подводящих каналах. По количеству наносов, транспортируемых водным потоком, р. Амударья занимает первое место в мире. Так, по данным, среднегодовая мутность воды в среднем течении р. Амударья колеблется от 3 до 3,7 $кг/м^3$, а максимальная может достигать 20 $кг/м^3$.

В настоящее время для обеспечения поступления требуемого расхода воды в аванкамеру насосной станции №1, из подводящей части канала поступившие наносы удаляются гидромеханическим способом, что не может удовлетворить требований эксплуатации КМК. С целью недопущения попадания наносов в следующие ступени каскада предложено устроить отстойник, в котором предполагается задерживать все наносы диаметром крупнее 0,0015мм, при этом не допустить осаждения мелких полезных наносов, которые могут быть транспортированы на орошаемые земли[6].

Необходимо отметить, что в ирригационной практике применяются отстойники, располагаемые в головной части каналов и внутрисистемные отстойники. Первые устраиваются в голове системы на подводящем участке магистрального канала и предусматривают осаждение части наиболее крупных фракций наносов, которые не могут транспортироваться магистральными каналами вниз. Во внутрисистемных отстойниках, устраиваемых на различных участках ниже расположенных каналов, поток осветляется вторично с тем, чтобы оставшиеся наносы могли транспортироваться водными потоками оросительных каналов на орошаемые поля. В отстойниках такого типа имеется больше возможностей поддерживать нужные глубины наполнения, подпоры и скорости с помощью регуляторов, расположенных выше и в конце отстойника [6].

Исследования транспортирующей способности Амударьинских оросительных систем, расположенный в среднем течении реки показали, что головные отстойники на крупных оросительных системах не могут обеспечить незаиляемость внутриводостроительной сети до каналов такого же порядка. Здесь необходимо устройство внутрисистемных отстойников. Было показано, что в течение всего поливного периода во внутриводостроительную сеть может транспортироваться 30% общего стока взвешенных наносов, поступающих в систему, из которых 20% выйдет на поля, а 10% отложится во внутриводостроительной сети. При этом, в отстойниках должно быть задержано около 70% наносов. Отстойники на оросительных системах в низовьях р. Амударья, [1-3] в основном, представляют собой расширенные и углубленные головные участки каналов, на которых осуществляется непрерывное удаление осаждающихся наносов гидромеханическим способом. Длина головных отстойников 1000 - 2500 м, а внутрисистемных – 400-1500 м.

Одной из наиболее важных характеристик с точки зрения эксплуатации, является время заиления отстойника. Принимая во внимание средневзвешенную мутность воды, поступающей в отстойник, а также необходимость непрерывной подачи воды к насосной станции №1 можно определить вероятную продолжительность заиления отстойника.

Выводы и рекомендации. Режим работы оросительных каналов с высокопроизводительными насосными станциями характеризуется быстрыми изменениями расходов и уровня воды из-за больших ступеней изменения водоподдачи. В нормальном режиме эксплуатации насосной станции и выключение одного насосного агрегата вызывает изменение расходов в пределах 10...20 % от начального. В отдельные периоды эксплуатации подводящей части машинного канала очистные работы в канале и в отстойнике не доводятся до проектной отметки. В результате недобора необходимого объема заиленного грунта в подводящем канале и в



отстойнике увеличивается объем заилений. Для решения возникающих проблем в объектах исследования нужно будет разработать новые компоновочные схемы трассы и отстойников подводящих каналов насосных станций позволяющие улучшить условия эксплуатации подводящих каналов насосных станций.

Список использованной литературы

1. Базаров Д.Р., Норкулов Б., Рузимухамметова Д.М, “Изменение гидрологического режима реки при бесплотинном водозаборе”, Архитектура, Строительство, Дизайн. № 4, 2011г. С-39-41.
2. Базаров Д.Р. Научное обоснование новых численных методов расчета деформации русел рек сложенных легкоразмываемыми грунтами. Диссертация на соискание ученой степени д.т.н. 05.23.16-Гидравлика инженерная гидрология. Москва, 2000, МГУП, 209с.;
3. Кучкаров М. М. Шереметовский А.А. Некоторые результаты исследований по определению расхода влекомых наносов в среднем течении р. Амударьи. // Сб. науч. тр / Среднеаз. НИИ ирригации. -1985.-Вып.174.-С.98-106
4. Норкулов Б., Артыкбаева Ф., Нишанбаев Х., «Результаты натурных исследований русловых процессов в земляном канале, Международная научно-практическая конференция, Молодых ученых по проблемам водных ресурсов, Алмаата, Казахстан, 5-8 апреля 2018 года.
5. Норкулов Б.Э, Характерные особенности Р.Амударя при бесплотинном водозаборе (На примере водозабора КМК), Материалы Республиканской научно-практической-практической конференции. Вопросы совершенствования эффективного использования земельных ресурсов и охрана окружающей среды» Ташкент 2012г. №1 С. 155-156.
6. Отчетные материалы управления КМК.
7. Тузов Б. Е К вопросу определения расхода донных наносов по объему русловой формации.- Труды САНИИРИ/ Среднеаз. НИИ ирригации. -1968.-Вып.114.-С.93-114.



ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АФЗАЛЛИК ТОМОНЛАРИ.

А.Қодирий номидаги ЖДПИ

катта ўқитувчиси Шукурова Х.

1-босқич талабаси Ўразова Орзигул.

Аннотация: Ушбу мақолада бугунги таълим соҳасида педагогик технологиялардан фойдаланишнинг аҳамияти ёритиб берилган. Шунингдек, педагогик технологиялардан "Бумеранг" технологиясини қўллаш ва унинг самараси кўрсатиб ўтилган.

Мақолада олий таълимда педагогик технологияларнинг мазмун моҳияти, замонавий таълимнинг аҳамияти хусусиятлари ва ҳозирги кундаги долзарб муаммолари баён этилган.

Аннотация: В данной статье широко раскрывается значение использования педагогических технологий в современной образовательной среде.

В частности раскрывается использование технологии "Бумеранг" и её эффективность.

Resume: In this article the importance of utilizing pedagogical technologies in a higher education is stated, also one of the pedagogical technologies which is called "Bumerang" and its amenities are mentioned. The meaning of the pedagogical technologies, a special features of modern education and a tough problem of present time are also given, it has also stated plainly about establishing lessons with modern manners.

Key words: the technology of boomerang, pedagogical technology, the sphere of education, technological map.

Калит сўзлар: "Бумеранг" технологияси, педагогик технология, таълим соҳаси, технологик харита, тренинг. Веер технологияси

Узок утмишга назар ташласак, ота-боболаримиз кадимдан бебахо бойлик булмиш илм-у маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнакиннинг энг асосий шарти ва келажаги деб билган.

Шу боис, юртимизда устоз шахсига хурмат билан мурожаат қилишган. Бу эса албатта уз ўрнида устозларнинг мавкеларини оширишга замин яратган.

Мамлакатимизда 1997-йилда қабул қилинган "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" ва "Таълим тўғрисидаги қонун"нинг ижросини таъминлаш масаласи республикаимизнинг барча таълим муассасаларида бир канна ижобий амаллар оширилаётганлиги. айникса, таълим соҳасидаги катта ўзгаришлар бугунги ўқитувчиларга жуда катта масъулият юклайди.

Замонавий шароитда жамиятимизда рўй бераётган ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-маърифий соҳадаги ўзгаришлар таълим тизимида ҳам янгиликлар киритиб боришни жадаллаштирмоқда. Жумладан, таълим жараёнини ташкил этиш шарт-шароитларининг шакл ва механизмларини ўзгаришига зарурат туғилмоқда. Айникса, мазкур ҳолатни олий таълим соҳасида яққол кузатиш мумкин. Бугун республикаимизда таълим соҳасида олиб борилаётган эзгу ишлар ҳақида сўз борар экан, ўқитувчиларнинг дарсда педагогик технологиялардан самарали фойдаланиб келаётганини алоҳида таърифлаш лозим.

Аввало, педагогик технология атамасининг ЮНЕСКО берган таърифини келтирамиз: "Педагогик технология - таълим бериш ва ўзлаштириш усуллари яратиш, қўллаш, уларни ягона тизимга солиш йўли билан инсон салоҳияти ва техник воситаларнинг барча имкониятларидан мувофиқ фойдаланиб, билимлар ўзлаштиришнинг энг мақбул жараёнидир".

Ўқитувчи дарсда қандай технологияни қўллаши ўз ихтиёрида, чунки мақсад аник натижаларга эришишимизга қаратилган, ўқувчининг билими савияси, характери хисобга олиб педагогик технология танланади. Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит ҳолатда кўра билиш, уни тасаввур этиш учун бўлажак дарс жараёнларини лойиҳалаштириш керак, бунда ўқув

предметининг ўзига хос томони, жой, шароит, ўқувчининг имконияти ва эҳтиёжи, ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил эта олишини ҳисобга олиш керак. Шундагина, кутилган натижага эриша олади. Лойихалашда ўқувчи дарснинг марказида бўлиши лозим.

Дарсни лойихалаштиришда педагогик технологик харита ёрдам беради. Шу ўринда савол туғилиши мумкин. Технологик харита нима? Уни қандай тузиш мумкин? Унинг афзалликлари нимада?

Технологик харитада дарс жараёни яхлит ҳолда акс этган бўлиши, аниқ белгиланган мақсад, вазифа ва қафолатланган натижа, дарс жараёнини ташкил этишнинг технологияси тўлиқ ўз ифодасини топган бўлади. Технологик харитани тузиш учун ўқитувчи педагогика, психология, ахборот технологияларидан хабардор бўлиши, жуда кўп метод ва усулларни билиши лозим.

Технологик хаританинг қандай кўриниши ва шаклда бўлиши ўқитувчининг тажрибасига, маҳоратига қўйган мақсади, натижасига боғлиқ.

Технологик харита тузилиши ўқитувчини дарснинг кенгайтирилган конспектини ёзишдан ҳалос этади, чунки бу харитада дарснинг барча қирралари ўз ифодасини топади.

Ўқитувчи томонидан тузилган технологик хаританинг фанни, предметни яхлит ҳолда тасаввур этиб ёндашишига, тушунишига (бир ўқув йили бўйича) яхлит ўқув жараёнининг бошланиши, мақсадидан эришадиган натижасига олдиндан кўра олишига имкон беради.

Масалан "Бумеранг" технологияси бўйича 1-синфда "Алифбе" дарсини ўтиш бўйича дарсни ташкил этишга доир технологик харитаси:

Мавзу: Мустақиллик – олий неъмат	Дарсни қизиқарли ва мазмунли ташкил этиш
----------------------------------	--



Мақсад ва вазифалар:	1-синфда Алифбе дарслигидаги “Мустақиллик – олий неъмат” мавзусини қандай ўтиш кераклигини ташкил этиш ва мавзу бўйича дарс ишланмаси тузишга ўргатиш.
Ўқув жараёни:	1-синфда Алифбе дарсида ўқувчилар билан қандай ишлаш, мавзунини тушунтириш, болаларга индивидуал ва дифференциал ёндашиш, билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш.
Ўқув жараёни амалга ошириш технологияси, метод, восита, усул маҳоратини баҳолаш	1-синфда оддий амалий дарс ўтиш жараёнида “Ақлий ҳужум” технологияси, “Кластер” технологиясидан фойдаланиш йўллари ўргатиш.
	Мавзунини тушунтириш бўйича дарс ташкил этиш. Энг яхши дарсни ташкил этилган дарсларини таҳлил қилиш.
Хулоса	Дарсни мустахкамлаш.
Келгусида режалар, таҳлил ва ўзгаришлар	Ўқувчиларнинг мустақиллик байрами ҳақидаги илк тасаввурларини шакллантириш. Сўз, гап, матн тузишга ўргатиш.

Ўқитиш жараёнида қўллаш мумкин бўлган баъзи бир тренингларга тавсифнома бериб ўтамиз. "Тармоқлар" методи - ўқувчининг мантикий фикрлаш, умумий фикр доирасини кенгайтиришга, мустақил равишда адабиётлардан фойдаланишга ўргатишга қаратилган.



"3x4" методи - талабаларни эркин фикрлаш, умумий фикр доирасини кенгайтиришга, кенг доирадаги турли ғояларни бера олиши, таълим жараёнида якка кичик гуруҳ ҳолда таҳлил этиш хулоса чиқара олиш, таъриф бера олишига қаратилган.

"Бумеранг" технологияси - дарс жараёнида, дарсдан ташқарида турли адабиётлар, матнлар билан ишлаш, ўрганилган материалларни ёдида сақлаб қолиши, сўзлаб бера олиши, фикрини эркин ҳолда баён эта олиши ҳамда дарс давомида барча талабаларни баҳолашга қаратилган.

"Бумеранг" технологияси бўйича кенгроқ тўхталамиз:

Мазкур технология бир машғулот давомида ўқув материални чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган. У турли мазмун ва характерга эга бўлган "муаммоли, мунозарали, турли мавзуларни ўрганишда яхши натижа беради, ўз ичига оғзаки ва иш шакллари қамраб олади, ҳамда бир машғулот давомида ҳар бир иштирокчининг турли топшириқларини бажариши, навбат билан ўқувчи ёки ўқитувчи ролида бўлиши кераклиги баллни тўплашга имконият беради.

"Бумеранг" технологияси танқидий фикрлаш, мантиқий шакллантиришга имконият яратади, ғояларни, фикрларни, далилларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

Таълим билан бир қаторда мазкур метод тарбиявий характердаги қатор вазифаларни амалга ошириш имконини беради:

- жамоа билан ишлаш;
- ҳушмуомалалик;
- ҳушфеъллик;
- кўникувчанлик;
- ўзгалар фикрига ҳурмат;
- фаоллик;
- раҳбарлик сифатларини шакллантириш;

- ишга ижодий ёндашиш;
- ўз фаолиятини самарали бўлишига қизиқиш;
- ўзини ҳолис баҳолаш.

“ВЕР” технологияси

Бу технология мураккаб, кўптармоқли, мумкин қадар, муаммо характертеридаги мавзуларни ўрганишга қаратилган.

Технологиянинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бирйўла ахборот берилади. Айти пайтда, уларнинг ҳар бири алоҳида нуқталардан муҳокама этилади. Масалан, ижобий ва салбий томонлари, афзаллик, фазилат ва камчиликлари, фойда ва зарарлари белгиланади.

Бу интерактив технология танқидий, тахлилий, аниқ, мантиқ фикрлашни муваффақиятли ривожлантиришга ҳамда ўз ғоялари, фикрлашини ёзиш ва оғзаки шаклда изчил баён этиши, ҳимоя қилишига имконият яратади.

“Вер” технологияси танқидий, аниқ, мантиқий, фикрлашни муваффақиятли ривожлантиришга ҳамда ўз ғоялари, фикрлашини ёзма ва оғзаки шакли ихчам баён этиши, ҳимоя қилишига имконият яратади.

“Вер” технологияси умумий мавзунинг айрим тармоқларини муҳокама этувчи кичик гуруҳларнинг, ҳар бир қатнашувчининг, гуруҳнинг фаол иштирокчисига қаратилган.

“Вер” технологияси мавзунинг ўрганишнинг турли босқичларида қўлланилиши мумкин:

- бошида: ўз билимларини эркин фаоллаштириш;
- мавзунинг ўрганиш жараёнида: унинг хоссаларини чуқур фаҳмлаш ва англаб етиши;
- якунлаш босқичида: олинган билимларни тартибга солиш.

Асосий тушунчалар қуйдагилар:

Аспект (нуқтаи назар) билан предмет, ҳодиса тушунча текширилади.

Афзаллик - бирор нарса билан қиёслангандаги устунлик имтиёз.

Фазилат - ижобий сифат.

Нуқсон-номукаммаллик,қоидаларига мезонларга номувофиқлик.

Хулоса-Муайян бир фикрга,мантиқий қоидалар бўйича далилдан натижага келиш.

Таълимдан ташқари “Елпиғич” технологияси тарбиявий характердаги қатор вазифаларни амалга оширир имконини беради:

- жамоа,гурухларда ишлаш маҳорати;
- муаммолар,вазиятларни турли нуқтаи назардан муҳокама қилиш маҳорати;
- муросали қарорларни топа олиш маҳорати;
- ўзгалар фикрига хурмат;
- хушмуомалалик;
- ишга ижодий ёндошиш;
- фаоллик;
- муаммога диққатини жамлай олиш маҳорати;

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, бугунги кунда халқаро тажрибаларни эътиборга олмасан туриб тараққиётга эришиб бўлмайди.

Ўқувчиларнинг маънавий-бадний ва ахлокий маданиятини шакллантириш, миллий ғурур ва ватанпарварлик тарбиясини амалга ошириш, ижодий маҳорат, нафосат ва бадний дидни ўстириш, фикр доирасини кенгайтириш. Ёшларни мустақил фикрига эга комил инсон қилиб тарбиялашдек вазифаларни амалга оширишда эса ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат талаб этилади.

Шунингдек, ўқитувчининг педагогик маҳорати - дарсларда педагогик технологиялардан самарали фойдаланиш, қисқа вақт ичида талабага кўпроқ маълумот бера олиши, талаба фаоллиги ва ижодий ёндашувига эриша олишида яққол намоён бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.А.Каримов "Юксак маънавият - енгилмас куч".
2. Ш.Мирзиёев "Танқидий таҳлил, катъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир рахбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак". Тошкент, Ўзбекистан нашри, 2017 йил
3. Саидахмедов Н. "Янги педагогик технологиялар (назария ва амалиёт)". Тошкент, Молия нашри, 2003 йил
4. Толипов У.Н., Усмонов М. "Педагогик технологияларнинг таркибий асослари". Тошкент, Фан нашриёти, 2006 йил



“TINCHLIGIMIZ - TINCH BO‘LSIN ELIMIZ”.

Jizzax shahridagi “Ishga marhamat” monomarkaz psixologi

Shukurov Bekzod Baxramovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4-sinf Tarbiya fanida o‘quvchilarga O‘zbekistondagi tinchlik-osoyishtalikni qadriga yetish va uni asrab-avaylashga doir bo‘lgan dars namunasi berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya, urush, tinchlik, osoyishtalik, odob-axloq, bayrog‘, Vatan, muzey, Mustaqillik, madhiya, Shiroq, Shahidlar xotirasi

Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek mas’uliyatli va zalvorli vazifani amalga oshirish uchun xalqimizning ahlligi, zamon bilan hamnafas va hamqadam yashashni talab qilib qolmay, balki xalqaro maydonda bo‘layotgan turli kelishmovchiliklar oqibatida bo‘layotgan qirg‘inbarot urushlarning yomon jihatlarini yoshlarimizga uqtirib borish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tinchlikning qadriga yetish kabi oliy tuyg‘uni shakllantirish davr talabidir.

Quyida ana shunday hislatlarni shakllantirishga oid 4-sinf “Tarbiya” fani asosida tashkil etilgan dars namunasidan havola etamiz.

4-sinf “ Tarbiya ”darsi

Mavzu: Yurt tinchligi. Millatlararo totuvlik

Ta'limiy maqsad - o'quvchilarga yurt tinchligi, millatlararo totuvlik haqida, xalq manfaati, erkinligi, ozodligi yo'lida o'z jonlarini fido qilgan insonlar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad - O'quvchilarni o'z yurtida, xalqiga bo'lgan sadoqatini, muxabbatini o'stirish, kelajakda xalqiga kerakli, uning bayrog'ini yuqori ko'taradigan insonlar bo'lib yetishiga undash.

DTS bo'yicha Odobnoma darsidan kutilayotgan maqsad:

Yosh avlod qalbida odob-axloq me'yorlarini singdirish, xalqimizning boy tarixi, madaniy va ma'naviy me'rosi, so'z san'ati, milliy qadriyatlarimizni anglash. Huquq va huquqbuzarlik haqida tasavvurga ega bo'lish. Davlat tushunchalari, davlatning ramziy belgilari, ona vatan tuyg'ularini anglash. O'quvchilarning bilim olish bilan birga yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish.

Uslub:

- a) Muloqot
- B) Savol-javob.

Jihozi:

- a) Darslik
- B) Tarqatma material
- V) Test
- G) Milliy qaxramonlarimiz, erk uchun kurashgan bobolarimiz rasmi.
- D) Shoirlarimiz she'rlaridan parchalar.

Darsning borishi:

I. darsni tashkil etish.

A) Salomlashish

B) O'quvchilarning darsga ishtirokini aniqlash.

V) O'quvchilarni darsga tayyorlash.

O'qituvchi: "Tarbiya" fani bizga nimalarni o'rgatadi ?

O'quvchi: "Tarbiya" fani bizga odob-axloqni kattalarga xurmat, kichiklarga izzatli bo'lishni, ona vatanga bo'lgan muhabbatni o'rgatadi.

O'quvchi: Tarbiya fanidan o'zbek xalqining boy tarixi, madaniy va ma'naviy me'rosini o'rganamiz.

O'quvchi: Buyuk bobolarimiz, allomalarimiz qilgan ishlari, ular qoldirgan hikmatli so'zlar, hadislar, maqollarini o'rganamiz.

O'quvchi: Mustaqillik tufayli qayta tiklangan va xalqimizga qaytarilgan urf-odatlar xaqida bilib olamiz.

II. O‘tilgan dars - «Temuriylar tarixi Davlat muzeyi» ni takrorlash.

1) Savol-javoblar orqali. (Temur rasmi).

A) Amir Temur bobomiz haqida nimalar bilasiz? (Muzey rasmi ko‘rsatiladi)

B) Muzey qachon tashkil topgan?

V) Muzeyda nimalar aks ettirilgan?

2. Muzeyga borish odobi xaqida o‘quvchilar bilan suxbatlashish.

III. Yangi mavzu ustida ishlash.

I. Savollar beriladi: (Vatan haqida rasm).

O‘qituvchi: Vatan deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchi: Vatan deganda xalqimizning eng bebaxo boyligi, xech kimga ishonib topshirib qo‘yolmaydigan gavxari bor. Bu uning aziz vatanidir. Shu vatanda tug‘ildi, o‘sdi-ulg‘aydi va qadr topdi. Vatanning xar bir qarich yeri uning g‘ururiga aylandi.

O‘quvchi: Vatan tushunchasi onamizning ilk allasidan qon-qonimizga singdi. Maktab partasidan olgan ilk saboqdan «Alifbo» ning ilk xarfidan, yaproqlar shiviridan, qushlar chug‘uridan, soylarning sharqirashi-yu, tog‘lar salobatidan Vatan tushunchasi bizga singdi.

O‘qituvchi: Jonajon Vatanimiz qachon mustaqil bulgan?

O‘quvchi: 1991 yil 31 avgust kuni — Prezidentimiz tarixiy voqea - O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi.

1-sentyabr kuni «Mustaqillik bayrami» kuni deb nishonlash xaqida qaror qabul qilindi.

O'qituvchi: O'zbekiston mustaqil bo'lgandan keyin erishgan yutuqlar haqida nimalar bilasiz?

O'quvchi: Mustaqil bo'lganimizdan keyin davlat ramzlari, gerb, bayroq, madhiya va qomusimizga ega bo'lish.

O'quvchi: Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni, boy tariximizni tanidik. O'zimizning o'zligimizni angladik.

O'quvchi: Mustaqillik tufayli, milliy bayramlarimizni, udumlarimizni bilib oldik. Bunga Navro'z bayrami, Ramazon va qurbon xayitlari misol bo'ladi. (Paxta, don, mevalar rasmi).

O'quvchi: Yerlarimiz, bog'larimiz o'z egalarini topdi, don mustaqilligiga erishdik. Paxtaning yangi-yangi navlari o'stirildi, serhosil navlar aniqlanmoqda. Boyligimizga boylik qo'shilmoqda.

(engil mashinalar rasmi).

O'quvchi: Ko'plab turdagi yangi korxonalar, zavod, fabrikalar o'z egalarini topdi. Avtomobil zavodlari qad ko'tardi.

O'quvchi: Vatanimiz bayrog'i 1991 yil 18 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VII sessiyasida tasdiqlandi.

O'quvchi: Bayroq 4 xil: moviy, oq, yashil, qizil ranglardan iborat. Bayroqqa yarim oy va yulduzlar tasviri tushirilgan.

O'quvchi: Vatanimiz madhiyasi 1992 yil 10 dekabr kuni tasdiqlangan. Madhiya so'zini O'zbekiston Qaxramoni Abdulla Oripov yozgan. Musiqasini bastakor Mutal Burxonov bastalagan.

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi 1992 yil 2 iyul kuni tasdiqlandi.

O'quvchi: Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 yil 8

dekabr kuni tasdiqlandi. O'z qomusimizga ega bo'ldik. Qomusimiz 6 bo'lim 26 bob 128 moddadan iborat.

O'quvchi: Yurtim senga sher bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirilar bor o'z yurtin bugun,

Olam aro atagan tanho.

Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,

Qanotida kumush diyori.

Bir o'lka bor dunyoda biroq,

Bitilmagan dostonidir bori.



Fakat ojiz qalamim manim,

O'zbekiston vatanim manim.

O'quvchi: Tarix yozaversam osmon erur past,

Butun, istiqlolin kuylagayman bas.

Vatanim ertasin buyukligi rost,

Yurtboshidir sarbon, yo'ldadir karvon.

O'zbek, O'zbekiston!

Jannatga atalgan yer-o'zbekniki,

Manglayidan oqqan pok ter o'zbekniki.

Tangri, farzandlari yer-o'zbekniki,

Senikidir Jayxun, Sayxun, Zarafshon,

O'zbek, O'zbekiston!

O'qituvchi: Yurt tinchligi, xayot faravonligi millatning, mustaqil bo'lishi uchun kurashgan bobolarimizdan kimlarni bilasiz?

O'quvchi: Vatanimiz juda ko'p umri boqiy vatanparvarlar, sarkarda va qaxramonlarni voyaga yetkazgan: To'maris, Shiroq., Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Maxmud, Najmiddin Kubro kabi bobolarimiz o'z yurtini tashqi dushmanlardan asrab avaylaganlar. Uning bir qarich yerini ham xech kimga bermaganlar.

O'quvchi: Shiroq - bu afsonaviy qaxramon. Vatanni yovdan saqlash uchun burni, quloqlari, xatto o'z jonidan voz kechgan.

O'quvchi: Xalq qaxramoni — Jaloliddin Manguberdi o'z vatani deb qattiq kurashdi. Dushman bilan olishib, mardlik ko'rsatdi. Bu mardlik qarshisida lol qolgan Chingizxon xayrat ichida: «Mening to'rt o'glim bor. Qirqta o'g'lim bo'lganda xam Jaloliddinga almashtirmagan bo'lar edim» - degan edi. (Jaloliddin Manguberдини rasmi)

O'quvchi: Har uchragan nokasu nodon

Ona xalqim yoqangdan tutdi.

Seni Chingiz g'azabga to'lib,

Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.

Jaloliddin samani bo'lib,

Sakrab o'tdim Amudaryodan.

O'quvchi: Ha shu damlargacha Jaloliddin Manguberdi kechmishi hatto tarixchilarga xam ma'lum emas edi. Bugungi avlod Jaloliddin Manguberding 800 yilligi «Alpomish» dostonining 100 yilligi nishonlanishining guvohi bo'ldi. Bu esa Jaloliddin kabi vatanparvar, Alpomish kabi alpqomat yigitlarni tarbiyalab, voyaga yetkazayotgan xalqim ko'kragini tog'dek etdi

O'quvchi: Qadim yurtga qaytsin dadil navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim,

Alpomishga alla aytgan momolarim,
Ruxini shod etay desang xalq bo'l elim.
Dunyoga boq qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana,
Xalq bo'lishga xuddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang xalq bo'l elim.

O'quvchi: Vatanni deb jonidan kechgan jon olib, jon bergan xalqimizning asl farzandalriga ehtirom ramzi sifatida poytaxtimizda birinchi prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 1999 yil «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui bunyod etildi.

O'quvchi :Bu yerda katag'on yillari kurbonlari — Chulpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir kabi yuzlab ulug' zotlarning ruxi poklari yod etildi, nomlari oqlanib, yana o'z yurtiga qadr topdi.

O'quvchi: Shoir Muxammad Yusuf o'tganlarni xotirlab, shu satrlarni bitdi.

Yurtim ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.
O'tmishni o'ylab, og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shaxid o'tgan o'g'lonlaring bor.
Bag'rim o'rtar, bir oy bahor ayyomlar,



Oy botgan yoshlarga termulib shamlar.

Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,

Fayzullodek mardu-maydonlaring bor.

O'qituvchi: Endi bolajonlar kulimizdagi darslikka qaraymiz. Darslikning 76-82-betlardagi «Yurt tinchligi», «Millatlararo totuvlik» matnlari hamda Adolat Ne'matovning «O'zbek millati» she'ri ustida suhbatimizni davom ettiramiz. Aziz o'quvchilar vatan haqida juda ko'p gapirdik yurt tinchligi-ulkan boylikdir. Mustaqil O'zbekistonimizning har bir tongini shukronalik bilan qarshi olamiz. Bolajonlarimiz jonajon bog'cha va maktablariga yo'l oladilar.

Ota-onalarimiz uy yumushlariga xotirjamlik bilan ketadilar. Kunlarimiz tinchlik va osoyishta o'tadi. Bir piyola choyni bag'ri butunlik bilan ichamiz. Axir bundan ortiq baxt bormi?

O'quvchi: Ha, tinchlikdan ortiq baxt yo'q

- Tinchlik tushunchasi —

niyati, istagi bir bo'lgan xalqimiz qon-qonimizga singib ketgan.

O'quvchi Keksalarimiz niyati — tinchlik oilalarimiz niyati —

tinchlik, bir bolalar istagi ham — tinchlik

.

O'qituvchi: Tinchligimizni faravon, yurtimizni erta-yu kech qurayotgan akalarimiz, dadajonlarimiz doim omon bo'lishsin. Shu vatan tinchligi deb qasam ichganlar. Ular haqida nimalar bilamiz?

O'quvchi: Sarxadlarimizni, bizni tinch-totuv yashayotganimizni ko'rolmaydigan gazandalardan erta-yu kech shaxt turib qo'riqlamoqdalar.

O'quvchi: Ular xech qachon vijdonlariga qarshi ish qilmaydilar. Tug'ilib o'sgan tuprog'ini, ota-onasini aka-ukalarini xech qachon yoddan chiqarmaydi. Vatanni yov qo'liga berib qo'ymaydilar. Qonlarida bobolarimiz qoni bor. biz bunga ishonamiz.

O'quvchi: Ona vatanimiz muqaddas uchun

Shu aziz diyorning posbonlarimiz.

Ataymiz chin dildan farzandlik burchim,

Mard, botir ug'lonlarimiz.

Shu yurt deb, shu el deb,

Ichamiz qasam olib xalq mexridan,

Qalbga alanga.

Yurtimiz hech kimga bo'lmaydi qaram,

Jonimiz fidodir ulur vatanga.

O'qituvchi: Yurt tinchligi — ulkan boylik, baxt mustaqil O'zbekistonda tinchlik barqarordir.

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri ham — yurt tinchligi. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoev olib borayotgan dono siyosat katta ahamiyatga ega.

Tinchlik faravonlik yoʻldoshidir. Yurtimizning — gullab yashashi — barcha sohalarda qoʻlga kiritilayotgan muvaffakiyatlarimiz istiqolol gʻoyalarining yuksalib borishi, albatta tinchlik tufayli. Savollardan foydalaniladi.

Oʻqituvchi: Oʻzbekistonimizni poytaxti qayer?

Oʻquvchi : Toshkent.

Oʻqituvchi: Oʻzbekistonning aholisi qancha?

Oʻquvchi: 33 milliondan ziyod.

Oʻqituvchi: Oʻzbekistonning maydoni haqida nimalar bilasiz?

Oʻquvchi: Oʻzbekistonning maydoni 447,4 km²

Oʻqituvchi: Oʻzbekistonni koʻp millatli diyor deymiz. Unda qancha millat vakillari istiqomat qiladi?

Oʻquvchi: Oʻzbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular oʻzaro axil, tinch-totuv yashab kelmoqdalar.

Oʻquvchi: Bu totuvlik asrlar boʻyi davom etib kelayotgan boʻlib, bunda xalqimizning azaliy bagʻri kengligi, donoligi sababchidir.

Turli millat vakillari tushirilgan rasmlar.

Oʻquvchi «Ahillikda hikmat koʻpdir. Bir kun janjal chiqqan uydan qirq kun fayzu baraka koʻtariladi» - deydi dono xalqimiz.

Oʻquvchi : Tinchlik ulugʻ neʼmatdir

Uning qadrin bilaylik.

Tinchlik bo'lsa jaxonda

Ahil inson shod bo'lar

Bundan topib ilmu fan

Elu yurt obod bo'lar.

O'qituvchi: Bugungi mustaqil vatanimiz — O'zbekistonda hayot zilol suvidek tiniq oqmoqda. Birok dinni niqob qilib olgan aqidaparastlar yurtimiz tinchligini buzishga harakat qilmoqdalar. Namangan, Farg'onadagi voqealar, 1999 yil 16 fevral voqealari, 2000 yil avgust — sentyabr oylaridagi Surxondaryoning Sariosiyo, Uzun tumanlaridagi talafotlar ana shunday buzg'unchilarning ishlaridir. Ular tiniq oqayotgan suvni loyqalatmoqchi bo'ladilar.

Biroq bu voqealar xalqimizni irodasini mustaxkamladi. Uning bukilmassligini ko'rsatdi, yana ham ogohlikka undadi. Erkka erishgan xalq xech qachon o'z erkini birovga berib qo'ymaydi. Hozirgi kunga kelsak, 2005 yil 13 may kuni Andijonda bo'lgan voqealar. Bir tuda gazandalar tomonidan Andijon hokimligi binosini, militsiya tayanch punktlari va shunga o'xshash binolarni bosib olib, tinch yashayotgan xalqning oromini, halovatini buzishdi. Yurtimiz odamlarini garovga olib, birqancha qo'poruvchilik, buzg'unchilik ishlarini qilishdi.

Bundai butun o'zbek xalqi ogox bo'ldi va shu ishlarni qilayotgan gazandalarga la'natlar o'qidilar. Andijon xalqini yengilmaslikka, o'z tuprog'ini yov qo'liga berib qo'ymaslikka undadilar.

Ota bobolarimizdan meros bo'lib qolgan muqaddas zaminimizning har bir qarichini ko'z qorachig'idek asrashimizni unga o'sha buzg'unchilarga yana bir bor ko'rsatib qo'ydik. Yuqorida sanab o'tilgan voqealar natijasida bir

qancha yigitlarimiz, akajonu-dadajonlarimiz, xalqimizning asl



farzandlari qurbon bo'lishdi. o'z jonlari evaziga vatanini saqlab

qolishdi. O'z o'g'lonlarini jasoratini vatan, xalq hech kachon unutmaydi. Kelajak avlod vatanni ximoya qilishda ulardan o'rnak oladilar.

Bugun yurtimizni har bir fuqarosi erkimizni, tinchligimizni asrab avaylash niyati bilan yashamoqda. Nonvoylar rizq deb non yopmoqdalar, shoirlar erk deb g'azal bitmoqdalar. Xonandalar <<Hech kimga bermayman seni O'zbekiston>> deb kuylamoqdalar. Tadbirkoru — ishbilarmonlar, fermerlar vatanni mustahkam, qudratli bo'lsin deb jon kuydirib mehnat qilmoqdalar. Ammo yozuv niyatli kishilar bilib qo'ysinki, vatanimizning bir karich yerini ham ularga berib qo'ymaymiz. qonimizda bobolarimizning qoni bor.

O'qituvchi: Yurtimizni madh etuvchi she'rlardan bilasizmi?

O'quvchi : Qaysi yurtidir, bog'laridan bol tomadi,

Jannatmakon tuprog'idan zar unadir.

Bobolari merosi bir afsonadir,

O'zga yurtlar havas qilar durdonadir,

Topqir bo'lsang, bizga shundan xabar ber.

O'quvchi: Kattakon yo'lga chiqding yo'ldoshing bo'lay xalqim

Farzandingman qo'llaysan qo'ldoshing bo'lay xalqim,

Armoning ko'p dilingda dildoshing bo'lay xalqim,

Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

O'quvchi: 1) El boshiga tushgani,

Er boshiga tushgani.

2) Yigitning botirini - maydonda sina.

3) Tinchlik bilan el ko'karar,

Yomg'ir bilan yer kukarar.

O'quvchi: O'zbek beqasamin eslatib falak,

Osmon gumbaziga taqdi kamalak.

Ko'k qadar yuksalib «O'zbek» kamoli,

Dunyoda ko'rsatur xali ko'p o'rnak

Muxabbat ta'rifi tugamas biroq,

Vatanga muxabbat doim kuchliroq.

Bejizmas o'z yurtning sevgani uchun

Abadiy yashaydi To'maris, Shiroq.

IV. Dam olish laxzasi.

O'quvchilar ijrosida «Hech kimga beramaymiz seni O'zbekiston» ashulasini ijro etadilar.

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,

Oq yuvib, oq taragansan o'zing bizni.

Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,

Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

Adoying bulgay seni O'zbekiston!

Xech kimga bermaymiz seni O'zbekiston !

Fidoying bo'lgay seni O'zbekiston!

Xech kimga bermaymiz seni O'zbekiston!

V. **Tarqatma materiallar.** Testlar bilan ishlash. (Tarqatma materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo'yiladi).

O'zbek millati

Shiori tantilik, ezgu niyati,

Soddalik, donolik zo'r fazilati.

Saxovatpeshalik erur ziynati,

O'zbek millati bu, o'zbek millati.

To'y qilsa qozog'im yonda tur deydi,

Qirg'izim, tojigim menga jo'r deydi,

Turkmandan aylanay davron sur deydi,

O'zbek millati bu, o'zbek millati.

Ozarning san'ati dilga yaqin der,

Rusning zakovati misli chaqin der.

Arman xirom etsa o'yna tag'in der,

O'zbek millati bu , o'zbek millati.

Barchaga bag'ri keng beozor elim,

Xo'rlikdan ko'ngil to'q baxtga yor elim.

Do'stni boshga qo'yar yovga tor elim.

O'zbek millati bu, o'zbek millati.

Elsevar shu elim mangu bor bo'lsin,

Yuragida totuvlik barqaror bo'lsin,

Xar bir xonadoni shodlikka to'lsin

O'zbek millati bu, o'zbek millati.

VII Umumlashtiruvchi xulosa.

Dars davomida faol ishtirok etgan, testlarga to'liq javob bergan, she'rlarni intonatsiya bilan o'qigan o'quvchilarga yuqori ballar qo'yildi va rag'batlantirildi. Qolgan o'quvchilarni faollar qatoriga qo'shilishini, ulardan o'rnak olishga chaqiriladi.

.

VI. **Uyga vazifa:** O'tilganlar asosida fikr va muloxazalarini bildirib olish yana yangi ma'lumotlar to'plash.



MATEMATIKA FANIDAN INTEGRATSIYALASHGAN DARSLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Maxamova Dildora Shirinboyevna

Toshken viloyati, Yuqori Chirchiq tumani

3-umumiy o'rta ta'lim maktabi

matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishda qo'llaniladigan integrativ yondashuvlar haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ta'lim, integratsion ta'lim, ta'lim metodi, fanlararo aloqadorlik.

Biz integratsiyaning mohiyatini aniqlash jarayonida uning falsafiy, pedagogik-psixologik va metodik asoslarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, o'qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya ta'lim jarayonining barcha majmuini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta'limning barcha jihatlari (aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mehnat, estetik, gigiyenik, huquqiy, jismoniy tarbiya)ni qamrab oladi va ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Integrativ ta'lim jarayonida o'quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat qonunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o'zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo'lib kamol topadi. Tabiat go'zalligini his qila olish, undan zavqlanish, e'zozlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ta'limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to'liq o'zlashtirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki

mohiyatiga kirib borishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

Umumiy ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni shakllarini rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta'sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda fanlararo bog'lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash buqunqi kunningq enq dolzarb masalalaridan biridir. Chunki fanlararo aloqadorlik ta'minlanqan holda, darsni tashkil qila olqan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniqa bo'lgan qiziqishini oshiribqina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishqa yordam beradi. Fanlararo aloqadorlikni tizimli tarzda amalqa oshirish natijasida o'quv-tarbiya jarayoninq aloqadorliqi sezilarli darajada ortadi. O'quvchilarda fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan bir qatorda, o'quv fanlariqa oid bilim va qiziqishlarini rivojlantirishning muhum shartidir.

Fanlararo aloqadorlikning mazmuni va materiallar hajmi maktab matematika kursida o'quv dasturi orqali aniqlanadi. Har bir fan o'qituvchisining u yoki bu fanning o'zaro bog'liqligini o'z o'quvchilariga tushuntirishi va o'quv jarayonida undan mohirona foydalanishi o'qitish metodikasida ilgaridan ma'lum.

O'quv fanlari orasida o'zaro bog'liqlik ikki turga bo'linadi: xronologik va g'oyaviy. Birinchisi, turli fanlar dasturlarining o'zaro mutanosibligiga, ikkinchisi esa, bir xil yo'nalishdagi ilmiy tushunchalarning umumiy metodik holatlar asosida singdirilishiga asoslanadi. Fanlararo bog'lanish fanlarning turiga qarab umumiy metodlar birligi bilan ham izohlanadi. Masalan, matematika va fizikada modeli metod, matematika va fizika esa eksperimental metod umumiyliqi ko'zga tashlanadi.

Amaliyotda matematika o'qituvchilari fanlararo xronologik bog'lanishning ilgari, hozir, kelgusi kabi uch turidan bevosita foydalanadilar. Ilgari fanlar aro bog'lanish matematika kursi materiallarini o'qitishda oldin boshqa fanlardan olingan bilimlarga tayaniladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib:

- ta'limning modernizatsiyalash, innovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limda uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishida muhim omil vazifasini bajaradi;
- fanlararo aloqani ta'minlashga qaratilgan masalalarni aynan dastur, dasrlik hamda o'quv qo'llanmalar mazmuniga singdirish pedagog olimlar va tadqiqotchilar zimmasidagi muhim vazifalardandir;
- ta'lim texnologiyalariga asoslangan fanlararo aloqa modellarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Matematika va ona tili. Davlat ta'lim standartlarida o'quv fanlari orasidagi aloqadorlik, matematika fanining boshqa o'quv fanlarini o'rganishga ta'siri qayd etilib, "Matematika o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarni o'rganishga ijobiy ta'sir" ko'rsatishi uqtirilgan.

Maktabda matematika va ona tili darslari o'rtasidagi predmetlararo aloqani o'rnatish uchun potensial imkoniyatlar mavjud. Jumladan matematika darslarida o'quvchilarning til madaniyatini oshirishga doir ishlar amalga oshirilishi, ona tili darslarida matematik mavzulardagi mashqlarga o'rin berilishi fanlararo uzviylikni ta'minlashda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, matematika darslarida "Agar ...bo'lsa, u holda..." shaklidagi jumalarni quyi sinflardayoq qo'llay boshlanadi va uni mantiqiy hosil bo'lishlik simvoli bilan belgilab ko'rsatiladi. Ona tili darslarida ham qo'shma gap mavzusida gapning

ko‘rinishi yuqoridagi shaklda bo‘lishi uqtirib o‘tiladi. Shu mavzuni o‘qitishda “Agar uchburchakda tomonlaridan birining kvadrati uning qolgan ikki tomoni kvadratlarining yig‘indisiga teng bo‘lsa, u holda uchburchak to‘g‘ri burchakli bo‘ladi” yoki “Agar burchaklar vertikal bo‘lsa, u holda ular teng bo‘ladi” shaklidagi matematik jummalarni tahlil qilish mumkin.

Matematika o‘qitishda ona tili tushunchalaridan foydalanish: kelishik qo‘shimchalarini chiziqli tenglamalar bilan bog‘lash mumkin.

Ma‘lumki, matematikadagi chiziqli tenglamalar haqidagi bilimlar 6 xil ko‘rinishda bo‘lib, ular tegishli amallarni bajarish orqali echiladi. Bunda chiziqli tenglamalarni tushum, jo‘nalish va chiqish kelishigi qo‘shimchalari bilan bog‘lab tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili o‘quv fanining morfologiya bo‘limida bog‘lovchi haqida ma‘lumot beriladi: “Gapning uyushiq bo‘laklari va qo‘shma gapdag sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchi deyiladi”. Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra teng bog‘lovchilar va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi. Teng bog‘lovchilardan matematika bilimlar birikuvi hosil bo‘ladi. “Matematik mantiq elementlari” mavzusida mulohaza yuritiladi va mantiqiy amallar o‘rganiladi. Ma‘lumki, “Chin yoki yolg‘on haqida fikr yuritish mumkin bo‘lgan har qanday darak gap mulohaza deyiladi”. Mulohazalar ustida bajariladigan mantiqiy amallar maxsus belgilar yordamida ifodalanadi. Masalan, \vee – dizyuksiya amali “yoki” bog‘lovchisini, \wedge - konyunksiya amali “va” bog‘lovchisini bildiradi.

Ona tili o‘quv fanining leksikologiya bo‘limida sinonim tushunchasi o‘rganiladi: “Shakli har xil ammo ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar sinonimlar deyiladi”.

Matematika ta‘limida ham “matematik sinonimlar” ko‘p uchraydi.

Jumladan, sonli va harfiy ifodalar orasida shakli har xil lekin ma'nosi, ya'ni qiymati bir xil bo'lgan ifodalar mavjud. Bunday ifodalarni shartli ravishda "sinonim ifodalar" deb atash mumkin.

Sinonim ifodalarga misollar keltiramiz:

1- misol: Kasrni qisqartiring $\frac{8}{16} = \frac{4}{8} = \frac{2}{4} = \frac{1}{2}$.

2- misol: $\frac{1}{\sqrt{2}}$ kasrning maxrajidagi irrotsionallikni yo'qoting.

$\frac{1 \cdot \sqrt{2}}{\sqrt{2} \cdot \sqrt{2}} = \frac{\sqrt{2}}{(\sqrt{2})} = \frac{\sqrt{2}}{2}$; $\frac{8}{16} \text{ va } \frac{1}{2}$; $\frac{1}{\sqrt{2}} \text{ va } \frac{\sqrt{2}}{2}$; $\frac{1}{\sqrt{3}} \text{ va } \frac{\sqrt{3}}{3}$ kabi sonlar sinonim ifodalarga misol bo'la oladi.

3- misol: O'nli kasrni oddiy kasrga, oddiy kasrni o'nli kasrga aylantirganda ham sinonimlar hosil bo'ladi. Masalan,

$x = 0,5 = 1/2$; $x = 0,25 = 1/4$; $x = 0,75 = 3/4$ va hokazo.

Burchakning gradus va radian o'lchovlari sinonimlardir. Masalan,

$\frac{\pi}{6} = 30^\circ$; $\frac{\pi}{4} = 45^\circ$; $2\pi = 360^\circ$

4- misol: Aynan teng ifodalar ham sinonim ifodalarga misol bo'la oladi.

$(a+b)^2 = a^2 + 2ab + b^2 = (a+b)(a+b)$ va hokazo.

Ma'lumki, ona tili darslarida "Yuklama" mavzusi o'rganiladi. Bu mavzuni tushuntirgandan so'ng "Faqat" yuklamasi fatnashgan matematik jumla tuzing kabi topshiriq berilishi o'quvchilarda matematik teoremlarni eslashga olib keladi. Masalan, kesmaning uzunligi 4 ta xossaga ega bo'lib, 4-xossa shunday ifodalanadi. "Istalgan nurga uning boshlang'ich nuqtasidan berilgan uzunlikdagi yagona, ya'ni faqat bitta kesmani qo'shish mumkin". Xossada ishtirok etgan "faqat" so'zi kchaytiruv yuklamasi vazifasini bajaradi. geometriyaning juda ko'p aksioma va teoremlarida "faqat" so'zi qo'llaniladi. shunda

o'quvchilar bevosita ona tili darslarida o'rganilgan yuklama mavzusini eslaydilar. Bu esa ona tili o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bunday fanlararo integratsiya o'quvchilarda fanlarga bo'lgan qiziqishni oshiradi va ta'lim sifatining yaxshi bo'lishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U va boshq. Matenatika o'qitish metodikasi:O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma— T.: O'qituvchi, 2016.
- 2.N.N.Alimov,J.R.Turmatov,«Pedagogik texnologiyalar», o'quv-uslubiy qo'llanma. 2017.
3. Р.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров, А.Пардаев.Таълимда инновацион технологиялар. Ўқув қўлланма Т.: "O'zbekiston" 2018.

TA'LIMDAGI O'ZGARISHLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH-BUGUNGI DAVR TALABI

Viloyat xalq ta'lim boshqarmasi

amaliy fanlar metodisti

Xasanova Nigora Nizomovna

Biz amalga oshirayotgan islohotlarning asosiy maqsadi-

bolalarning baxtli kelajagi uchun

barcha sharoitlarni yaratib berishdir.

Sh.Mirziyoyev

Maktab - ziyo maskani. Yosh avlodning kelajagi uchun ilk qadam maktab ostonasidan boshlanadi. Inson hech qachon maqsadiga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. Aksariyat holatlarda yoshlar o'z hayot yo'lini belgilashda o'zlari ideal deb bilgan shaxslar, ya'ni ustozlardan ibrat olishga intiladi.

Hayotda tasdig'ini topgan haqiqat: o'qituvchining fidoiyligi, tashabbuskorligi, mehribonligi va o'z kasbiga mas'uliyatli yondashuvi yosh avlod kamolotining asosidir.

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion usullari va shakllarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 5712-sonli farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib, PISA (The programme for international Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tadbiq etish, xalq ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini



ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tadbiq etish istiqboldagi vazifalar etib belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, yurtimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin egallashi o'qituvchilarimizning xalqaro ta'lim tajribalarini mukammal egallashi hamda amaliyotga joriy etishi, ya'ni, yoshlarga bergan ta'lim-tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat 3-renessansni bunyod etishda butun dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilayotgan Finlyandiya ta'limini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Finlyandiya ta'limining ta'lim tizimi taraqqiyotning tezligiga asos bo'lib xizmat qiluvchi bir qator farqli va samarali jihatlari: Sinf o'qituvchilarining magistrlik darajasiga ega bo'lishi, 1-2 yil davomida pedagogikani o'rgangan bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari o'zaro ishonch, erkinlik va mustaqillikka asoslangani, o'quvchi ijodkorligining yuqori baholanishi, maktab koridorida o'quvchilar asarlarining joylashtirilganligi, yomon xulq-atvori bo'lgan bolaga yarim soatlik dam olishdan tortib, uch oyga to'xtatib qo'yishga qadar jazo choralarining qo'llanishi, baholashning maqsadi nazorat qilish emas, balki boshqarish va rivojlantirishdan iborat bo'lib, ushbu ta'lim bugungi o'zgarishlar davrida yoshlar o'z hayotini to'g'ri yo'lga qo'yishida duch kelgan har qanday muammo va to'siqlarga kreativ va tanqidiy yondashuv asosida yechim topa olish ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ta'limdagi o'zgarishlarni rivojlantirish va amaliyotga tadbiq etish o'qituvchining o'zgarishi bir qancha modellarni qo'llay olishi bilan bevosita bog'liq. O'qituvchining ijobiy o'zgarishini ta'minlovchi shunday modellardan biri Levin modeli bo'lib, ushbu model 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muzni eritish-o'qituvchining o'zgarishga tayyor ekanligiga ishonish, ya'ni o'qituvchining o'z kamchiliklarini anglab yetgani va o'zgarishga bo'lgan ishtiyoqi;
2. O'zgartirish-o'zgarishni amalga oshirish, ya'ni kamchiliklar va muammolarni bartaraf etishda samarali usul qo'llash;
3. Muzlatish-o'zgarishni doimiy faoliyat turiga aylantirish, tanlangan samarali usulni davom ettirish.

Ushbu o'zgarishlar jarayoni bugungi kun o'qituvchisidan universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishni, bir so'z bilan aytganda, uzluksiz kasbiy rivojlanish - kasbiy kompetensiyani, ijodkorlikni mustahkamlash uchun hayot davomida, tizimli rejalashtirilgan jarayonni taqozo etadi.

Xalqaro talim tajribalarini milliylik bilan uyg'un holda amaliyotda qo'llash ta'lim sifatini oshirish va ijobiy natijalarni egallashga xizmat qiladi.

Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 9-dekabrdagi "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturining dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi 298-sonli buyrug'iga asosan 2022-2023-o'quv yilidan amaliyotga tadbqiq etilgan 1-,2-,3-sinf yangi avlod darsliklari o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, fanlararo integratsiya asosida masalaga kreativ yondashuv asosida yechim topishga qaratilgan, ya'ni, beshta sohani yagona ta'lim tizimida integratsiyalashuviga asoslangan STEAM-ta'limini tadbqiq etish DTS asosida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Jumladan, 3-sinf musiqa madaniyati fani darsligi mavzular uzviyligi ta'minlangan holda o'quvchilarning yosh xususiyatlari inobatga holda yaratilgan. Darslik asosida o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma ham ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'qituvchilar uchun kerakli tavsiyalar berib o'tilgan.

Ilm-fan o'zgarishlarini amaliyotda qo'llash orqali ijobiy natijalarga erishishni maqsad qilgan holda musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga 3-sinf musiqa madaniyati fanidan 4-chorakda berilgan "Kompozitor-bolalarga" mavzusini yoritishda Kouching mashg'ulotidan foydalanishni tavsiya etamiz.

Kouching kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni oshirishda qo'llaniladigan eng yaxshi uslubiy vositadir. Agar bu usul amaliyotga to'g'ri tadbqiq etilsa, o'qituvchi uchun foydali va samarali natija beradi. Kouching bu narvon yordamida asta-sekinlik bilan pastdan yuqoriga harakatlanishdir. Bu harakat mulohazaga undovchi savollar asosida amalga oshiriladi.

Ushbu mashg'ulotni qo'llash orqali o'quvchilarning kompozitor tushunchasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi, kompozitorlar faoliyati va asarlari yuzasidan yangi bilimlarni egallashi va o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashiga erishiladi.

Mavzuni yoritishda avvalo mashq nomi tanlanadi, so'ng fikrlashga undovchi, natija beruvchi savollar beriladi.

Ushbu namuna asosida amaliyotga tadbqiq etamiz.

Mashq nomi: Kompozitor-ijodkor.

Kouching savollari: 1-bosqich. Oddiy savollar. Kompozitor deganda kimni tushunasiz?

☐ Kompozitorlardan kimlarni bilasiz?



- ☐ Imkon berilsa, qaysi kompozitor haqida ma'lumot berishni hohlar edingiz?

Mashq nomi: Kompozitor-ijodkor. Kouching savollari: 2-bosqich. Muammoni aniqlash. Amaliy jarayonga oid savollar.

- ☐ Kompozitor ijodida qanday asarlar bolalarni ruhlantiradi, deb o'ylaysiz?
- ☐ "Do'ppi tikdim" qo'shig'i ijrosini tinglaganda ko'z oldingizda nimalar gavdalandi?

Mashq nomi: Kompozitor-ijodkor. Kouching savollari: 3-bosqich. Muammoni bartaraf etish jarayoniga oid savollar.

- ☐ O'rgangan asarlaringizdan qay biri yoshlarning insoniy fazilatlari kamol topishiga katta yordam beradi, deb o'ylaysiz?
- ☐ Nega aynan shu asar degan fikrdasiz?

Ushbu mashg'ulotni o'tkazishda Nima?, Qayerda?, Qachon?, Kim?, Qanday? kabi so'roq so'zlar bilan boshlanadigan savollardan foydalanish mulohaza yuritishni talab qiladi. Shuningdek, ochiq, reflektiv hamda odatlarni o'zgartirishga qaratilgan savollardan foydalanish samaralidir.

Ochiq savollar:

Uy vazifalarini bajarishda ayni paytda qanday qiyinchiliklarga duch kelyapsiz?

Reflektiv savollar:

Sizning faollingizga sinfdoshingiz xasad qildi, nima deb o'ylaysiz, u nimadan norozi bo'ldi va uni sizga nisbatan shunday munosabatda bo'lishiga olib keldi?

Qanday savol mulohazaga undaydi? O'qishda o'zingizda yuqori motivatsiyani his qilgan muayyan vaqtni eslay olasizmi? Bu tajriba sizni nimaga undadi?

Odatlarni aniqlashga qaratilgan savollar. Agar "uy vazifalari bajarilishi" ga yondashuvingizni o'zgartirmasangiz, kelajakda sizni nima kutadi?

Ushbu savollar o'quvchini mulohaza qilishga, o'z vaqtini mazmunli o'tkazishiga, darsga qiziqish bilan ishtirok etishga chorlaydi.

Bundan tashqari musiqa madaniyati darslarining o'quvchilarda musiqa tinglash, musiqa savodi, jamoa bo'lib kuylash faoliyat turlari asosida tashkil etilishini ko'zda tutgan holda darsda ta'lim sifati samaradorligiga erishishda "Bu kim?", "Ohangini top!", "Mo'jizaviy daraxt", "Sehrli musiqa" kabi interfaol metodlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Yosh musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun "Sehrli musiqa" metodi. Ushbu metodni chorak yakunida mavzularni mustahkamlashda qo'llash ijobiy natija beradi.

Dars avvalida sinf 2 guruhga ajratiladi. 1-bosqich: 1-guruh tomonidan asardan parcha jamoaviy kuylanadi. 2-guruh kuylangan asar darslikda qaysi mavzuda kiritilgani, ijodkorlarini aytishi lozim bo'ladi.

2-bosqich: O'qituvchi tomonidan kuy ijro etiladi yoki musiqiy asar eshittiriladi. Guruhlar ijro etilgan (yoki eshitilgan kuy) asar nomi, asarda qaysi cholg'udan foydalanilganini topishlari topshiriq qilib beriladi.

3-bosqich: Monitorda o'rganilgan asarlardan biri video ko'rinishida namoyish etiladi va o'quvchilardan ijro etilgan asar so'zlarini tahlil qilish topshiriladi. Ushbu metodni qo'llashda o'quvchilar bo'limda o'rganishda qiyinchilikka duch kelgan mavzulardagi asarlar tanlab olinadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kun o'qituvchisi ta'limdagi o'zgarishlardan xabardor bo'lish, xalqaro tajribalarni amaliyotga keng joriy etish, yoshlarning innovatsion tashabbuslari va axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishlari, ijodkorligi va iqtidorini namoyon etishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, o'quvchining yosh xususiyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda interfaol metodlar hamda samarali usullardan foydalanish, o'quvchining kreativ fikrlashiga alohida e'tibor qaratish orqali ajdodlarimizga munosib vorislarni kamol topishiga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli farmoni. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"
- 2.Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 9-dekabrdagi 298-sonli buyrug'i. "Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturining dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"
- 3.N.Norxo'jayev, D.Umidova, N.Rashidova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.Toshkent-2022
4. M.Xodjayeva. 3-sinf musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.Toshkent-2022
- 5.Onlinedu.uz sayti.



O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Iroda Yorboboyeva

Annotatsiya: O'smir yoshidagi o'g'il-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari, zamonaviy oilaning muhim vazifalari misolida yoritib o'tilgan. Oilaviy munosabatlarning mustahkam bo'lishida yoshlarni oilaga tayyorlash muhim masalalardan ekanligi keng qamrovda ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oila, barkamol avlod, mas'uliyat, reproduktiv, tarbiya, ma'naviy qadriyatlar.

Mamlakatimizda jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish mas'uliyati, eng avvalo, oila zimmasidadir.

Ma'naviy-ruhiy sog'lom bolaning dunyoga kelishi masalasiga sog'lom va ahil oila mehnatining samarasi sifatida qarab, oilada o'zaro hurmat va mehr-muhabbat, yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlar muhitini shakllantirish bugungi kunda har birimizning vazifamiz hisoblanadi. Bu vazifani bajarishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni judayam katta.

Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni sayqallaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday shaxs bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

O'zbek xalqi azal-azaldan o'z milliy qadriyatlari va o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayanib kelgan. Oilaning mustahkamligi, oilada ma'naviy muhitning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligini ta'minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda, "Oila –kichik vatan, oila tinch, baxtli bo'lsa – vatan tinch bo'ladi". Shu sababli ham bizning mamlakatimizda oila – muqaddas dargoh, nikoh esa buzilmas rishta sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Bosh Qomusimizning 63-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb ta'kidlangan. Shundan anglashimiz mumkinki, oilaning mustahkamligi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishini ta'minlash davlatimizning asosiy hujjatida ham o'z aksini topgan.

2020-yil 31-dekabr kuni "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-820-son qarori e'lon qilindi. Ushbu Qaror asosida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan Respublikaning 206 ta tuman (shahar)larida "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari" tashkil etilgan bo'lib, ularda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'quv kurslari olib borilmoqda:

- oilaviy hayot psixologiyasi;
- oila iqtisodi va budjeti;
- reproduktiv salomatlik asoslari;
- ma'naviy axloqiy qadriyatlar;
- oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish;
- ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bugungi kun zamonaviy oilasi quyidagi tamoyillarga javob bermog'i lozim:



- o‘zaro muhabbat, biologik moslik asosida oila barpo etish; reproduktiv va jinsiy yetuklik;
- oila va jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi, barqarorligi uchun fidokorlik, tashabbuskorlik va ijodkorlik;
- milliy oilaviy qadriyatlarga sadoqatlilik;
- sog‘lom ma‘naviy-ruhiy muhit yaratishning malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- kommunikativ kompetentlik mezonlariga rioya etish;
- oilaviy tarbirkorlik madaniyatiga ega bo‘lish;
- “O‘z bolangizni, o‘z uyingizni, o‘z Vataningizni ko‘z qorachig‘idek asrang!” shioriga fidoyilik;
- “halollik vaksinasi” bilan emlangan bo‘lish va “jaholatga qarshi-ma‘rifat” g‘oyasiga amal qilish;
- oilaparvarlik, mehnatsevarlik; xalqlararo, millatlararo totuvlikka rioya etish.

Shuningdek, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, zamonaviy oilaning o‘ziga xos andozasi mavjud bo‘lib, u shaklan va mazmunan ko‘pqirrali va keng qamrovli bo‘lishi tabiiydir. O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans davri”ning shiddat bilan boshlanishi zamonaviy oilalarning ham shiddat bilan shakllanishi uchun zamin bo‘la oladi. Albatta, uning o‘ziga xos andozasi mavjud bo‘lib, u mazmunan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- oilaning jamiyat va davlat himoyasida ekanligi, uning huquqiy asoslari;
- oilaning iqtisodiy jihatdan farovonligi;
- oilaning ijtimoiy jihatdan barqarorligi;
- oilaning axloqiy-ma‘naviy jihatdan shakllanganligi;
- oilaning to‘liq bo‘lishi;



- oilaning ta'limiy jihatdan qoniqarli darajasi;
- oilaning demografik jihatdan mustahkamligi;
- oilaning ma'naviy va jismoniy salomatligi.

Yoshlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlashda psixologik bilimning ahamiyati ayniqsa bugungi tezkor dunyoda yanada muhim masala ekanligi tushunilmoqda. Hozirgi kunda oilaning muqaddasligi hamda nikoh mas'uliyati bo'yicha turmush qurayotgan yoshlarning bilim va tushunchalarini boyitishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

Xususan, oila qurish har bir inson hayotida ulkan hodisa ekanligi, bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishi tushuntirilayapti. Ikkinchidan, voyaga etayotgan o'smirlar, avvalo, qizlarimiz ongida oila mas'uliyati, ularni turmush qurishga tayyorlash bo'yicha muayyan ishlar olib borilmoqda.

Uchinchidan, yosh oilalarning huquqiy savodxonligini tubdan yaxshilash, oilada bolaning qonuniy huquq va manfaatlari himoyasi bo'yicha tadbirlar tashkil qilinmoqda.

Oila hayotning abadiyligi, avlodlar sog'ligi va davomiyligini ta'minlaydigan, milliy an'ana va urf-odatlarimizni kelgusi avlodlarga qoldiradigan, shu bilan birga kelajak avlod qanday bo'lib kamol topishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i hisoblanar ekan yoshlarni oilaga psixologik tayyorlash to'g'risida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, har bir oila ijtimoiy tizim sturuktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy-funksiyalari haqida gapirganda bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa, umumiy-ijtimriy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy-funksiyalarini hisobga olish lozim.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy funksiyalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv).



Bu haqda sharq allomalari: Abu Nosir Farobiy, Yusuf Hos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulika, olijanoblik va mehr-oqibat, or- nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlarini va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi.

Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. O'smirlik davri insonni bolalikdan — yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davrdir. Bu davr taxminan bolalarning 5-8-sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin.

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari bugungi kunning dolzarb muammolaridandir. Oilaviy munosabatlarning shaxs shakllanishiga beqiyos ta'sirini anglagan holda yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash masalasi ham o'zining muhim masala ekanligi bilan ajralib turadi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, oila qurgan ayrim yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasliklari, o'zaro munosabatlarida kelishmovchilik, bir-birini hurmat qilmaslik, jiddiy mas'uliyat hissining yetishmasligi, yengil-yelpi hayot kechirishga o'rganib qolish, turli fiziologik va psixologik xususiyatlarini yaxshi bilmaslik holatlari ko'rinadi.

Oilaning yuksak qadriyat ekanligini anglashga, oilada o'zaro burchni yuqori qadrlashga o'rgatish. Sog'lom oila vujudga kelishi uchun, eng avvalo, jamiyat va davlat qayg'urishi, shunga zamin yaratib berishi lozim. Shundagina mustahkam oila dunyoga

keladi. Oila sog'lom bo'lsa, jamiyat sog'lom, mamlakat qudratli, yurt tinch-osoyishta bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Karabanova O.A. Psixologiya semeynix otnosheniy i osnovi semeynogo konsultirovaniya: Ucheb. pos. – M.: —Gardariki, 2015. – 320 s.
2. Karimova V. Oila psixologiyasi: Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: —Fan va texnologiya, 2018. – 152 b.
3. Osipova A.A. Obshaya psixokorreksiya. -M.: —SFERA, 2018.- 510 s.
4. Shnayder L.B. Semeynaya psixologiya: Uchebnoe posobie dlya vuzov.2-ye izd. - M.: “Akademicheskiy proekt”, 2016. – 768 s.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MEHR-OQIBAT TUSHUNCHASINI SINGDIRISH

Isayeva Dilfuza

Namangan shahar 5-sonli maktab OIBDO`

Anotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarga matn mazmunini tushuntirish, rasmlarga qarab hikoya tuzish orqali ular da mehr-oqibat tushunchasini shakllantirish, mehr-oqibatli insonlar bo'lib yetishishlariga erishish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: tra'lim, tarbiya, jamiyat, oila, qaridosh-urug', sahovat, oqibat, yetim-yesir, beva-bechora, nogiron, musofir, tarixiy, milliy, diniy, urf-odat, madaniyat.

Аннотация: В этой статье рассказывается, как объяснить содержание текста учащимся на уроках чтения в начальной школе, как сформировать понятие сострадания через рассказывание историй и как вырасти сострадательными людьми.

Ключевые слова: образование, воспитание, общество, семья, родственники, щедрость, последствия, сироты, вдовы, инвалиды, иностранцы, историческое, национальное, религиозное, обычаи, культура.

Annotation: This article explains how to explain the content of a text to students in elementary school reading lessons, how to form a concept of compassion through storytelling, and how to grow into compassionate people.

Keywords: education, upbringing, society, family, relatives, generosity, consequences, orphans, widows, disabled, foreigners, historical, national, religious, customs, culture.

Yoshlarni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashda milliy tarbiya modulini yaratish, o'quvchi-yoshlarda ma'naviy ta'minlanganlikni shakllantirish hamda inson manfaatlarining xalq, millat, davlat va jamiyat manfaatlar bilan uyg'unligini ta'minlashni, ma'naviyat insonning ulg'ayishi va kuch-qudrat manbai ekanligini, ma'naviy tiklanish hamda yuksalishda, albatta, mustaqillikning zarurligini, ma'naviyatimizga har qanday tahdid o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini, ushbu tahdidlarga qarshi kurashishga doimo hushyor turish zarurligini, ma'naviy barkamol, g'oyaviy kurashchan inson Vatanimiz taraqqiyotining poydevori ekanligini talabalarga tushuntirish lozim"

Degan fikrlari orqali birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning eng asosiy omili bu milliylik va o'ziga xos yondashuv ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Daphaqiqat, ezgu odatimizga aylanib ketgan mehr-oqibat tushunchasi uning juda teran tarixiy, milliy, diniy ildizlari insonning inson bilan, qo'shnining qushni bilan, qarindoshning qarindosh, oilaning oila bilan, eng muhimi, shaxsning jamiyat bilan uyg'un bo'lib yashashini, yetim-yesir, beva-bechora va nogironlarga, musofirlarga sapovat ko'rsatish, sidqidildan, beg'araz yordam berishni anglatadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida "Qarisi bor uyning parisi bor", "Ota-onaga hurmat", "Aka-uka, opa-singillar munosabati" "Kiyinish odobi", "Salomatlik – tuman boylik" va



“Dasturxon atrofida o'tirish odobi” kabi mavzular berilgan bo'lib, ushbu mavzular bo'yicha o'quvchilarga ma'lum bir tushunchalar berish, mavzu mazmun-mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish hamda ushbu



tushunchalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining oila odobi haqidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularning qalbida mehr-oqibat tushunchalarini shakllantirish masalalari birincha galdagi vazifalar etib belgilangan.

“Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusi ostidagi rasmlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagilarni tushuntiramiz. Rasmda keksa yoshdagi kishilar, ota-onalar va maktab yoshidagi uch nafar farzandlar aks etgan. Ular bir dasturxon atrofida o'tirib, nonushta qilishmoqda. Ushbu rasmdan biz keksa yoshdagi bobo va momolarimiz bor xonadonlarda doimo ahillik, totuvlik, fayz-baraka bo'lishini o'quvchilarga tushuntiramiz. Bu tushuntirish uslubi orqali o'quvchilarga oila odobi, keksalarni hurmat qilish odobi, dasturxon atrofida o'tirish, o'zini tuta bilish odobi kabi dastlabki tushunchalarni berib beramiz.

Bu orqali o'quvchilar kichik yoshdan boshlab kattalar oldida o'zlarini qanday tuta bilishi, odobli va axloqli bo'lish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. 2-rasmda oilada kattalarning maktab yoshidagi farzandlariga mehnat bilan shug'ullanish odobi haqida tushunchalarini singdirishayotgani tasvirlangan.

Darhaqiqat, bola yoshligidan oilada o'z ota-onalaridan yoki keksa yoshdagi bobolari va momolaridan mehnat qilish odobi haqida dastlabki ko'nikmalarga ega bo'lishsa, ularni kasbga yo'naltirish bilan birga kelajakda ularni mehnatsevar insonlar bo'lib yetishishlariga zamin yaratgan bo'lamiz.

Ma'lumki, 1-sinfda o'quvchilar o'qish va yozish texnikasini puxta egallamagan bo'ladilar. Shu bois biz 1-sinf darslarida rasmga asoslangan mashqlardan foydalanamiz hamda ushbu usul orqali o'quvchilarning avvalo, og'zaki nutqlarini rivojlantiramiz, qolaversa, ularning so'z boyliklarini oshiramiz, erkin fikrlash, rasmga qarab hikoya tuzish, tuzilgan hikoyani qayta hikoya qilish kabi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiramiz. Shu bilan birga o'quvchilarning tafakkur doirasini, dunyoqarashini kengaytiramiz, tabiatga, Vatanga, ota-onaga, oilaga bo'lgan mehr-muhabbatlarini shakllantiramiz va uni yanada rivojlantiramiz. Demak, bu yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda rasmga asoslangan mashqlarning ahamiyati nihoyatda beqiyos.

O'quvchilarni salomlashish odobiga o'rgatish orqali bir-biriga sog'lik-salomatlik tilash, bir-birlariga hurmat va izzatda bo'lish, mehr-oqibatli bo'lish kabi hislatlarini shakllantiramiz. “Kim kimga salom beradi?” rukni ostida berilgan rasmlar orqali kim kimga qanday salom berishi kerakligi haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi. Rasmda ayollar bir-biri bilan o'zaro salomlashganda ikki qo'llab salomlashishlari ko'rsatilgan. Bir kichkina qizcha rasmda nojo'ya tasvirlanmagan. Bundan quyidagi xulosani chiqarish mumkin Kattalar salomlashganda va suhbatlashganda kichik yoshdagi bolalar ularga xalaqit bermasliklari, suhbatga aralashmasdan odob saqlagan holda turishlari uqtiriladi.

Kattalarni, erkaklarni salomlashishlariga oid berilgan rasmda kichik yoshdagi bolalar odob saqlagan holda, qo'llarini ko'ksilariga qo'yib salom berishlari, kattalar qo'l uzatgandagina qo'l berib so'rashishlari mumkinligi haqida ko'nikmalar berilgan.

Berilgan rasmlar orqali biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga kim kimga salom berishi zarurligi haqida bilim va ko'nikmalar beramiz va ushbu bilim va



so'zi arab tilidan olingan bo'lib, sizga tinchlik tilayman degan ma'noni bildiradi.

Vaalaykum assalom

iborasi esa sizga ham men tinchlik tilayman degan ma'noin bildiradi. Shu bois ushbu arabcha so'zlarning taalaffuzini buzmasdan o'z nutqimizda ishlatishimiz lozim. Ushbu kalomni buzib taalaffuz qilish slomlashish so'zining ma'nosini butunlay buzib yuborishi mumkin. Ko'p hollarda yoshlar o'rtasida to'g'ri salomlashishga e'tibor berilmayotgani, so'zlarni buzib taalaffuz qilish hollari uchrab turganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Masalan:

ko'nikmalarni berilgan rasmlarasosidamatn tuzish,rasmdagi tasvirlangankishilargaismqo'yish,ularni salomberish jarayonlarini sahnako'rinishlari orqalirolli ijro usulidan foydalangan holdako'rsatib berish metodlaridan foydalanamiz.Buning natijasidao'quvchilarongigao'zbegonasalomlashish odobini singdiramiz.Avvalo,bizsalomlashishso'zining ma'nosini

o'quvchilargatushuntiribbermog'imizlozim.“Assalomualaykum”so'zi arab tilidan olingan bo'lib,sizgatinchlik tilayman degan ma'noni bildiradi.“Vaalaykumassalom”iborasi esasizgahammen tinchlik tilayman degan ma'noin bildiradi.Shu bois ushbu arabcha so'zlarning taalaffuzini buzmasdan o'znutqimizdaishlatishimizlozim.Ushbukalomni buzibtaalaffuzqilish slomlashish so'zining ma'nosini butunlay buzibyuborishi mumkin.Ko'p

holladayoshlarto'g'ri salomlashishgae'tiborberilmayotgani,so'zlarni buzib taalaffuzqilish hollari uchrab turganidan ko'zyumib bo'lmaydi.Masalan:

–Assom,—deb so'rashish assalomu alaykumso'zining chin lug'aviyma'nosini ifodalamaydi.Demak,bunday salomlashish,umuman,mukin emas.

Boshlang'ich sinfo'quvchilariga,nafaqat,dars jarayonlarida,balki darsdantashqarida: oilada,mahalladabizkattalarsalomlashish odobi bo'yichaulurningbilimvako'nikmalaini oshirib borishimizlozimdir.Masalan,maktabdasalombermay o'tib ketayotgan o'quvchini to'xtatib,negasizsalombermay o'tibketayapsiz?Qaniqaytadansalomberibo'tingchi,—deb ulargatanqidiy

munoabatimiznio'zvaqtidabildiribborsak,o'quvchilarningsalomlashishodobi yuzasidan darsjarayonidaolganbilimvako'nikmalarinimustahkamlanib borishigaerishamiz.Bu usulni bizko'chada,mahalladavaoiladao'llasakmaqsadgamuvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Xulosaqilibaytganda,boshlang'ich sinfo'quvchilarini mehr-oqibatliqilib tarbiyalash yoshlarnikomil inson qilib tarbiyalashdamuhimahamiyat kasb etadi.Ularni mehr-oqibatliinsonbo'lib yetishishlariuchun bizmehr-oqabattushunchasini qalblarigajoylashimizhamdauzluksizravishdaularni bu boradagibilimvako'nikmalarini rivojlantirib borishimizlozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat—engilmas kuch.—T.: Ma'naviyat, 2008.—B.48.
- 2.Boshlang'ichsinflarningtakomillashtirilgandavlat ta'lim standarti.Boshlang'ichta'lim. 2006, 5-son.



- 3.XoshimovaN. Boshlang'ich sinfo'quvchilariniertak janribilan tanishtirish//Boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari. Ilmiy maqollar to'plami. –Namangan, 2003-yil
- 4.G'affarovaT.Pedagogik texnologiyamohiyati. //Xalqta'limi.–Toshkent, 2008-yil,№6.
- 5.TojibaevaG'. Ta'limtarbiyajarayonidaintegratsiya //Boshlang'ich ta'lim.–Toshkent, 2008-yil, №5.
- 6.Najmiddinova.G. Boshlang'ich sinflardao'qitishning interaktivusullardanfoydalanish. //Xalqta'limi.–Toshkent, 2008-yil, №3.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI

Tadjibayeva Kamola Adilkhanovna

Namangan shahar 5-sonli maktab boshlang'ich sinfi o'qituvchisi.

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarni tarbiyalashda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ko'p jihatdan kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar qilib tarbiyalashda tarbiyaning roli nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, qadriyat, madaniyat, malakali kadr, axloq.

Аннотация: в данной статье предусматривается использование интерактивных методов в воспитании учащихся как социально активных, высококультурных, квалифицированных кадров, социально-экономическое, духовно-нравственное развитие которых во многом зависит от них, способных свободно вступать в новые общественные отношения, исповедовать общечеловеческие ценности, ориентированных на духовно-нравственные ценности.

Ключевые слова: воспитание, социально-экономическое, духовнонравственное, ценностное, культурное, квалифицированное кадровое, нравственное.

Annotation: this article provides for the use of interactive methods in the education of students as socially active, highly cultured, qualified personnel, whose socioeconomic, spiritual and moral development largely depends on them, who are able to freely enter into new social relations, profess universal values, oriented to spiritual and moral values.

Keywords: education, socio-economic, spiritual and moral, value, cultural, qualified personnel, moral.

Inson dunyoga kelibdiki, uning shaxs bo'lib kamol topishida uchta muhim omil o'z ta'sirini ko'rsatadi: irsiyat, muhit va tarbiya. Biz xohlaymizmi, yo'qmi inson o'z asl zotiga, ajdodlariga qaysidir jihatdan bog'liq va o'xshash bo'ladi. Muhit esa, qanday sharoitda yashashi va qanday insonlar davrasida bo'lishidir. Tarbiya bu eng muhimi, ota-onaning, ustozlarning bolaga beradigan tarbiyasi oq qog'ozga chizilgan surat kabi.

Tarbiya – o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi va uzluksiz rivojlanadi. O'quv jarayonida pedagog ta'lim berish bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiya ham beradi. O'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi davlatimizning



ta'lim sohasini isloh qilish bo'yicha asosiy hujjatlarida «Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi», – deb belgilab qo'yilgan.

Bugungi ba'zi bir yoshlar ma'naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo'lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda. Bunday yoshlar kelajakda Vatan ravnaqi uchun o'zlarining qanday hissalarini qo'sha oladilar, qanday kadr bo'lib yetishadilar. Vaholanki, mustaqil O'zbekistonning jahondagi rivojlangan mamlakatlar darajasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodni kamol toptirishga, uni yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan, umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etadigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga yo'nalgan ijtimoiy faol, yuqori madaniyatli, malakali kadrlar bo'lib yetishishiga bog'liq.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning dars va darsdan tashqari xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish va kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan ko'rinib turibdiki biz pedagoglar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirar ekanmiz, avvalo, ma'naviyat, axloq, tarbiya tushunchalariga alohida to'xtalib o'tishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti – “Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imyon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” – deb ta'kidlaydi. Zero jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Axloq – kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabati, shuningdek, jamiyatga bo'ladigan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me'yori va qoidalar yig'indisi.

O'quvchi – yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash quyidagi vazifalarni nazarda tutadi:

- o'quvchilarning axloqiy e'tiqodini hosil qilish, ma'naviy qiyofani shakllantirish, komil inson tarbiyasi talablari va normalarini anglashga o'rgatish;
- kattalarga hurmat, tengdoshlari bilan o'rtoqlik-do'stlik, yosh bolalarga, bemorlar, nogironlarga, qariyalarga g'amxo'rlik qilish xislatlarni tarbiyalash;
- mehnatga, o'z kasbiga muhabbat hissini o'stirish, intizomli bo'lish, ijtimoiy mulkka yangicha munosabatni tarbiyalash;



- elim deb, yurtim deb yonib yashash, o'z shaxsiy manfaatini jamoa manfaatidan ustun ko'rmaslik, o'zini butun kuch-qudratini umum ishiga bag'ishlash tuyg'usini tarbiyalash;
- mehnatda va o'qishda printsiptiallik, qat'iylik, matonat, haqqoniylik, halollik, ishda ijodkorlik, insonparvarlik, yuksak vatanparvarlik, qat'iy jasorat, har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaslik hislarini tarbiyalash;
- mehnatda va o'qishda printsiptiallik, qat'iylik, matonat, haqqoniylik, halollik, ishda ijodkorlik, insonparvarlik, yuksak vatanparvarlik, qat'iy jasorat, har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaslik hislarini tarbiyalash.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushinishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor hamda talablarni bajarishda ma'suliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarni e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodni tizimlili, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va hislatlarni shakllantirish, o'quvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini anglab yetishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Xulosa qilib aytganda, maktabda o'quvchi-yoshlarga beriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, vazifalari yoshlarda yaxshi ma'naviy sifatlar tajribalar xosil qilish, ularni axloqiy normalari va qoidalari to'g'risidagi dastlabki bilimlar bilan qurollantirish, axloqiy xislatlar va xulqiy fazilatlarini rivojlantirish, hamda ularda yoqimli xatti-harakat ko'nikmalari va odatlarini vujudga keltirish va

tarbiyalashdir. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi haqida sharq va markaziy osiyo mutafakkirlari bitmas-tuganmas pedagogik g'oyalarni meros qoldirganlar: Bahouddin Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Al Xorazmiy, Al Beruniy, Al Farobiy, Az Zamaxshariy, Al Farg'oniy, A.Jomiy, A.Navoiy, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil, Nosir Xisrav, X.Sheroziy, Muqimiy, Furqat va boshqalarning odob-axloq to'g'risidagi ibratlig'oyalari yoshlarimizni ma'naviy yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda katta pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday qqdeydi: "Har kimki ilm hikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdan v notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin". Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy-axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro'zg'or tutish masalalari xususida

ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota-ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Alisher Navoiy bolaning voyagayetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy-ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
2. Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna. O'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishda zamonaviy o'qituvchining roli. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. – Namangan, 2020.
3. Pedagogika // M.X.Toxtaxodjaeva umumiy tahriri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010. – B. 252 – 257.
4. Hasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

G'aybullayeva Husnida G'ulamovna
Namangan shahar 26-sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol metodlar va ulardan boshlang'ich sinf o'quvchilarini faolligini oshirishda foydalanishning ahamiyati, ularni ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, ta'lim metodlari, globallashtirish, intellektual salohiyat, pedagogik mahorat, mustaqil ish, axborot-ta'lim muhiti, tanqidiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение интерактивных методов и их использование в повышении активности учащихся начальных классов, правильное их использование в образовательном процессе.

Ключевые слова: образовательные технологии, методы обучения, глобализация, интеллектуальный потенциал, педагогическое мастерство, самостоятельная работа, информационно-образовательная среда, критическое мышление.

Annotation: this article discusses the importance of interactive methods and their use in increasing the activity of primary school students, their proper use in the educational process.

Keywords: educational technologies, teaching methods, globalization, intellectual potential, pedagogical skills, independent work, information-educational environment, critical thinking.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalarini uchun kadrlar tayyorlash ishini zamonaviy darajada olib borishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi ta'lim texnologiyalari va ilg'or ta'lim metodlarining bilim olish, olingan bilimni boshqalarga o'rgatish, bilimlardan amalda foydalana bilish va yangi bilimlarni yaratishdagi o'rni va ahamiyatini quyidagi fikrlar orqali ifodalash mumkin: Bilim berishdan bilimni ishlata bilish muhimroqdir. Bilimni ishlata bilishdan undan foydalanish sohalarini kengaytirish muhimroq. Yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatish bilim berishdan muhimdir. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, fanni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchiga bilim berish, bilimni ishlata bilishni, undan amalda foydalana bilishni va pirovardida yangi bilim yaratish mexanizmini o'rgatishda ta'lim metodlarini samarali qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Bundan esa, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining diqqat markazida



bo'lishini hamda yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash masalalari buyuk mutafakkirlarning doimo diqqat e'tiborida bo'lgan. Yosh avlod ta'lim tarbiyasini

rivojlantirishga qaratilgan ilg'orusullaro'zdavrida Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Abdulla Avloniy vaboshqalartomonidan ta'lim-tarbiyaning yangi usul vavazifalari ham yaratilgan. Jamiyatdaha maxborotlar almashinuvining globallashuvi, shuningdek, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarida yuz berayotgan yangiliklarni quvchilarga tezkor suratda batafsil ma'lumotlar berishni taqozo etmoqda. Mazkur talabning ijobiy tarzda qondirilishi, eng avvalo, ilmiy-nazariy hamda amaliy bilimlarni o'zlashtirishning qulay shakli bo'lgan ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash omillaridan biri – muayyan yaxlit ta'limiy jarayonni oldindan loyihalashtirish, o'quvchilartomonidan o'zlash-tiriladigan nazariy va amaliy bilimlar, ko'nikma va malakalardarajasini tashxislash va ta'lim maqsadining muvaffaqiyatli natijalanishini avvaldan bashoratlay olishdan iboratdir. Bu vazifa amalga oshirishda pedagogik texnologiyaning ilg'orusullari va metodlaridan foydalanish ijobiy samaralar beradi.

Zamonaviy ta'limni tashkilotishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy vajismoniy kuch sarfetmay, qisqavaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqavaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ulartomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlardarajasini baholash o'qituvchida yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangi hayondashuvni talab etadi [1].

Bugungi kundari vujudga kelgan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajribato'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zdatutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan turlituman ish usullari vashakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari vashakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayonda vujudga kelmoqda.

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xilmaxil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi vaboshqa sifatleri bilan bir-biridan farqlanadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamdahu jarayonda o'quvchilarning qanday ish harakatlarini bajarish kerakligini belgilab beradi [3].

Bajaradigan vazifasiga, ko'zdatutiladigan natijaga, ta'limiy vatarbiyaviy maqsadlarga, pedagogik vapsixologik yo'nalishlariga, ta'lim oluvchilarning yoshiga muvofiqligiga, ayrim fanlarni (ijtimoiy, tillar, tabiiy, anik, amaliy va amaliy vaboshqafanlarni) o'qitishga, nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishga, o'zlashtirishni nazorat qilishga tegishli vaboshqabelgilar. Shu belgilarigako'rata'lim metodlarini turlarga ajratilgan. Misol qilib ta'limiy vatarbiyaviy maqsadlarga tegishli belgilarigako'rata'lim metodlarini quyidagiturlarga ajratish mumkin:

Mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish.

Vazifalarni mustaqil bajarishga o'rgatish.

Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini faollashtirish.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatish.

Bugungi kunda ayniqsa, qator rivojlangan mamlakatlarda pedagogik texnologiyalar va ularning xilma-xil metodlaridan keng foydalanish yaxshi samaralar bermoqda. Bunday metodlarga "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "Qarorlar shajarasi", "Aqliy hujum", "6x6x6", "Ajurli arra", "Akvarium", "Asalari galasi", "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha", "Blits-so'rov", "Videotopishmoq", "Galereya", "Elpig'ich", "Zakovatli zukko", "Zig-zag", "Zinama-zina" kabi metodlarini kiritish mumkin. Bu metodlar yordamida o'quvchilar o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarini himoyalash, haq-huquqlarini anglab yetish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladilar. O'qituvchi esa didaktik jarayonni qurishda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i, ularni mavzu bo'yicha o'quv elementlarining murakkabligi va vaqt tig'izligiga qarab chog'ishtirmoqligi lozim. Biz quyida ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan biri "Fikriy hujum"ning mohiyati va undan foydalanish haqida fikr yuritamiz. "Fikriy hujum" metodi. Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday javobni rag'batlantirishdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchining mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir.

Ta'limda sub'ekt-sub'ekt jarayonining yo'lga qo'yilganligi boshlang'ich sinflardan o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilimlarni majburan emas, balki ongli ravishda o'z qiziqishlari asosida o'zlashtirishlarini shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida erkin muloqot muhitini shakllantirishdek samarali natijalarga erishish uchun zamin yaratmoqda. Ushbu jarayonda maqsadli va sifatli tashkil etilgan ta'limning roli alohida ahamiyatga ega. Yangi o'qitish usulini joriy qilishda mustaqil ishlarni to'g'ri tashkil qilish boshlang'ich ta'limda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim darslarida o'quvchi



tomonidan bajarilgan har qanday mustaqil ish uchun kichik kashfiyot tarzida muhim ahamiyatga ega bo'lib o'quvchi iqtidori va qiziqishini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ishlar bilimni olishga xizmat qiladigan masalani o'quvchilar o'z aql-idroklari bilan yechishga, mantiqiy fikrlashga, tahlil qila olishga, bilimlarning tadbiqini izohlashga xizmat qiladi. Mustaqil ishlash o'quvchilarda o'zini shaxsiy fikrlashini, berilgan masalani ongli ravishda mustaqil yecha olishini va izlanuvchanligini ta'minlaydi, bunda o'qituvchilarning pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi. Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, biroq, ularning har biri ta'lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta'minlash bo'yicha turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli pedagoglar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, interfaol metodlarning samaradorligi yanada oshadi, qachonki, ularni qo'llashda o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa. Bu pedagoglardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. 18.02.2012.
2. D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi (Metodik qo'llanma) Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.
3. O.D.Raximov, O.M.Turg'unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro'ziyev. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent, "Fan va texnologiya nashriyoti", 2012.
4. O.U.Avlayev, S.N.Jo'rayeva, S.R.Mirzayeva. "Ta'lim metodlari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, «Navro'z» nashriyoti. 2017.

MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Musabayeva Noilabonu Tulkun qizi

Namangan shahar 26-maktab

boshlang'ich sinf o'qituvchi

NamDU Pedagogika tarixi va nazariyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda matematika o'qitish metodikasi maqsad va vazifalari, matematika fanlarini o'qitish jarayonida o'qitish metodlari, interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, matematikani o'qitish shakllari, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini tashhis etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Matematik metodlar, karragramma, sirli sandiq, applikatsiya, mantiq.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ

Мусабаева Ноилабону Тулкун кизи

г. Наманган 26 школа

Учитель начальной школы

Магистр истории и теории педагогики, НамГУ

Аннотация: Настоящая статья предназначена для учителей начальных классов, включающая в себя цели и задачи обучения математике, методы обучения при обучении математике, интерактивные методы, использование современных педагогических и информационных технологий, формы обучения математике, диагностику успеваемости учащихся. знания, навыки и умения.

Ключевые слова: математические методы, программа, загадочный ящик, приложение, логика.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN MATHEMATICS

Musabayeva Noilabonu Tulkun qizi

Namangan city 26th school

primary school teacher



Master of History and Theory of Pedagogy, NamSU

Annotation: This manual is designed for primary school teachers, which includes the goals and objectives of teaching mathematics, teaching methods in the teaching of mathematics, interactive methods, modern pedagogical and information technologies. use, forms of teaching mathematics, diagnosing students' knowledge, skills and abilities.

Keywords: Mathematical methods, program, mystery box, application, logic.

Zamonaviy ta'limda ta'lim muassasalaridagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zahirida o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish an'analari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish muhimligi sababli u davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu xususida quyidagilarni be'jizga ta'kidlaydi: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz". Darhaqiqat, hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari fan asoslari bilan qurollangan, dunyoqarashi keng, pedagogika, psixologiya va fanlarni o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirgan, zamonaviy texnologiyalardan xabardor shaxs bo'lishi kerak. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim jarayoni juda murakkab jarayondir. Bu jarayonni hozirgi kunda davr talabi asosida tashkil etish, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan katta mas'uliyat, bilim, mahoratni talab etadi. 1-4-sinflardagi matematika darslari umumiy o'rta ta'lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o'qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga ko'tarmoq zamon talabidir. Chunki bolalarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo'lgan elementar, tushunchalar shu sinflarda singdiriladi.

Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishini tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va uquvlarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi.

Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi



mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi lozim.

Boshlang'ich matematika kursi, [bir tomondan](#), bilimlar boshqa sohalarida foydalaniladi va bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

6–10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Mana shu bolalikda shakllantirilmagan narsalarni keyinchalik to'ldirish juda qiyin. Shu sababli boshlang'ich ta'lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang'ich ta'lim metodikasining markaziy vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, [didaktika](#), matematikani o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng ma'qul usullarini qo'llay bilish, darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur.

Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, laboratoriya ishlarida matematikani o'qitish metodikasi bajariladigan ishlar orqali egallanadi.

Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim. Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyat uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Keltirilgan masalalar darsda iloji boricha turli usullar bilan hal etilishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtai nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Bolalarni 6–7 yoshdan o'qitishning mazmuni va usullarida muammolar yuzaga keladi. Bu bog'cha-maktablarda o'qitish orqali hal etiladi. Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichda o'rgatish (20 ichida) boshlang'ich ta'limning markaziy vazifasi bo'lib kelgan va shundoq bo'lib qoladi. Biroq bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan,

balki u bolalarni matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'lib qoladi. Ushbu ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi: 1) pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik [mulohazalarga tayyorlash](#); 2) matematika yo'li, ya'ni bolalarni eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo, natural son va geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash.


So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o'qitish ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi va oshirmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika o'qitish metodikasini chuqur egallab, o'zlashtirib olmog'i zarur.

Masalan, dars jarayonida matematik o'yinlarning ham o'rni kattadir. Matematik o'yinlar. Karragramma. "Sirli sandiq" didaktik o'yin. Sehrli doiracha o'yinini boshqarish, o'quvchilarni qiziqtirish. Mantiqiy fikrlash.

O'quvchilarni matematikaga qiziqtirishda karra jadvalini yod olishda "Karragramma" metodidan foydalanish yaxshi natija beradi.

"Karragramma" metodi.

Bilimdondlar	Topqirlar	Zukkolar
2*3	3*7	6*2
4*4	5*5	3*3



Maqsadi: O'quvchilarni karra jadvalini qiziqarli tarzda yod olishga undash. Shakllar bilar mozaika usulida ishlashga o'rgatish. Ijodkorliklarini oshirish. Hamma darsda qo'llash mumkin. Ingliz tili, rus tilida ranglarni so'rash ham mumkin.

"Karragramma" metodi. O'quvchilar berilgan karraga oid topshiriqni bajarsalar shakllar ortida javobi chiqadi. Karrani javobini topish orqali shakllardan hayvonlar aplikatsiyasini yasaydilar.



Matematik o'yinlar o'quvchilarni yanada chuqurroq bilim olishlarida, ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishda, qiziqishini, mantiqiy tafakkurini oshirishda, topqirlik, ziyrakligini rivojlantirishda yordam beradi. O'quvchilarning matematika faniga qiziqishlarini orttirish uchun rang-barang o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ana shunday o'yinlar bilan mashg'ulot davomida o'quvchilarning zerikishiga va chalg'ishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday o'yinlar o'quvchilarni hozirjavoblikka, chaqqonlikka o'rgatadi


"Sirli sandiq" didaktik o'yini

Uchta guruhdan 1tadan o'quvchi chiqadi. Sandiqcha ichidan konvertcha tanlab oladi. Konvert ichidan yozilgan shaklni ta'riflab beradi. Qolgan o'quvchilar chizadilar.

Qaysi guruh aʼzosi topib chizgan shaklini yuqoriga koʻtarsa oʻsha guruhga ragʻbat kartochkasi taqdim etiladi. Maqsadi: Oʻquvchilarni tasavvurini boyitish. Tinglab, tushunib, tasavvurini aks ettirish.

Boshlangʻich sinf oʻquvchisida oʻquv-biluv faoliyatining rivojlanishida ijodiy mazmundagi topshiriqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shulardan biri Fazoviy shakllar yashash topshirigʻidir. Ushbu topshiriq oʻquvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanadi, mulohaza yuritish, xulosa chiqarish kabi xislatlar tarbiyalanadi.

“Fazoviy shakllar yasash”




Oʻquvchilar choʻp va plastilindan foydalangan holda berilgan shakllarni yasaydilar. Shakl nomini yozadilar. Uchi va tomonlarini yozadilar.

“Sehrli doiracha”

Ushbu “Sehrli

“Mozaika” didaktik topshirigʻi beriladi. Oʻquvchilar aralash berilgan shakllardan fazoviy shakl va uning nomini topadilar.



doiracha”dan foydalangan holda oʻquvchilar turli shakllar hosil qilishlari mumkin. Shakllarni hosil qilib, ularni yuzini va tomonlarini oʻlchab shakllarni yuzi va premetrini topishlari mumkin. Kasr, ulush tushunchasini oʻrganishda ham qoʻllash mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Boshlang`ich ta`lim metodikasi“ jurnali
2. Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun qo`llanmalar
3. 1-4 sinf matematika darsligi.
4. Internet manbalari.

YOSH AVLODGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Toshpo'latova Shoxista Qurbanovna

Namangan viloyati, 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi

O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Zamonaviy o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ta'siri, texnologik xaritasi aks etgan. Shuningdek, o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari, yo'llari, usullari, shakllari, vositalari aniqlangan. Eng muhimi o'qituvchining innovatsion faoliyati va ta'lim texnologiyalari yuzasidan ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, axloqiy barkamollik, kompetentlik, innovatsion faoliyat, raqobat, yaratuvchanlik, vatanparvarlik, aqliy salohiyat, ijodkorlik.

Yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishni muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchiga, uning g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahorati, iste'dodi va madaniyatiga bog'liq. Bu g'oyat murakkab va mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda o'qituvchi qanday o'qitish kerakligini nazariy-amaliy jihatdan bilishi lozim. Ma'lumki, o'qituvchining pedagogik mahorati, asosan, darsda ko'rinadi. O'qituvchilik – katta san'at. Bu san'atga –o'qituvchilik kasbiga, chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollangan haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar insonlargina erisha oladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari: axloqiy barkamollik, ya'ni saxovatpeshalik, mehribonlik, talabchanlik, ma'naviy poklik, qanoatlilik, rostgo'ylik, sadoqatlilik, pokizalik, ziyraklik, andishalilik, vazminlik, sabr-bardoshliligi bilan birga uning kasbiy fazilatlari: o'z sohasining puxta bilimdoni bo'lib, o'zining nutq madaniyatiga ko'ra tevarak-atrofdagi insonlarga namuna bo'la olishi muhimdir.

Tabiiyki, mohir o'qituvchi o'zining shaxsiy faoliyatini o'zi tahlil etib boradi. Pedagogik kompetentligini rivojlantirish uchun faoliyati davomida pedagogik vazifa va maqsadlarini o'zgartirib, yangi vazifalarni qo'llash asosida o'quvchi shaxsiga mohirlik, donolik, ijodiy dadillik, chuqur ilmiy tafakkur bilan yondashadi. Pedagogik mahorat va kompetentlik o'qituvchidan qat'iyat, tirishqoqlik, tadqiqotlarni olib borishga intilish, yangi vaziyatga moslashish, samimiylik, to'g'rilik, halollik, kuch, o'tkir aql-idrok talab etadi.

“Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi”.

Bugungi kunda o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va millatimizning buyuk siymolari hayoti va ijodiy merosini teran bilishi lozim. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lgan yosh avlodga chuqur bilim berishda o'qituvchi yuksak qobiliyat va ishchanlik bilan ongli, ijodiy yondashuv asosida ta'lim- tarbiya jarayoniga metodik bilimlarini samarali qo'llay olishi kerak. Buning uchun o'qituvchidan quyidagi burch va mas'uliyatlar talab etiladi:

– eng avvalo, o'qituvchi yuksak his-tuyg'u va tajriba, notiqlik san'atiga ega madaniyatli, ma'rifatli, ijodkor, ta'lim-tarbiya faoliyatida tashabbuskor va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxs bo'lishi;

– o‘qituvchi o‘z mehri, estetik his-tuyg‘ularini har lahzada yoshlar ichki dunyosi bilan bog‘lay olishi va ularning mehri, hurmatiga sazovor bo‘lishi;

– o‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho bera olishi;

– zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalar yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lib, barcha fanlar integratsiyasini o‘zlashtirishi va hokazo.

O‘qituvchilar unutmashliklari kerakki, kuchli bilim, kasbiy metodika va oddiy insoniy fazilatlardan iborat uchta xususiyat birlashib o‘qitish jarayonining pirovard natijasini belgilaydi. O‘qituvchi har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilishi va uni tasavvur etishi uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi hamda texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayonini tashkil etish texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.

Pedagogning innovatsion faoliyati – bu o‘z ichiga yangilikni tahlil etish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish demakdir. Innovatsion faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, ta’lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, hal etish, unga doir qaror qabul qilish hamda tanlab olingan qarorni amalga oshirish va uni baholash imkonini yaratadi, muammolarni esa samarali hal etadi. Yangi pedagogik texnologiyalarning xislati shundaki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Innovatsion ta’lim o‘qituvchi faoliyatini yangilash, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul qurishga, yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quv jarayonini samarali tashkil etilishi o‘qituvchining innovatsion faoliyati, g‘oyaviy e’tiqodi, kasb mahorati, iste’dodi va madaniyatiga bevosita bog‘liq. Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizdan doimo izlanib, tashabbus ko‘rsatib, yangicha ishlashni talab etmoqda. “Bugun



har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak".

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri – o'qituvchi shaxsidir. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda yangiliklarni idrok etishga innovatsion shaylikni shakllantirish va yangicha harakat qila olishga o'rgatish yo'nalishlari muhimdir. Innovatsion faoliyat – pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Innovatsiya o'quv jarayoniga yangilik olib kirish, o'quv jarayonini o'quvchi ehtiyoji, xohishi va istaklariga moslashtirish, o'quvchini mustaqil mutolaaga o'rgatish demakdir. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimida shakllangan yangicha yondashuvdir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'iladi va ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi va ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natija sifatida o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta'lim jarayonini loyihalashdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, bozor munosabatlarini joriy etishni o'zining strategik vazifalaridan biriga aylantirdi. "Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas". Shu nuqtayi nazardan shaxsda innovatsion tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish usullarini ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.



Ma'lumki, innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz innovatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 30.12.2020.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир” 30.09.2020.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 том. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.

THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF ELECTRIC CARS IN OUR LIFE

Authors

- **Inoyathodjaev Jamshid Shukhratullaevich**, Doctor of technical sciences, professor Turin polytechnic university in Tashkent
- **Khaitov Jasur Fayzullo o'g'li**, student 4d level, Turin polytechnic university in Tashkent

Keywords:

a car, infrastructure, electric car models, Russian brands

Abstract

An electric car is a car with an electric battery. There are such car models that can be started from solar energy. Electric cars do not need gasoline, there is no gearbox. Google and other giants participate in the development of self-driving cars that work with computer data in production. Billions of dollars are invested in the automotive industry every year. It is used for electric cars in some countries of Asia, Europe and the USA. The infrastructure necessary for this is actively developing: lamps with the ability to charge cars, etc. Electric vehicle production is developing in Russia. for, electric car models of well-known Russian brands are taking a big step into the world markets.

WHAT IS AN ELECTRIC CAR



An electric car is a car with an electric battery. There are such car models that can be started from solar energy. Electric cars do not need gasoline, there is no gearbox. Google

and other giants participate in the development of self-driving cars that work with computer data in production. Billions of dollars are invested in the automotive industry every year. It is used for electric cars in some countries of Asia, Europe and the USA. The infrastructure necessary for this is actively developing: lamps with the ability to charge cars, etc. Electric vehicle production is developing in Russia. for, electric car models of well-known Russian brands are taking a big step into the world markets. China can produce the most powerful electric cars for its export in the whole world. The greenhouse effect threatens the ecological condition of our planet. This phenomenon occurs due to the exhaust gases of the car. Deterioration of the environment and threats to nature are the consequences of burning gasoline, which is the basis of this industry. Do not panic, scientists and experts are developing the cars of the future - electric cars. In the 70s, at the height of the global energy crisis, interest in alternative energy sources. Research in this area was actively conducted. But when the crisis was over, everyone happily forgot about it. About electric cars again in the nineties and two thousand years, when the gas pollution of the world's largest cities reached its peak (and still). Then the government decided to introduce electric cars to stabilize the environmental situation.

HISTORY OF THE EMERGENCE AND USE OF ELECTRIC CARS

This car model appeared in the distant XX century. In the era of steam engines, the creation of relatively compact vehicles powered by an electric motor was in the first place. However, the potential of electric cars is not fully revealed due to the shortcomings of this car. The electric car was not designed for long trips and almost always caused difficulties due to the need to charge. electric cars are cheaper than conventional cars it moves almost silently on the roads an expensive, bulky and not always reliable quick transfer box will not be needed 0101does not consume engine oil an electric car can use regenerative braking to recharge its electronic



battery

electric power generating shock absorbers can also be used for recharging Expert: To give you an idea of the difference between the prices of gasoline and electric charging: a charge

of approximately 25,000 soums will cover a distance of 500 km. 400,000 to 900,000 will be spent to fill the gas tank of other cars. it is said that the electric car can travel 318 km at full power. However, the car covered a distance of 280-300 km with full power. "Electric cars have 20-30 percent less power in winter, and therefore they drive around 220-250 km instead of 318 km," he writes. The blogger clarified that it is not possible to charge at home because he lives in apartment buildings. At the charging point he uses, there is a station that provides 7 kW of electricity per hour - 1 kW/h of power is 450 soums. In addition, there is a service fee of 5000 soums per hour. There is also a parking fee of 3,000 soums per hour if the capacity is full and the car is not towed. It is said that this payment was made to encourage the speedy release of space for other electric cars. "In some places, there are stations that provide 30, 40, 60 kW/h. They can charge the car to 100 percent capacity in less than 1 hour. But such charging is harmful for the battery, - says Umid Gafurov. - It takes 8-10 hours to fully charge at 3.5 kW/h charging stations." When contacted for more information, he said that he still has a positive opinion about electric cars and that after the above post he bought a second and third electric car (replaced with the previous one) and charging shared with these numbers on he wrote that the more properly the battery is used, the more it will last. Almost all manufacturers guarantee batteries for 150,000 km or 8 years. After this period, it works 70-80 percent, not 100 percent. Because over time, the battery degrades,



that is, its resource decreases. For example, he will walk 200 km instead of 300 km. It is natural that everything wears out over time. Older model batteries may only have 1% less capacity to reach full range. It is also reduced by driving with high pressure and driving with high

voltage. You can run the latest cars from 0% to 100% with no problem. Using it down to 0 percent is definitely recommended only when charging is near. It is recommended to fill the previous batteries up to 90-95%, and connect them to the station when they reach 10%. Car battery capacity can also increase when the air temperature is average. But it lasts less when the day is cold. The reason is that in the cold, the battery retains its reserve power in order to maintain its size and properties. If we start to compare the internal parts of an electric vehicle with a conventional one, they are not much different. Its operation is very similar. The main elements that make up this electric car are . Electric motor. It is responsible for converting electrical energy stored in batteries into kinetic energy. With this, the car can move. Engines can also do the opposite, that is, on downhill slopes, they use the captured kinetic energy and store it in the form of electricity. Storms.

MOTOR DE COMBUSTIÓN



MOTOR DE ELÉCTRICO



Something that collects electrical energy used to run a motor. There are some vehicles that have an auxiliary battery to keep them grounded. Loading port. What happened to the plug that connects to the power source that recharges the car battery? Transformers. They are responsible for converting the parameters of electricity into what is needed to charge the



batteries.

There are vehicles that run on alternating current and others on direct current. They also serve to cool the car, prevent spills and explosions. Controllers They regulate the input of energy to the battery. In this way, you can balance the charge appropriately to extend its useful life and not degrade it. Autonomous cars have some advantages over other vehicles. They are as follows Because they are quieter, reduce noise pollution in cities. If all

vehicles in the city center were electric, there would be no such noise. Of course, an electric taxi drove past you today and you didn't even hear about it. Noise also affects people's health. Therefore, it is important to reduce it. They do not pollute, which improves air quality in cities. During their use, they do not emit harmful gases that pollute the air in cities and increase the effects of climate change and global warming. Thousands of people die every year from respiratory diseases as a result of air pollution. Zero emission capability. To generate electricity, if we use fossil fuels, we emit gases not in use, but in production. Therefore, electric cars have the ability to be zero emissions. This happens when renewable energies like solar and wind are used to generate electricity. The engine is just as powerful and cheaper. They usually have almost the same power as conventional ones and are more compact and reliable. The problem is the autonomy of the battery. There are no elements that cause the engine to fail. More efficiency and less consumption. The efficiency of electric cars reaches 30% compared to 90% of conventional ones. They consume less and we save more. To perform the same effort, they require less energy, only batteries provide this energy for a short time.

References

References:

"Reducing Pollution with Electric Vehicles". www.energy.gov. Archived from the original on 12 May 2018. Retrieved 12 May 2018.

^{a b} Preston, Benjamin. "EVs Offer Big Savings Over Traditional Gas-Powered Cars". Consumer Reports. Retrieved 22 November 2020.

^{a b} "Electric Cars: Calculating the Total Cost of Ownership for Consumers" (PDF). BEUC (The European Consumer Organisation). 25 April 2021. Archived (PDF) from the original on 16 May 2021.

^a "How to charge an electric car". Carbuyer. Archived from the original on 23 April 2018. Retrieved 22 April 2018.

^{a b} Paoli, Leonardo (30 January 2022). "Electric cars fend off supply challenges to more than double global sales – Analysis". IEA. Retrieved 7 February 2022.

^{a b c d e f g h} Jose, Pontes (30 January 2022). "World EV Sales — Tesla Model 3 Wins 4th Consecutive Best Seller Title In Record Year". CleanTechnica. Retrieved 5 February 2022. "The top 3 global best selling plug-in electric cars in 2021 were the Tesla Model 3 (500,713), the Wuling Hongguang Mini EV (424,138), and the Tesla Model Y (410,517). Nissan Leaf sales totaled 64,201 units and Chery eQ 68,821 units."



<https://get-green-now.com/why-are-electric-cars-important/>



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YOSHLARNING O'RNI

Muhitdinov Orifjon Abdulazizovich

Namangan pedagogika kolleji jismoniy tarbiya rahbari

Dildiyor2227@gmail.com

+998 93 404-81-18

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali siz yoshlarning O'zbekistonni qanchalik rivojlanishida o'rni katta ekanligi va unga qanday qilib erishish mumkinligi haqida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Lider, faollik, ijtimoiy, bilim, ko'nikma, millat, mustaqillik, taraqqiyot, faylasuf, tadqiqotchi, biznesmen, mehr.

Аннотация: В этой статье вы подчеркнули, насколько важно развитие молодежи и как его можно достичь

Ключевые слова: Лидер, деятельность, социальные, знания, навыки, миллат, мустагиллик, тараккиет, философ, исследователь, бизнесмен, меҳр.

Annotation: Through this article you have been highlighted how important youth development is and how it can be achieved.

Keywords: Leader, activity, social, knowledge, skill, millat, mustaqillik, taraqqiyot, philosopher, researcher, businessman, kind.

Hammaga ma'lumki, bugungi O'zbekistonning har tomonlama rivojlantirishda yoshlarning o'rni beqiyos katta, chunki kelajak avlod ham, o'tgan avlod ham faqatgina o'z vatanini rivojlantirish uchun harakat qiladi, o'rganadi, rivojlantiradi. Uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi esa yoshlarning qanchalik bilim va ko'nikmaga ega ekanligi orqali bilib olish mumkin. Chunki, yoshlarda qanchalik bilim, ko'nikma, ijtimoiy-iqtisodiy faollik, liderlik, boshqaruvchanlik bo'lsa, buni vatan uchun bera oladi. Yosh olimlar, iqtisodchilar, biznesmenlar, liderlar ham aynan yoshlarning olgan bilimlarining natijasidir. Avvalo har bir yosh o'spirinda mas'uliyat kuchi uni harakatga undaydi va tinch qo'ymaydi. Talaba yoki



yosh olimlar o'qib o'rgansa faqatgina o'zi uchun emas balki, vatani uchun o'qiydi, chunki olim bo'lish bilan birga o'z vatanini dunyoga tanitadi. Bugungi kunda ham aynan yuragida o'ti bor, yonib turadigan men uddalayman degan yoshlar O'zbek yurtida juda ham ko'p. Albatta, O'zbek millatida juda ko'p olimlar, faylasuflar, tadqiqotchilar, ulkan yutuqqa erishgan bilimli kimsalar ham aynan vatani uchun, shanini oqlash uchun, milliy bayrog'ini yuqoriga ko'tarish uchun harakat qilishgan. O'zbekiston mustaqillika erishgandan keyin har tomonlama o'zini tiklay oldi, chunki bilimga boy bo'lgan katta va o'rta yoshli insonlarning yordami juda katta. Bugun faxr bilan Prezidentimiz ham bot-bot ta'kidlaydi, ya'ni bugungi kunda O'zbekistonni yuksaklarga olib chiqish uchun yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilib berilmoqda, chunki kelajak yoshlarning qo'lida bo'ladi albatta, yoshlar bir-biri bilan muloqot qilish bilan birga bilim va tajribalarini bo'lishadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi, "Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo'lmasa, boshqalar nafaqat uning dehqonini, nafaqat ishchisini, hattoki shoir-u olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha'nini tuproqqa qorishi mumkin ekan" [1]. Har qanday soha bo'lmasin O'zbekiston rivojlanib bormoqda, misol uchun sport, ilm-fan, iqtisodiyot, taraqqiyot, texnika va bir qator yo'nalishlarda o'zini ko'rsatmoqda. O'zbek millatida yashagan har bir inson o'zini yurtini sevmasdan turib unga foyda keltira olmaydi. Sevgan insonlari va unga mehr-muhabbat, e'tibor va ijobiyat hissi har bir insonni harakatga undaydi.

O'tmishga nazar solinsa yoshlarga nisbatan katta yoshdagi insonlar ko'proq yutuqlarga erishgan va o'zini butun dunyoga tanita olgan. Bunga sabab bitta-bilim. Har bir insonni bilim, ilm va olingan tajriba muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'ladi. Chunki, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar ham bunga sabab bo'la oladi. O'zbek yurtining ajdodlari ham faqat birgina maqsad tufayli harakat qilishgan, maqsadi esa yaqinlariga nafi tegishi va vatanini rivojlanishi uchundir. Buni tushingan yoshlar esa ular ham katta kuchga ega bo'ladi. Sharoitga ham hamma narsa bog'liq emas, chunki buyuk shaxslar ilm olganida faqat va faqat kitob mutolaa qilish maqsadida bo'lgan. Davlat shakllarining rivojlanishi va o'zgarishiga quyidagi omillar ham ta'sir ko'rsatadi, "Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy-madaniy muhit, tarixiy, milliy va diniy an'analari, urf-odatlar, tabiiy, geografik va iqlimiy shart-



sharoitlari, siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati, jamiyatni g'oyalashtirish va siyosatlashtirish darajasi" [2]. Albatta yoshlar shu qoidaga amal qilib harakat qiladigan bo'lsa millat va jamiyatni rivojlantira oladi. Kitob har bir insonni yetuklikka va muvaffaqiyatga erishishga sabab bo'ladi. Yoshlar tarbiya va bilimni teng qo'ya olsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki, ko'pchilik bilimli insonlarda tarbiya yo'q, tarbiyasi bor insonlarda esa bilim yo'q. Ikkalasi bor insonlarda esa tajriba yo'q. Bularning barchasi bor shaxslarda ko'plab muvaffaqiyatlarni kutsa bo'ladi. Yoshlarning ongida faqat o'qish bo'lgani maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashqi tomondan yomon ta'sirlar ko'rsatishi, ota-onasi tomonidan inkor qilinishi, do'stlari tomonidan esa qoralanishi mumkin. Bularga diqqat e'tiborini qaratgan inson hech qachon o'zini va vatanini rivojlantira olmaydi.

O'zbekiston uchun o'z jonini fido qiladigan insonlar ham o'zining foydasi uchun, yoki moddiy manfaat uchun emas, balki vatani, ota-onasi, do'st-birodarlari uchungina shunday qiladi. Barkamollikka erishayotgan, doim tinchlikka intilayotgan O'zbekiston ham boshqa davlatlardan farqli ravishda o'zi uchun turli xil sharoitlar yaratib kelmoqda. Yangilanayotgan O'zbekiston deb aytilmoqda, buning boisi shundan iboratki, ko'p asrlar oldin O'zbekiston degan davlat tashkil topmagan edi, yo'q ham edi. Mustaqillika erishilganidan keyin esa o'zini yagona millat, davlat sifatida e'lon qildi, bunga sababchi bo'lgan O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning xizmatlari beqiyos kattadir.

Bugungi kunda yoshlarga yaratilib berilayotgan sharoitlarga lol qolmay iloji yo'q, chunkin deyarli hamma sharoitlar bor, kamyuter, telefon, kutubxona, kitoblar, moddiy ehtiyojni qondirish uchun pul, deyarli har bir yosh o'ziga nisbatan mas'uliyatni oshirishi o'z ustida mukammal ishlashi kerakligini tushinishi kerak. Chunki, shunday sharoitlarga noshukurchilik qilish inson zotini qilg'i emas. Yoshlarga qanchalik e'tibor qaratilmasin, ular o'zlariga tegishli xulosalarni olib harakat qilmas ekan, unga hech kim turtki bermaydi. Talaba yoshlar, maktab o'quvchilari, magistrant talabalar ham o'zini rivojlantirish uchun harakat qilmoqda. Inson o'zini shakllantirsa keyin boshqalarni shakllantiradi va shu orqali vatanini rivojlantira oladi. Avvalo vatanni rivojlantiraman deganlarda birinchi navbatda



shuni ta'kidlash joizki bilim har qanday insondan ajratib turuvchi, millat va elatlar orasida uni kamol toptiruvchi foydali mashg'ulotdir.

Innovatsion texnologiyalar ham yosh olimlarning yaratgan va o'ylangan natijalarini bermoqda. Har bir millat o'zi ixtiro qilgan buyumlar va turli xil avtomobil, texnologiyalar bilan ko'rstaib kelmoqda, O'zbekistonda ham yoshlarni yaratayotgan ixtirolari va bilimga bo'lgan qiziqishlari boshqa millatlardan ko'ra kuchliroqligini ko'rsatmoqda. Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa olimu-fuzalolar ham aqlli va harakati aniq bo'lgan. Vatan uchun va o'zi uchun tinmay o'qigan. Yomon insonlar tomonidan tanqid qilingan bo'lsada bu ularga to'sqinlik qila olmagan. Asarlarda va filmlarda ko'rgan inson ularning yuksaklikka olib chiqqan yo'llari va bosib o'tgan qiyinchiliklarini ko'rib inson hayratga tushmasdan qolmaydi. Hattoki texnika qilmagan ishlarni ham ular ko'rsatib bera olgan. Yulduzlar va ularning joylashuvi kabi harakatlarni o'rganish esa katta mashaqqat talab etadi. Shunga qaramay bilim va tajribalar ortidan hammasini uddalay oldi.

Maktab o'quvchisidan kim bo'lasan? Deb so'rasangiz ular aytadiki, o'qituvchi, olim, hodim, muhandis, biznesmen, iqtisodchi va yana turli xil yo'nalishlarni aytib o'tadi. Rivojlanish borasida Islom Karimov shunday ta'kidlaydi, "Iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi" [3]. Albatta bu fikrlardan shu ma'lumki, iqtisodiy bilimlar va siyosiy bilimlarni orttirmasdan turib hech qanday natija olmaslik aniq. Chunki bu hamma uchun qonundek bo'lishi kerak. Maqsad qo'yibgina harakatga urina boshlaydi. O'zbekistonni yaratish va rivojlantirish hozirda ham mas'uliyatli ishlardan bo'lib kelmoqda, ayniqsa ilm-fan sohasi orqali ham rivojlantirish uni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantira oladi. Ilm-fan rivoji bu vatan rivojidir. Ilm-fanga intilgan yoshlar erta o'tib vatani uchun, do'stlari uchun hamma qilgan harakatlari o'zini oqlaydi. Chet davlatlarga qaraganda O'zbekiston yanada rivojlanib bormoqda, bunga asosiy sabab esa yoshlarning o'ziga ishonib qat'iy harakat qilishi va uni doimgidek rivojlantirishini yana ta'kidlash joiz. Harbiy kuchlar, ilm-fan kuchlari, sport kuchlari va juda ko'plab qilingan harakatlar millat rivoji uchun katta turtki bo'ladi.

Qanday soha bo'lmasin yoshlardagi bilimlarni ko'rib qoyil qolmasdan iloji yo'q. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar ham ma'lum maqsadga va ehtiyojga bo'ysinib yashaydi va harakatda bo'ladi. Misol uchun uning harakati gapirishga va ovqatlanishga bo'lsa uning yashashga intilayotganligidan signal beradi. Katta yoshga yetganda esa faqat bular ehtiyoj emas, balki undan ham katta ish va mashaqqatlar ham borligi uni o'yga soladi. Vataini ko'ra boshlaydi, ayniqsa insonlarni taniy boshlaydi. Yoshlarning o'rni qanchalik katta bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy harakatlarni amalga oshirish kabi yo'llarni bosib o'tish inson zotini qon-qoniga singib ketgan. Davlatda qonun, din qanchalik kuchli e'tiborga olinsa hamma unga bo'ysinib yashasa O'zbekiston yanada rivoj topadi va yosh-u qari bundan hursand bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Shavkat Mirziyoyev, "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent, "O'ZBEKISTON" 2017-yil, 344-bet.
2. Sh. A . Saydullayev, "Davlat va huquq nazariyasi", Toshkent, "Yuridik adabiyotlar publish" 2021-yil, 71-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz", Toshkent, "O'zbekiston", 2018-yil, 5-bet

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАШКИЛ ЭТИЛАДИГАН ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНЛАР ТАҲЛИЛИ

Наманган педагогика коллежи ўқув бўлими бошлиғи

Нодирбек Абдуғанпорович Исмаилов

Аннотация. Ушбу мақолада профессионал таълим муассасаларида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқаришда – тарбиявий муносабатлар жараёнини вужудга келиши ва бу асосида ўқувчилар тафаккурининг шаклланиши ва ривожланишига таъсир этувчи омиллар тўғрисида атрофлича фикр юритилган.

Калит сўзлар: Профессионал таълим муассасаси, педагогик жараён, субъект-объект муносабатлари, субъект-субъект муносабатлари, тарбия, таълим, маълумот, ўзини-ўзи тарбиялаш, мустақил таълим, мустақил маълумот, тарбиявий муносабатлар, шаклланиш, ривожланиш.

Аннотация. В данной статье в организации и управлении педагогическими процессами в профессионально-образовательных учреждениях – формирование образовательных отношений и факторы, влияющие на формирование и развитие мышления учеников на этой основе.

Ключевые слова: Профессиональное образовательное учреждение, педагогический процесс, субъект-объектные отношения, субъект-субъектные отношения, воспитание, образование, информация, самообразование, самостоятельное образование, самостоятельная информация, образовательные отношения, становление, развитие.

Annotation. In this article, in the organization and management of pedagogical processes in vocational educational institutions - the formation of educational relations and factors influencing the formation and development of students' thinking on this basis.

Keywords: Professional educational institution, pedagogical process, subject-object relations, subject-subject relations, upbringing, education, information, self-education, independent education, independent information, educational relations, formation, development.

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар, татбиқ этилаётган янгиликлар, таълим-тарбия жараёни иштирокчилари учун яратилаётган шарт-шароитлар, халқимизнинг эркин яшаш ва меҳнат қилиш шароитининг яхшиланиши, умуман олганда эришилган моддий ва маънавий салоҳият эркинлиги, мустақил фикрлаш, эътиқод ва сўз эркинлиги, диний бағрикенглик, умуминсоний қадриятлар ва миллий урф-одатларнинг ҳурмат қилиниши ва қадрланиши, кучли ижтимоий ҳимоя ҳамда буларни ҳуқуқий асосларининг яратилиши ёшларни мустақилликни мустаҳкамлаш, унинг мазмун-моҳияти, аҳамияти ва заруриятини объектив баҳолашга ўргатиш йўналишида ўзига хос вазифалар юклайди.

Ҳозирги кунда таълим соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар асосига профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнларда ўқувчиларни мустақил ва эркин фикрлашга ўргатиш, дунёқарабини кенгайтириш, тафаккурини ривожлантиришга, яъни таълим-тарбия жараёнига ҳам алоҳида эътибор қаратилаётганлигини кўришимиз мумкин, бу ўз навбатида профессионал таълим муассасаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнларни ўрганиш ва таҳлил қилиш заруриятини белгилайди.

Профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнлар ўқувчиларнинг дунёқарабини ўзгартиришга, уларда ғурур, ор-номус, меҳр каби бир қатор туйғуларни, яъни миллий менталитетимизга мос ва хос туйғу ва хусусиятларни шакллантиришга хизмат қилади. Шунингдек, мазкур жараёнда ўқувчиларга мустақилликнинг мазмун-моҳияти, аҳамияти ва зарурияти ҳақида тушунчалар берилиши натижасида уларда ҳаётга, ўқишга ва меҳнат қилишга, ота-онага, қариндош-уруғларга, дўстлари ва бошқа яқинларига, тенгдошлари ва танишларига,



умуман олганда халқимиз ва миллий бойлигимизга, Ватанимиз ва Давлат рамзларига, умуммиллий қадриятлар ва миллий урф-одатларимизга бўлган ижобий муносабатни шакллантириб боради.

Бизнинг фикримизча, профессионал таълим муасссаларида илмий асосларда ташкил этилган педагогик жараёнлар ўқувчиларда Ватанга, табиат ва жамиятга, ота-она, қариндош-уруғлар, ёру-дўстларга меҳр-муҳаббат ва садоқат, умуммиллий қадриятлар ва миллий урф-одатларимизга ҳурмат, уларга эғалик қилиш ҳамда ўз вақтида ҳимоя қила олиш каби масъулиятини шакллантиради.

Профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнларда ўқувчиларни кўпроқ эркин ва мустақил фикрлашга ўргатиш, ўқувчиларнинг субъективлигини ошириш ҳисобига, субъект-объект муносабатларидан субъект-субъект муносабатларига ўтиш, яъни мазкур жараёнда шахсга йўналтирилган таълим жараёнини ташкил этиш, шунингдек, уларнинг мустақил таълим олишлари учун шарт-шароитлар яратиш, мустақил олган маълумотларини ўрганиш асосида уларнинг илмийлиги, янгилиги ва ишончлилигини таҳлил қилиш, энг янги ва ишончли ахборотлар билан таъминлаш, ўқувчиларнинг фаолиятини мувофиқлаштиришда ахборотлар алмашинувига алоҳида эътибор қаратиш зарур.

Адабиётларда шахс ривожланишининг асоси сифатида таълим – мустақил таълим, тарбия – ўзини-ўзи тарбия, маълумот – мустақил маълумот ва тарбиявий муносабатлар келтирилади.

Тадқиқотчиларнинг фикрича, инсонга туғма равишда хатти-ҳаракатларнинг ҳеч қандай, на ижтимоий, на ноижтимоий дастурлари берилган эмас. Ҳар бир инсон учун, шахс сифатида фазилатларнинг шаклланиш жараёни амалда нолдан бошланади. Шунинг учун ҳам маълум мақсадларга йўналтирилган таълим-тарбия шароитлари инсон шахсини шакллантиришнинг умумий қонуниятларини инкор этмайди. Инсоннинг ривожланишида, яъни уни тарбиялашда жамият томонидан ташкил



этилган таълим муассасаларининг ва таълим-тарбия жараёнида қатнашаётган барча кишиларнинг фаолиятлари муҳим роль ўйнайди.

Демак, тарбия – инсонлар ривожланишида асосий роль ўйнайдиган жараён бўлиб, бир авлоднинг ижтимоий тажрибасини кейинги авлодлар томонидан ўзлаштирилиши ва уларнинг ижтимоий ҳаётга қўшилишларини таъминлаб берувчи зарурий фаолият бўлиб, у инсон тарбияланганлигининг мезони сифатида шахсий хислатларни шакллантириш билан боғлиқ ҳолда тарихан шаклланиб келган педагогик тушунча. Унинг ёрдамида инсоннинг ривожланишига ташқи муҳитнинг таъсирини фан ва амалиёт исботлаб беради. Инсон бутун умри давомида ҳаётда кимнингдир тажрибасига таянади ҳамда унга асосан ўзининг кўникма ва малакаларини шакллантириб боради. У фақат ўтмиш меросхўри сифатида ижтимоий ҳаётга қўшилиб боради ва келажак учун тайёрланади.

Тарбиявий жараён – ривожланиб бораётган авлоднинг катта ёшдагилар тажрибасини эгаллаб бориш жараёни бўлиб, у инсонлар ривожланишини бошқариш ҳамда уларнинг шахсий хислатлари шаклланишига зарур шароитлар яратиб беради. Айрим ҳолларда тарбия билан ривожланиш ўртасида ўзаро боғлиқлик йўқдек туюлади, аслида улар ўртасида боғлиқлик жуда мураккаб ва аҳамиятлидир.

Ҳаётда “тарбия” жуда кенг қўлланилади. Тажриба ўргатиш, тарбиялаш оммавий ахборот воситалари ёрдамида, санъат орқали, бошқарув тизими ва ташкилотларда сиёсий, маънавий ва маърифий ишларни ташкил этиш орқали амалга оширилиши мумкин. Буларни амалга оширишда маълумот муҳим аҳамият касб этади.

Маълумотлилик – шахсий сифат кўрсаткичи, яъни шахснинг ривожланиш даражаси, унинг тажрибаси, кўникма ва малакаларни қай даражада ўзлаштирганлиги ва улардан фойдаланиш ҳамда улар ёрдамида янги билим-кўникмаларни эгаллаб, тўлдириб бориш қобилиятлари тушунилади.

Маълумотли бўлиш учун тарбияни ўзи етарли эмас, бунда маълум бир жараёнлар мавжуд бўлиб, бу жараёнларни ташкил этиш негизида таълим тушунчаси мавжуд.

Таълим – тажрибалар алмашилиши жараёни бўлиб, режали равишда амалга ошириладиган “ўқитувчи-ўқувчи-ўқитувчи” мулоқоти, унинг натижасида маълумот, тарбия ва ривожланиш амалга ошади. Маълумот олиш тизимида таълим асосий роль ўйнайди.

Бизнинг фикримизча, педагогика фани ўзини-ўзи тарбия, мустақил маълумот, мустақил таълим тушунчалари орқали инсоннинг туғма истеъдоди, қобилияти, ҳис-туйғулари ҳамда ички дунёсининг шахсий ривожланишидаги аҳамиятини ёритиб беради.

Ривожланиш объектив жараён бўлиб, ташқи ва ички бошқарилувчи омиллар томонидан миқдор ва сифат жиҳатидан физик ва маънавий шаклланиш, яъни, шахснинг фазилатлари, сифат ва хулқларининг шаклланиши, тушунчаларнинг чуқурлашиши, кенгайиши, осондан – қийинга, оддийдан – мураккабга, мавҳумдан – билишга, оддий ҳаёт кечириш шаклларида – олий фаолиятга ўтиш жараёнидир.

Ўзини-ўзи тарбиялаш ички туйғулар ёрдамида миллий қадриятларни, инсон ҳаётидаги ютуқ ва муаммоларни, тажрибаларни ўрганиш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш, яъни мустақил ривожланиш жараёнидир. Таълим-тарбия жараёни қандай ташкил этилмасин, ўзини-ўзи тарбиялашсиз уни амалга ошириб бўлмайди.

Мустақил маълумот авлодлар тажрибасини, фан-техника ютуқларини ўз ички туйғулари асосида мустақил ўрганишга қаратилган ҳаракатлар мажмуининг натижаси бўлиб, инсоннинг шахсий қобилиятларини ривожлантириш жараёни ҳисобланади. Мустақил маълумот инсон шахси ривожланишида, тажрибаларни эгаллашида қулайликлар яратса, мустақил таълим эса таълим олишнинг асоси ҳисобланади.

Мустақил таълим – бу инсоннинг ўзи танлаган воситалар ва адабиётлар ёрдамида авлодлар тажрибасини, фан-техника ютуқларини ўрганишга йўналтирилган шахсий ҳаракатлар жараёни. Бунда инсоннинг ички дунёси, ҳис-туйғулари, мустақил фикрлаш қобилияти асосий роль ўйнайди.

Демак, профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнлар самарадорлиги нафақат таълим-тарбия жараёнини илмий асосда ташкил этишга, балки мустақил таълимни йўлга қўйиш, ўқувчиларда ўзини-ўзи тарбиялаш кўникмаларини шакллантириш, шунингдек, ўзаро таъсир жараёнини ташкил этишга боғлиқ бўлади.

Профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнларни ўқувчиларнинг мустақил таълим жараёнида олган тушунчалари асосида ташкил этиш ва мазкур жараёнда уларни ижодий фикрлашга ўргатиш асосида уларнинг фаоллигини таъминлаш, шунингдек, уларда ижодий қобилиятларни шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Бу ўз навбатида ўқувчиларнинг мустақил ишлаши ва мустақил ўрганиши учун алоҳида топшириқлар бериш ва унда уларнинг бошланғич тушунчалари даражасини ҳамда мойиллигини ўрганиш асосида берилаётган топшириқларни бажаришга уларда қизиқишни шакллантириш каби қатор талабларни белгилайди.

Профессионал таълим муасссаларида педагогик жараёнларни ташкил этишда шахслараро муносабатларда ўқувчи шахсини ривожланишига таъсир кўрсатувчи тарбиявий муносабатларнинг мавжудлиги ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳам инобатга олиниши зарур.

Профессионал таълим муасссаларида педагогик жараёнларни ташкил этиш ва уни амалга оширишда, таълим-тарбия жараёни иштирокчилари, яъни ўқитувчи ҳамда ўқувчилар ўзаро маълум бир белгиланган муносабатда бўладилар, бу муносабатларни иқтисодий, сиёсий ва бошқа муносабатлардан фарқли равишда тарбиявий муносабатлар деб айтишимиз мумкин.



Тарбиявий муносабатлар инсонлар ўртасидаги доимий муносабат (алоқалар) бўлиб, улар инсон шахсини ривожлантиришга, яъни мустақил маълумот, мустақил таълим олиш ва ўзини-ўзи тарбиялашни шакллантиришга хизмат қилади, шунингдек, бу педагогик жараён ҳисобланадиган инсонлар ўртасидаги ўзаро муносабатларда турли шаклларда намоён бўлади, яъни мазкур жараёнда иштирок этаётган маълум бир инсоннинг билими, муомала ва мулоқот маданияти, кийиниши, гавда ҳаракатлари, қобилияти, фан-техника, санъат ва табиатга бўлган муносабати ҳамда қизиқиши иккинчи бир инсонга ва бошқа инсонларнинг фаолиятига, яъни фикрлаши, тасавсури ва дунёқарашининг ўзгаришига ҳамда тафаккурининг ривожланишига ўз таъсирини кўрсатади [3].

Юқорида келтирилган тарбиявий муносабатларга эътибор қаратадиган бўлсак, “инсон-инсон” муносабатлари шаклида биринчи ўринда ўқувчининг ўз ўртоқлари билан “ўқувчи-ўқувчи”, ўқитувчининг ўз ўқувчилари билан “ўқитувчи-ўқувчи” муносабатларини кўриш мумкин, ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларда ва ўқувчи билан ўқитувчи ўртасидаги муносабатларда тарбиявий муносабатларнинг мавжудлигини, яъни мазкур муносабатларда ўқувчи шахсининг ривожланишига таъсир кўрсатувчи бевосита таъсир жараёни мавжудлигини кўрамиз.

Бизнинг фикримизча, мазкур бевосита таъсир жараёни масофадан туриб, мулоқотсиз тарбиявий жараёнда вужудга келади. Масалан, ўқувчи ўз ўқитувчисининг эслаганда, унинг исмини эшитганда ёки ўқитувчи сўзини эшитганда, шунингдек, унга ўрнатилган бўлаётган ёки уни ранжитган ўқитувчини узоқдан кўрганда, у ҳақида фикр юритади ва мазкур жараёнда ўқитувчининг билими, дунёқараши, кийиниши, жамоадаги мавқеи, ўзи каби ўқитувчилар ўртасидаги обрўси, ўқувчиларга бўлган муносабатлари ҳақида ўқувчи ўйлайди, бу ўз навбатида ўқувчининг дунёқарашини ўзгаришига ўз таъсирини кўрсатади.

Профессional таълим муасссаларида педагогик жараёнларни ташкил этишда тарбиявий муносабатларнинг асосий шаклларида бири бўлган инсон-инсон

муносабатларини ҳамда инсон-инсон муносабатлари жараёнида, ҳаттоки мулоқотсиз жараёнда ҳам ўзаро таъсир мавжудлигини инобатга олиш ва мазкур жараёнларни тўғри ташкил этишга эътиборни кучайтириш зарур.

Инсон-китоб-инсон муносабатлари ҳам ўқувчи шахсини ривожланишида ўзига хос аҳамият касб этади. Масалан, ўқувчи шахсига таъсир кўрсатувчи маълумотлар нафақат китобда, балки таълим муассасаси газета ёки журналида қизиқарли мақола сифатида берилиши, ихтиёрий вазиятда уни ўқиган ўқитувчи ёки ўқувчини мазкур ҳолатлар бўйича фикрлашга мажбур қилади, уларнинг дунёқарашини ўзгартиради ҳамда ундан тўғри хулоса чиқаришга ундайди.

Тарбиявий муносабатларнинг асосий шаклларида бири ҳисобланган инсон-китоб-инсон муносабатларининг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиш ва уларга амал қилиш профессионал таълим муасссалари ўқувчилари ҳамда ўқитувчилари ўртасидаги тарбиявий муносабатларни тартибга солиш билан бир қаторда, ўқувчилар шахсини ривожлантиришнинг асосий воситалардан бири сифатида хизмат қилади.

Профессионал таълим муасссалари ўқувчиларида табиатга онгли муносабатда бўлиш, табиат захираларини сақлаш ва кўпайтиришга оид масъулиятни шакллантириш минтақамиздаги экологик муаммоларга бефарқ бўлмасликка, уларни ўрганиш ва келиб чиқиш сабабларини таҳлил қилиш асосида амалий ҳал қилишда иштирок этишга чорлайди.

С.Т.Турғуновнинг фикрича, инсон билан табиатнинг ўзаро таъсирини англаш ва унга эътибор қаратиш шахс илмий дунёқарашининг ривожланиш жараёни бўлиб, бу жараёнда “инсон-табиат-инсон” шаклидаги тарбиявий муносабатлар намоён бўлади ва бунда табиат қонуниятларининг инсон томонидан ўзлаштирилиши, табиат қонуниятларига оид таълим-тарбия асосида табиат яхлитлиги ҳамда атроф-муҳитнинг инсон томонидан ўзгартирилиши ҳақидаги тасаввурлар шаклланади [2].

Профессионал таълим муасссаларида педагогик жараёнларни ташкил этишда инсон-техника-инсон муносабатлари жараёнининг мавжудлигини ҳам инобатга олиш



Ўзига хос аҳамият касб этади, чунки ўқувчиларнинг компьютер техникаларига қизиқишини ривожлантириш ва улардан оқилона фойдаланишни ўргатиш, ўқитувчилар томонидан ўқув-машғулотларида слайд, электрон дарслик, ўқув-лаборатория машғулотларининг электрон вариантларидан фойдаланишга эришиш ўқувчиларни фан-техника ютуқлари билан таништиришга замин яратади.

Бизнинг фикримизча, профессионал таълим муасссаларида барча ўқувчиларнинг компьютер техникасининг энг сўнги авлодларидан фойдаланишлари учун зарурий шарт-шароитлар ва имкониятларни яратилиши ўқувчиларда техника ва технологияларга бўлган қизиқишини ривожлантиради, шунингдек, ўқувчи ва ўқитувчиларга масофадан ўқитиш усулларида фойдаланишлари учун имконият яратилади ва бу инсон-техника-инсон муносабатларининг аҳамиятини ифодалайди.

Профессионал таълим муасссаларида ташкил этиладиган педагогик жараёнларда инсон-санъат-инсон шаклидаги тарбиявий муносабатлар жараёни ҳам ўзига хос аҳамият касб этади, чунки санъат бор жойда янгиликка интилиш, меҳр-муҳаббат, инсонийлик туйғулари ҳукм суради.

Тарбиявий муносабатларда ўқувчиларга турли воситалар орқали таъсир кўрсатилар экан, бундай воситалардан бири сифатида ўқувчиларнинг санъатга бўлган қизиқишидан фойдаланиш мумкин, бунда ўқувчининг санъатга ва санъат турларига бўлган муносабати, турли тадбирларни ташкил этишдаги фаоллиги, ташаббускорлиги, турли байрамларда, кўрик-танловларда ва фанлар бўйича ўтказиладиган кечалардаги иштироки рағбатлантирилиб борилиши зарур.

Демак, ўқувчи шахсини ривожлантириш турли шакллардаги педагогик жараёнларда амалга оширилади ва мазкур жараёнларда тарбиявий муносабатлар ўзига хос аҳамият касб этади, бунинг энг асосий сабаби ўқувчилар ўзаро бир-бирини ва атрофдаги одамларнинг хатти-ҳаракатини кузатади, фикрлайди ҳамда уларнинг қилган ва қилаётган ишларидан хулосалар чиқаради ва мазкур жараёнда уларнинг тафаккури шаклланади ва ривожланади.

Ўқувчилар шахсини ривожлантириш жараёнларининг ўзаро боғлиқлиги ва алоқадорлигини таъминлаш кўзланган натижаларга самарали эришишнинг асосий шартларидан бири бўлиб, ташкил этиладиган педагогик жараёнларни ва ўрганиладиган тушунчаларнинг мазмун-моҳияти, аҳамияти ва ўзига хос жиҳатларидан келиб чиқиб қўлланиладиган методлар ва татбиқ этиладиган ёндашувларни танлаш ҳамда улардан оқилона фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Турғунов С.Т. Педагогика: Маърузалар тўплами. – Наманган: НамМПИ, 1999. – 109 б.
2. Турғунов С.Т., Мақсудова Л.М. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш. – Тошкент: Фан, 2008. – 196 б.
3. Турғунов С.Т. ва бошқалар. Таълим муассасаларида бошқарув. Ўқув қўлланма. Т.: Фан-2008 й.

O'QUVCHILARNI TOG'ADABTATSIYA SHAROITIGA FUNKSIONAL HOLATIGA MOSLASHISH.

Jamolov Sohijjon Jamoliddin o'g'li

Navoiy viloyati Nurota tumaniga qarashli

16-umumta'lim maktabining

chaqiruvga qadar boshlang'ich

tayorgarlik fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni tog' adabtatsiya sharoitiga marfo funksional holatiga moslashish va adabtatsiya haqida tushunganlarimizni siz bilan bo'ilshmoqchimiz.

Kalit so'zi: Adabtatsiya,organizim,jismoniy tarbiya,alveolar,partial,oksigemogloblin,gipoksiya.

Abstract: In this article,we would like to share with you our understanding of adaptatsion and adaptation to thr morphological functional state of mountain adaptation conditions.

Keywords: Adaptation, organism,physical training,alveolar,partial,oxyhemoglobin,hypoxia.

Adabtatsiya (olt. Adabtatio-moslashuv)1)organizimning turli yashash sharoitlarga moslashishi:2)sezgi azolarining o'ziga tasir etadigan qo'zg'atuvchilarga moslashish natijasida ularda sezgirlik ham o'zgaradi. Adaptatsiya hodisasi (ko'rish,eshitish,hid,tam,badan sezgirligi)ga xosdir. Taktil harorat hid va ko'rish sezgilarida adaptatsiya kuchli,eshitish va og'riq sezgilarida tengsizdir. Ichki sezgilar (mast,tashnalik,ochlik)kabi sezgilar adaptatsiyaga hos bo'lmaydi. Adaptatsiya normal hayot faoliyatida turli xil bo'ladi. (Iqlimga moslashish, balandlikka moslashish) ko'pgina infeksionagenlarga qarang imunitet past insonlarda tog'balandliklarida ko'z qorong'uligi seziladi va uchraydi.

Adaptatsiya sekin (Spisifik) va tez (nosipisefik) tug'ma riyaksiyalarga moslashishi mumkin.

Masalam: jismoniy ish qilganda nafas olishning kuchayishi, qon oqimi hamda yurak faoliyatining tezlashishi va qonning qayta taqsimlanishi. Qorong'ida ko'z yorug'lik sezishi layoqatining zo'rayishi bularning hammasi tug'ma tez adaptatsiya riyaksiyalaridir. Har bir kishining turli yashash sharoitlariga moslashish imkoniyati uning moslashishiga aytiladi. Malumki jismoniy tarbiya va sport sohasida sport fizologiyasi haqida chuqur bilimga ega bo'lmagan jismoniy tarbiya mutaxasis organizimning jismoniy chiniqtirish,jismoniy mashiqalar tasirida organizimda yuzaga chiqadigan morfofunktsional



o'zgarishlarni baholash hamda sportning hilma- hil turlariga bog'liq ravishda organizimga beriladigan jismoniy mashqlarning ko'llamini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sportchi tekislikdan tog'lik joylarga ko'tarila boshlaganda uning organizimida qator funksional o'zgarish qobiliyatlarining qator fizalogik jarayonlar ishdan chiqishi, u o'zini yomon his qilishi bilan bog'liq bo'ladi. Xozirgi vaqtda tog' sharoitining organizimga tasiri haqida etarli ma'lumotlar to'plangan. Tog' sharoitlarining inson qobiliyatiga salbiy tasiri asosan atmosfera tarkibida kislarodning kamayishi to'qimalarning kislarod bilan yetarlicha ta'minlanmasligi gipoksiya atamasi bilan kiritiladi.

Inson dengiz sagxidan qanchalik yuqori ko'tarilsa, atmosfera va undagi kislarodning balandlikka qanchalik yuqori ko'tarilsa badanidagi to'qimalarning kislarod bilan ta'minlanishi shunchalik kamayib boradi 1000 metr gacha ko'tarilishda odam organizimining **partial** bosimi dengiz sadxidan uncha farq qilmaydi. Yani (**saturatsiyasiga**) "**bog'liqligiga**" teng bo'ladi.

Dengiz sadhi bilan borobar tekislikda esa 105 mm (**saturatsiyasiga**) barobar, 1000 m yuqori balandlikka ko'tarilganda kislarodning partial bosimi atmosfera hada alveolalar havosi tarkibida sezilarli darajada kamayadi va to'qimalarning kislarod bilan ta'minlanishi ancha qiyinlashadi, chunki alveolalar havosida kislarodning partial bosimi kamayishi bilan o'pka orqali o'tayotgan qonning kislarod bilan to'yinishi oksigimoglabin susayadi.

Jarayon natijasida arteriya qonida kislarodning kamayishi sababli uning to'qimaga o'tishi sekinlashadi. Qonda kisl;arod miqdori kamayishi gipoksimiyya xolatining yuzaga kelishi birinchi navbatda kislarod tashuvchi tiozimlar faoliyatining rivojlanishiga olib keladi. Natijada o'pka vintiyasi kuchayadi. Burin orqali nafas olish o'rniga inson og'iz orqali nafas olishni boshlaydi. Vaqt birligi ichida nafas olishi tezlashadi, nafas chuqurligi ortadi. Iboviloalar havoda kislarod miqdori kerakli darajada saqlanishini ta'minlaydi.

Yuqorida aytganimizdek to'qimalarning kislarod bilan yetarli darajada ta'minlanmasligi gipoksiya vagipoksimiya kislarodning kislarodning alveolalar havodan qonga yetarli miqdorda yetmasligi natijasida yuzaga keladi, bunday holat o'quvchilarning tez toliqish xolsizlanish o'zida bo'lgan qo'rquv irodasizlik kabi xolatlar yuzaga keladi. Bunday xolatlarni o'quvchilar yengib o'tsa adaptatsiya sharoiti tez moslasha oladi. O'quvchilarning musobaqalarda yengib o'tishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Aliyev A. O'qituvchining ijodkorlik qobiliyati .-T; "O'qituvchi" 1991-yil
2. Atayev A.K. Kurash. O'quv qo'llanma .-T; 1987-yil



3.Abdumalikov R. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari- O'quv qo'llanma-T;O'z DJTI nashriyoti 1996-yil/

4.ZiyNET internet nashri.

TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY YANGILANISHLAR: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

XUDAYOROVA Zebuniso Otanazarovna

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti

Gumanitar fanlar kafedrsi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Yangi O'zbekiston va Taraqqiyot strategiyasi doirasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar va ularning hayotimizdagi aksi, bugungi kundagi yangilanishlar va istiqboldagi rejalar hamda ta'lim tizimimizning yuksalishini amalda bajarilayotgan ishlar orqali yoritish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Taraqqiyot strategiyasi, Renessans, islohotlar, ta'lim, Harakatlar strategiyasi, Konsepsiya.

Bugungi zamonada inson ongi uning bilimi hal qiluvchi kuchga aylanayotgan bir davrda barcha ertasini o'ylaydigan xar bir mamlakat va uning rahbarlari eng kata e'tiborni ta'lim tizimiga qaratmoqda. Zero ilmsiz manqurt kimsalarni boshqarish ham qul va qaram qilish ham juda tez va oson bo'ladi. Shulardan kelib chiqib ham globallashayotgan dunyoda omon qolmoq, o'z mentaliteti, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish va ertangi kunga qadam qo'ya olish uchun ham bugunimizda tirgak vazifasini bajaradigan, mamlakatni hamisha yuksaltiradigan soha hech shubhasiz bu- Ta'lim tizimidir. Bizning mamlakatimiz hududi azal-azaldan ilm-fan va ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan. Buning isboti ikki marta kuzatilgan Renessans jarayonlari aynan bizning diyorda bo'lganini o'zi yetarli.

Biroq ushbu buyuk tariximiz ba'zi bir nokas kimsalar va bosqinchi mamlakatlar tamonidan toptalgan davrlar ham bo'ldi

Chor Rossiyasi tuzumi davridagi eng qonxo'r generallardan biri Mixail Skobelev "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, tilini, san'atini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi" deganida juda haq fikrni aytgan va ushbu fikrga mustabid tizim, SSSR yillar davomida qat'iy ravishda amal qilib keldi.

Eng avvalo ular O'zbekiston tarixini buzib ko'rsatishni boshlashdi. Tarixini bilmagan xalq esa hech qachon o'z kelajagini qura olmaydi, o'z hayotiga o'zi egalik ham qila olmaydi.

Yillar davomida shakllangan ushbu qarashlar esa o'z o'rnida ajdodlarimizni buyuk davlat asoschisidan-bosqinchiga, o'zbek allomasidan-arab mutaaffakiriga, vatan himoyachisidan-qochqinga, milliy ozodlik kurashchisidan-bosmachiga, o'zbek hukmdoridan- mo'g'ulga, ulug' adabiyot namoyandasidan-vatan xoiniga, xalq ichidan chiqqan zodagonlar va ilmli qatlam vakillarini esa- xalq dushmaniga aylantirib ko'rsatishni boshladi.

Bularning barchasiga sabab esa xalqni o'zligidan mahrum etish bo'lgan. Bunga eng asosiy sabab esa Chor Rossiyasi va SSSR tuzumi o'zidan yuqori madaniyat, ilm-fan, milliy meros va qadriyatlarga ega bo'lgan xalqlarni uzoq yillar davomida qaramlikda ushlab tura olmasligini tushunib yetgani va xalqni o'zligidan mahrum qilishga bo'lgan vaxshiyona harakati edi.



Tarix shunday o'z bag'ridan echilmagan ming yillik voqealar bilan birga qaro kunlarni ham, o'sha kunlardan mudhish meros bo'lib saqlanib qolgan kamchilik va xatolarni ham saqlab keladi va albatta o'sha chandiqlar vaqti kuni kelganda albatta o'z og'rig'ini bera boshlaydi, bu og'riq esa o'z o'rnida davlat va xalqning tinch va farovon hayotini izdan chiqarib, keskin muammolarni keltirib chiqaradi. Boisi kimligi-yu o'zligini bilmagan xalq mustaqil siyosat yuritayotgan davlatni ham mustaqilligini saqlab qolishi bugungi davrda kattta so'roq ostida qolmoqda.

Demak shu joyida miyamizga keladigan birinchi savol aniq bo'ldi. Xo'sh bu vaziyatda nima qilish kerak?

Birinchiidan o'zgartirilgan, toptalgan, buzib ko'rsatilgan, qisman yo'q qilingan tariximizni bu bilan birgalikda esa o'zligimizni qayta tiklash;

Ikkinchiidan esa moddiy va ma'naviy merosimizni tiklash, saqlash, asrab-avaylash;

Uchinchiidan diniy sohani rivojlantirish va erkinlashtirish, bunda Konstitutsiyamizning 31-moddasida ko'rsatib o'tilganidek ya'ni "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'lga qo'yilmaydi."^[42] Bunda amalda vijdon erkinligi va har bir fuqaro e'tiqodi hurmat qilinishiga erishish;

To'rtinchiidan o'zbek xalqining ming yillik urf-odatlarini, qadriyatlarini, an'analari, milliyligi, mentalitetini tiklash va uning rivojlanishi uchun zamin yaratish;

Beshinchiidan yuqoridagilarni barchasini amalga oshirish uchun zarur bilim, malaka, ko'nikmalarni beruvchi Ta'lim tizimini rivojlantirish zarur va kerakdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin yuqoridagi yo'nalishlarda tub islohotlar o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Ushbu o'zgarishlar zahirida esa mamlakatimiz rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan munosib joy oldi. o'tgan 31 yil davomida juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan soha rivojiga oid "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11- iyuldagi PQ-439 sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonunlarning barchasi Ta'lim tizimini tubdan rivojlantirish va isloh ertish uchun xizmat qilmoqda. Ta'lim tizimi sohasida maktabgacha ta'lim bosqichidan oily ta'lim va oily ta'lim tizimidan keying ta'lim bosqichigacha bo'lgan barcha ta'lim jarayonlari modernizatsiya qilinib, maktablarda xalqaro, rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidan o'zimizga to'g'ri keladigan metodlar, usullar va yangiliklarni ta'lim tizimimizga joriy etilmoqda.

Aynan shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "2022-2026-YILLARGA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA"gi farmon bizga mamlakatimizni va jamiyatimizni rivojlantiruvchi dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.



Mamlakatimizda 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan

300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi, Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqorolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'ngi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy- ma'rifiy asoslari yaratildi. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilingan.

Ushbu dasturda yettida ustuvor yo'nalish berilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda 100 ta maqsad olg'a suriladi. Dasturning to'rtinchi –Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalishidagi

37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30% gayetkazish

38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67% dan kamida 80% ga yetkazish.

39-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.

40-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash.

41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish.

42-maqsad: 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish.

43-maqsad: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish.

44-maqsad: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish.

45-maqsad: Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash.

46-maqsad: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish.



47-maqсад: 2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasi QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.

48-maqсад: Qariyb 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish.

49-maqсад: 2026-yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

50-maqсад: "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq va IT sohalariga o'qitish.^[43] kabi maqsadlar ham Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayni biz yuqorida ko'rgan barcha muammolarga yechim topish haqidagi savollarimizga amalda qilinadigan ishlar va maqsadli rejalar asosidagi javoblarni ko'rsatib bermoqda.

Ayni shu o'rinda Ta'lim tizimidagi istiqboldagi rejalar va maqsadlarga mamlakatimiz rahbarining shaxsan o'zlari O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida alohida to'xtalib o'tib, shunday dedilar-

"Hurmatli do'stlar!

Biz bugun Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini jadal amalga oshirmoqdamiz.

Bizning maqsadimiz aniq va ravshan.

Yangi O'zbekiston:

-har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan ;

-odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan;

-hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar , qonun oldida teng bo'lgan;

-tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlatdir.

Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi.

Ushbu yuksak marralarga erishish uchun 2026-yilgacha Taraqqiyot strategiyasi doirasida keyingi ishlarimizni 5 ta asosiy vazifalar bo'yicha tashkil etamiz.

Birinchidan, ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz. Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqiladi.

Ushbu tizim avval ilg'or xorijiy mutaxassislar tamonidan ekspertizadan o'tkazilib, keyingina hayotga tadbiiq etiladi. Natijada Yangi O'zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib yetishadi. Buning uchun barcha hududlarimizda, ayniqsa, qishloq joylarda maktablar qurish, ularni malakli pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor beramiz.

⁴³2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60, <https://lex.uz>. 28.01.2022. -B-1,20,21,22.



Ustoz va murabbiylarning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'taramiz. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni har tamonlama rivojlantiramiz.”^[44]

O'z-o'zidan yuqoridagi say-harakatlardan ko'rinib turibdiki mamlakatimiz raxbari, hurmatli prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimiz mamlakat yuksalishi uchun avvalambor uning ta'lim tizimini, ijtimoiy siyosiy hayotini yaxshilash va xalq extiyojlaridan kelib chiqib, adolatli siyosat yuritish ishlarini jadal amalga oshirayotganini yaqqol ifodasidir.

Zero shu o'rinda mustaqilligimiz sharofati bilan tarixiy xotirasi abadiylashtirilgan buyuk bobokalonimiz Amir Temur "Temur tuzuklari" kitobida qayd etilgan quyidagi "Yana amr etdimki, kata- kichik har bir shahar , har bir qishloqda madrasa va honaqlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona⁴⁵ solsinlar, kasalla uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor ul-amorat^[46]va dor ul-adolat^[47]qursinlar.”^[48] degan jumalari ayni bugungi kunda hukumatimiz tamonidan amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tarixiy asosi va negiziday go'yo. Ha albatta, buyuk mamlakatlarning buyuk yo'l boshchilari huddi mana shunday xalq dardini anglaydigan va xalq uchun yonib yashaydigan fidoyi bo'lmog'i zarur. Bunga bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan jamiki yangilik va tub o'zgarishlar barcha fikrlarimiz isbotidir.

Ayni manashu o'rinda hukumatimiz tamonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tarixiy merosimizni tiklash va uni yosh avlodga bus-butunligicha, hech qanday o'zgarish va yo'qotishlarsiz yetkazish masalasi ham dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu masalani Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich Xorazm viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida alohida ta'kidlab o'tgan edilar

“..Ilk o'rta asrlarda aynan shu yerda asos solingan Ma'mun akademiyasi butun Sharq va G'arb olamida qanday yuksak shuhrat qozongani barcahmizga yaxshi ma'lum.

Jo'shqin Amudaryodan suv ichib,muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib-o'sgan ,xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy,Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.

Men ana shunday ulug' ajdodlarimizning bashariyat tarixida turgan o'rni va ahamiyati haqida shu yil sentyabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so'zlaganimda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan atoqli siyosat va jamoat arboblari ularning buyuk merosiga hurmat

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://daryo.uz> 2022.09.01

⁴⁵ Langarxona-yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy: kambag'al yetim-yesirga ovqat beradigan joy:g'aribxona.

⁴⁶ Dorul-amorat-hukmdor saroyi.

⁴⁷ Dorul-adolat-adolat uyi; qozixona.

⁴⁸ Temur tuzuklari.-T.: "Hilol media" nashriyoti,2019. –B-145.

va ehtirom bilan qaraganliklarini, ularni birgalikda o'rganish va jahon miqyosida targ'ib qilishga tayyor ekanliklarini bildirishganini bugun yana bir bor g'urur bilan takrorlamoqchiman. El-yurt ozozdligini o'z hayotidan ham ustun qo'ygan Jaloladdin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi mardlik va jasorat timsoli bo'lgan bobolarimiz butun xalqimizning iftixoriga aylangan. Xorazm diyorida yetishib chiqqan ulug' olimlar haqida gapirganda, matematika, trigonometriya va geografiya fanlarining shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy nomini birinchilar qatorida tilga olamiz. Dunyodagi Mashhur "Bi-bi-si" kompaniyasi tayyorlagan kichkina bir hujjatli filmni sizlar ham ko'rgan bo'lsangiz kerak. Unda Buyuk Britaniyalik muhbir o'zining mobil telefonini ko'rsatib, **"Men har safar shu telefondan foydalanganimda uning ichida mujassam bo'lgan buyuk o'zbek Muhammad Xorazmiy dahosiga ta'zim qilaman"** deydi. Shu munosabat bilan bir taklifni sizlar bilan maslahat qilmoqchiman. Ma'lumki poytaxtimizda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, ko'pgina viloyatlarimizda esa uning filiallari faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shu nufuzli oliy o'quv yurtiga ulug' bobomiz Muhammad Xorazmiy nomini bersak har tamonlama adolatli ish bo'lur edi..^[49]

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki Muhtaram Prezidentimiz boshchiligidagi hukumatimiz davlatimiz rivojlantirish masalasida eng to'g'ri yo'nalish bo'lmish ta'limga e'tiborni kuchaytirmoqda. Zero ta'limga e'tibor bu kelajakga e'tibordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: "O'zbekiston" nashriyoti. 2017. 13 - b.
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60. <https://lex.uz.28.01.2022>. -1-20-21-22 b.
3. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://daryo.uz>. 2022.09.01.
4. Temur tuzuklari-T.: "Hilol Media" nashriyoti, 2019. -145 b.
5. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz/Sh.M.Mirziyoyev.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017. -241-242-243 b

⁴⁹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 -B-241,242,243.

JIZZAX VILOYATINING QADIMIY TARIXI

ДРЕВНЯЯ ИСТОРИЯ И ПРОИСХОЖДЕНИЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

ANCIENT HISTORY AND ORIGIN OF JIZZAKH REGION

Davlatova HAKIMA Babaydavlatovna

Jizzax viloyati XTB, Sh.Rashidov tumani XTB

50-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatining qadimiy tarixi haqida so'z boradi. Mamlakatimiz jahonda o'z o'rni va obro'-e'tiborini qozonayotgan bir paytda o'zbek davlatchiligi tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan tarixiy-madaniy vohalar tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Insoniyat taraqqiyoti darajasining ma'lum o'lchovi bo'lgan shaharsozlik va shahar hayoti madaniyati so'nggi arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllangan.

Аннотация: В статье рассматривается древняя история Джизакской области. В то время, когда наша страна завоевывает свое место и престиж в мире, важно изучать историю историко-культурных оазисов, занимающих свое место в истории узбекской государственности. Согласно последним археологическим исследованиям, культура градостроительства и городской жизни, являющаяся определенной мерой уровня человеческого развития, сформировалась в III-II веках до нашей эры.

Abstract: This article discusses the ancient history of Jizzakh region. At a time when our country is gaining its place and prestige in the world, it is important to study the history of historical and cultural oases, which have a place in the history of Uzbek statehood. The culture of urban planning and urban life, which is a certain measure of the level of human development, was formed in the III-II centuries BC, according to the latest archeological research.

Бугунги кунда ҳаётнинг барча соҳалари фаолиятини электроника, компьютерлар, тармоқлар ва бошқа муҳим автоматлаштирилган технологияларисиз тасаввур қилиш қийин. Алоқа ва ҳаридлардан маҳсулот ишлаб чиқаришгача ва компаниянинг мустақил "бизнесига" қадар ҳамма нарса рақамли муҳитга ўтмоқда. Шу сабабли, замонавий жамиятда "рақамли иқтисодиёт", "ақлли ҳукумат", "рақамлаштириш" тушунчаларини тавсифловчи сифатли ўзгаришлар, шунингдек нано-ва биотехнологияларнинг жорий этилиши ижтимоий муносабатларнинг ўзгаришига ва "рақамли" жамиятнинг шаклланишига олиб келмоқда. Дарҳақиқат, охириги йилларда рақамли технологиялар аста-секин кундалик ҳаётнинг ҳар қандай соҳасининг ажралмас қисмига айланиб бормоқда.

Хўш рақамли иқтисодиёт нима? У жамият ривожланишида ёки тараққиётида қандай ўрин тутаети?

Рақамли иқтисодиёт атамаси 1995 йилда Американинг Массачусетс университети олими [Николас Негропонте](#) томонидан биринчи бор қўлланган. Ҳозир кунда дунёдаги барча фойдаланмоқда. Шу сабабли ҳам рақамли иқтисодиёт тушунчасига турли хил ёндашувлар шаклланди.

Рақамли иқтисодиёт тушунчасига бир қатор таърифлар берилган. Жумладан, иқтисодиёт фанлари доктори В.Иванов фикрича, “рақамли иқтисодиёт – ҳақиқатимизни тўлдирадиган виртуал муҳит”дир.

М.Д. Калужский рақамли иқтисодиётни Интернет тармоғида иқтисодий фаолиятнинг коммуникацион муҳити ҳамда уни амалиётга қўллашнинг шакли, методи, воситалари ва натижалари сифатида қарайди.

Бугунги кунда рақамли иқтисодиёт тушунчасининг ягона таърифи қабул қилинмаган. Аммо, ахборот жамияти назариясининг тарафдорлари томонидан рақамли иқтисодиёт ахборот жамиятининг иккинчи босқичи эканлиги таъкидланмоқда. Дарҳақиқат, “рақамли иқтисодиёт (digital economy) –электрон бизнес, электрон коммерция ва рақамли технологияларга асосланган ҳолда товар хизмат кўрсатувчи олимлар томонидан эътироф этилаётган иқтисодиёт модели” ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиётнинг асосий характерли белгиси унда жамият аъзоларининг барча эҳтиёжлари ахборотларни қайта ишлаш, уларни ишлаб чиқариш воситасида қондирилади. Шу маънода рақамли иқтисодиётни кенг маънода рақамли ахборот коммуникацион технологияларга асосланган иқтисодий, ижтимоий, маданий муносабатларнинг тизими деб тушуниш мумкин. Бундай иқтисодиётнинг асосий компонентлари электрон бизнес инфраструктураси; электрон бизнес; электрон савдо ташкил этади.

Рақамли иқтисодиётнинг асосий элементини эса интернет ташкил этади. Мазкур компонентларнинг амал қилиши иқтисодий тизимдаги рақамли трансформацияни келтириб чиқарди ва бу жараённи олимлар тўртинчи саноат инқилоби сифатида баҳоламоқдалар. Шунини айтиш керакки, рақамли иқтисодиётнинг инсон ҳаётига ижобий ва салбий томонлари ҳам бор.Рақамли иқтисодиётда истеъмолчилар зарур бўлган хизмат ва товарларни интернет воситасида сотиб олиши ва хизматлардан арзонроқ тарзда фойдаланиши мумкин. Масалан, китобларнинг электрон нашрлари



босма нашрдан кўра бир неча бор арзонга тушиши мумкин. Шунингдек, истеъмоличи уйдан чиқмасдан туриб тадбиркорлик қилиши ҳам мумкин.

Айтиш керакки, бугунги кунда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши кўп қиррали жараён бўлиб, “инновацион ривожланишнинг асосини ташкил этмоқда”. Рақамли иқтисодиёт ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларига жумладан, инсонларнинг ўзаро муносабатлари, илмий тадқиқот, фан, таълим, билимларни генерация қилиш, инсоннинг билиш жараёнларига катта таъсир ўтказмоқда. Шу сабабли “рақамли иқтисодиёт - бу Ўзбекистон ривожланиши учун янги парадигмани белгилайдиган глобал тенденциядир”. Бунда асосий вазифалардан бири - инсонларни мамлакатда юз бераётган рақамлаштириш жараёнларига илмий, амалий ва фуқаролик қарашларини етказиш, иқтисодий ўсиш учун имкониятларни излаш, интеграция ва улкан синергетик эффектга эришиш орқали ҳаёт даражаси ва сифатини яхшилаш зарур. Шунингдек, рақамли иқтисодиётда ташкилотларнинг ва биринчи навбатда иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарининг замонавий компьютер ва ахборот тизимларидан фойдаланиши уларнинг самарали фаолият кўрсатиши учун муҳим шартдир.

Айтиш керакки, ижтимоий ривожланишда рақамлаштириш ва иқтисодиётни рақамли ўзгартириш таълим тизимига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Бу эса таълим соҳасида рақамли кўникмаларни шакллантириш ва улардан фойдаланиш заруриятини, рақамли воқеликни ўзлаштиришнинг янги шакллари муслаштириш ва ривожлантиришни талаб қилмоқда. Шунингдек, ижтимоий ривожланишнинг замонавий манбаларидан бири узлуксиз касбий таълим тизimini ташкил этиш, аҳолини билимларини фаол равишда янгилаш ва талаб қилинадиган компетенцияларни шакллантириш заруриятини вужудга келтирмоқда. Бунда “ўз ўзини ташкиллаштирувчи тизимлар” ҳамда “илмий билишда фанлараро ёндашувнинг” фалсафий масалаларини кенгроқ ёритиш лозим бўлади.

Албатта, рақамли иқтисодиёт ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишда муҳим рол ўйнайди. 2019 йилдаги “Фаол инвестиция ва ижтимоий ривожланиш йили”



дастурида рақамли иқтисодиётнинг миллий концепциясини ишлаб чиқиш вазифасини қўйди. Бу эса иқтисодиётнинг барча тармоқларини рақамли технологиялар асосида модернизация қилишни назарда тутди. Шу билан бирга, “Рақамли Ўзбекистон-2030” дастурини амалга ошириш мақсади қўйилди. Таъкидлаш жоизки, рақамли иқтисодиётнинг иқтисодиётдаги ўрни замонавий дунёда мамлакатларнинг рақобатдошлигини аниқлашда муҳим рол ўйнайди. Биз иқтисодиётнинг қайси секторига қарамасдан, ҳамма нарсада рақамли технологияларнинг ўрнини кўрамыз. Хусусан, биз инновацион рақамли технологияларнинг мамлакатимиз банк тизимидаги улушини, шунингдек, давлат хизматлари даражасида кўрмоқдамиз.

Рақамли иқтисодиётда инсон капиталининг роли ва аҳамиятини инобатга олган ҳолда, биз рақамли иқтисодий алоқаларнинг ривожланиш даражасини ҳар жиҳатдан баҳолайдиган кўрсаткичларга мурожаат қиламиз. Таъкидлаш жоизки, иқтисодиётни рақамлаштириш даражасини баҳоловчи ҳар бир индикаторда инсон капиталини, шу жумладан, ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш бўйича рақамли билим ва кўникмалар шаклидаги баҳо мавжуд.

Шуни айтиш керакки, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида белгиланган вазифаларда рақамли иқтисодиёт масаласига алоҳида эътибор қаратилган. Жумладан, 2020 йил 28 апрелда ПҚ-4699 «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент қарорида ҳам таълим тизимининг барча босқичларида рақамли технологияларни кенг жорий этиш ва замонавий иқтисодиёт учун зарур бўлган рақамли билимларнинг даражасини ошириш, таълим инфратузилмасини такомиллаштириш, шунингдек, “Беш ташаббус” лойиҳасини амалга ошириш доирасида 2022 йилга қадар республиканинг барча ҳудудларида рақамли билимларга ўқитиш марказларини очиш каби вазифаларни амалга ошириш масалалари илгари

сурилган. Бу каби вазифаларни амалга ошириш иқтисодиёт тармоқлари ва давлат бошқаруви тизимида замонавий ахборот технологияларини кенг жорий этиш ва телекоммуникация тармоқларини кенгайтириш орқали республика иқтисодиётининг рақобатбардошлигини янада ошириш имконини беради.

Бугунги пандемия шароитида тадбиркорлик соҳаси мамлакатимиз ривожига муҳим ҳисса қўшиши алоҳида таъкидланмоқда. Чунки кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш аҳолини иш билан таъминлаш масаласини ҳам ижобий ҳал қилиш йўлларида биридир. Дарҳақиқат, кичик бизнес тадбиркорликсоҳаси тез ўзгарувчан ижтимоий вазият ўзгарувига қараб тез мослашувчан ва янгиликларни тез қабул қилиш, фаолиятини қисқа вақтда ўзгартириб билувчидир. Бунда вазиятга қараб бир шаклда чиқариб турган маҳсулотларини бошқа шаклга ўзгартиришлари осонроқ кечади. Шу сабабли ҳам улар жамиятни фаол қисmini ташкил этади.

Хулоса қилиб айтганда, охириги йилларда бизнинг мамлакат инновацион ривожланиш йўлини танлади. Мамлакатни инновацион йўл билан ривожланиши эскиликнинг қаршилигини енгилиши билан боғлиқ. Бу жараён жамиятнинг эволюцияси, инсоннинг когнитив имкониятларининг эволюцияси, инсон интеллектининг эволюциясини намоён этишидир. Шу сабабли Ҳаракатлар стратегиясининг ғояларини амалиётга тадбиқ қилиш учун янги нуқтаи-назар, ёндашувлар, ижтимоий-иқтисодий муҳитда шакллантирилмоқда. Демак, биз республикаимизни инновацион ривожлантириш йўлига ўтган эканмиз, инсон капиталини ва рақамли иқтисодиётни ривожлантиришимиз талаб этилади. Зеро, ҳозирги мураккаб даврда Ўзбекистон учун анъанавий иқтисодиётни имкон қадар замонавий ахборот, интеллектуал, рақамли иқтисодиётга айлантириш жуда муҳимдир. Бу эса ривожланиш йўлидир. Акс ҳолда, кейинги ижтимоий-иқтисодий инқирозлар натижада сиёсий номуносиблик муқаррар бўлиб, бу ўз навбатида ижобий тескари алоқа сифатида ҳаракат қилиши ва мамлакатни технологик, кейин



эса ижтимоий-иқтисодий ривожланаётган мамлакатлардан орқада қолдириши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Расмий нашр/ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Тошкент: “Адолат”, 2018. – 112 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини Инновацион Ривожлантириш Стратегиясини тасдиқлаш Тўғрисида”. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги // ҚҲММБ: 07/20/4699/0520-сон 29.04.2020 й.
4. Гаффарова Г.Ғ. Ижтимоий ривожланишнинг рақамли парадигмаси □ // Олий таълим сифатини такомиллаштиришда инновацион ҳамкорликнинг долзарб масалалари: халқаро илмий онлайн конференция материаллари. 2-китоб. – Навоий, май 2020.-Б.96-98.
5. Гаффарова Г.Ғ. Ахборотлашган жамиятдан рақамли жамият сари: фалсафий таҳлил // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги расмий веб-сайтининг илмий бўлими (электрон журнал). – Тошкент, 2020. Сентябрь
6. Замонавий фалсафий атамаларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “Университет”, 2018. – 84 б.
7. Забелина О.В., Мальцева А.В., Мирзабалаева Ф.И. Установки работающего населения России на непрерывное профессиональное образование // Креативная экономика. 2019. Том 13. № 4. – С.773-790. doi:[10.18334/ce.13.4.40532](https://doi.org/10.18334/ce.13.4.40532)
8. Иванов В.В., Малинецкий Г.Г. Цифровая экономика: мифы, реальность, перспектива. Российская академия наук, - Москва, 2017.
9. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход. – М., Берлин: Директ-Медиа, 2014. –С.402.
10. Abdullaeva M., Gaffarova G. Interdisciplinary approach in scientific context // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. –Т.1. - С.104-109.
11. Gaffarova G.G. Problems self-organization: philosophical analysis // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2019. –Т.1. –№5, - С.185-190.



12. Kodirov B.S. Theoretical and practical bases of innovative development of Uzbekistan // Scientific Bulletin of Namangan State University. - 2020. –T.1. –№5, - C.505-511.



ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА СССРНИНГ ШАРҚИЙ ХУДУДЛАРИГА ЭВАКУАЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ

АТАЖАНОВ Ахтам Юсупович

*Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти
Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси*

Аннотация: “Иккинчи жаҳон уруши йилларида СССРнинг шарқий худудларига эвакуациянинг амалга оширилиши” мақоласи иккинчи жаҳон уруши давридаги СССР халқи, хусусан, ўзбек халқининг фронт ортидаги эвакуация жараёнида кўрсатган матонати, сабри ҳамда ғамхўрлигини ёритиб беришга қаратилган бўлиб, бунда асосий урғу Жаҳон урушининг бошланиши ва эвакуациянинг боришига аҳамият берилган.

Калит сўзлар: Иккинчи жаҳон уруши, эвакуация, ғарбга чекиниш, фронт орти ҳаракатлари.

Иккинчи жаҳон уруши тарихда мисли кўрилмаган даражада дахшатли, бутун инсоният бошига оғир кулфатларни солган уруш бўлди. Дунёда тинчлик учун кураш олиб борган давлатлар ўзаро бирлашди. Бизнинг мард, енгилмас ва олийжаноб халқимиз буюк Ғалабани таъминлашга беқиёс ҳисса қўшгани билан барчамиз ҳақли равишда фахрланамиз.

“Бу машъум уруш туфайли, - деб таъкидлайди Ислом Каримов, энг камида 400 минг оила бевосита айрилиқ азобига дучор бўлган” [1].

Уруш гирдобига тортилган давлатнинг бирламчи вазифаси ўз ғалабасини қафолатлай оладиган мустаҳкам, тизимли ва юқори кўрсаткичларни таъминловчи кўшинлар орт таъминот хизматини йўлга қўйиш эди. Таъкидлаш жоизки, Совет давлатининг бу борада Германия қиёсида имкониятлари анча кўп сонли эди. Давлатнинг амалдаги чегаралари қамрови ва кўп сонли халқлардан ташкил топган миллионлаб ишчи кучи давлатни фожиа ёқасидан чиқариб олди. Хусусан, Иккинчи Жаҳон уруши йилларида ўзбек халқининг кучларини фашизмга қарши курашга сафарбар қилиш ва шу билан юзага келган муаммоларни республикада Компартия МҚ биринчи котиби Усмон Юсупов бошқарган[2].



Урушнинг биринчи кунлариданоқ немис кўшинлари тез суръатлар билан мамлакат ичкарасига қараб бостириб борди. Саноат корхоналарини шошилиш равишда фронт линиясининг шаҳарлари ва қишлоқларидан Шарққа, Марказий Осиё ва Қозоғистонга кўчириш ва эвакуация қилиш ишлари бошланди. Уруш давридаги оғир шароитларда Ўзбекистон раҳбарияти қисқа вақт ичида эвакуация қилинган корхоналарни жойлаштириш ва фронт эҳтиёжлари учун маҳсулотлар ишлаб чиқариш билан боғлиқ мураккаб вазифаларни ечимини топишга киришдилар. Эвакуация қилинган аҳоли, уларни жойлаштириш, иш ва ҳаёт учун зарур бўлган барча эҳтиёж буюмлари билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратилди.

1941 йил мамлакатнинг душман босиб олган ҳудудларини ва фронт яқинидаги туманларини ташлаб чиққан дастлабки 10 минг киши республикага 1941 йилнинг ёзидаёқ кела бошлаган эди[3]. Ўзбекистон уруш йиллари Совет иттифоқининг босиб олинган туманларидан, Украинадан (1941- йил 1- сентябри маълумотларига кўра – 5717 киши, октябр-ноябр ойига уларнинг сони 54029 кишига етди) ва Беларусиядан ҳаммаси бўлиб 1 млн дан ортиқ кишини қабул қилди, улардан 200 минг нафари болалар эди[4].

Шунингдек, янги аниқланган маълумотларга кўра, уруш ўчоғига айланган ўлкалардан Ўзбекистонга 1 миллион 500 минг киши, жумладан, 250 мингдан зиёд бола эвакуация қилинган[5]. Кўплаб оилалар боқувчисиз қолган болаларни ўзларига фарзандликка олдилар, топган-тутганларини улар билан баҳам кўрдилар. Турли миллатларга мансуб бўлган 14 болани фарзандликка олган тошкентлик темирчи уста Шоаҳмад Шомаҳмудов ва унинг хотини Баҳри Акрамовалар оиласи юксак инсонийлик фазилатларини кўрсатиб кўпчиликка ибрат бўлдилар. Урушдан ногирон бўлиб қайтиб келган каттақўрғонлик Ҳамид Саматовлар оиласи 13 болани, самарқандлик колхозчи аёл Фотима Қосимовалар оиласи 10 болани ўз қучоғига олиб, меҳр- кўри билан уларнинг қалбини иситди, дилини ёритди[6].

Ўзбекистон раҳбарларидан Усмон Юсупов ва Йўлдош Охунбобоев оилалари ҳам етим болаларни ўз тарбиясига олдилар. Ўнлаб болаларни фарзандликка олиб



тарбиялаб, вояга етказган оилалар республикамизда анчагина. Уларнинг буюк инсонпарварлик, ватанпарварлик жасорати Тошкент шаҳрининг Халқлар дўстлиги майдонида яратилган ёдгорликда абадийлаштирилди. Ўзбекистонга жанглarda ярадор бўлган ёки бемор бўлиб қолган минглаб жангчилар – аскар ва зобитлар ҳам жўнатиладди. Уларни қабул қилиб олиш, жойлаштириш, саломатлигини тиклаш ишларига алоҳида меҳрибонлик қилинди, республикамиз соғломлаштириш марказларидан бирига айланди. Умуман уруш йиллари 4,5 мингдан ортиқ болани ўзбекистонликлар фарзанд сифатида тарбияладилар[7].

1941 йил июнь-декабрь СССРнинг душман босиб олиши мумкин бўлган районларидан 151 та завод ва фабрика Ўзбекистонга кўчириб келтирилди. Улар орасида Ленинград тўқимачилик машиналари заводи, “Россельмаш”, “Қизил оқсой”, “Сумск компрессор” ва “Днепропетровск карборунд” заводлари, Москвадаги “Электрокабель” ва “Подъёмник” заводлари, Темир йўллар халқ комиссарлиги машинасозлик заводи, Чкалов номидаги авиация заводи, “Красный путь” заводи, Киевдаги “Трансигнал” заводи, Сталинград кимё комбинати ва бошқалар ҳам бор эди[8].

Хусусан, эвакуация қилинган завод ва ташкилотларни ишга тушириш ишларини назорат қилиш мақсадида махсус ҳукумат комиссияси, вилоятларда эса коммунистик партиялар негизида вилоят комиссиялари таъсис этилди. Завод ва ташкилотларни ишга туширишга талаб этиладиган 2-3 йил миқдоридаги вақт бир неча ойгача қисқартирилди. Заводларнинг ишга туширилиши билан бир вақтнинг ўзида ҳарбий ёналтирилган маҳсулотлар ишлаб чиқарила бошланди. Мисол тариқасида, халқнинг ватанпарварлик руҳи ёрдамида «Ростсельмаш» заводи алоҳида цехлари 25 кун мобайнида ишга туширилиб маҳсулот ишлаб чиқара бошлади[9].

Аммо, заводларнинг ишга туширилиши билан бир қаторда юқори малакали ишчи кадрларнинг етишмаслиги яққол муаммога айлана бошлади. Бунинг устига, умумҳарбий сафарбарлик натижасида фронтга кўплаб малакали кадр эркаларнинг кетганлиги ва аҳолининг талайгина қисмини аёллар, кексалар ва болалар ташкил



этарди. Бироқ, урушнинг биринчи кунлариданоқ аёллар ўзининг матонат ва ватанпарварлик руҳини кўрсатди ва 1941 йилнинг октябрига келиб, «Ташсельмаш» заводининг ўзида 800, Тошкент текстиль комбинатида эса 825 аёл токар, слесар ва бошқа касблар эгалари ишлар эди[10]. Шу йилнинг ўзида 10 октябр статистик маълумотларига қараганда, Ўзбекистон умумий ишчи кучининг 45% аёллар ташкил этарди[10].

Эвакуация қилинган завод ва фабрикаларни тиклашда талабалар, ўқувчилар, уй бекалари, фан ва маданият ходимлари, хизматчилар ва колхозчилар қўлида белкурак, кетмон, лом олиб чарчаш нималигини билмай меҳнат қилдилар. Эвакуация қилинган корхоналарни жойлаштириш учун 400 минг квадрат метр майдон ажратилди. Бунинг учун мос келадиган турли бинолар бўшатилиб, қайта қурилди. 200 минг квадрат метр майдон янгидан барпо этилди. Бир вақтнинг ўзида, ишчилар ўртасида «200 чилар» ҳаракати авж ола бошлади, бунга юқорида қайд этилган юксак ватанпарвалик руҳи асос бўлиб хизмат қилди. Чунончи, ҳаракатнинг моҳияти «Нафақат ўзим балки, фронтга кетган инсон учун ҳам режани бажариш»га интилишдан иборат эди[11]. Кундан кунга ҳаракат иштирокчилари сони ортиб борди, фақатгина Самарқанд «Колхозник» заводида уларнинг сони 60 кишини ташкил этарди. Ташсельмаш заводида улар қаторига слесар Хусайнов, штамповчилар Мақсудова, Разумова, Ризаева, токарлар Икромов, Юсупов ва бошқалар кирди[12].

Ўз кўрсаткичларини янада ошириш ҳаракатидаги кўплаб ишчилар ишлаб чиқаришнинг янги усулларини қўллай бошладилар ва ўз завод бўйича касбдошларига ўргатишлари натижасида биргина Ташсельмаш заводининг №8 цех кўрсаткичи хар ойда 180-210% ташкил этарди[12].

Ишга туширилган ташкилотлар ишлаб чиқарувчи маҳсулот айирбошлови 1940 йилдаги 1.4 млрд. рублдан 1942 йилга келиб 2 млрд. рублни ташкил этди.

Юксак ватанпарварлик ва халқининг ғалабасига интилиш натижасида республика саноати 1941 йилда йиллик режани тўлиқ бажарди. Мамлакат

иктисодиётининг айрим тармоқлари, хусусан, нефт сектори режани 120%, ёғ-мой ишлаб чиқариш тармоғи эса 102% га ошириб бажарди[13].

Хулоса қилиб айтганда, Совет давлати таркибидаги Ўзбекистон халқи нафақат фронтнинг олд чегаралари, балки орт ишларида ҳам кураш ва жанглар олиб борар эди. Фронт орти ишларига жалб этилган ҳар бир аёл, ёш авлод ва кексалар ўзлигидан бутунлай кечиб, фронт ва ғалаба учун жон-жаҳдини бағишлаб хизмат қилар эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ислон Каримов. Ватан саждагоҳ каби муақаддасдир. 3-том. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996 й. 80-бет
2. Беликов А.М. Советский тыл в годы Великой Отечественной войны. – М.: «Знание», 1969. – Б. 26.
3. Самсонов А.Л. Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – М.: «Комсомол», 1988. – Б. 97.
4. Рахимбабаева С. Женщины Узбекистана на пути к коммунизму. – Т.: Госиздат УзССР, 1949. – Б.44.
5. Воскобойников Э.А., Яковлев В.М. Организаторская и идеологическая работа Коммунистической партии Узбекистана в годы ВОВ (июль 1941-1945). – Б. 35.
6. «Правда Востока», 1942 й. 3 август.
7. Самсонов А.Л. Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – М.: «Комсомол», 1988. – Б. 112.
8. Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие Советского Узбекистана. – Т.: Госиздат УзССР. – Б. 165.
9. Воскобойников Э.А., Яковлев В.М. Организаторская и идеологическая работа Коммунистической партии Узбекистана в годы ВОВ (июль 1941-1945). – М.: «Комсомол», 1969. – Б. 56.
10. Рахимбабаева С. Женщины Узбекистана на пути к коммунизму. – Т.: Госиздат УзССР, 1949. – Б.87.
11. Рахимбабаева С. Женщины Узбекистана на пути к коммунизму. – Т.: Госиздат УзССР, 1949. – Б.89.
12. Коллектив авторов. История рабочего класса Узбекистана. т. 2. – Т.: «Наука», 1965. – Б. 214

БОБУРИЙЛАР ВА ТУРКИСТОН АЛОҚАЛАРИ

Саидов Зоҳиджон Хабибуллаевич

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти

Гуманитар фанлар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақола Бобурийлар давлатининг Марказий Осиё давлатлари билан олиб борган алоқаларига мўлжалланган. Тадқиқотларга эътибор берадиган бўлсак Бобурий султонлар даврида Туркистон ҳудудларидан Ҳиндистонга кенг миқёсда турли соҳа вакилларининг, айниқса, маданият соҳасига алоқадор кишиларнинг кўчиб ўтиши туркий халқлар маданияти билан ерлик халқларни таништиради ва шу маданиятнинг Ҳинд ерларида ёйилишига ҳам сабаб бўлди.

Калит сўзлар: Бобурийлар, “Бобурнома”, Тож Маҳал, Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асари.

Жаҳон адабиёти ва тарихшуносликнинг мукаммал намунаси ҳисобланган «Бобурнома» тарихий-бадий манба сифатида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу билан биргаликда, у илм-фаннинг кўплаб соҳалари ҳақида маълумот берувчи комусий асар ҳисобланади.

«Бобурнома» маҳаллий ва хорижий тадқиқотчиларнинг эътиборини ўзига тортганлиги боис асар бир қанча чет тилларга таржима қилинган. «Бобурнома» бўйича олиб борилган тадқиқотлар салмоғи ҳам асарнинг қимматини белгилайди.

Фанда бугунги кунда «Бобурнома» қўлёзма нусхаларининг кўплаб тадқиқ этилаётганлиги, ундаги тарихий фактлар асосида бадий, тарихий, публицистик асарлар яратишга бўлган эътиборнинг кучаяётганлиги асарнинг оламшумул аҳамиятини яна бир бор тасдиқлайди. «Бобурнома» дунёнинг кўплаб миллий тилларига таржима қилиниб, қайта-қайта нашр этилаётгани ҳам бунинг яққол далилидир. Бинобарин, «Бобурнома»нинг ғоявий-бадий мазмун кўлами, муаллиф шахсияти, ўзига хос тасвир услуби, бадий маҳорат, ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолати тасвири муаммоларини замонавий таҳлил методлари асосида илмий тадқиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Ҳиндистон ярим ороли энг қадим замонлардан бери дунё тизимининг бўлинмас бир қисми бўлиб келаётганлиги ҳаммага яхши маълум. Ушбу минтақа асосан шимоли-ғарб томонидан, яъни Ҳиндикуш тоғ тизмалари оша Марказий Осиё, хусусан, Туркистон билан бевосита алоқада бўлиб келганлиги ҳам ҳеч кимга янгилик эмас.

Маълумки, Темурийлар сулоласининг энг сўнгги авлодлари бўлган бобурий ҳукмдорлар Ҳиндистон ярим оролига келиб ўз ҳокимиятларини ўрнатдилар.

Бобурийлар даврида Туркистон ҳудудларидан Ҳиндистонга кенг миқёсда турли соҳа вакилларининг, айниқса, маданият соҳасига алоқадор кишиларнинг кўчиб

ўтиши туркий халқлар маданияти билан ерлик халқларни таништирди ва шу маданиятнинг Ҳинд ерларида ёйилишига ҳам сабаб бўлди.

Бобурийлар Ҳиндистонга нафақат сиёсий, маъмурий ва ҳарбий томондан, балки маданият (рассомчилик, меъморчилик, адабиёт, шеърят ва ҳ.к.) соҳаларида ҳам катта таъсир кўрсатганлар. Бунга жуда кўп мисоллар келтириш мумкин.

Масалан, Ҳиндистонда энг машҳур тарихий обида Тож Маҳал, кўпчилик олимларнинг таъкидлашича, Самарқанддаги Амир Темур мақбараси “Тўри Амир”га тўғридан-тўғри тақлид қилиб солинган [1].

Тож Маҳални қурдирган Шоҳ Жаҳон ўз “она ватани” бўлган Туркистонни қайтадан қўлга киритиш умидида яшаган.

Ҳатто у 1646 йилда Балх вилояти орқали бу томонга ҳарбий юришни амалга оширишга ҳам уриниб кўрган. Шоҳ Жаҳоннинг Балхга юриши тўғрисида Бобурийларга тегишли кўпгина мактубларда ва бошқа ҳужжатларда Туркистон “аждодларимизнинг қабрлари бор жой” деб қайд қилинган [2].

Ҳаттоки, отасининг куп соҳалардаги сиёсатининг тескарисини қилган Аврангзеб ҳам, бобурийларнинг Туркистонга нисбатан билдирган ўй-хаёлларига содиқ қолган.

Бундай мисоллар XVI-XVII асрларда турли тўсиқларга қарамасдан, Туркистон ва Ҳиндистон ўртасида мунтазам алоқалар мавжуд бўлганлигидан далолат беради. XVII асрга тегишли манба бўлган “Музаккир-и-асҳоб”да қайд қилинишича, Бобурийларнинг сўнгги авлодлари, ўз боболари Жаҳонгиршоҳ қилганидек, Самарқандга “Тўри Амирни” таъмирлаш учун пул ва усталарни юборганлар” [3].

Бобурнинг вафотидан кейин, Ҳумоюн ва ундан кейинги авлодлар ниҳоят ўзларининг Ҳиндистон султонлари сифатидаги мавқеларини тан олганлар. Лекин келиб чиқиши, қайси сулолага мансублиги жуда ҳам катта аҳамият касб этган дунёда, Темурийлар сулоласининг вакиллари бўлган Бобурий султонлар Ҳиндистонда мустаҳкам ўрнашиб олсаларда, ўзларининг Туркистонга бўлган интилишларини ҳеч тўхтата олмаганлар.

Абул Фазл Акбарни “Кўрагон оиласининг фаҳри” ва “Темур уруғининг чироғи” чироғи дудмони Соҳибқирон деб атайди.

Жаҳонгир Қобулда, Бобурнинг мақбараси ёнида, ўз номи ва Темурдан кейинги аждодларининг номлари ўйиб ёзилган тошни ўрнатишни буюрган эди.

Амир Темур сиймоси барча Бобурий султонлар учун намуна бўлиб хизмат қилган. Темур шахсиятига, унинг юришларига бағишланган китоблар доимо уларнинг ҳамроҳи бўлганлиги бизга манбалардан маълум. Масалан, Жаҳонгир ва Шоҳ Жаҳон Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарини қайта-қайта ўқиб юрганлар.



Бобурий султонлар Ҳиндистонда ўз фаолиятлари давомида (давлат бошқаруви, ижтимоий-иқтисодий сиёсатда ва ҳ.к.) кўпинча Темурийлар давридаги қонун-қоидалар, анъаналар, расм-русумларга амал қилганлар.

Туркистон ва Ҳиндистондаги бобурийлар империяси ўртасидаги дипломатик алоқаларни таҳлил этар эканмиз, бу алоқалар кўпроқ икки томоннинг сафавийлар сулоласи ҳукмронлик қилган Эронга қарши курашда иттифоқ тузиш режасини амалга ошириш мақсадини кўзлаб олиб борилган деб тахмин қилиш мумкин.

Бу борада учала томон ҳам муайян манфаатларни кўзлаб, яъни ўз чегараларига яқин жойлашган ҳудудлар, хусусан, Хуросон ва ҳозирги Афғонистон ерлари устидан назорат ўрнатиш учун кураш олиб борганлар. Туркистонликлар ҳам, бобурийлар ҳам элчиларни танлашда ўзларича бир-бирларини ҳайратга солишга ҳаракат қилганлар.

Шуни таъкидлаш лозимки, ислом дунёсида қабул қилинган анъанага мувофиқ, элчилик лавозимига кўпинча дин арбобларини тайинлаганлар. Бобурий ҳукмдорлар турли сабабларга кўра Туркистондан Ҳиндистонга келиб қолган ва давлат ишларида ёки бошқа соҳаларда катта тажрибага эга бўлган билимли кишиларга ишонч билдириб, юқори лавозимларга, ҳарбий қўмондонлик вазифаларига тайинлаганлар ва улар меҳнати ва садоқатини юқори баҳолаганлар. Яхши хизматлари учун уларга катта мукофотлар, ерлар ҳадя қилганлар ва шу билан бирга улар йўл қўйган баъзи хатоларни ҳам кечириб кетганлар.

Ўрта Осиёдаги тасаввуф оқимидаги бир қанча оилалар бобурийларнинг Нақшбандия тариқатига мансуб эканликларидан фойдаланиб, кўпчилиги Ҳиндистонга келган ва сарой хизматига олинганлар.

Улардан бири бўлган Шарафиддин Самарқандий Акбаршоҳ хизматида ишлаган, лекин икки марта исёнда иштирок этганлиги сабабли Бенгалияда ҳаётидан ажралган. Яна бири, Абдуллахон (уни Турон ҳукмдори номи билан ёки Ҳиндистонга келиб Ҳумоюн яқинларидан бўлган шахс билан адаштирмаслик керак) аввалига Деканда Шер Хўжа хизматида бўлган, кейинчалик Лоҳурда ўзини шахзода Салим (кейинчалик Жаҳонгир) ихтиёрига топширган. 1603 йилда у Акбар саройига келган ва 1000 аскарга раҳбарлик қилиш мансабига эришган ва Сафдор жанг (Жанг қаҳрамони) унвонига сазовор бўлган.

Ҳулоса ўрнида шуни айтиш керакки, бобурийлар ва Ўрта Осиё давлатлари ўртасидаги дипломатик алоқалар мунтазам равишда ривожланиб борган.

ФОЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Муқимханская история. Т., 1956 с. 153.
2. Семёнов А. А. "К вопросу о культурно-политических связях." с. 14.
3. Низомиддинов И. Ўрта Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. Т., 27-бет.

ҲАРБӢЙ ТАЪЛИМДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ҲАРБӢЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИ ЗАМОНАВИЙЛАШТИРИШНИНГ МУҲИМ ШАРТИ

Шеров Мансур Болтаевич

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти

Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси,

ф.ф.б.ф.д, (PhD), доцент, майор

Аннотация: Ушбу мақола креатив фикрлаш ғоясини очиб беради. У замонавий талабларга жавоб берадиган, ҳар соҳада креатив бўла оладиган мутахассислар сонини ошириш орқали ривожланишни такомиллаштиришни кўрсатади. Ҳарбий хизматчилар орасида креатив фикрлашни шакллантириш борасида муҳим фикрлар илгари сурилган. Ҳарбий тайёргарликни замонавийлаштиришнинг муҳимлиги таълим жараёнида креативликни шакллантиришдир. Ҳарбий хизматчилар орасида шахсий таркибни креатив руҳда тарбиялаш тўлиқ қўллаб-қувватланади.

Калит сўзлар: Креативлик, чуқур фикрлаш, креатив фикрлаш, замонавийлаштириш, фикрлашнинг илмий усули, тактик чуқур мулоҳаза, диалектга оид креативлик.

Annotation: This article explains the idea of creative thinking. It demonstrates the improvement of development by increasing the number of professionals who meet modern requirements and can be creative in any field. Important ideas have been put forward on the formation of creative thinking among military personnel. The importance of modernizing military training is to form creativity in the educational process. Fostering a personal spirit of creative content among military personnel is fully supported.

Keywords: Creativity, deep thinking, creative thinking, modernization, scientific method of thinking, tactical deep thinking, dialectical creativity.

Бугунги кунда жамиятимизнинг фаол бўғини сифатида Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар тизимида тарбияланаётган ёш ҳарбий хизматчиларнинг иқтидори, билими ва маданиятини юксалтириш долзарб ҳисобланади. Хусусан, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш” [1] вазифалари белгиланган.

Ҳозирги вақтда дунёнинг Foundations of creative education (АҚШ), Musashino Art University (Япония), Chinese Academy of Social Sciences (Хитой), European Union Institute for Security Studies (Франция), German Council on Foreign Relations (Германия), Central European University (Венгрия), University of Tennessee (Италия), Charles University (Чехия), Креатив тафаккур институти (Россия), Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар академияси (Ўзбекистон) ва бошқа мамлакатларда ҳам ҳарбий хизматчиларда креатив тафаккурни шакллантириш босқичларини ўрганиш, уларнинг ҳарбий таълим модернизациясидаги фаоллигини ошириш, ҳарбий касбий фаолият доирасида зарур билим, кўникма, малакалар эгаллашни, ҳарбий таълим муаммолари устида ишлашда мустақил ва ижодий ёндашувини таъминловчи креатив тафаккур имкониятларидан самарали фойдаланиш асосида илмий тадқиқот ишларини амалга ошириш бўйича кўплаб илмий лойиҳалар жамият ҳаётига тадбиқ қилинмоқда. Ушбу илмий ишланмалар ҳарбий хизматчиларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг янги моделларини ишлаб чиқишда, бу йўналишдаги олиб борилаётган ислохотларни халқаро муносабатларга интеграциялашда устувор аҳамият касб этади.



Шу боисдан ҳам Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганидек: «Биз ёшларга доир давлат сиёсатини ҳеч оғишмасдан, қатъият билан давом эттирамиз. Нафақат давом эттирамиз, балки бу сиёсатни энг устувор вазифамиз сифатида бугун замон талаб қилаётган юксак даражага кўтарамиз. Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз»[2].

Креативлик муайян босқичларда изчил шакллантириб ва ривожлантирилиб борилади. Ҳарбий хизматчиларнинг креативлик сифатларига эга бўлиши уларнинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қувватини касбий фаолиятни сифатли, самарали ташкил этишга йўналтиради. Уларнинг креативлик сифатларига эга бўлишлари уларда ўқув ва тарбия жараёнларини ташкил этишга анъанавий ёндашишдан фарқли янги ғояларни яратиш, бир қолипда фикрламаслик, ўзига хослик, ташаббускорлик, ноаниқликка тоқат қилмасликка ёрдам беради.

Креатив фикрлаш - бу диалектик фикрлашнинг энг юқори шаклидир. Бундай ҳолда, атипик, ностандарт тактик вазиятларни, вазифаларни мустақил равишда ҳал қилиш, уларнинг ечимига янгилик киритиш ва янги фокуслар ва ҳаракат усулларини топиш муҳим. Шундай қилиб, тактик фикрлаш бу ижодий фикрлашдир, чунки жанговар амалиётда иккита мутлақо бир хил тактик созлашлар, жанглар, шунингдек, стандарт ҳолатлар ва маълумотлар тўлиқ равишда намоён бўлмайди. Бундай муҳитда кўмондон шартли вазиятни тезда баҳолаши, тезлик билан тегишли қарор қабул қилиши ва уни амалга ошириши талаб этилади.

Ҳозирги вақтда ҳарбий-сиёсий билимларни чуқур ўзлаштириш учун курсантлардан ижодий фикрлаш, касбий ҳаракатчанлик ва фундаментал билимларга эга бўлиш талаб этилмоқда. Олий ҳарбий ўқув юртларининг вазифаси келажакда юқори даражадаги ҳарбий хизматга қодир зобитларни тайёрлаш, кўшинлардаги ўқув



жараёни ва ўқитиш билан боғлиқ таълим сифатини таъминлашдан иборат бўлиб қолмоқда. Шунингдек тутиш керакки, бўлажак офицерни олий ҳарбий ўқув юртида ўқитиш жараёни ўзгача маъно-мазмун касб этади. Чунки курсант касбий билимларни ўзлаштириш билан бир қаторда шахсий фазилатларни (коммуникатив, ташкилий, таҳлилий) ривожлантиришлари ва ижодий фикрлаш тарзини шакллантиришлари керак бўлади. Ҳеч шубҳа йўқки, ижодий фикрлаш ва инновацион усулларни пухта эгаллаш офицерга ўз вазифасини узоқ вақт давомида ҳал қилишга имкон беради.

Замонавий шароитда креатив фикрлаш ихтисослашган ҳарбий таълим муассасаларида курсантларнинг асосий мақсад ва вазифаларига айлантириш долзарб аҳамиятга эга. Умумий гуманитар фанлар блокнинг ўқув материали асосида курсантларда креатив фикрлаш қобилиятини ривожлантириш жуда муҳимдир, чунки бугунги курсант ва эртанги кун ҳарбий қисмлари ҳарбий хизматчиларининг шахсий ва индивидуал хусусиятларини шакллантириш ушбу муаммони ҳал қилишга чамбарчас боғлиқ.

Курсантларни ижодий ривожланиш даражаларига кўра интеллектуал, мотивацион, ихтиёрий, мавзуй-амалий ва ҳиссий соҳаларга бўлинади. Тадқиқот натижалари шунини кўрсатдики, креатив фикрлаш қобилиятига эга бўлмаган курсантлар паст даражада натижалар кўрсатади: бундай курсантлар репродуктив фаолиятни афзал кўрадилар, ақлий фаолиятнинг табиати бўйича, конвергент фикрлаш устунлик қилади, ўз-ўзини ҳурмат қилиш даражаси паст, ташвишланиш даражаси юқори, бошқалар билан алоқа қилиш қобилияти суст бўлади.

Ҳарбий таълим муассасаларида интеллектуал ва ижодий фаолиятнинг босқичма-босқич дастурини тайёрлаш, ижодий муаммони ҳал этишда, ривожланиш жараёнида белгиланган мақсадни ҳисобга олган ҳолда амалга ошириладиган, интеграция ва ташкилий-амалий тамойилни амалга оширадиган ташкилий-процессуал компонент устувор аҳамият касб этади.

Қуrolлик Кучларнинг инсонпарвар мақсадлари ва вазифалари инсонга ҳаётини ҳарбий хизматга бағишлаган ҳолда ҳаёт мазмунига эга бўлиш имкониятини беради. Бироқ ушбу имконият юқорида тилга олинган мақсадлар ва вазифалар амалиётга тўлиқ жорий қилинса, Қуrolли Кучларнинг ичидаги муносабатлар зобитга ўзининг мавжуд шуурий ижодий салоҳиятини ишга солишга имкон берса ва унинг ўзи ҳаёт мазмунини илмий тушунишни эгаси бўлсагина воқеликка айланади. Ушбу вазифа бошқарув ва тарбиялаш субъектлари фаолияти бир неча йўналишларини амалга ошириш билан ҳал қилиниши мумкин. Бу йўналишлардан энг муҳимлари қуйидагилардир:

- Қуrolли Кучлар мақсадлари ва тузилмаларини ҳаётнинг объектив талабларига мослаштириш;
- зобитнинг шахсий манфаатлари ва хизмат талабларининг имкон қадар мос келишини таъминловчи муносабатлар тизимини яратиш;
- зобитларни хизмат жойларига тақсимлашда ижтимоий адолатни амалга ошириш;
- Қуrolли Кучларни ислоҳ қилиш чоғида лозим ва мавжуд, идеаллик ва воқелик, сўз ва иш ўртасидаги жарликни камайтириш;
- ҳарбий хизматда ҳаёт ва маиший хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш;
- зобитларнинг, барча хизматчиларнинг жисмоний саломатлигини мустаҳкамлаш ва ҳаказолар.

Ҳарбий бошлиқлар фаолиятининг ушбу йўналишлари, зобитнинг ҳаёт мазмунига бўлган эҳтиёжларини қондиришни имкон қадар таъминлайдиган ташқи муҳитни шакллантиришга шароит яратади. Айниқса, бугунги кунда давлатимиз раҳбари Ш. М. Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек, “Ҳарбий хизматчиларнинг руҳий жиҳатдан чидамли бўлиши ҳақида гапирганда, кейинги пайтда дунёнинг турли минтақаларида содир бўлаётган қуrolли тўқнашувларда кўзга ташланаётган бир ҳолатга эътиборингизни қаратмоқчиман. Яъни, жанговар ҳаракатлар давомида



шахсий таркиб ўртасидаги йўқотишларнинг асосий қисми кучли руҳий таъсир ва зарбалар билан боғлиқ экани маълум бўлмоқда. Бундай руҳий жароҳатларни ҳатто тинч ҳаёт шароитида ҳам даволаш жуда мураккаб масаладир. Шу муносабат билан тегишли вазирлик ва идоралар раҳбарлари барча тоифадаги ҳарбий хизматчиларнинг жисмоний ва руҳий тайёргарлиги бўйича принципиал жиҳатдан янги меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқиши зарур. Бу борада асосий эътиборни ҳарбий-амалий масалаларни ҳал этишга йўналтириш лозим. Ҳарбий хизматчилар ҳар томонлама соғлом ва чидамли бўлиши, ҳар қандай мураккаб жисмоний ва руҳий синовларга бардош бериши керак” [3].

Ҳарбий-илмий билимларни ҳаракатчанлиги ва ўзгарувчанлиги, уларни қўлга киритиш усуллари С.И.Крупное таъкидлаб ўтган. У кўпроқ ҳарбий илмий билимларнинг мазмуни ва чегаралари ижтимоий жиҳатдан шартли эканлигига эътибор қаратган[4]. С.В.Клягин ҳарбий тадқиқотчининг ўрганиш фаолиятига таъсир кўрсатувчи омиллар мажмуини таҳлилдан ўтказган (шу аснода кадриятли, ижтимоий-маданий шароитлар ролини алоҳида ажратиб кўрсатган) ҳарбий-ижтимоий тадқиқотлардаги фан намуналари динамикасини бундай кўриб чиқиш нуқтаи-назаридан ҳарбий илмий ўрганиш асослари, мазмуни ва усуллариининг ўзгарувчанлигини умумлаштирувчи ўрганишнинг концептуал-назарий воситаларини синовдан ўтказилган[5]. С.А.Тюшкевичнинг асарларида ҳарбий олимнинг ўрганиш фаолиятида парадигмал тафаккурнинг замонавий намуналари шаклланиши[6]. тўғрисидаги хулосалар асослаб берилган, ҳарбий тадқиқотчининг даврнинг ижтимоий-маданий, иқтисодий, маънавий, тарихий вазиятларига тобе эканлиги таъкидланган, шунингдек муаллиф томонидан 21 асрдаги эҳтимолий урушлар хусусиятига бўлган қарашлар қайта мулоҳазадан ўтказилган.

Креативлик муайян босқичларда изчил шакллантириб ва ривожлантирилиб борилади. Бўлажак офицерларнинг креативлик сифатларига эга бўлиши уларнинг шахсий қобилиятлари, табиий ва ижтимоий қувватини касбий фаолиятни сифатли, самарали ташкил этишга йўналтиради. Уларнинг креативлик сифатларига эга



бўлишлари уларда ўқув ва тарбия жараёнларини ташкил этишга анъанавий ёндашишдан фарқли янги ғояларни яратиш, бир қолипда фикрламаслик, ўзига хослик, ташаббускорлик, ноаниқликка тоқат қилмасликка ёрдам беради. Бинобарин, креативлик сифатларига эга курсант ўз фаолиятини ташкил этишда ижодий ёндашиш, янги, илғор ўқув фаолиятини, шахсий сифатларини ривожлантиришга хизмат қиладиган ғояларни яратишда фаоллик кўрсатиш, замонавий фанлардаги илғор ютуқ ва тажрибаларни мустақил ўрганиш, шунингдек, ҳамкасblлари билан доимий, изчил фикр алмашиш тажрибасига эга бўлишга эътибор қаратади. Одатда курсантларнинг креативлик қобилиятига эга бўлишлари ўз касбий фаолиятидаги муаммоларни ҳал қилишга интилиш, илмий-тадқиқот ишлари ёки илмий лойиҳаларни амалга ошириш ва ўзаро ижодий ҳамкорликка эришишлари орқали таъминланади.

Хулоса қилиб айтганда, **биринчидан**, ижод бу мураккаб жараён шу сабабли инсонга хос бўлган креатив тафаккурни шакллантиришда бу ҳодиса алоҳида аҳамият касб этади. Креатив тафаккур бу мустақиллик ва танқидий фикрлаш, турли даражадаги муаммоларни ўзига хос тарзда ечиш демакдир. Креатив тафаккур бу инсонлар томонидан умумий тарзда қабул қилинган қарорларга ўзгача муносабат билдириш ёки бу борада кўплаб муқобил фикрларни илгари суриш қобилияти, таваккал қилишга тайёрлик, ахборотни тезлик билан қайта ишлаш қобилиятининг мавжудлигидир.

Иккинчидан, ҳарбий кадрларни тайёрлаш кўп жиҳатдан офицерларнинг креатив тафаккурини шакллантириш жараёни ва ривожланиш истиқболлари билан белгиланади, бу эса ўз навбатида жамиятни ривожлантиришнинг ижтимоий-иқтисодий шароитлари, замонавий ҳарбий-техник тараққиёт, ҳозирги даврда ҳарбий ишланмаларнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари билан характерланади.

Учинчидан, ҳарбий ўқув юртларида офицерларни тайёрлаш уларнинг умумий маълумот даражаси, маданияти, интизоми, ҳарбий-касбий билим, кўникма, ижодий фикрлаш қобилиятига эгаллиги ва зарурий ахлоқий ва жанговар фазилатларни



шакллантириш жараёнидир. Ушбу муаммоларнинг ечими ҳарбий хизматчи фаолиятидаги креатив тафаккурни шакллантириш билан боғлиқ ҳолда намоён бўлади.

Тўртинчидан, олий ҳарбий мактаб бу нафақат олий умумий маълумот ва касбий тайёргарлик мактаби, балки бу, энг аввало, курсантларда кенг дунёқарашни шакллантириш, бой тасаввурларни юзага келтирадиган, мақсадга мувофиқ фаолият юритишга ундайдиган, ижодий фикрлаш маданиятини шакллантирувчи ўзига хос таълим масканидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
2. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - Б.14.
3. <http://uza.uz/uz/politics/Qurolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-barqarorligi-va-taraqqiyetini-11-01-2018>.
4. Иванов А.И. Взаимодействие рационального и иррационального в воинской деятельности: Автореф. дис. ...канд. филос. наук,- М., 1997.-С.16-17.
5. Крупное С.И. Логико-методологический анализ военно-научных знаний: Автореф. дис. .д-рафилос. наук. - М., 1971. -59 с.
6. Клягин С.В. Динамика образов науки в военно-социальных исследованиях. - М.: ВУ, 1998. - С.26-30.

ЖАДИД АДИБЛАРИНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИДА ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАРИ

Хаитов Баҳодир Турсунович

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти

Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада юртимизда маънавий-маърифий соҳада олиб борилаётган ислохотлар, ёшларга таълим-тарбия бериш масалалари, уларни ҳар томонлама етук ва баркамол инсонлар қилиб тарбиялаш масаласига алоҳида тўхталиб ўтилган. Шунингдек, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш учун маърифатпарвар бобомиз Абдулла Авлоний ва М.Бехбудийнинг қарашлари берилган бўлиб, улар асосида тегишли хулосалар берилган. Фарзанд тарбиясига лоқайдлик билан муносабатда бўлмаслик лозимлиги алоҳида ўқтирилган.

Таянч сўзлар: маънавий-маърифий ислохотлар, жадидчилик ҳаракати, таълим-тарбия, баркамол авлод, А.Авлоний, М.Бехбудий, яхши хулқ, миллат келажаги, халқ қаҳрамонлари.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проводимые в нашей стране реформы в духовно-образовательной сфере, вопросы образования и воспитания молодежи, их воспитания как вполне зрелых и разносторонне развитых личностей. Также даны взгляды нашего просвещенного предка Абдуллы Авлони и М.Бехбуди на воспитание молодежи в духе патриотизма, на основании которых были сделаны соответствующие выводы. Также подчеркивается, что воспитанием детей нельзя пренебрегать.

Ключевые слова: реформы в духовно-образовательной, движение жадидов, воспитание-образование, А.Авлони, М.Бехбуды, хорошие поведение, будущее нации, народные герои.

Мамлакатимизда ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларда миллий маънавиятга ҳурмат, миллий ва умуминсоний қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаш масаласига алоҳида эътибор бериб келинган ва келинмоқда. Уларни маънан етук, жисмонан



соғлом, баркамол авлод сифатида вояга етказиш масаласи ҳар қачонгидан ҳам юқори даражага кўтарилиб бормокда.

Шу билан бир қаторда уларни тўғри йўлдан оздирадиган, ўзларининг ёвуз ва ғаразли мақсадларини илгари сураётган турли гуруҳлар фаолиятдан ҳам огоҳ бўлишимиз, уларнинг домига тушиб қолмасликка ҳаракат қилишимиз даркор. Уларнинг ҳаракатлари, илгари сураётган қарашлари натижасида бутун инсоният маънавий таназзулга учрамокда. Маънавий таназзул муаммоси бутун башариятни (аниқроғи онгли башариятни) ташвишга солганига анча бўлди. Ғарбда ҳам, Шарқда ҳам бу борада жуда кўп фикрлар билдирилмокда, мулоҳазалар илгари сурилмокда.

Мамлакатимизда 2016 йил янги таҳрирда қабул қилинган “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун, 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқининг ташкил этилиши юртимизда ўсиб-униб келаётган ёш авлодни ҳар томонлама баркамол инсонлар этиб тарбиялаш масаласига алоҳида эътибор қаратилган.

Муқаддас ҳадиси шарифларда “Ватанни севмоқ иймондандир” дейилган. Яъни иймони бут, виждони пок ҳар бир инсон Ватанини севади, уни ғанимлар кўзидан асрайди, унинг озодлиги ва ҳурлиги учун доимо курашади. Ҳар бир баркамол инсон Ватан камолоти ва истиқболи, эл-юртнинг озодлиги ва ободлиги, мустақиллиги учун ҳамма нарсани, ҳатто ширин жонини ҳам аямайди. Машҳур мутафаккир Мавлоно Фузулий шундай дейди: “Менинг битта ҳаётим бор, борди-ю мингта ҳаётга эга бўлган тақдиримда ҳам ҳаммасини Ватан учун сарфлаган бўлар эдим”.

XX аср бошларида фаолият олиб борган жаидларимиз ёшларни билимли, маърифатли, ўз халқига хизмат қиладиган, ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялаш масаласига алоҳида эътибор қаратганлар. Жумладан, улар томонидан янги усул мактаблари ташкил этилди, кўплаб газета ва журналлар чоп этирилди, миллий театр фаолиятини йўлга қўйдилар. Ўзларининг қатор асарларида ёш авлодга тўғри тарбия ва таълим беришда нималарга эътибор бериш керак эканлигига алоҳида урғу берганлар.



Улар қаторида “�ўрта Осиё жадиdlарининг отаси” номи билан танилган Махмудхўжа Беҳбудий (1875-1919) ва машхур педагог, маърифатпарвар аллома Абдулла Авлоний (1878-1934) алоҳида ажралиб туради.

М.Беҳбудий – драматург, публицист, дин ва жамоат арбоби сифатида танилган. Бир неча марта Арабистон, Миср, Туркия ва Россиянинг йирик шаҳарларига саёҳатга чиқади. Саёҳатлари давомида янги усул мактаблари билан танишади, татар зиёлилари билан алоқани йўлга қўяди. Самарқандда Сиддиқий Ажзий ва Абдулқодирий Шакурийлар билан биргаликда янги усул мактабларини ташкил этади.

Янги мактаблар учун «Рисолаи асбоби савод» («Савод чиқариш китоби», 1904), «Рисолаи жуғрофияи умроний» («Аҳоли географиясига кириш», 1905), «Мунтахаби жуғрофияи умумий» («Қисқача умумий география», 1906), «Китобат ул-атфол» («Болалар хати», 1908) каби дарсликлар чоп этиради.

М.Беҳбудий 1913-йилда “Самарқанд” газетасини ва “Ойина” журналинн чиқара бошлади. У нашриёт ва ўз номи билан аталувчи кутубхона ташкил этган. Газета ва журналда миллат ва ана юрт дарди, халқни маърифатли қилиш, эркинлигини таъминлаш масалаларига бағишланган долзарб мақолалар чоп этиларди. Улар Россия империяси тасарруфидаги туркий халқларга, Эрон, Афғонистон, Ҳиндистон, Туркиягача бориб етарди. [5-227]

А.Авлоний ўз қарашларини ўзи томонидан нашр этилган “Тараққий”, “Шухрат”, “Осиё” каби газеталар орқали халққа етказишга интилган. Ушбу газеталар нашр этилиши тақиқланганидан сўнг бир неча янги усул мактабларини ташкил этган ва ўзи ҳам ушбу мактабларда дарс берган. Шу билан биргаликда мактаблар учун бир неча дарсликлар чоп эттирган. Жумладан; “Биринчи муаллим”, “Иккинчи муаллим”, “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” кабилар. Авлоний томонидан ташкил этилган мактабларда болаларга таълим-тарбия беришда уларга ҳам замонавий билимлар бериш, ҳам миллий ахлоқий масалаларга алоҳида эътибор қаратилганлиги билан ажралиб туради. Шу билан биргаликда, билим олишга имкони бўлмаган, ота-онасиз

болаларнинг билим олиши, савод чиқаришига бевосита ёрдам бериш мақсадида 1909 йил “Жамияти хайрия” ташкилотини ташкил этганлиги муҳим аҳамиятга эга.[4-73]

Беҳбудий ва Авлоний ўз асарлари орқали ёш авлодни билим олишга, ўз ватанига муносиб хизмат қилишга чақиради. Тўғри тарбия ва таълим орқали ҳар қандай муаммони ечиш мумкинлигини содда ва равон тилда баён этиб беради. “Ҳар бир миллатнинг саодати, давлатларнинг тинч ва роҳати ёшларнинг яхши тарбиясига боғлиқдир”, дейди Авлоний. [3-36]

“Ватанимизнинг келажаги, халқимизнинг эртанги куни, мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътибори авваломбор фарзандларимизнинг униб-ўсиб улғайиб, қандай инсон бўлиб ҳаётга кириб боришига боғлиқдир”, деган эди Биринчи Президентимиз. [1-3]

А.Авлоний бобомиз ўз ватанини севадиган, ардоқлайдиган ёшларни яхши хулқ соҳиби сифатида кўради. Яхши хулқ сифатида эса қуйидагиларни алоҳида таъкидлаб ўтади: диёнат, ғайрат, қаноат, шижоат, илм, сабр, интизом, виждон, ватанни суймак ва бошқалар.

Яхши хулқлар соҳиби бўлган фарзандларимиз ўз ватанларини нафақат авайлаб-асрашлари, балки шу юрт равнақи учун хизмат қиладиган, унинг ривожланиши учун ўзининг бор имкониятларини сарфлайдиган инсонлар бўлиб вояга етиши шубҳасиз.

Маърифатпарвар бобомизнинг қуйидаги фикрларига эътибор беринг: “Ёшликдан бошлаб зеҳн ва идрокимизни қувватландурмак учун азиз умримизни ўйин-кулгу, сафсата моляъни (маъносиз) каби беҳуда сўзлар ила ўткармай, ҳар хил китоб, ғазита ва журнолларни ўқуб, фикримизни очмоқ, зеҳнимизни қувватландурмак лозимдур”. [3-60]

Шундай экан, ҳақиқий ватанпарвар инсонларни тарбиялашдаги энг муҳим омиллар сифатида ёшларимизни бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш масаласига алоҳида эътибор беришимиз зарур.

Бехбудий ўқувчиларнинг ўз Ватанлари тарихини ўрганишларига алоҳида эътибор беради. Бу уларнинг миллий онгини уйғотишга, жамиятни этник жиҳатдан бирлаштиришга хизмат қилади деб ҳисоблайди. “Ўз уруғи отини билмаган, етти отасини танимаган кул – манқуртдир!” деган сўзлари миллий ўзликни англашда муҳим аҳамиятга эга. [5-226]

Жадид адибларининг қарашларини умумлаштириб, ёшларимизни ватанпарвар инсонлар қилиб вояга етказиш учун қуйидагиларга алоҳида аҳамият қаратилганлигини таъкидлаш жоиз:

Биринчидан: ҳар бир ота-она фарзанд тарбиясида чуқур масъулиятни англаган ҳолда эътибор қаратиши зарур;

Иккинчидан: мактабгача таълим муассасалари ва умумий ўрта таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган тарбиячилар ҳамда педагогларимиз ҳар бир боланинг қобилият ва истеъдодини юзага чиқаришда жонбозлик кўрсатишлари, шунингдек, ҳар бир болага бўлажак шахс сифатида қарашлари керак;

Учинчидан: ота-оналар ўз фарзандларини ёшликдан жисмонан бақувват ва кучли қилиб тарбиялаш учун уларга соғлом турмуш тарзига, шахсий гигиенага ва ўз вақтида тўғри овқатланишга маъсулият билан етарлича шарт-шароит яратиб бериши лозим;

Тўртинчидан: ёшларимизни ўз Ватани тарихи билан яқиндан таништириш мақсадида музейларга, тарихий шаҳарларга саёҳатларга олиб бориш муҳим аҳамиятга эга эканлиги таъкидланади.

Бешинчидан: етарли таълим олишга имконияти йўқ иқтидорли болаларни ўқитишни давлат ва жамият ўз қарамоғига олиб, уларга барча шарт-шароитларни яратиб бериши кераклигини уқтиради.

Шу нарсани унутмаслик лозимки, оилада, таълим муассасаларида, жумладан, мактабгача таълим ва умумий ўрта таълим тизими – ёшларимизни ҳар томонлама ўсиб-улғайишларида ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли ҳам айнан шу



даврда ёшларни бўш вақтларини тўғри тақсимлаш, уларни бўш вақтларини мазмунли ўтказишлари учун етарли имконият яратиб бериш муҳим омил ҳисобланади.

Биз бугун ниҳол экиб, эртаси куни ундан мева беришни талаб қилолмаймиз. Ниҳолни эккандан сўнг уни эътибор билан парвариш қилишимиз, вақтида тагини юмшатишимиз, сувини қуйишимиз, ёзнинг иссиқ, қишнинг совуқ кунларидан асраб-авайлашимиз керак. Шундагина, у бизга кутилган натижани беради.

Шу сабабли ҳам фарзанд тарбиясига фақат бир киши ёки қайсидир ташкилот ёхуд муассасанинг иши сифатида қараш мутлақо нотўғри. Бугун биз тарбиялаётган ёшлар жамиятимизнинг, ватанимизнинг эртанги эгаларидир. Уларга ҳар биримиз, ким бўлишимиздан, қайси соҳада фаолият олиб боришимиздан қатъий назар, ҳеч қачон лоқайдлик билан муносабатда бўлмаслигимиз керак. Чунки, “ҳар бир миллатнинг тараққий ва таолийси ёшларнинг илм ва маърифатига, ҳунар ва санъатига боғлиқдур”. [3-50]

Хулоса қилиш мумкинки, бугунги Ўзбекистон ёш авлод вакили Тўмарис, Широқ, Спитамен, Муқанна, Темур Малик, Нажмиддин Кубро, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Мирзо Бобур сингари саркардалар, Хоразмий, Ибн Сино, Беруний, Фарғоний, Бухорий, Термизий ва бошқа кўплаб буюк аждодларимизнинг муносиб давомчилари бўлишларини истасак бугун уларнинг маънавий-ахлоқий тарбиясига ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ аҳамият беришимиз даркор.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият. 2016 й
2. А.Авлоний. Танланган асарлар. 1-жилд. Т.: Маънавият. 2006 й
3. А.Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. Т.: Маънавият. 2006 й
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000 й.



5. Қ.Усмонов, М.Содиқов, С.Бурхонова. Ўзбекистон тарихи. Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”. 2016 й

HARBIY JAMOANI JANGOVAR HOLATGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Rajabov Voxidjon Normurotovich
Chirchiq Oliy Tank Qo'Mondonlik Muhandislik Bilim Yurti
Gumanitar Fanlar Kafedrasida Katta O'Qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlashda psixologik amallarning o'zni, harbiy shaxsda mujassamlashuvi lozim bo'lgan xususiyatlar va ularning harbiy faoliyat va jang va boshqa psixologik tang, stres holatlarda namoyon bo'lishlari kabi holat va sifatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy faoliyatda shaxsning psixologik xususiyatlari, harbiy shaxsning psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishi, harbiylarning shaxsiy psixologik xususiyatlari.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari doimo o'z faoliyatini davlatimiz strategik hujjatlari asosida ishlab chiqiladi. Ushbu talablarga asosan har bir quyi harbiy jamoa o'z meyoriy normativ hujjatlarini ishlab chiqadi va ularga kundalik faoliyatlarida harbiylarcha aniq va puxta amal qiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining (2016 yil 14 sentabrdagi O'RPQ-406 Qarori) "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" bo'lib harbiy askarlar va umuman shaxsiy tarkibni jangovar holatga tayyorlashda asosiy hujjatlardan biriga aylandi. Bundan tashqari, Prezidentimizning harbiylar faoliyati bilan bog'liq ko'plab ma'ruzalari va hujjatlari harbiylarimiz uchun doimiy asosiy ta'lim va tarbiyani, shaxsiy tarkibni jangovar ruhda tarbiyalashda yo'l ko'rsatuvchi hujjatlar hisoblanadi [1].

Jumladan, davlatimizning 2021 yil 3 fevraldagi 2017-2021 illarda yoshlarga qaratilgan mamlakat taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi, 2018 4 avgustdagi № 3898 Qarori va boshqa meyoriy hujjatlar O'zbekiston harbiylari shaxsiy tarkibini vatanparvarlik ruhida tayyorlashda asosiy meyoriy hujjatlar hisoblanadi va ularga amal qilinadi [2].

Harbiy yoshlarda vatanga xizmat qilish maylini shakllantirish, ya'ni ularda harbiy xizmatga moyillik uyg'otish asosiy vazifadir. Moyillikning asosiy mazmun-mohiyati harbiy xizmat maqsadi va shaxsiy tarkib va alohida harbiy shaxsning manfaatlarini



uyg'unlashtiritedan iborat bo'lib, aynan shu mas'uliyatli vazifa, odatda harbiy tarbiyachi rahbarlar zimmasiga yuklanadi.

Harbiy psixologiyada harbiylarning ruhiy tayyorgarligi deganda - harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy, psixologik tayyorgarligining tarkibiy qismi shaxsiy tarkibni ma'naviy va ruhiy jihatdan uzluksiz tayyorgarlik amallari tushuniladi.

Mudofaa tizimi shaxsiy tarkibining ruhiy tayyorgarligi deganda biz butun harbiylarimizning murakkab sharoitlarda, stress-faktorlar bilan kechadigan jangovar vaziyatlarda ular oldiga qo'yilgan vazifalarning muvoffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan ruhiy psixologik sifatlarini va shaxsdagi ruhiy psixologik barqarorlik, jangovar ruh shakllantirilganligi tushuniladi.

Shaxsiy tarkibda ruhiy, psixologik tayyorgarlikning maqsadi-harbiy xizmatchilarda jang, jangovar holatlar vaziyatida emotsional-irodaviy barqarorlikni va jangovar vaziyatda ruhiy psixologik boshqaruv va boshqaruvchanlikni shakllantirish hisoblanadi.

Tabiiyki, jangovar faoliyat o'quv-jangovar faoliyatidan har doim farq qilgan va jangovarlik holatga tayyorlash esa har doim askarlarni, harbiy tarkibni aynan mana shu jangovar holatga tayyorlashdir. Bu holat avvalo xavfliligi, keskinligi, psixologik jihatdan o'ta tangligi, vaziyatning shiddat bilan kutilmagan tarzda rivojlanuvchi va o'zgaruvchanligi va bir qator boshqa omillari bilan farqlanadi [3].

Jangovar vaziyatlarni belgilovchi ruhiy xususiyat va asosiy omil sifatida xavflilik e'tirof etilgan. Xavflilik - shaxsning sog'ligi va hayotiga nisbatan tahdidni anglab yetish demakdir. Boshqa ta'sirlarning darajasi xavfning darajasiga bog'liq. Shu bilan birga insonning xavfga bo'lgan reaksiyasi turli xil bo'lishi mumkin: ongli, beixtiyor, impulsiv, bevosita, reaksiya sxemasiga to'g'ri keladigan holat. Xavflilikka nisbatan bo'lgan reaksiyaning xarakteriga qarab hulq-atvor ham sifatlanadi: birinchi holatda u ongli ravishda boshqariladi, ikkinchi holatda - vaziyatli yoki impulsiv bo'lishi mumkin, ya'ni to'liq yuzaga kelgan vaziyatga bog'liq bo'ladi.



Jangovar vaziyatning asosiy ko'rsatgichi xavflilik, o'zgaruvchanlik bilan bir qatorda kutilmagandalik o'ziga xosdir. Aqlli va makkor dushman jangda raqibning jangovar shayligini tushirish uchun albatta kutilmagandalik tamoyilidan foydalanadi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy tayyorgarligi davomida kutilayotgan jangovar harakatlarning o'ziga xosliklari va sharoitlari, uni bajarish davomidagi qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari haqida batafsil ma'lumot berilishi kerak.

Raqibning harakat qilish taktikasini va jangovar imkoniyatlarini batafsil o'rganish va ushbu ma'lumotlarni shaxsiy tarkibga o'z vaqtida yetkazish zarur. Aynan ushbu omillar harbiy xizmatchilarda kutilmaganlik va to'satdan yuzaga keladigan vaziyatlar ehtimolining kamayishiga, hatto butunlay bartaraf bo'lishiga yordam beradi [4].

Jangovar tayyorgarlik davomida harbiy xizmatchilarda kerakli ruhiy psixologik sifatlarni shakllantirishning yo'llari va usullari turlicha bo'lishi mumkin. Ularga ba'zi hollarda uzluksiz takrorlashlar orqali erishilsa, boshqa vaziyatlarda bir necha bor takrorlash orqali ham kerakli natijalarni egallash mumkin.

Jangning shaxs ruhiyatiga jiddiy ta'sir qiluvchi omillarini yaratish uchun jangovar vaziyatni modellashtirish, buning uchun esa harbiylarda tasavvur kuchini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan omillarning barchasi, ayniqsa harbiy shaxsning ruhida Vatan oldidagi burchni his qilish, buning uchun esa unda harbiy vatanparvarlikdan tashqari harbiy hamdo'stlikni, o'z safdoshlariga ishonch ruhini tarbiyalash va bu tushuncha va ko'nikmalarni ularning jangovar, stres holatlarda qo'llashlarini ruhlariga singdirish shaxsiy harbiy tarkibning jangovarlik ruhini ko'taribgina qolmay ularda ko'tarinki jangovarlik ruhining namoyon bo'lishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi O'RPQ-406 "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gaz. 276 - soni. 2020 yil 30.12.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nilishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida. Xalq so'zi gaz. 2021 yil 4 fevraldagi 25 - soni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi. Vatanparvar gaz. 2 - soni. 2021 yil 15.01.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**NUKUS SHAHAR XALQ TA'LIM BO'LIMI TASARRUFIDAGI 50-
SONLI UMUMTA'LIM MAKTAB TEXNALOGIYA FANI
O'QITUVCHISI**

PALUONOVA MEXRIBANÍM AYAPBERGENOVNANING

"ROBOTLAR VA ROBOTOTEXNIK TIZIMLAR"

MAVZUSIDAGI METODIK TAVSIYASI

Tuzuvchi;

Nukus shaxri 50-maktab

Texnologiya fani o'qituvchi

Paluanova Mexribanim Ayapbergenovna

Taqrizchi;



*Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi
bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak*

ROBOTLAR VA ROBOTOTEXNIK TIZIMLAR

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohatlar, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga muvofiq kadrlarni sifatli o'qitish va tarbiyalash, mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi zamon yuqori texnologiyalarida sanoat robotlari va robototexnika tizimlari keng qo'llanilmoqda. Robotlar, robototexnik va moslashuvchan ishlab chiqarish sistemalari ishlab chiqarishni rivojlantirishning texnik asoslari hisoblanadi. Hozirgi zamon yangi texnologiyalarida robotlar va robototexnik sistemalarni qo'llash yildan yilga oshib bormoqda. Ular yordamida yangi texnologik jarayonlar o'zlashtirilmoqda, odamlarni toliqtiradigan, bir xil, og'ir qo'l mehnatidan sog'liqlari uchun zararli va xavfli ishlardan ozod qilinmoqdalar.



“Robot” so‘zi birinchi marotaba 1920 yilda chex yozuvchisi K. Chapekning “RUR” (Rossum universal robotlari) pesasida ishlatilgan. Robot tushunchasi keng doiradagi turli sistemalar va qurilmalar bilan bog‘liq. Robotning turli xil avtomatik sistemalar va qurilmalardan asosiy farqi, unda odam harakatlariga o‘xshash harakatlar qila oladigan organning ya’ni mexanik qo‘l (manipulyatorlar) ning borligi va u yordamida robot tashqi

muhitga ta'sir qilish imkoniyati borligidir. Robot odam o'rniga turli xil manipulyatsiyalarni qila oladigan mashina – avtomatdir.

Robotlar manipulyatorlar deb ataladigan mashinlar sinfiga kiradi. Manipulyatorlar – ko'p zvenolardan iborat mexanizm bo'lib, odam qo'li harakatlarini imitatsiya qilishga mo'ljallangan qurilmadir, u masofadan operator yoki programmali boshqarish sistemasi tomonidan boshqariladi.

Sanoat roboti (SR) - ishlab chiqarish jarayonida harakat va boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan bir nechta xarakatlanish darajasiga ega bo'lgan manipulyator ko'rinishidagi ijro qurilmasidan hamda qayta dasturlanuvchi dasturiy boshqaruv qurilmasidan tashkil topgan statsionar (qo'zg'almas) yoki ko'chma avtomatik mashina.

Texnik adabiyotda bundan ham qisqaroq ta'rif uchraydi: Sanoat roboti (SR) - sanoatda ishlatishga mo'ljallangan qayta dasturlanuvchi avtomatik manipulyator. Robototexnik tizim deb, shunday texnikaviy tizimga aytiladiki, unda energiya, massa va axborotlar bilan bog'liq o'zgartirishlar va aloqalar sanoat robotlaridan foydalanilgan holda aks etadi.

Sanoat robotlari tomonidan o'rnini bosa oladigan funksiyalari va ular bajara oladigan operatsiyalarga ko'ra robotlashtirilgan texnologik majmua va robotlashtirilgan ishlab chiqarish majmualari farqlanadi. Bitta sanoat roboti o'zaro harakatda bo'ladigan bir yoki bir nechta texnologik jihozlardan hamda majmua ichidagi ishning to'la avtomatik siklini va boshqa ishlab chiqarishlarning kirish va chiqish oqimlari bilan aloqalarni ta'minlovchi yordamchi jihozlar yig'indisidan iborat ishlab chiqarish vositalarining avtonom harakat qiluvchi to'plamiga robotlashtirilgan texnologik majmua deyiladi.



Yig'ish, payvandlash, bo'yash kabi texnologik jarayonlarga oid asosiy operatsiyalarni bajaruvchi bitta sanoat robotidan hamda majmua ichidagi texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan siklini to'la ta'minlovchi yordamchi jihozlar yig'indisidan iborat avtonom harakat qiluvchi ishlab chiqarishning texnologik vositalari to'plamiga robotlashtirilgan ishlab chiqarish majmuasi deyiladi. Sanoat robotining ijro qurilmasi – robotning harakat funksiyalarini bajaruvchi qurilma. Uning tarkibiga manipulyator (M) va boshqarish qurilmasi (BK) kiradi.

Sanoat roboti manipulyatorining ishchi a'zosi (organi) – robotning tashqi muhit bilan bevosita o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi qurilma bo'lib, odatda qisqichlash qurilmasi yoki ishchi asbobni bildiradi. SRning boshqarish qurilmasi - berilgan programmaga ko'ra ijro qurilmasiga boshqaruvchi ta'sirlarni shakllantirish va chiqarib berish uchun mo'ljallangan.

SRning o'lchov qurilmasi - boshqarish qurilmasi uchun robot va tashqi muhit holatlariga oid informatsiya yig'ishni amalga oshiradi. Xizmat ko'rsatuvchi sanoat roboti -

yordamchi o'tish va transport operatsiyalarni bajaruvchi robotdir. Masalan, yuklovchi – yuk tushiruvchi va transport robotlari.



Operatsion SR – texnologik operatsiyalar va ularning elementlarini, masalan, payvandlash, yig'ish, bo'yash va shunga o'xshash operatsiyalarni bajaruvchi robotdir. Ishlab chiqarishni robotlashtirish – robotlardan keng ko'lamda foydalanuvchi yangi texnologiyalar, yangi jihozlarni yaratish hamda ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish prinsiplarini ishlab chiqish.

SRni dasturiy boshqarish – sanoat robotining ijro qurilmasi hamda u bilan ishlayotgan texnologik jihoz ustidan avtomatik boshqarish. Ishchi fazo (atrof) – SR ning ishlash jarayonida robot manipulyatori ishchi organi harakatda bo'la oladigan fazo.

SR ishchi zonasining geometrik xarakteristikasi – robot ishchi zonasining chiziqli yoki burchak o'lchovlari, kesim yuzasi yoki hajmi, yoki ularning birgalikda olingan to'plami. SRning bazaviy koordinatalari sistemasi – robot ishchi zonasining geometrik xarakteristikalar beriladigan koordinatalar sistemasi.



SRning xarakatchanlik darajasi soni - SR manipulyator kinematik zanjirining erkinlik darajasi soni hamda robot harakat qurilmasining erkinlik darajasi soni bilan aniqlanadi.

SRning nominal yuk ko'tarish qobiliyati - ishlab chiqarish predmeti yoki ishchi asbobning qisqichlab, ushlab turilishi kafolatlangan massasining eng katta qiymati bilan xarakterlanadi. Ishchi organining pozitsiyalashtirish xatoligi – ishchi organ pozitsiyasining boshqarish programmasi tomonidan berilgan holatiga nisbatan chetlanishi. SRning pozitsiyalashtirilgan boshqarilishi – robot ijro qurilmasining harakatini vaqt bo'yicha ishchi fazo nuqtalarining oralarida nazorat qilmagan holda shu nuqtalarning tartiblangan chekli ketma – ketligi orqali programmalashtiruvchi programmaviy boshqarish turi. SRni siklli boshqarish – nuqtalar ketma – ketligini rele turidagi harakat qurilmalari yordamida programmalashtiruvchi robotni pozitsion boshqarish turi (ost sinfi).

SRni konturli boshqarish - robotlarning sinalayotgan qurilmalari harakatini ishchi fazoda tezlik bo'yicha uzluksiz nazorat qilgan holda traektoriya shaklida programmalashtiruvchi boshqarishning programmaviy turi. SRni adaptiv boshqarish – boshqarish algoritmini bevosita boshqarish jarayonida tashqi muhit va robot holatlari funksiyasiga bog'liq holda o'zgartirib turadigan boshqarish turi. SRLarini guruhlab boshqarish – odatda EHM asosida boshqarishning umumiy sistemasiga birlashtirilgan bir nechta robotlarni boshqarish jarayoni. SRLarni programmalash (dasturlash) – sanoat robotini boshqaruvchi programmani tuzish, uni boshqarish qurilmasiga kiritish hamda sozlash jarayonlari. SRni o'qitish – odam operator tomonidan robotning foydalanayotgan qurilmasi harakatini oldindan boshqarish va bu harakat parametrlarini boshqarish qurilmasiga joylash orqali robot harakatini programmalash jarayoni.

Sanoat robotlari quyidagi xususiyatlari bo'yicha sinflanadi: funksional vazifasi; maxsusligi; yuk ko'tarish qobiliyati; yuritma turi; manipulyatorlar soni; harakatlanish joylashtirish usuli; koordinata sistemasining turi; programmalash usuli va boshqalar . Universal robotlar turli xil operatsiyalarni bajarishga va har xil jihozlar bilan birga ishlashga

mo'ljallangan. Maxsuslashgan robotlar ma'lum bir aniq operatsiyani bajarishga mo'ljallangan. Masalan, payvandlash, yig'ish, bo'yash operatsiyalari. Maxsus robotlar faqat bir konkret operatsiyani bajaradi. Masalan, texnologik jihozning konkret modeliga xizmat qiladi. Robotlar bajaradigan texnologik operatsiyaning turiga qarab asosiy texnologik operatsiyani bajaruvchi robotlar (masalan, texnologik payvandlash, bo'yash, yig'uv operatsiyalari) va yordamchi texnologik operatsiyani (masalan, olib – qo'yish operatsiyasi) amalga oshiradigan robotlarga bo'linadi. Robotning yuk ko'tarish qobiliyati manipulyatsiya qilinayotgan ob'ektning massasi bilan aniqlanadi va robotning bajaradigan vazifasiga bog'liq bo'ladi, hamda bir necha grammdan to bir necha ming kilogrammgacha bo'lishi mumkin. Sanoat robotlari yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi: o'ta yengil – 1 kg gacha, yengil – 10 kg dan 200 kg gacha, og'ir – 200 kg dan 1000 kg, o'ta og'ir – 1000 kg dan yuqori [1, 5]. Robotlarda qo'llaniladigan yuritmalar pnevmatik, gidravlik, elektrik va aralash yuritmalar guruhlariga bo'linadi.



Yuqori yuk ko'tarish qobiliyati robotlarning zvenolarida gidravlik yuritmalar, manipulyator qisqichlarda esa sodda, kichik quvvatli pnevmatik yuritmalar ishlatiladi. Ko'pincha robotlarda bitta manipulyator bo'ladi (bir qo'lli robotlar), ammo robotning vazifasiga qarab robotlarda ikkita, uchta va to'rtta manipulyator (ikki qo'lli, uch qo'lli, to'rt qo'lli robotlar) bo'lishi mumkin. Erkinlik darajalar soni n bo'yicha robotlar quyidagi



turlarga bo'linadi: $n = 2$; $n = 3$; $n = 4$; va $n > 4$. Robotning harakatlanish imkoniyati unda harakatlanish qurilmasi borligi yoki yo'qligi bilan aniqlanadi. Birinchi holda ularni harakatlanuvchi robotlar va ikkinchi holda statsionar robotlar deb ataladi.

Joylashtirish usuli bo'yicha robotlar yerda joylashgan, osma va o'rnatilgan (biror bir jihozga o'rnatilgan) turlarga bo'linadi. Robotlarda quyidagi koordinata sistemalari qo'llaniladi: to'g'ri burchak (dekart), silindrik, sferik va angulyar (burchak). Robotlarda quyidagi programmalash usullari qo'llaniladi: intellektni modellash, o'rgatish va tashqi programmalash.

Hozirgi vaqtgacha sanoat robotining umumiy qabul qilingan ta'rifi yo'q. Turli mamlakatlarda sanoat robotining har xil ta'riflari taklif qilingan. Sanoat roboti deb, ishlab chiqarish jarayonida harakat va boshqaruv funksiyalarini bajarish uchun mo'ljallangan bir necha harakatlanish darajasiga ega bo'lgan manipulyator ko'rinishidagi ijro qurilmasidan hamda qayta dasturlanuvchi boshqarish qurilmasidan tashkil topgan, odam harakatiga o'xshash harakatlarni amalga oshiruvchi avtomatik mashinaga aytiladi. Sanoat robotining manipulyatori deb, yuritmalardan, ularni boshqaradigan boshqarish sistemasidan tashkil topgan ijro qurilmasiga aytiladi. Sanoat robotining kerakli barcha harakat funksiyalarini bajaruvchi qurilmaga ijro qurilmasi deb aytiladi. Manipulyator umuman ko'p zvenoli ko'rinishdagi ishchi qurilmalardan (IQ), ishchi organdan (IO), har bir zvenoning yuritmasidan tashkil topadi. har bir yuritma o'z boshqarish konturiga ega. Robot boshqarish qurilmasining boshqarish signali yuritmalarni boshqarish qurilmasiga yuboriladi va manipulyatorning ishchi qurilmalarini harakatga keltiriladi. Sanoat robotining ishchi organi manipulyatorning tashkiliy qismi bo'lib, texnologik operatsiyalovchi yoki yordamchi o'tishlarni to'g'ridan - to'g'ri bajarishga xizmat qiladi.

Manipulyatorning ishchi qurilmasi va ishchi organlari ijro dvigatellaridan, uzatish mexanizmlaridan, korreksiyalovchi zvenolardan va datchiklardan tashkil topadi va manipulyatorning yuritma qurilmalari deb ataladi. Yuritmalarning boshqarish qurilmasi (YuBQ) boshqaruv qurilmasining signallarini o'zgartiradi va elektromagnit klapanlar,

membranali kuchaytirgichlar va boshqalar ko'rinishida bo'ladi.



Sanoat robotining harakatlanish qurilmasi ijro qurilmasining tashkiliy qismi bo'lib, manipulyator yoki robotning umuman harakatlanishini amalga oshiradi. Sanoat robotining boshqarish qurilmasi (BQ) boshqarish programmasi asosida ijro qurilmasiga boshqaruvchi ta'sirlarni shakllantirish va berishga xizmat qiladi.

Sanoat robotlarining texnik xarakteristikalarini quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) nominal yuk ko'tarish qobiliyati (kg);
- 2) ko'rsatilgan koordinatada o'rin olish xatoligi (mm);
- 3) ishchi zonaning o'lchamlari va shakli;
- 4) maksimal siljish (mm; grad);



- 5) siljish vaqti (s);
- 6) maksimal tezlik (m/s; grad/s);
- 7) maksimal tezlanish (m/c^2 ; grad/s²);
- 8) to'g'ri va teskari siljishlar uchun programmalashtiriladigan nuqtalar soni;
- 9) qisqich qurilmasi ko'rsatkichlari: qisish kuchi (N); qisish vaqti (s);
- 10) boshqarish qurilmasining ko'rsatkichlari: bir vaqtning o'zida boshqariladigan harakatlar soni; tashqi jihozlar bilan aloqa kanallari soni (kirishda va chiqishda);
- 11) suyuqlik (havo) bosimi (MPa) va sarfi (m^3/s);
- 12) elektr manba kuchlanishi (V);
- 13) quvvat (Vt);
- 14) ishonchlilik ko'rsatkichlari: biror qismi ishlamay qolishi (soat);
- 15) kapital ta'mirlash bo'lguncha xizmat qilish muddati (yil);
- 16) massa (kg);
- 17) o'lchamlari (uzunligi, kengligi, balandligi) (mm).

Sanoat robotining yuk ko'tarish qobiliyati deyilganda manipulyatsiya qilinayotgan ob'ektning eng katta massasi tushuniladi.

Hozirgi vaqtda agregat – modul tipidagi sanoat robotlarini qurish tendensiyasi keng qo'llanilmoqda, bunda robotlar bir nechta mustaqil unifikatsiya qilingan modullar asosida quriladi. Modul qurish prinsipini sanoat robotining hamma funksional tashkil etuvchilari manipulyatorga, boshqarish qurilmasiga, harkatlanish qurilmasiga tatbiq etish mumkin.

Sanoat robotlarini an'anaviy qurishga qaraganda agregat

– modul qurish prinsipi quyidagi afzalliklarga ega:

- robotlarning tajribada va seriyada chiqariladigan nusxalarini loyihalash va yasash muddatlari qisqaradi; - robotlarning texnik xarakteristikalarini yaxshilanadi, ishonchliligi oshadi;

- robotlarni eksplutatsiya qilishga va ta'mirlashga sarflanadigan xarajatlar kamayadi.

Agregat – modul sanoat robotining harakatlanish darajalari soni, kinematik strukturasi turli konstruktiv modullarni bir - biriga ulash asosida hosil qilinadi. har bir konstruktiv modul alohida mustaqil yoki boshqa modullar bilan birga turli kombinatsiyalarda ishlatilishi mumkin.



Konstruktiv modul bir necha mexanizmlardan va yuritmalardan, hamda energetik va informatsion kommunikatsiyalardan tashkil topadi, bir yoki bir necha harakatlanish darajalarini olishni ta'minlashi mumkin. Turli kinematik strukturali va harakatlanish darajasidagi agregat – modul tipidagi sanoat robotlarini konstruktiv modullar to'plami asosida, konkret texnologik talablarni hisobga olgan holda oson yaratish mumkin. Agregat – modul qurish prinsipi maxsuslashgan sanoat robotlari qurishga imkon beradi, bu robotlar

esa konkret texnologik masalani to'liq yechadilar va ortiqcha funksiyalarga ega emaslar, shuning uchun ularning qiymati arzon bo'ladi. Agregat – modul sanoat robotlarining qismlari avval yaratilgan qismlardan tanlanadi, bu esa loyihalash xarajatlarini kamaytiradi.

ROBOTLARNING MEXANIK TIZIMI

Sanoat robotining mexanik sistemasi harakat funksiyalarini va texnologik operatsiyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Uning tarkibiga manipulyator va harkatlanish qurilmasining mexanik sistemasi kiradi va quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi: elementlar konstruksiyalari, yuritgichlar va qisqich qurilmalari.

Mexanik qo'l va qisqich qurilmasi sanoat robotlarining ishchi qurilmalariga kiradi va ular bir necha harakat darajalariga ega bo'lgan ko'p zvenoli mexanizmlardir. Zvenolar o'zaro bir - biri bilan yo sharnirli bog'lanadi, u holda ular bir - biriga nisbatan buriladi, yoki teleskopik bog'lanadi, unda bir - biriga nisbatan surilishi (siljishi) mumkin. SR mexanik sistemasining bir - biri bilan o'zaro bog'langan zvenolari kinematik zanjirni tashkil etadi. Kinematik zanjirda zvenolar birbiri bilan bog'lanishi kinematik juftlar yordamida amalga oshiriladi.

Har bir kinematik juft biror zvenoning boshqasiga nisbatan siljish erkinlik darajalari soni h bilan xarakterlanadi: $h = 6 - S$, bu yerda S – zvenolarning nisbiy harakatiga qo'yiladigan aloqa shartlari soni va u kinematik juftning sinfini aniqlaydi. Manipulyatorning kinematik zanjiri fazoviy ochiq zanjir ko'rinishida bo'lib, V sinf aylanma va chiziqli harakat kinematik juftlaridan tashkil topadi va bitta erkinlik darajasiga ega bo'ladi. Kinematik zanjirning harakat darajalari soni W deb, kinematik zanjirning qo'zg'almas deb qabul qilingan zvenoga nisbatan erkinlik darajalari soniga aytiladi [4,5]. Erkinlik darajalari soni quyidagi formuladan topiladi $\sum = 6n - 5P_1 - P_2$ bu yerda n – manipulyatorning harakatlanuvchi zvenolari soni; P_1 – kinematik juftlar soni; i – kinematik juftning sinfi. Agar kinematik zanjir faqat V sinf juftlaridan tashkil topgan bo'lsa, u holda erkinlik darajalari soni quyidagicha topiladi $W = 6n - 5P_1$. Mexanik sistema struktura elementlarining harakat

darajalari soni quyidagicha bo'ladi: manipulyator asosiniki $W_a=0$; korpusniki $W_q>0$; mexanik qo'lniki $W_M>1$; qisqich qurilmasiniki $W_k>0$. Korpusning harakat darajalari soni bilan sanoat robotining mobilligi aniqlanadi va u odatda 3 dan oshmaydi. Mexanik qo'lning harakat darajalari soni sanoat robotining texnologik vazifasi bilan aniqlanadi. Manipulyatorning manyovr qilish qobiliyati deb robotning ishchi organi qo'zg'almas holatda bo'lgandagi harakat darajalari soniga aytiladi.



Robot - ning manyovr qilish qobiliyati mexanik qo'lning to'siqlarni aylanib o'tishga va murakkab operatsiyalarni bajarishga imkoniyat beradi.

Sanoat robotining qo'li odam qo'li harakatlariga o'xshash siljishlarini qiladi, ammo robotning qo'li odam qo'li qila olmaydigan harakatlarni ham bajaradi. Sanoat robotining barcha harakatlari 3 turga bo'linadi:

- Global harakatlar kattaligi shunday masofaga tengki, u robotning o'lchamlaridan katta bo'ladi va ishlab chiqarish sharoitida ularga sex ichidagi harakatlar kiradi. Global harakatlar sanoat roboti harakatlanish qurilmasining siljishi bilan bog'liq bo'ladi.
- Regional harakatlar manipulyatorning qo'zg'almas asosda bo'lgandagi siljishlari bilan aniqlanadi va ko'chirish deyiladi. Bu harakatlar robot ishchi zonasida manipulyatsiya ob'ektini bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chirish bilan bog'liq bo'ladi.
- Lokal harakatlar ikki turga bo'linadi: orientirlash va operatsion harakatlar. Orientirlash harakati deb ishchi organning o'lchamlariga mos keladigan harakatlarga aytiladi. Orientirlash harakati manipulyatsiya ob'ektini qayta orientirlash bilan bog'liq. Qayta orientirlash deganda ob'ektni bir, ikki yoki uch o'zaro perpendikulyar o'qlarga nisbatan burish tushuniladi.

Hozirgi vaqtda silindrik koordinatalar sistemalarida ishlovchi robotlar eng ko'p tarqalgan. Sanoat robotining kinematik strukturasi manipulyator va ijro organlarining ishchi qurilmalar kinematikasiga bog'liq bo'ladi. Qurilmalarning kinematik sxemalari ko'p jihatdan mexanik zvenolarda yuritma qurilmalarining joylashtirilishi bilan aniqlanadi.

Bunda yuritmalarni joylashtirishning quyidagi variantlari bo'lishi mumkin:

- a) Yuritma qurilmasining korpusi biror zvenoda joylashgan, yuritma qurilmasining ergashuvchi zvenosi esa boshqa zvenoda joylashgan bo'ladi.
- b) Barcha zvenolar yuritma qurilmalari manipulyatorining qo'zg'almas zvenosida joylashgan, uzatish mexanizmlari orqali har bir alohida zveno bilan mexanik aloqa amalga oshiriladi.
- d) Bitta yuritma qurilmasi manipulyatorning barcha zvenolarini harakatga keltiradi va u robotning asosida joylashadi. Keltirilgan yuritma qurilmalarni joylashtirish usullarining kombinatsiyasi ham bo'lishi mumkin.



Robot manipulyatorlarining konstruktiv xususiyatlari


Har bir koordinata bo'yicha sanoat robotining harakati mexanik zvenolarning harakatlari bilan bog'liq bo'ladi va bu harakatlar ijro dvigatellari, uzatish mexanizmlari va datchiklar yordamida amalga oshiriladi. Ko'pincha kinematik juftlar konstruktiv bajarilganda sharnirlar deb ataladi va ular ishchi organ harakatini, robot manipulyatori harakat traektoriyasini aniqlaydi, bu esa barcha sharnirlar harakatlari yig'indisi hisobiga erishiladi. Sharnir konstruksiyasi ijro dvigatelidan, uzatish mexanizmidan, yo'naltiruvchilardan va korpusdan tashkil topgan. Uzatish mexanizmi ijro dvigateli bilan, korpus yo'naltiruvchilari bilan birga bajarilgan bo'lishi mumkin. Ijro dvigatellari sifatida gidro- va pnevmodvigatellar, gidro- va pnevmosilindrlar, elektrodvigatellar qo'llaniladi.

Qo'llaniladigan dvigatellar quyidagi umumiy parametrlar bilan xarakterlanadi: quvvat, aylanish chastotasi, inersiya momenti, solishtirma quvvat va boshqa maxsus ko'rsatkichlar.

Gidro- va pnevmodvigatellar sharnirlarda, odatda aylanma harakat olish uchun qo'llaniladi. Ular katta kuch va solishtirma quvvatga ega bo'ladilar, ammo konstruksiyalari va ularga xizmat qilish murakkab bo'ladi.

Gidro- va pnevmosilindrlar sharnirda ilgarilama harakatni ta'minlash uchun qo'llaniladi. Ular bir tomondan valda katta kuch va katta solishtirma quvvat olish imkoniyati bilan, ikkinchi tomondan esa konstruksiyasining murakkabligi va ularga xizmat qilish birmuncha qiyinchiligi bilan xarakterlanadi. Elektrodvigatellar sharnirda hamma harakatlarni olish uchun qo'llaniladi. Ularning konstruksiyasi sodda, ammo asosiy kamchiligi boshqa dvigatellarga qaraganda yuqori bo'lmagan solishtirma quvvatga ega bo'lganligidir. Sharnirlarda uzatish mexanizmi sifatida chervyakli, vintli, silindrik, tishli, planetar, reykali, zanjirli va boshqa uzatmalar qo'llaniladi. Sharnir mustahkamligini va harakat yo'nalishini ta'minlash uchun, odatda u yagona korpusda yo'naltiruvchilar bilan

birga bajariladi. Robotlarning asosiy qismi bo'lgan manipulyatorning matematik yozilishini ko'rib chiqamiz.



Manipulyatorning mexanik tizimi boshqarish ob'ekti sifatida umuman quyidagicha xarakterlanadi – xarakat darajalarining ko'chishi va orientirlash qismlarining turi va soni bilan, ishchi zonanining turi va o'lchamlari bilan, unda manipulyatorning ishchi organi xarakatlanadi. Manipulyator mexanik tizimining kirish o'zgartiruvchilariga xarakat darajasidagi dvigatellarning kirishlari. Chiqish o'zgaruvchilariga ishchi organning siljishi va orientatsiyasi, hamda tashqi muhit ob'ektiga ta'sir qiluvchi kuchlar kiradi. Ishchi organ ning eng katta xarakat darajalari soni oltiga teng – bulardan koordinatalari fazodagi xolatini ifodalaydi va uchta orientatsiya burchaklaridir.

Sanoat robotlarining uzatish mexanizmlari. Sanoat robotlarining uzatish mexanizmlari mexanik energiyani yuritmadan ijro organga uzatishga xizmat qiladi. **Uzatish mexanizmlari robotlarda quyidagi funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi:**

- dvigateldan robotning harakatlanuvchi qismiga harakatni uzatadi;

- chiziqli harakat o'qini aylanma harakat o'qiga aylantirib beradi;
- harakat turini o'zgartiradi, ya'ni chiziqli harakatni aylanma harakatga (Ch/A) yoki aylanma harakatni chiziqli harakatga (A/Ch) aylantiradi;
- chiziqli va aylanma harakatlar qiymatlarini o'zgartiradi;
- chiziqli va aylanma harakatlar tezligini o'zgartiradi .

Uzatish mexanizmlarining asosiy xarakteristikallari quyidagilar:

- a) uzatish nisbatining qiymati, kichik inersiya momentlari va o'lchamlari;
- b) podshipniklardagi lyuftlar va revers xatoligi;
- c) massa;
- d) quvvatni masofaga uzatish effektivligi, portativligi.

Robotlarda qo'llaniladigan uzatish mexanizmlariga qo'yiladigan talablar:

- mexanizm soddaligi;
- kichik gabaritlari va og'irligi;
- yuqori aniqligi;
- uzatish nisbatining doimiyligi;
- kam sonli zvenolar bilan katta uzatish nisbatini olish imkoniyati;
- bir nechta mexanik uzatmadarni birga joylashtirish qulayligi.

Robotlarni sikli avtomatik boshqarishning asosiy prinsipi, manipulyatorning pozitsiyalanishi tayanchlar orqali amalga oshiriladi.

Sikli boshqarish sistemalarining xarakterli xususiyatlarining asosiylar quyidagilar:

- diskret ko‘rinishidagi mantiqiy va texnologik informatsiyani programmalash. Bu informatsiya manipulyator zvenolari harakati ketma-ketligini pozitsiyalanish vaqti va hokozolarni o‘z ichiga oladi;
- holat datchiklari va rostlanuvchi tayanchlar yordamida har bir harakat darajasi bo‘yicha siljishlar haqidagi informatsiyani ajratib olish;
- manipulyator zvenolarining berilgan va faktik holatlarini qiyoslash;
- ochiq sikl bo‘yicha boshqarish. Umuman sikli programmali boshqaruv qurilmasi tarkibiga boshqaruvhisoblash moduli, programmani saqlash qurilmasi, robot bilan texnologik jihozning ulanish blogi, boshqarish paneli va o‘rgatishning qo‘l bilan boshqarish pulti kiradi. Sistemaning yadrosi boshqaruv-hisoblash moduli hisoblanadi, uning asosiy funksiyasi kerakli algoritmgga mos keluvchi mikro-operatsiyalarni shakllantirish(boshqaruv impulslarini) va ularni operatsion uzellarga va boshqa funksional bloklarga uzatishdan iborat. Siklli programmali boshqarishning elektron qurilmalarida boshqaruv-hisoblash moduli sifatida odatda turli tipdagimikroprogrammali avtomatlar ishlatiladi.

Robototexnik tizim deb shunday texnikaviy tizimga aytiladiki, unda energiya, massa va axborotlar bilan bog‘liq o‘zgartirishlar va aloqalar sanoat robotlaridan foydalanilgan holda aks etadi. Sanoat robotlari (SR) tomonidan bajara oladigan funksiyalar va operatsiyalarga ko‘ra robotlashtirilgan texnologik komplekslar va robotlashtirilgan ishlab chiqarish komplekslari farqlanadi. Bitta sanoat roboti o‘zaro harakatda bo‘ladigan bir yoki bir nechta texnologik jihozlardan hamda majmua ichidagi ishning to‘la avtomatik siklini va boshqa ishlab chiqarishlarning kirish va chiqish oqimlari bilan aloqalarni ta‘minlovchi yordamchi jihozlar yig‘indisidan iborat ishlab chiqarish vositalarining avtonom harakat



qiluvchi to'plamiga robotlashtirilgan texnologik komplekslar deyiladi.



Yig'ish, payvandlash, bo'yash kabi jarayonlarga oid asosiy operatsiyalarni bajaruvchi bitta sanoat robotidan hamda kompleks ichidagi texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilgan siklini to'la ta'minlovchi yordamchi jihozlar yig'indisidan iborat avtonom harakat qiluvchi ishlab chiqarishning texnologik vositalari to'plamiga robotlashtirilgan ishlab chiqarish kompleksi deyiladi. Sanoat robotining ijro qurilmasi – robotning harakat funksiyalarini bajaruvchi qurilma. Uning tarkibiga manipulyator (M) va boshqarish qurilmasi (BQ) kiradi. Sanoat robotlari manipulyatorining ishchi a'zosi (organi) – robotning tashqi muhit bilan bevosita o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi qurilma. Odatda qisqichlash qurilmasi yoki ishchi asbob (asbob)ni bildiradi. SRning boshqarish qurilmasi berilgan programmaga ko'ra ijro qurilmasiga boshqaruvchi ta'sirlarni shakllantirish va chiqarib berish uchun mo'ljallangan. SRning o'lchov qurilmasi boshqarish qurilmasi uchun robot va tashqi muhit holatlariga oid informatsiya yig'ishni amalga oshiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi SR– yordamchi o'tish va transport operatsiyalarini bajaruvchi robotdir. Masalan, yuklovchi, yuk tushiruvchi va transport robotlari. Operatsion sanoat roboti (SR)– texnologik operatsiyalar va ularning elementlarini, masalan, payvandlash, yig'ish, bo'yash va shunga o'xshash operatsiyalarni bajaruvchi robotdir. Ishlab chiqarishni robotlashtirish – robotlardan keng qo'lamda foydalanuvchi yangi texnologiyalar, yangi jihozlarni yaratish hamda ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarish prinsiplarini ishlab chiqish. SRni programmaviy (dasturiy) boshqarish – sanoat robotining ijro qurilmasi hamda u bilan birga ishlayotgan texnologik jihoz ustidan avtomatik boshqarish. Ishchi fazo (atrof) – SRning ishlash jarayonida robot manipulyatori ishchi organi harakatda bo'la oladigan fazo. Sanoat roboti ishchi zonasining geometrik xarakteristikasi - robot ishchi zonasining chiziqli yoki burchak o'lchovlari, kesim yuzasi yoki hajmi, yoki ularning birgalikda olingan to'plami. Sanoat robotining bazaviy koordinatalar sistemasi – robot ishchi zonasining geometrik xarakteristikalar beriladigan koordinatalar sistemasi.

Sanoat robotining harakatchanlik darajasi soni – sanoat roboti manipulyatori kinematik zanjirining erkinlik darajasi soni hamda robot harakat qurilmasining erkinlik darajasi soni bilan aniqlanadi. SRning nominal yuk ko'tarish qobiliyati – ishlab chiqarish predmeti yoki ishchi asbobning (asbobning) qisqichlab, ushlab turilishi kafolatlangan massasining eng katta qiymati bilan xarakterlanadi. Ishchi organining pozitsiyalashtirish xatoligi – ishchi organ pozitsiyasining boshqarish programmasi tomonidan berilgan holatiga nisbatan chetlanishi. Sanoat robotining pozitsiyalashtirilgan boshqarilishi – robot ijro qurilmasining harakatini vaqt bo'yicha ishchi fazo nuqtalarining oralarida nazorat qilmagan holda ishchi nuqtalarining tartiblangan chekli ketma-ketligi orqali programmalashtiruvchi programmaviy boshqarish turi.



Sanoat robotini konturli boshqarish - robotlarning sinalayotgan qurilmalari harakatini ishchi fazoda tezlik bo'yicha uzluksiz nazorat qilgan holda traektoriya shaklida programmalashtiruvchi boshqarishning programmaviy turi. Sanoat robotini adaptiv boshqarish – boshqarish algoritmini bevosita boshqarish jarayonida tashqi muhit va robot holatlari funksiyasiga bog'liq holda o'zgartirib turadigan boshqarish turi. Sanoat robotlarini guruhlab boshqarish – odatda EhM asosida boshqarishning umumiy sistemasiga birlashtirilgan bir nechta robotlarni boshqarish jarayoni. Sanoat robotlarini programmalash (dasturlash) – sanoat robotini boshqaruvchi programmani tuzish, uni boshqarish qurilmasiga kiritish (joylash) hamda sozlash jarayoni.

Robototexnik tizimlar va komplekslarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. RTKlarni joylashtirishni rejalashtirish asosiy va yordamchi uskuna va jihozlarga hamda RTK boshqarish organlariga xizmat ko'rsatuvchi shaxslarning bemalol, qulay va xavfsiz yaqinlashishini ta'minlashi kerak.

2. Joylashtirishni rejalashtirish SRning dastur bo'yicha ishlash jarayonida SR bilan operator harakat yo'llarining kesishib o'tish hollarini chiqarib tashlashi, ularga yo'l qo'ymasligi kerak.

3. RTKlar odamning sanoat roboti harakat doirasiga kirib qolishi ehtimolidan qutqaruvchi himoya vositalari, yorug'lik vositalari holida to'siqlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

4. RTKlarni himoyalash vositalarining o'rnatilishi:

1) asosiy uskunajihozlar hamda SRning texnologik imkoniyatlarini chegaralamasligi

2) ularga xizmat ko'rsatish qulayligini yomonlashtirmasligi kerak.

5. RTKlarning boshqarish vositalarini o'rnatish SRLarining falokatli hollarda o'chirish organlariga bemalol va tezkorlik bilan yaqinlashish imkoniyatini hamda sozlash rejimida SRni boshqarishda operator xavfsizligini ta'minlashi zarur.

6. RTKlarni joylashtirishni rejalashtirish SRning dastur bo'yicha ishlash jarayonida operatorning SRish doirasidan tashqarida bemalol harakat qilishini ta'minlashi zarur.

RTKlarning qanday tarzda joylashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Robotlar bilan jihozlangan texnologik yacheykalar, bo'linma (uchastka)lar, qatorlar (liniyalar) robotlashtirilgan texnologik komplekslar (RTK)lar deyiladi. Mashinasozlikdagi va asbobsozlikdagi ishlab chiqarish jarayonlarining xilma-xilligi RTKlarning turlarini aniqlaydi. RTKlarning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz: Robotlashtirilgan texnologik uya (yacheyka) (RTYa) RTKlarning eng sodda turiga kiradi. Bunday kompleksda texnologik operatsiyalarning mumkin bo'lgan minimumi bajariladi. Bunda texnik jihoz bilan sanoat robotlari donalari soni unchalik katta emas. RTYa larning ba'zilarida texnologik jihoz -

uskuna butunlay ishtirok etmasligi, asosiy operatsiyani esa sanoat robotining o'zi bevosita bajarishi mumkin. Robotlashtirilgan texnologik bo'linma (RTB).



Bunday kompleks bir nechta asosiy texnologik operatsiyalarni bajara olishi bilan xarakterlanadi. Bu operatsiyalar bo'linma tomonidan texnologik, jihoz – uskuna tomonidan konstruktiv va boshqarish orqali tashkiliy jihatlaridan birlashtirilgan va o'zaro bog'langan. Operatsiyalar bir turda yoki bir nechta turdagi bo'lishi mumkin. Agar turli xildagi operatsiyalar texnologik jihatdan bog'langan bo'lsa, bunday kompleks robotlashtirilgan texnologik liniya (RTL) deb ataladi. 1.Eng sodda RTB bitta qo'zg'almas sanoat roboti tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan bir nechta birlik (dona) texnologik jihoz – uskunalarini o'z ichiga olishi mumkin; texnologik jihoz – uskuna sanoat roboti atrofida joylashtirilishi mumkin; yoki sanoat roboti qo'zg'aluvchan, harakatchan bo'lishi va texnologik jihoz – uskunalar bo'ylab harakat qilishi mumkin.

2.RTB ning murakkabroq turida u texnologik jihozlarning bir nechta donasini va xizmat ko'rsatayotgan bir xildagi sanoat robotlarining bir nechta donasini o'z ichiga olishi mumkin

3.RTB ning yana ham murakkabroq turida turli xildagi sanoat robotlarining birgalikda ishlashi koʻzda tutilgan. Komplekslarning joylashtirilishi. Komplekslarni chiziqli joylashtirishda jihoz – uskunalar chiziq boʻylab (bitta qatorda) joylashtiriladi, hajmli joylashtirishda esa jihoz – uskunalar bir nechta qavatlarda joylashtiriladi.

RTK larni joylashtirishda boshqarishning quyidagi turlaridan foydalaniladi: Markazlashgan boshqarish standart EHM yoki maxsus boshqarish qurilmasi orqali amalga oshiriladi. Markazlashgan boshqarish oʻzaro koordinatsiyalash maqsadlarida bir – biri bilan bogʻlangan mahalliy boshqarish qurilmalari yigʻindisi orqali amalga oshiriladi. Oʻzaro koordinatsiyalash deganda ayrim operatsiyalarning boshlanishi va tugallanishi vaqtlarini bir – biri bilan bogʻlash kabilar tushuniladi. Kombinirlashgan boshqarish markazlashgan boshqarish bilan bir qatorda mahalliy boshqarish qurilmalarining mavjudligini, ishtirokini nazarda tutadi. Bunday boshqarish sistemalari quyidagicha boʻlishi mumkin:

1.Bir darajali (bir koʻlamli). Bunda markazdan kelayotgan boshqarish signallari hamda mahalliy boshqarish qurilmalari signallari bir darajada (koʻlamda) kombinirlashadilar.

2.Ierarxik (koʻp darajali). Bunda mahalliy boshqarish qurilmalari markazga boʻysunadilar.

RTK larning strukturaviy alomatiga koʻra boʻlinishi ularning struktura turini va kompleksdagi texnologik jihoz – uskuna bilan sanoat robotining oʻzaro taʼsirini aks ettiradi. Bu alomatga koʻra RTK lar quyidagi turlarga boʻlinadilar:

- a) Bir pozitsionli RTK lar (stanok – robot, press – robot va boshqalar). Ular texnologik jihoz – uskuna birligi komplektida bitta sanoat robotini oʻz ichiga oladi.
- b) Guruhli RTK lar bitta sanoat robotini oʻz ichiga oladi va bu robot bir xildagi yoki turli xildagi texnologik jihoz-uskunalar guruhiga xizmat koʻrsatadi.

Bunday RTK lar sanoat robotlarining guruhini oʻz ichiga oladi. Ular bir-biri bilan oʻzaro bogʻlangan va bir-birini oʻzaro toʻldiruvchi funksiyalarni bajaradilar. Masalan, bitta sanoat roboti bosim ostida metall quyish mashinasiga metall quysa, ikkinchi robot



quyilgan tayyor metall quymalarini oladi. Shu vaqtning o'zida robotlar guruhi yig'uv operatsiyalarini amalga oshiradi.

Robototexnik komplekslar yordamida yig'uv operatsiyalarini avtomatlashtirish

Yig'uv operatsiyalarini mexanizatsiyalash darajasi 25 – 40%, avtomatlashtirish darajasi esa 5 – 7% dan oshmaydi. Sanoat robotlari yordamida avtomatik tarzda yig'uv jarayonini amalga oshirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1) detallarni turli qurilmalarda jamlash (paketlarda, bunkerlarda, kassetalarda va boshqalarda);

2) robot tomonidan yig'uv asbobi yordamida detallarni qisqichlab olish;

3) SR yordamida yig'uv pozitsiyasiga va yig'uv pozitsiyasidan jamlash pozitsiyalariga tashish (transportlash);

4) yo'naltirish;

5) SR yordamida detallarni ulash. Robototexnik yig'uv sistemalarini qurishning 3 xil konsepsiyasi mavjud:

1) butun yig'uv operatsiyasi elementar operatsiyalarga ajratiladi. har bir elementar operatsiya tor ma'nodagi maxsus robot tomonidan bajariladi;

2) yig'uv sanoat roboti kompleks markazida joylashtiriladi. Uning atrofida turli yordamchi jihoz – uskunalar detallarning yetarli zaxirasi bilan o'rnatiladi;

3) butun yig'uv jarayoni elementar operatsiyalar guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhdagi elementar operatsiyalarni bajarish uchun maxsuslashgan robotdan foydalaniladi. Barcha SR lari ustidan boshqarish uchun markaziy boshqaruv EHM idan foydalaniladi.



Mashinasozlikdagi buyumlarni avtomatik holda yig'ishda foydalaniladigan SR lari asosiy va yordamchi operatsiyalarni, ya'ni detallar va buyumlarni birlashtirish va tashish kabi operatsiyalarni bajaradilar. Birlashtirish operatsiyasi uchun SR lari qisqichlaridan, yig'uv asbobidan va moslamalardan foydalanadilar. Detallar jamlagichlari, SR lari, transport, texnologik, nazorat va boshqa jihoz – uskunalar yig'uv RTK larini tashkil etadilar. Strukturaviy alomatlariga ko'ra yig'uv RTK lari bir pozitsionli va ko'ppozitsionli turlarga bo'linadi. Birinchi turdagi RTK larda yig'uv jarayoni operatsiyalari yiriklashtiriladigan bo'lsa, ikkinchi turdagilarda esa ular maydalashtirilgan. RTK joylashtirilishi yig'uv birligidagi detallar soni, o'lchamlari, massalari, yig'ilayotgan buyumlar nomenklaturasiga bog'liqdir.

«Klaster» metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni



bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi.

Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» metodini o'tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tyg'ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari

surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling.

Foyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang. Stil va stil g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan «Klaster» metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Ushbu metod orqali yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarni mustaxkanlash maqsadida qo'llasak o'quvchilarning olgan bilimlari yanada mustaxkamlanadi.

Adabiyotlar

1. Politeknicheskiy terminologicheskiy tolkoviy slovar / Sostavlenie: V. Butakov, I. Fagrad'yans. — M.: Polyglossum, 2014.
2. Traditsionniy perevod na russkiy v proizvedeniyax A. Azimova.
3. Zunt, Dominik „Who did actually invent the word "robot" and what does it mean?“. The Karel Čapek website. Qaraldi: 11-sentabr 2007-yil.
4. „Robotics: About the Exhibition“. The Tech Museum of Innovation. Qaraldi: 15-sentabr 2008-yil.
5. „CiteSeerX — Series Elastic Actuators for legged robots“. Citeseerx.ist.psu.edu. Qaraldi: 27-noyabr 2010-yil.
6. Air Muscles from Image Company
7. Tondu, Bertrand (2012). „Modelling of the McKibben artificial muscle: A review.“ Journal of Intelligent Material Systems and Structures, Vol. 23, No. 3, pp. 225-253.

8. „TALKING ELECTRONICS Nitinol Page-1“. Talkingelectronics.com. Qaraldi: 27-noyabr 2010-yil.
9. „If205, Hardware: Building a Linux-controlled walking robot“. Ibiblio.org (1-noyabr 2001-yil). Qaraldi: 27-noyabr 2010-yil.
10. John D. Madden, 2007, /science.1146351
11. "Syntouch LLC: BioTac® Biomimetic Tactile Sensor Array". Retrieved 2009-08-10.
12. Wettels, N; Santos, VJ; Johansson, RS; Loeb, Gerald E.; et al. (2008). „Biomimetic tactile sensor array“.Advanced Robotics 22 (8): 829-849.doi:10.1163/156855308X314533.
13. "What is a robotic end-effector?". ATI Industrial Automation. 2007. Retrieved 2007-10-16.
14. G.J. Monkman, S. Hesse, R. Steinmann & H. Schunk — Robot Grippers — Wiley, Berlin 2007
15. Discovery Channel's Mythbusters making mechanical gripper from chain and metal wire
16. Allcock, Andrew (2006-09). „Anthropomorphic hand is almost human“. Machinery. Retrieved 2007-10-17.Check date values in: |date= (help)



The article expresses the opinion that creativity in students is one of the main mechanisms of thinking that determine the effectiveness of learning, that the formation of such characteristics in students depends on the professional skills of the teacher teaching them.

Key words and phrases: student, teacher, creativity, ability, talent, thinking, competence, competence, life and practical experience.

Jamiyatda ijtimoiy faoliyatning muayyan turi bo'yicha pedagogik ijodkorlikni namoyon etuvchi qobiliyat, ya'ni kasbiy-ijodiy faoliyati hayotiy tajribalariga tayangan holda, uning kasbiy faoliyati ta'sirida umumiy kreativlik yanada rivojlanadi.



Pedagoglarda kreativlik sifatleri o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Balki ularda kreativlik sifatlar va ularni muvaffaqiyatli rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud. Jumladan, Drapeau Patti[1] pedagoglarda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning to'rtta yo'lini ko'rsatib o'tadi:

Birinchi yo'li, - kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Bunda pedagoglarda asosiy urg'u, kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish asosiy e'tibor markazida bo'lib, o'quvchilar fe'llar yordamida kreativ xarakterdagi fikrlarning mohiyatini ifodalashga yo'naltiriladi. Xususan, o'qituvchilar kreativ fikrlash ko'nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o'quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur fe'llarning bo'lishiga e'tibor qaratadi. Bu holat misollar bilan tushuntirilsa, masalan, o'quvchilardan "O'spirin va yosh davrlar tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab bering" mazmunidagi nazorat savoli ularda kreativlikni shakllantirmaydi. Zero, savol tarkibidagi "aytib bering" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra "bilim, ko'nikma va malaka ko'nikmalaringizdan kelib chiqib aytib bering" deyish bilan teng.

O'quvchilarga nazorat savollarini berishda ularni fikrlashga undovchi so'z (fe'l)lardan foydalanish ularning kreativ fikrlashlarini osonlashtiradi. SHu sababli shaxsda kreativ sifatleri shakllantirishning birinchi yo'lga ko'ra pedagoglar turli, antiqa, noan'anaviy hamda puxta javobni berishga majbur qiluvchi so'z (fe'l)lardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan: "tushunchalarda bog'liqlikni toping", "fikrlang", "bashorat qiling", "fikrni mantiqan bayon eting", "tasavvur qiling" kabi so'z (fe'l)lardan foydalanish amaliy jihatdan samarali sanaladi.

Pedagoglar birinchi yo'lni amalda qo'llashi – o'quvchilarlarda kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda yosh o'qituvchilarning "Kreativlik xaritasi"dan foydalanishlari maqsadga muvofiq sanaladi.

Ikkinchi yo'li, - amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Pedagoglar o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko'rsatmali metod hamda usullardan foydalanadi. Bu o'rinda savollardan

foydalanish faqat qisqa muddatda yordam berishi mumkin, biroq, o'quvchilarda interfaollik va kirishimlilikni rivojlantirmaydi.

Uchunchi yo'li, - kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish. Mazkur yo'l o'quvchilar ta'lim jarayonidagi muammoli masalani echish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ va ijodiy fikrlashga urg'u beradi. Mazkur jarayonlarda kreativ metod va usullar faol qo'llanilmasa-da, kreativ fikrlash yuz beradi. Masalan, "O'spirin va yosh davrlar tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni ta'riflab berish"da o'quvchilar topshiriqni bajarar ekanlar, shaxsning yosh davrlari bilan bog'liq bo'lgan turli muammolarni tahlil qiladi. Natijada o'quvchilarda ushbu ta'lim jarayonda ko'p tomonlama fikrlash va mushohada yuritish ro'y beradi.

To'rtinchi yo'l, - kreativ mahsulot (ishlanma)lardan foydalanish. Bu yo'lni tutishda pedagog o'quvchilarga "Shaxsning yosh davrlari tabaqalanishi" mavzusida Power Point dasturi yoki multimediya yordamida taqdimotni ishlab chiqish topshirig'ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalari faol rivojlanadi.

O'quvchi o'zining kreativ fikrlash qobiliyatini qulay muhitda to'la namoyon qilishi mumkin, agar unda muvaffaqiyatsizlikka uchrash, qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasa bunday vaziyatda unda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. O'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Kreativ xarakterga ega muhitdagina o'quvchilar o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlashni boshlashadi[2].

Har qanday shaxsda bo'lgani kabi pedagoglarda ham ijodiy-kasbiy xarakterdagi sifatlardan biri sifatida kreativlik muayyan bosqichlarda rivojlanadi. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayoni amaliyotini kuzatish, o'quvchilar va malaka oshirish kursi tinglovchilarining faoliyatini kuzatishda o'z ifodasini topadi. Pedagoglar faoliyati va ular

bilan olib borilgan amaliy ishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ularda kreativlik quyidagi jadvalda ifodalanganidek to'rt bosqichda shakllanadi va rivojlana boradi.

(1-jadval.)

T/r	Bosqichlar	Kreativlik mazmuni
1.	Birinchi bosqich	Pedagogika, psixologiya, falsafa, estetika kabi ijtimoiy fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o'zlashtirish
2.	Ikkinchi bosqich	O'zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini hosil qilish
3.	Uchunchi bosqich	Mustaqil o'qib-o'rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish
4.	To'rtinchi bosqich	Mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlanish

Izoh: Kreativ shaxsning shakllanish bosqichlari.

Pedagoglar kreativlik sifatlarni ko'nikma va malaka sifatida kasbiy qobiliyat sifatida o'zlashtirishlari yo'lida va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishlarida yuqorida qayd etib o'tilgan barcha bosqichlar bevosita bir-biri bilan bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz o'z ahamiyatini topa olmaydi.

Pedagoglarda kasbiy qobiliyat sifatida o'z ahamiyatini topgan kreativlik tafakkur sifatlari quyidagi ko'rinishlarda yuzaga chiqadi:

(2-jadval)

T/r	Pedagoglardagi kreativlik xususiyatlar
1.	Boshqa o'qituvchilarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildirishi



2.	Fikr va tushunchalarni ifoda etishda o'ziga xos uslubini tanlashi
3.	Ba'zan so'hatlashilayotgan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar berishi
4.	Echimi ochiq qolgan vazifa yoki tushunchalardan zavqlanishi
5.	Fikr va g'oyalarni aniq va dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi
6.	Muammo yoki masalaning echimini topishda noan'anaviy yondashuv usullardan foydalanadi

Izoh: pedagoglarda kasbiy kreativlik tafakkur sifatlar.

Biz yuqorida keltirgan pedagogning kreativ tafakkur xususiyatlariga xos jihatlarga e'tibor qaratgan bo'lsak psixologiya fanida shaxs xos kreativlik tafakkur xususiyatlar ham o'ziga xos xususiyatda farqlanadi[3].

SHaxsni kreativ jihatdan rivojlanishida har bir shaxs hayotida yosh davri va uning bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, shunga ko'ra ma'lum bir davr va bosqichlarda pedagoglarda ham kreativlik sifatleri va uning ijodiy faoliyat malakalari rivojlanadi.

Pedagoglarda kreativlik sifatlardan tashqari bir qatorda ijodiy faoliyatni tashkil etishga layoqatlilikni ifodalovchi malaka va ko'nikmalar ham shakllangan bo'lishi lozim. Ularda kreativ tafakkurning rivojlanishi ma'lum bir davrga, ya'ni kreativlik sifatlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan va uning oxiriga etgan qandaydir vaqt birligiga bog'liqdir. SHu bilan birga kreativlikning rivojlanish bosqichi – muayyan kreativlik sifatlarning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liqdir. Buni biz quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji va faolliklarini rivojlantirish bo'yicha turli ko'rinishdagi tadbiriy ishlarni olib borishi;

darsda, darsdan tashqari sharoitlarda, to'garak, klub yoki jamiyatlarda turli tarbiyaviy tadbir ishlarni olib borishi;



o'quvchilarda sog'lom turmush kechirishga bo'lgan ehtiyojni shaxsiy va umumiy gigienaga amal qilish ko'nikmalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirishi;

ta'lim jarayonida turli ko'rsatmali qurollar, zamonaviy texnik vositalar, axborot va ilg'or pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanishi;

o'qituvchi didaktik material va ko'rsatmali qurollarni ishlab chiqishi;

ota-onalarni pedagogik-psixologik bilim asoslari, o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlari, ularning o'ziga xosliklari, turli yosh bosqichlarida farzandlar bilan ota-onalar o'rtasida kechadigan munosabatlar mohiyatidan xabardor qilishi;

o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash va shaxsiy faoliyatda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatishi.

O'qituvchilarda o'ziga xos kasbiy xususiyatlar bilan birga, ularda ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar[4] ham shakllangan bo'lishi va uni rivojlantirib borishi maqsadga muvofiq sanaladi. Uni biz quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

alohida-alohida ma'lumotlardan foydalangan holda yaxlit o'quv va tarbiyaviy xarakterdagi materialni shakllantirish;

o'quv materialini turli rasm, sur'at, jadval, diogramma, model va boshqalar bilan boyitish;

o'ziga xos, original o'quv materialini tanlay bilish va uni tayyorlash;

mustaqil ravishda yangi metodni asoslash;

o'quv mashg'uloti (dars) va tarbiyaviy tadbir uchun ko'rsatmali qurollar to'plamini ishlab chiqish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirning texnologik xaritasini ishlab chiqish;

dars yoki tarbiyaviy tadbirda foydalanish uchun multimediya materiallarini ishlab chiqish;

o'quv materialining taqdimot variantini tayyorlash;

turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar uchun talabalarning faol ishtirokida video roliklar ishlab chiqish;



turli shakl va metodlarga asoslangan sinov topshiriqlari (savol, topshiriq, masala, misol, mashq, test va b.), baholash mezonlarini ishlab chiqish;

nazorat ishlarini tashkil etishga ijodiy yondashish.

O'qituvchida gnostik – ya'ni tadqiqotchilik malakalari ham shakllangan bo'lishi va kasbiy, haytiy faoliyatida undan unumli foydalanishi lozim. Uni biz quyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin:

ilmiy izlanish olib borishi, uning metod va vositalarini to'g'ri tanlashi;

manbalar bilan ishlash (nazariy va empirik tahlil qila bilishi, mavhumdan muhim ma'lumotni topish va ajrata bilishi, tezis, konspekt, referat, kartoteka bilan ishlash va adabiyotlar ro'yxatini tuzish);

zamonaviy pedagogik muammolarni aniqlash va uning dolzarbligini asoslash;

mavjud manbalar asosida muammoning ishlanganlik darajasini aniqlash va uni o'rganish;

o'qituvchi ilmiy tajriba olib borish va uning metodikasini ishlab chiqishi;

ilmiy maqolalar, axborot va hisobotlar tayyorlash;

pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish va uni tahlil qilish;

olingan ilmiy tahlil natijalarini matematik-statistik jihatdan tahlil qilishi;

statistik tahlil natijalariga ko'ra ishonchli xulosa chiqarish va ilmiy-tavsiyalarni ilgari surishi;

pedagogik tajriba natijalarini muhokama qilish (savollar qo'yish, shaxsiy fikrni bildirish, tanqidiy fikrlarni ayta olish, amaliy takliflar berish).

Mazkur pedagogning kreativ xususiyatlaridan tashqari ularda tashkilotchilik kasbiy malakalari ham shakllangan bo'lishi va ta'lim-tarbiyaning samaradorligini ta'minlashda undan amalda yuqori saviyada foydalana bilishlar maqsadga muvofiq vazifalardan biri sanaladi.

O'quvchi kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan bajarayotgan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi[5]. O'qituvchi faoliyatidagi muloqot nafaqat ilmiy-pedagogik aloqa vositasi, balki faoliyatdagi kasbiy mahoratni oshirish sharti



va o'quvchi shaxsini rivojlantirish manbai, shuningdek, ta'lim vositasidir. Shuning uchun ham o'qituvchining muloqotga kirishuvchanlik, ya'ni kommunikativ malakalari: o'quvchilar, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbariyati, hamkasblar bilan muloqotda turli shakl va metodlardan foydalanish, o'quvchilarga ma'lumotlarni etkazishning samarali yo'l va vositalarini topish, o'quvchilar bilan ta'limiy hamkorlikka erishish ham asosiy kreativlik xususiyatni ta'minlab beruvchi va ijodiy xususiyatlar sanaladi.

Muayyan omillar o'quvchilarda kreativlik sifatlarni shakllantirish bilan birga, ba'zi omillar, o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik ham qilishi mumkin. Shu sababli pedagoglar o'z kasbiy faoliyatlarida ushbu omillarni barataf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Jumladan:

o'zini tavakkaldan olib qochish;

fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;

shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

boshqalarga tobe bo'lish;

har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Xulosa, o'quvchilarda kreativlik xususiyatlarni shakllantirishda, eng avvalo o'qituvchilarda shaxsiy ijodiy faoliyat mohiyatini anglash, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash, tezkor-faoliyatli yondashuv, o'zida ma'lum fikriy-mantiqiy fikrlashga doir harakatlar, shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan kasbiy sifatlarining o'zaro uyg'unligi, pedagogning ijodiy yo'naltirilganligi kabi kreativlik xususiyatlar shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Pedagoglarda kreativlik sifatlari, ijodiy-pedagogik faoliyat malakalarini rivojlantirish borasida yuqorida e'tirof etgan xususiyat va fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, pedagogning kreativlik sifatlarini shakllantirishda ustuvor ta'limiy tamoyillar asosida ish ko'rish aniq maqsaga yo'naltirilgan faoliyat samaradorligini kafolatlaydi. Bu esa, o'z-o'zidan o'quvchilarda kreativlik fikrlash jarayonini shakllantiradi va rivojlantira boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
2. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi. Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b. 52
3. Ergash G'. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperimental tahlil O'zMU. Toshkent – 2010
4. Islomova N., Abdullaeva D. Ijtimoiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015. –13–b.
5. Кузнецова М.А. Творчество как социокультурный феномен. Вестник Ярославского гос.ун-та им. П.Г.Демидова. Сер. Гуманит. науки. 2011. No1(15). Электронная версия: www.culturalnet.ru/main/getfile/2510



ИНГЛИЗ ТИЛИДА ФАЗАНИ ИФОДАЛАШНИНГ КОНТЕКСТЛИ ВОСИТАЛАРИ

Латинов Азиз Акбаралиевич
Самарқанд давлат чет тиллар институти
Инглиз тили фани ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақоламизда биз инглиз тилида фазани ифодалашнинг контекстли воситалари ҳақида сўз юритамиз. Аввал айтиб ўтганимиздек, инглиз тилидаги асосий фаза кўрсаткичи грамматик аспект категорияси бўлиб, у она тилида сўзлашувчига ҳодиса ёки жараённинг у ёки бу босқичини осонгина аниқлашга ёрдам беради. Инглиз тилида ушбу тоифанинг мавжудлиги масаласида ноаниқ фикрлар мавжуд.

Калит сўзлар: кўрсаткич, ифодалаш, контекст, жараён, ҳодиса, интенсивлик, ҳаракат.

Инглиз тилида шартли кўрсаткичлар нутқда турли қисмларининг алоҳида лексик бирликлари ва ҳодисанинг маълум бир вақт даврига муносабатини ифодалаш учун контекстан фойдаланадиган сўз бирикмалари киради. Баъзи мисоллар билан маълумот манбаининг лексик хусусиятлар бирликларини қуйидагиларни кўрсатиш мумкин: *once upon a time, firstly, then, at first, later, endlessly, in the end, after all, day by day, at that time, earlier* ва бошқалари. Масалан, жумлада бошланиш босқичини кўрсатиш учун фазавийликнинг шартли кўрсаткичлари кенг қўлланилади, улардан:

а) яқин келажакда бошланадиган ҳодиса ёки жараённи кўрсатадиган кўрсаткичлар. Бунда ҳаракатнинг бошланиш босқичи билвосита бошланиш маъносини ўз ичига олмайдиган сўзлар орқали ифодаланиши мумкин, лекин бошланиш ғоясини феъл ва шартли функцияга эга бўлган препозицион бирикма билан биргаликда бевосита акс эттиради, масалан *after a while: then, suddenly, when,*



(After a while he suddenly began to sing – Бироз вақтдан кейин у бирдан қўшиқ айтишни бошлади).

Ушбу гуруҳнинг бошқа мисолларига қуйидаги кўрсаткичлар киради: : *on the verge of, on the brink of, on the edge of, to be about to do smth (Being on the verge of breakdown, he left the room* – Жаҳлда бўлиш, асабий тушкунликдан кейин у хонани тарк этди)[1, p.46];

б) жараён / ҳодисанинг пайдо бўлиши ёки шаклланишини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Бундай ҳолда, маълум бир кўрсаткичдан фойдаланиш ҳодиса ёки жараённинг табиати ёки тезлигига боғлиқ деб айтиш керак, чунки баъзи ҳолларда бошланиш босқичи маълум тайёргарлик даражасини ёки маълум вақтни талаб қилади (масалан: оз-оздан олма қора рангга айлана бошлади; бирданига ёмғир ёға бошлади).

Инглиз тилида ҳаракатнинг келиб чиқиши ва шаклланишининг шартли кўрсаткичлари қуйидаги сўзлар ва сўз бирикмалари билан кўрсатилган: *instantly, immediately, suddenly, gradually, by degrees, piece by piece, little by little, all of a sudden, inch by inch, methodically, in less than no time, at once, bit by bit, straight away, then and there* ва ҳоказо. (*I felt really tired of all a sudden* – Бирдан жуда чарчаганимни ҳис қилдим)[2, p.348];

в) ҳодиса ёки жараённинг бошланғич нуқтасини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Бундай ҳолда, биз кўрсатилган ҳодисанинг бошланғич нуқтасини ва унинг кейинги ривожланишини белгилайдиган шартли кўрсаткичлар билан шуғулланамиз: *from the (very) beginning (of), from this hour/day/month/year on, from the start, from now on, from the outset (From this day on you show me your diary* – Бу кундан бошлаб сиз менга кундалигингизни кўрсатасиз);

г) ҳодиса ёки жараённинг бошланишини бевосита кўрсатадиган индикатор. Ташаббуснинг умумий қийматини етказадиган бирликларга қуйидагилар киради: *in the beginning/start, initially, primarily (Primarily they were angry* – Дастлаб улар ғазабландилар).



Инглиз тилида давом этиш босқичини белгилаш учун аниқ кўрсаткичлар ҳам мавжуд, хусусан:

а) ҳаракатнинг давомийлигини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Ушбу кичик турда ҳодисанинг давомийлиги ультра узун ёки ультра қисқа сифатида ифодаланиши ёки маълум бир вақт даври билан чекланиши мумкин. Бироқ, таъкидланган жумлаларда кўрсатилган вақт чегараси мажозий маънога эга бўлиши мумкин (*I hadn't seen her for ages*). Буларга мисоллар шаклида: *for a (long) while, for a long ... minutes, for ... seconds/minutes/hours/years, an instant, a moment, a second, for several seconds/hours/years* (*He stared at me for a while and then passed through* У менга бир муддат тикилиб қараб туриб, кейин яна йўлида давом этди) [3, p.52];

б) ривожланиш жараёнида паузалар мавжудлигини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Босқич давом этиш билан савдо нуқталари балларни кўриш мавжудлиги ёки йўқлиги паузалар билан характерланади, бу каби тушунчалар «узилиш» ва «узлуксизлик», шунинг учун махсус лексик хусусиятлар алмашиш учун вазият ҳақида бир нечта босқичларда ўрганилади: *for one hour a day/week/month, once/twice a week, between moments of ..., every day/month/year, in the space of several days, around the clock, per hour, continually, perpetually, non-stop, with a break, on and on, day after day, all the year round* и др. (*Lisa visited the doctor in the space of several months* - Лиза бир неча ой оралиғида шифокорга ташриф буюрди);

С) ҳаракатнинг чексизлигини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Ушбу кичик гуруҳ ички чегарага эга бўлмаган вазиятларни белгилаш учун зарурдир. Бу ерда биз қуйидаги кўрсаткичларни қўллаш мумкин: (*time*) *without end, interminably, endlessly, incessantly, unendingly, for the rest of eternity, till the crack of doom, forever, for the entire life* (*I will be part of you forever* – Мен абадий сенинг бир қисминг сифатида қоламан) [4, p.47];

Д) вазият чегарасини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Кейинги кичик гуруҳ ҳаракат / вазиятнинг дастлабки ва якуний чегараларини белгилашга қаратилган: *from start to*



finish, from beginning till end, from day to night и др. (*You should study hard from start to finish if you want to get a good job* – Агар нуфузли иш топмоқчи бўлсангиз сиз бошидан охиригача қаттиқ ўқишингиз керак);

е) интенсивликнинг ўзгариши билан вазиятни кўрсатадиган кўрсаткичлар. Ушбу кичик гуруҳ, биринчи навбатда, ҳиссий рангдаги жумлаларни аниқлайди ва шу билан вазиятнинг интенсивлигининг ошиши ёки пасайишига эътибор беради.: *with years, more and more, bigger and bigger, increasingly, with every minute/hour/day/year, fatter and fatter* ва ҳоказо. (*The night grew darker and darker, so Tom barely saw a thing in his face* – Тун қоронғилашиб бораверди, шунинг учун Том бурни олдидаги деярли ҳеч нарсани кўрмади); Ҳаракат ёки жараённинг тугаш босқичини инглиз тилида ифодалаш учун қуйидаги кўрсаткичларнинг кичик гуруҳлари қўлланилади:

а) ҳаракат охирига яқинлашаётганини кўрсатувчи кўрсаткичлар. Ушбу лексик бирликларнинг ўзига хос хусусиятлари шундаки, улар ҳаракатнинг якуний нуқтасини кўрсатмайди, фақат маълум бир ҳаракат эгаллаган вақт оралиғининг якуний қисмини тавсифлайди: *to the end, at the end, in the end, in the conclusion, in the final, at the expiration of* (*In the conclusion the son visited his mother* – Натижада бола онасиникига ташриф буюрди);

б) субъектив баҳони ҳаракат охиригача етказиш учун хизмат қиладиган кўрсаткичлар. Гапнинг қўшимча ҳиссий рангини олиш учун қуйидаги лексик бирликлар зарур. Кўрсаткичларнинг ушбу кичик гуруҳи ёрдамида узоқ кутилган нарсанинг маъноси узатилади ва жумланинг ўзи салбий маънога эга бўлиши мумкин.: *after all, at long last, ultimately, in the long run, eventually, at last, in the end of all* (*Thank you very much Steve. In the long run you've remembered the date of my birthday* – Катта раҳмат сизга Стив! Охири сиз менинг туғилган кунимни эсладингиз!);

с) ҳаракат ёки жараённинг тўсатдан ёки аста-секин бажарилишини кўрсатадиган кўрсаткичлар. Ушбу кичик гуруҳнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у



ҳаракатнинг пайдо бўлиши ва шаклланишини (бошланиш босқичи) кўрсатадиган кўрсаткичлардан фойдаланади, шунинг учун фазани фақат контекст ёрдамида аниқлаш мумкин. Кўрсаткичларда кутилмаган ҳодисалар: *right away, immediately, abruptly, on the spot, in less than no time, instantly, suddenly, straight away, all of a sudden, at once, then and there, in a moment, at a moment's notice, in a trice/moment* (*The room was emptied all of a sudden* – Дарҳол хона бўшаб қолди) [5,р.47]; градуаллик кўрсаткичларда тугатиш амаллар: *drop by drop, bit by bit, step by step, by degrees, gradually, little by little, methodically, piece by piece* ва бошқалар (*Gradually the rain ceased* – Секин - аста ёмғир тўхтади) [6, р. 48].

Алоҳида гуруҳни маълум бир тур-вақт шаклидаги феъл билан биргаликда ҳаракатнинг уч босқичидан бирини кўрсатадиган замон қўшимчалари гуруҳи сифатида аниқлаш мумкин:

- нутқ пайтида бошланган ёки яқин келажакда бошланадиган дастлабки босқичнинг вақтинчалик қўшимчалари: *yet, next week, tomorrow, next decade, soon*;

- ўрта босқичда *always, often, usually, sometimes, never, today, now, at the moment, rarely, seldom, still*;

- якуний босқичнинг вақтинчалик қўшимчалари: *before, lately, recently, once, already, yesterday, last month/week/year*.

Биринчи кичик гуруҳнинг қўшимчалари нутқ пайтида бошланган ёки энг яқин (баъзан ноаниқ) вақтда бошланадиган вазиятларни аниқлайди. Қизиғи шундаки, дастлабки босқични ўтган замон шакли ёрдамида ифодалаш мумкин. Бу қоида тариқасида тугалланган ҳаракатни кўрсатишга хизмат қилади. Бундай ҳолда, ўтмишда бошланган ва ҳозирда давом этаётган ҳаракат ифодаланади.: *He left for the shop yet* -У аллақачон дўконга борди. Бошқача қилиб айтганда, сиз ушбу жумлани қуйидаги тарзда ифодалашингиз мумкин: У дўкон томон ҳаракатлана бошлади. Яъни, маълум бир киши ҳаракатни бошлаган, лекин уни ҳали тугатмаган (одам ҳали дўконга етиб келмаган).

Иккинчи кичик гуруҳнинг қўшимчалари такрорланадиган ёки нутқ пайтида юзага келадиган вазиятларни тавсифлайди: *I always buy tickets for me and my wife* - Мени ҳар доим ўзим ва хотиним учун чипта сотиб оламан; *Maria is watching TV right now* – Мария ҳозир телевизор томоша қилмоқда. Бундай ҳолда, ўрта фаза ҳозирги ва прогрессив махсус шакллар билан биргаликда вақтинчалик қўшимчалар билан ифодаланиши мумкин.

Охирги кичик гуруҳнинг қўшимчалари нутқ пайтидан анча олдин содир бўлган ёки яқинда якунланган якуний босқични кўрсатиш учун ишлатилади: *He had graduated already* "У аллақачон (узоқ вақт олдин) университетни тамомлаган.

Инглиз тилининг яна бир босқич кўрсаткичи предлог бўлиши мумкин. Бунда вақтнинг фазода тақсимланиши билан боғлиқ бўлган маълум миқдордаги вақтинчалик предлоглар мавжуд: - нутқ пайтида бошланган ёки яқин келажакда бошланадиган дастлабки босқичнинг предлоглари : *in, by, at (Tom will arrive in 3 hours* - Том 3 соатдан кейин етиб келади); - ўрта фазали предлоглар: *in, for, through, during (He can speak through hours* - У бир неча соатгача тўхтамай гапира олади = кўп соатлаб);- якуний босқичнинг предлоглари: *till/until, since, before (She waited you till the evening* - У сизни кечгача кутди).

Инглиз фазавий уюшмалари ҳам шунга ўхшаш фаза хусусиятларига эга, аммо уларнинг сони катта эмас. Ушбу тилнинг фазавий боғловчиларига қуйидагилар киради : *when, till, until, by the time, as/while, as soon as, after (We learnt several interesting facts while listening to the lecture* - Биз маърузани тинглашимиз давомида бир нечта қизиқарли фактларни билиб олдик). Қуйидаги мисолда биз икки фазали вазиятларнинг мавжудлиги ҳақида гапиришимиз мумкин. «*We learnt several interesting facts*» жумласининг биринчи қисми ҳаракатнинг якунланиш босқичини тавсифлайди, аммо «*while listening to the lecture*» жумласининг иккинчи қисми ҳаракатнинг ўрта ва давомийлик босқичини билдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:



1. Коновалов, Ю.Г. Образование префиксальных глаголов с финитивным значением в современном русском языке [Текст] / Ю.Г. Коновалов // Филологические науки. – 1983. - С. 78-81.
2. Соколов, О.М. Фазовое варьирование в видовых оппозициях русских глаголов [Текст] / О.М. Соколов // Филологические науки. – 1985. - №4. – С. 46-52.
3. Храковский, В.С. Теория функциональной грамматики. Введение. Аспектуальность, временная локализованность, таксис [Текст] / В.С. Храковский. – Л.: Наука, 1987. – 348с.
4. Brugmann, K. Aspectuality in English [Электронный ресурс] / <http://liternet.bg> – режим доступа: http://liternet.Bg/publish/20/b_ruzhekova/english-perfect.htm
5. Klinge, J. Aspectuality in English – Temporal Perspectives and Properties [Электронный ресурс] / <http://www.grin.com> – режим доступа: <http://www.grin.com/en/e-book/179844/aspectuality-in-english-temporal-perspectives-and-properties>

“MAQOLLARNING DARS JARAYONIDA QO'LLASHNING SAMARASI”

Andijon viloyati

Andijon tumani X T B ga qarashli

28-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich

sinf o'qituvchisi Ergasheva Gulshanoy Maxmudovna

Maqollar xalqimizning eng qadimgi og'zaki janri bo'lib, bugungi kunda ham o'zining sermahsulligi bilan, kishilarning hayotida eng ko'p qo'llanib kelinadigan ixcham shakl hisoblanadi. Bugungi kunda o'quvchilarga ta'lim berish bilan birga tarbiya berish ham, dolzarb ahamiyatga egadir. Ta'lim-tarbiya bir-biri bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Buyuk allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa buyuk bobolarimiz o'z asarlarida ta'lim -tarbiyaga alohida e'tibor bergan. Jumladan Ibn Sino bobomiz tarbiyani yoshlikdanoq boshlash joizligini aytib o'tgan. Alisher Navoiy bobomiz esa, insonning ko'rki ahloq tufaylidir deb o'z asarlarida batafsil to'xtalib o'tgan. Dars jarayonlarida xalqimiz tomonidan aytilgan maqollarni qo'llash, o'quvchilarni og'zaki fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Savod o'rgatish davridan boshlab, maqollarni o'quvchilar o'qiy boshlaydilar. Maqollarni o'qish va yod olish o'quvchilar uchun qiziqarli topshiriqlardan biri hisoblanadi. Ular maqollarning mazmunini izohlashga harakat qilishadi, o'qituvchi esa ularning fikrlarini to'ldirib, tushuntirib beradi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida berilgan matn yuzasidan o'quvchilar topshiriqlarni bajarish asosida, shu matnga mos maqollar aytishadi. Bu esa matnni yanada to'liqroq tushunub, o'z ustida o'quvchilarni ko'proq ishlashga undaydi. “Vatan” haqidagi matnlar asosidagi topshiriqlarda bolalar quyidagi maqollarni aytishi mumkin.

Vatanning tinch - sen tinch.

Bulbul chamanni sevar,

Odam -vatanni.

Vatanni sevmoq –iymondandir.

Vatani borning baxti bor,

Mehnati borning taxti.

Eling senga cho'zsa qo'l,

Unga doim sodiq bo'l.

Shu kabi maqollarni aytish dars samaradorligini oshirish boradi.

Matrmatika darslarida esa 1-sinfdan boshlab sonlarni o'rganishda raqamlar qatnashgan maqollar va she'rlarni o'rganish o'quvchilarni bilimlarini oshirishda yaxshi samara beradi. Masalan :

Bir yigitga qirq hunar oz.

Ikki o'n besh –bir o'ttiz.

Yetti o'lchab, bir kes.

Sanamay sakkiz dema.

Yozning kuni –yuz turli ,

Qishning kuni –qirq turli.

Maqollarni og'zaki nutqda ko'p qo'llash tafakkurni rivojlanishida ham yuqori natijalarga olib keladi.

Tabiiy fanlar darslarida mavzularni o'rganishda ham tabiat bilan bog'liq holdagi maqollarni o'rganish mumkin.

Suvni bersang elga,

Yasharasan ming yilga.

Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas.

Toqqa yog'sa ,cho'l obod

Cho'lga yog'sa, el obod.

Yozning yomg'iridan qo'rq,

Qishning –qirovidan.

Yoz mevasi- qish xazinas

Bu kabi maqollarni ko'plab mavzularga moslab o'rgatish mumkin. Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik , nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi ,ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi.. Darslarni qiziqarli tarzda olib borishda , o'quvchilarni

guruhlariga bo'lib,turli xil mavzudagi maqollarni aytirish musobaqasini olib borish ham mumkin.O'quvchilar jamoa bo'lib ishlash natijasida ,ularni tinglab tushunish, bir-birini hurmat qilish malakalari shakllanib boradi.

Maqollar orqali o'quvchilarni ona –vatanimizga bo'lgan mehrini uyg'otish, mehnatsevarlik , ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish lozim.Hozirgi vaqtda zamonaviy shaxsni tarbiyalashda xalq hikmatlaridan , pand –nasihatlaridan foydalanish ,o'quvshilarni mustaqil fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. Maqollar xalqimizning ma'naviy mulki hisoblanadi .Shu bois maqollarning nutqimizda keng qo'llanishi joizdir . Ma'naviy boyliklarimizni asrab –avaylsh ,ularni rivojlantirish har bir fuqorolarimizning burchi hisoblanadi.O'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatishda va kelajakda har tomonlama yetuk inson bo'lib ulg'ayishida o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. O'qituvchining vazifasi esa o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish , sifatli ta'lim –tarbiya berishdir.

BUGUNGI YOSHLARNI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISH VA KITOBXONLIKNI OSHIRISH MASALASI

Mamadvaliyeva Barno Mamarasulovna

Xovos tumani 2- maktab boshlangich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimidagi kutubxonalardan o'rinli foydalanish, ulardagi ma'lumot bazasidan o'rinli foydalanish, qolaversa, AKT dan unumli foydalanish jarayonlari batavsil yoritilgan.

Ta'lim tizimini ravnaq toptirish har doim dolzarb masala bo'lgan. Insonning har qanday ongli faoliyati ilgari o'zlashtirgan axborotlarni qay darajada egallaganligiga asoslanadi. Kishining amaliy-kasbiy mahorati faoliyatlarga doir axborotlar egallanish darajasiga bog'liq ekan, demak, uning bilimlilik pirovard natijasi ham o'quvchining kitobxonlik darajasini belgilaydi.

Ta'lim va tarbiya jarayonini sifat va samaradorligiga erishishda maktab kutubxonasining o'rni beqiyosdir. Maktab kutubxonasining yangi bilimlar manbai sifatidagi o'rni- axborotni ommalashtirish va shaxsning o'z-o'zini qaror toptirishga ko'maklashishda ko'rinadi.

Hozirgi ta'lim–tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish alohida ahamiyatga ega. Umuman tarbiya jarayonida faoliyat va munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish innovatsion yondashuv deb qabul qilinmoqda[1]. Kitobxonlar bilan ishlash tizimini olib borishda o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uni e'zozlash, kechirimli bo'lish, kitob bilan ishlash jarayonida o'zini-o'zi rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish, unga nisbatan do'stona munosabatda ish yuritish, ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati iqtidori, ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olishi kerak. O'qituvchi shu jarayonda subekt-subekt hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ijodiy muhitda olib boradi va kutilgan samaradorlikka erishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, kitobxonning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Shuningdek, Davlatimiz rahbarining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoyishi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manba kitobdir. Kitob o'qish maktabdagi ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liqdir, chunki bolalar muntazam o'qish san'ati bilan maktabda tanishadilar. Shu o'rinda maktabda o'quvchining o'quv fanlarini egallashi, bilimlarni o'zlashtirishi va o'z ustida mustaqil ishlashiga bog'liq bo'lib, bu jarayon kutubxonalar zimmasiga yuklatilgandir.

Zamonaviy o'qituvchining o'rni va roli, o'z-o'zidan uning izlanuvchanligida, o'zligini anglashida, bor mahoratini ishga solib «jarayon»ni amalga oshirishidadir[2]. U tarbiya texnologiyasining loyihalovchisi ekanini anglab olmog'i va shu yo'nalishda boshqalarni ergashtirmog'i lozim. Umumta'lim maktab ARM va kutubxonalari faoliyatini o'quvchilar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, ularni mustahkam e'tiqod egasi etib tarbiyalashning muhim markazi sifatida faoliyatni tizimli takomillashtirish yo'llarining nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish ham muhim o'rin egallaydi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va izlanishlarni muntazam olib borish lozimligini taqozo qilmoqda

Zero, kutubxona o'quvchilarni darsdan keyin o'z bilimlarini mustahkamlaydigan, kengaytiradigan auditoriya sifatida xizmat qiladi. Keyingi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik, kitob mutolaasi borasidagi masala dolzarb bo'lib qoldi. Bu borada o'quvchilar kitob o'qimasligining sabablardan biri - oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi, kutubxona xodimi tomonidan kitobga mehr uyg'ota olmaslik yoki o'qiydigan, qiziqarli badiiy kitoblar yetishmasligidadir. Bitiruvchi sinf o'quvchilarining maktab kutubxonalari boyitishga

hissa qo'shish sohasidagi tashabbusi tobora keng quloch yoymoqda. Buning natijasida maktab kutubxonalari minglab badiiy kitoblar hisobiga boyimoqda.

Ushbu muammo Respublika Prezidentining yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarorida alohida e'tiborga olinib ijobiy yechim sifatida huquqiy asosga ega bo'lgan hujjat bo'lib xizmat qildi.

Bugun o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni, asosan, ommaviy axborot vositalari va internet saytlaridan olishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Bu ijobiy hodisa, albatta. Lekin bunday harakat natijasida o'quvchilarning ko'pchiligi kitob mutolaasiga loqayd bo'lib qolishmoqda. Ayniqsa, badiiy kitoblarning o'quvchilar tomonidan o'qilish darajasi qoniqarli emasligi kuzatishlarmiz natijasida ma'lum bo'ldi.

Turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan ma'lumotlarning barchasi ham o'quvchining ma'naviy darajasi, madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila olmaydi.

Kitobxonga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yetuk darajada bo'lishi, o'quvchining majburlashdan voz kechish va aksincha, ularni rag'batlantirishning ustunligi tufayli kitobxonlikni oshirishdan ko'zlangan niyatga erishish maqsadida o'quvchi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llarini izlash zarur. Buning uchun kutubxonachilarning o'zlari bilim va pedagogik mahoratlarni takomillashtirib, kitobxon bilan ishlashning yangi metodlari, vosita va yo'llarini izlashni uzluksiz olib borishlari talab etiladi. U kutubxonachining faoliyati va munosabatiga, uning yangilikka intilishi, uni izlab topishi kitobxon bilan ishlash jarayoniga kirita olish va motivatsiyasiga bog'liq jarayondir.

Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklardan boxabar bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash, darslik, dastur va qo'llanmalarning, boshqa kerakli adabiyotlarning elektron variantlariga ega bo'lish albatta, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlashga, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda fan-texnika va texnologiyalarning jadal taraqqiyoti tufayli axborot hajmining doimiy ravishda o'sib borishi, bosma nashrlar bilan birga elektron nashrlarning kutubxona fondiga kirib kelishi, kutubxonachidan zamonaviy axborot kommunikatsion

texnologiyalardan foydalanish va amaliyotda qo'llay bilish malakalarini talab qiladi[3]. O'qituvchi o'z faoliyati davomida internet ma'lumotlari, slaydlar namoyishi orqali kitoblarni targ'ib etishi, jahon axborot olami bilan bog'laydi va kitobxonlar uchun axborot olish, muloqot qilish va o'qish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa shuki, ma'naviyat targ'ibotchilari bo'lgan o'qituvchilar o'z faoliyatlariga ijodiy yondoshib, kelajak egalarini barkamol inson sifatida voyaga yetishlariga ko'maklashish, hamda ularda intiluvchanlik, Vatan rivojiga munosib hissa qo'shishdek katta maqsadlar bilan yashash ko'nikmalarini shakllantirishni asosiy vazifalaridan bo'lib qolishi kerak. Shuningdek, davlatimiz va xorijiy mamlakatlar maktab ARM va kutubxonalari ish tajribalarini o'rganib, yangi axborot texnologiyalari vositalardan foydalangan holda o'qituvchi hamda o'quvchilarga kutubxona xizmatini tashkil etish hamda kitob targ'ibotining yangi zamonaviy usul va shakllarini ilmiy asoslangan ko'p variantlilik asosida ishlab chiqilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1.Yo'ldoshev E.Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish.- T.: «O'zbekiston», 2002.- 128 bet
2. F.Raxmatullaev.Barkamol avlod tarbiyasi- mamlakat taraqqiyoti omili.-// Tarbiya, 2010 yil, 3-son, 7 b.
3. Murodxo'jaeva.Z. Kasbiy faoliyatni tashkil etish talablari.-// Ta'lim menejmenti, 2010 yil, 3- son, 57 b.

ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ УКИТИШНИНГ АХАМИЯТИ

*Жўраев Ҳамза Ўзбекистон –Финландия
педагогика институти Тасирий санъат ва
муҳандислик графикаси кафедраси доценти,
санъатшунослик номзоди.
e-mail: xamzajurayev51@mail.ru*

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы воспитания молодёжного поколения в любви к Родине, материнской любви к своим младенцам, любви к родной природе а также воспитательные значимости в учебном процессе.

Ватанпарвар ёш авлодни тарбиялаш ҳозирга куннинг долзарб масаласига айланиб қолди. Тасвирий санъат уқитувчисининг асосий вазифаларидан бири - уқитиш усулларини тоқомиллаштириш, илгор педагогик тажрибалардан ижобий фойдаланиб, уқувчиларда Ватанга бўлган муҳаббатни тарбиялаш, санъат асарларининг гоёвий - эстетик маъносини тугри таҳлил этиб баҳолай олиш олий масалаларни эгаллашдир.

Бу уқитувчилар изланишларини фаоллаштириш, уқитишнинг замонавий технологияларини кенг тадбиқ этиш орқали таълимнинг сифат ва самарадорлигини оширишни тақозо этади. Шунинг учун ҳам: Юртимизда умумий урта таълим мактаблари тасвирий санъат дарсларида уқувчиларни мустақиллик руҳияти билан миллий гурур ва фахрланишни шакллантириш, Ватанпарварлик тарбиясини муҳим омилларидан ҳисобланади. Ватанни севиш туйғуларини уқувчиларда ривож топдириш (умуман ватанпарварлик тарбияси) уларга миллат, элат, халқ, санъат, маданият, маънавиятни кадрлашга ургатиш орқали амалга оширилади. Уқитувчиларнинг календар ва ишчи уқув режатаридида утиладиган мавзулар санъатнинг миллий ва узиға ҳослигини эътиборға олган ҳолда тузилган бўлиши мақсадға мувофиқдир.

Водий, улқа, гузал она юрт асосан рангтасвир санъатнинг манзара жанрида бажарилган полонтлорда тараннум этилади. Урол Тансиқбоевнинг "Тогда куз", "Сирдарё", "Ўзбекистонда баҳор", "Жонажон улқа", "Ю. Талдикиннинг", "Баҳорги



ишлар", М. Новиковнинг "Туркистонда киш", Н.Корахоннинг "Олтин куз", "Саричелак денгизи", Исфандиёр Хайдаровнинг "Бахмалда ёз", "Саратон" каби асарларини кузатиш ва таҳлил қилиш мумкин. Тасвирий санъатда шакл мазмун Ватан туйғусини турли халқлардаги бир бетакрор тоғ манзараси Н. Корахоннинг "Олтин куз" полотносида дон совураётган дехкон аёл фонида ифодаланган бўлса, айнан шу мазмундаги асарда И.Левитан бепоён рус табиати хусусиятларини узгача талқин этади.

Шу уринда Ўзбекистон манзара рангтасвирининг йирик намоёндаларидан бири Урол Тансикбоев асарларига алоҳида тухталиш мақсадимизни ойдинлаштиришда муҳим аҳамият касб этади. Рассомнинг бир канча манзара асарлари Ватанга муҳаббат рухий-хиссий ҳолатларда яратилгани билан таъсирчан ва жозибador чиққан.

1929 йилда Пенза рассомлик билим юртини тугатган Тансикбоев Москвадаги музейларнинг нодир санъат асарлари билан яқиндан танишгандан сунг, айниқса гарбий европа рангтасвиридан кучли таассурот олди. Уша пайтдан бошлаб ёш рассом кизгин изланиб уз услуби ва йунлишини топа бошлади. Асарлар композициясининг эпик монументаллиги билан узиға хосдир. Вакт утиши билан уз асарларида исон ва табиат уртасидаги уйғунлик гоёсини узида мужассам этган реалистик йуналишдаги манзара жанрида ижод қилган рассом асарлари нуфузли музейларда намоёиш этилаётгани юртимиз рангтасвир санъатининг юксаклигидан далолатдир.

“Сирдарё окшоми” картинасида рассом ва табиат уртасидаги узиға хос фалсафий мулоқот уз ифодасини топган. Сокин окшом шунчалик маҳорат билан ишланганки, зийрак мухлис беихтиёр машҳур рус манзарачи рассоми Куинжининг “Днепр устида окшом” манзара асарини эслайди. Хар бир диёрнинг узиға хос гузал манзаралари рассомлар ижодида ёрқин асарлар яратишда ноёб манба бўлиб хизмат қилганлиги шубҳасиздир.

Ватанпарварлик тарбиясини тасвирий санъатнинг бошқа тур ва жанрлари орқали ҳам амалга ошириш мумкин. Она Ватан ибораси ҳаётимизда қўл қўлланиладиган ва



калбларни жунбушга келтирадиган хусусиятга эга. Куч ва махорат устунлигида ракибларини маглуб килган боксчиларимиз голиблик шохсупсида елкаларида Давлатимиз байроги билан мадхиямиз янграганда гурур ва ифтихор туйгулари ила беихтиёр кузларида кувонч кузёшлари пайдо булади. Бу сингари хаёжонли ҳолатлар юртимизнинг купмиллатли мухлисларида ҳам намоён булади. Биринчи Презентимиз Ислон Абдуганиевич Каримов Давлатни халқаро микёсда санъат ва спорт танитишини таъкидлаган эдилар.


Рангтасвир санъатининг мавзули композицияларида Оналик мавзулари ҳам салмокли урин тутади. Турли даврларда, турли миллат рассомлари ижодида шу соҳадаги яратилган нодир асарлари халқаро микёсдаги нуфузли музейларда сакланиб, маънавий мерос сифатида узиға хос тарбиявий аҳамиятга молиқлигини эътироф этиш лозим. Она, оналик меҳри улуғланган Леонардо да Винчининг “Мадонна»си ва машҳур “Моно Лиза” портретини, Рафаэль Сантининг “Сикстин Мадоннаси”, «Мадонна Бенуа», «Қоядаги мадонна» каби асарларда она сиймосининг ташқи кўринишида одамлар чехраси жонлантирилиб, уларнинг ички дунёси, нозик кўнгил ҳолати ифодаланган.

Шу уринда Санкт Питербургдаги жаҳонга машҳур Эрмитаж музейида сакланаётган, Уйғониш даврининг буюк мутафаккири ва рассоми Леонардо да Винчининг “Мадонна Литта” асарида меҳр блан гудагини озиклантираётган гузал ёш она юксак махорат билан тасвирланган образда барча миллат ва элатлар оналарининг фарзандларига булган чексиз муҳаббатлари намоён булган.



Рахим Ахмедовнинг “Оналик тонги”

картинаси узгача композицион ечимда бажарилган булиб, юртимизнинг сулим гушаларидан бири гузал тоғ кишлогида тасвирлангани инсоннинг табиатдан баҳра олаётгани тараннум этилади. Мазкур асар Узбекитон давлат санъат музейида саланаётгани ҳам ташриф буюрган санъат ихлосмандларига ҳам маънавий, ҳам тарбиявий аҳамиятга эгадир.




В 1968-ом Бурмакин сотворил свою знаменитую "Байсунскую мадонну", подлинный гимн узбекской женщине, материнству. Художник, словно предчувствуя её гениальность, подписал свою работу на манер Леонардо да Винчи – справа налево.

"Байсунская мадонна" вызвала фурор в Москве на Всесоюзной выставке в Манеже, картину трижды

1968- йилда таникли расом Владимир Бурмакин узининг “Бойсун мадонна-си” номли буюк полотносини яратди. Бу уз урнида захматкаш узбек онала-рининг умумлашган типик образга куйланган ажойиб мадхия дея олишимиз мумкин. Асар сюжети оддий ва узвий: миллий либосдаги ёш аёл кўлида фарзанди. Орқада–бир-бирига уланиб кетган қишлоқнинг оддий уйлари. Лекин аёлнинг ўйчан ва ғамгин кўзларида шу қадар самимийлик, муҳаббат ва ажиб сир мавжудки, портретдан кўз узгим келмади.

: миллий либосдаги ёш аёл кўлида фарзанди.



Вывозили в Париж!

Ватанпарварлик тарбиясини тасвирий санъатнинг хайкалтарошлик турида ҳам кузатиш мумкин. Пойтахтимизнинг “юраги” булмиш мустакиллик майдонидаги хашаматли моументда юкорида таъкидлаганимиздек, оналик мавзусида багрида суюкли гудагини эркалаётган бахтиёр ёш гузал она тегишли мутаносиб улчамларда юксак пластикада ишланган. Албатта, болапарвар халкимизнинг келажак авлодга булган мухаббати ва ишончининг рамзий маънолари ушбу хайкалда уз ифодасини топган. Шундай тинч, бахтли хаётни сархатларимизни жонларини хатарга куйиб химоя килаётган чегарачи аскарларимизни жасоратли хизматларисиз тасаввур килиб булмайди.

Монументнинг яна бир кисмида Давлат байрогини упиб, Ватанга содиклигини касамёд килаётган аскар композицияси ишланган. Умуман майдон мухитига мос уйгунликдаги мазкур хайкалтарошлик намунаси давримизнинг нодир хайкалтрошлик асарлари сирасига кириб, юртимизга ташриф буюрган хорижлик меҳмонларнинг тахсинига сазовор булмокда.

Маълумки, иккинчи жахон уруши фронтига кетган юртдошларимимз кайтиб келишмади. Суюкли фарзанд, ёр, ака ва укалардан ажралиш халкимиз учун катта



фожиа эди. Деярли барча вилоятларимиз марказларида ва пойтахтимиз хотира майдонида урнатилган “Мотамсаро Она” хайкали фронтдаги жасоратли жанглар ва фронтортидаги халкимизнинг фидокорона меҳнатларини хотирлашга ҳамда тинчликни кадрлашга ундайди.

Хулоса урнида таъкидлаш лозимки, Тасвирий санъатнинг деярли барча турлари Ватанпарварлик тарбиясида муҳим аҳамиятга эга. Келажагимиз пойдевори - баркамол авлодни тарбиялашда барча фанлар сингари тасвирий санъат фанларининг аҳамияти бекиёслигини назарда тутиб, шу соҳа уқитувчилари узларининг билимлари, қобилиятлари ва барча имкониятларини сафарбар қилмоқдалар.

Адабиётлар:

1. Валиулина Н. Рузи Чориев-Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983.
2. Веймарн Б.В. Живопись молодых художников Узбекистана.- Ташкент, 1985.
3. Жадова Л.А. Современная живопись Узбекистана-Ташкент. Госполитиздат. 1962.
4. Каримов Х. Урол Тансикбоев, - Ташкент Гофур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.
5. Левитан И.И. Писма, Документы, Воспоминание, -Москва; Искусство,1956.
6. Махмудов Т. Эстетика живописи Узбекистана,- Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1983.
7. Мюнц М. Рахим Ахмедов, - Москва: Сов. Художник, 1985.
8. Паустовский К. Исаак Левитан – Тошкент. Ёш гвардия,1985.
9. Эгамбердиев А. Жанровая живопись Узбекистана,- Тошкент издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма,1985.



10. Хасанов Р. Тасвирий санъат асослари. Гафур Гулом номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи. Тошкент-2009.

11. Умаров Баҳром БОЙСУН МАДОННАСИ ёхуд шахси яширин аёллар ҳақида афсона. <http://www.vladibur.uz>

12. (Цит. по: Наталия Шулепина. Тысячи оттенков академика Бурмакина // «Правда Востока», 13 апреля 2007.

УДК: 662.997

**ENSURING ENERGY SAVING AND RELIABILITY IN SELF-DRAINAGE OF
SOLAR COLLECTORS WITH VENTURY PIPE.**

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЯ И НАДЕЖНОСТИ ПРИ
САМООТРЕБОВАНИИ СОЛНЕЧНЫХ КОЛЛЕКТОРОВ С ТРУБОЙ
ВЕНТУРИ.**

**ҚУЁШ КОЛЛЕКТОРЛАРИНИ ЎЗИНИ ЎЗИ ДРЕНАЖ ҚИЛИШИДА
ВЕНТУРИ ҚУВУРИ БИЛАН, ЭНЕРГИЯ ТЕЖАМКОРЛИГИНИ ВА
ИШОНЧЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ.**

Қаршиев Шариф Шеркулович

Тошкент архитектура-қурилиш институти (PhD) Доктарант

Телефон: +998909430202)

skarshiev@bk.ru

Annotation. *The system of self-government is widely used in developing areas. In particular, the method of self-regulation in solar energy creates self-control by creating an automated intelligent system, reducing energy consumption and manpower. In a solar collector, the most effective way to prevent abrupt changes in climate, the exchange of air with the heat carrier during the winter, especially in the evening, is to freeze and disrupt, the method of self-directed drainage.*

Аннотация. *Ўзини-ўзи бошқариш тизими ривожланаётган соҳаларда кенг куламда қўлланиб борилмоқда. Шу жумладан қуёш энергиясида ўзини-ўзи бошқариш усули автоматлашган ақли тизимни яратиб бериб, энергия сарфини ва ишчи кучини камайтириб, ўзини-ўзи назорат қилиб боради. Қуёш коллекторида иқлимнинг кескин ўзгариши яъни қиш мавсумининг айниқса кечқурун иссиқлик ташувчи билан ҳавонинг*



ўрнини алмашиниши музлаб қолиши ва бузилишдан олдини олишнинг энг самарали йули ўзини-ўзи бошқариб дренаж қилиш усулидир.

Аннотация. Система самоуправления широко используется в развивающихся районах. В частности, метод саморегулирования в солнечной энергетике создает самоконтроль за счет создания автоматизированной интеллектуальной системы, снижения энергопотребления и рабочей силы. В солнечном коллекторе наиболее эффективным способом предотвращения резкого изменения климата, обмена воздуха с теплоносителем в зимнее время, особенно в вечернее время, является замораживание и нарушение, метод самонаправленного дренажа.

Keywords: Solar system, Venturi pipe, device, high power, installation drain, heat carrier.

Ключевые слова: Солнечная система, труба Вентури, устройство, большая мощность, дренажная установка, теплоноситель.

Калит сўзлар: Қуёш тизими, Вентури қуғури, қурилма, юқори қувват, ўрнатиш дренаж, иссиқлик ташувчи.

Кириш. Қуёш коллекторлари ўзини-ўзи дренаж қиладиган ҳам қишки ва ёзги мавсумларда циркуляция насоси тўхтаганда Вентури қуғури қуёш иссиқлик таъминоти тизимларида, тўлиқ дренаж бўлиши туфайли энергия сарфини тежаб қуёш коллекторларининг бузилишдан ҳимояси таъминланади. Ёқилғи ресурслари чекланганлиги захираларининг камайиб, таннархининг ошиб бориши ва энергетик қурилмалар органик ёқилғида ишлаганда вужудга келаётган экология муаммолари табиий тежамкор ресурсларидан бири ҳисобланган қайта тикланадиган қуёш энергия манбаларидан фойдаланишнинг аҳамияти салмоқли бўлиб, бугунги куннинг долзарб, ечимини кутаётган вазифаси ҳисобланади. Республикамизда қайта тикланадиган энергия манбаларидан қуёш энергиясидан фойдаланиш юқори самара беради.

Маълумки Ўзбекистонимиз серқуёш ўлка қуёшли кунларимизни қарийб 300-330 кунни ташкил этади. Қуёш коллекторида иқлимнинг кескин ўзгариши яъни қиш мавсумининг айниқса кечқурун иссиқлик ташувчи билан ҳавонинг ўрнини алмашилиши музлаб қолиши ва бузилишдан энг самарали йули[1].

Асосий қисм. Қуёш энергиясидан фойдаланиш соҳасидаги энг фойдали йўналишлардан бири бу биноларни қуёш билан иситиш ва иссиқ сув таъминоти тизимларидир. Бироқ бу тизимлар республикада кенг қўламда татбиқ қилинмаяпти. Қуёш энергиясидан биноларни иситиш мақсадида фойдаланиш масштабини кенгаймаслигига сабаб, асосан амалда фойдаланилаётган манбалар тизимига солиштирганда геотизим қурилиши учун кетадиган капитал сарфларнинг юқорилигидир.

Ўзбекистонда турли хил объектларни иссиқ сув билан таъминлаш ва иситиш учун қуёш энергиясидан амалий фойдаланиш даражасини ошириш, йилнинг қишки ва ёзги мавсумларида қуёш коллекторларини бузилишдан ҳимоялаш учун музламайдиган суюқликлар (антифризлар) дан фойдаланадиган кўпконтурли қимматбаҳо тизимлар ўрнига, юқори қувватга эга бўлган оддий бирконтурли энергия тежамкор ва ишончли ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоқурилмаларни ишлаб чиқиш масаласини қўяди[2].

Тадқиқот натижалари таҳлили. Ўзини-ўзи дренаж қилувчи гелиоконтурлар иситиш тизимларида қуёш коллекторларини қиш пайтида музлашдан ҳимоя қилиш учун амалиётда жуда кенг қўлланилмоқда. Дунёнинг бир қатор етакчи компаниялари ўзини- ўзи дренаж қиладиган гелиоқурилмаларининг алоҳида қисмларини ҳамда яхлит комплект блокларини ишлаб чиқаришни йўлга қўйган. Бундай қурилмалар техник ечимларининг таҳлили шуни кўрсатадики, улар иссиқлик ташувчисини циркуляция қилишга катта миқдорда электр энергиясини сарф этади. Бунинг сабаби гелиоконтурдаги иссиқлик ташувчисининг айланиши оқим узулиши билан содир бўлади ва насос қуёш коллекторлари ҳамда дренаж баки орасидаги баландликка тенг бўлган масофага хар доим сувни кўтаради. Ўзини-ўзи дренаж қилувчи

гелиоқурилмаларнинг самарадорлигини ошириш учун бир қатор ихтиролар ишлаб чиқилган. Улар орасида гелиоконтурда оқим узулишини унга маҳаллий қаршилик киритиш билан олдини оладиган техник ечимлардан фойдаланиш илмий ва амалий нуқтаий назардан қизиқарлидир. Маҳаллий қаршилик сифатида Вентури қувуридан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир, чунки унда босим йўқолишини минимал қийматларга келтириш мумкин.



1-расм. Қуёш иссиқлик таъминоти тизимларида, қуёш коллекторларини Вентури қувури билан энергия тежамкорлигини ишончлигини таъминлаш.

Гелиоконтурларда иссиқлик ташувчиларнинг сарфи кичик бўлгани сабабли Вентури қувурининг кенг ва торайган қисмлари диаметрларининг нисбати ўзини- ўзи сувдан бўшатувчи гелиоқурилмаларда катта бўлади, одатда 2 дан 5 гача, шунинг учун бундай чегаралардаги Вентури қувурининг маҳаллий қаршилик коэффицентларининг қийматларини аниқлаш зарур.

Вентури қувури мавжуд ўзини-ўзи дренаж қилувчи гелиоконтур энергетик самарадорлигини аниқлаш учун Вентури қувури мавжуд бўлган ўзини-ўзи дренаж қилувчи гелиоконтурнинг энергетик самарадорлиги оддий ўзини-ўзи дренаж

қиладиган, иссиқлик ташувчисининг айланиши оқим узилиши билан амалга ошириладиган ҳамда Вентури қузури мавжуд бўлган гелиоконтурлардаги насосларнинг ишлаши учун сарфланадиган энергиясининг нисбий тежалишига кўра баҳоланади, яъни:

$$\Delta \bar{\mathcal{E}}_B = \frac{\mathcal{E}_0 - \mathcal{E}_B}{\mathcal{E}_0} = 1 - \frac{G \Delta p_{Hac}^B n}{\rho \eta_{Hac}} \bigg/ \frac{G \Delta p_{Hac}^0 n}{\rho \eta_{Hac}} = 1 - \frac{\Delta p_{Hac}^B}{\Delta p_{Hac}^0} \quad (1.0)$$

бу ерда $\mathcal{E}_0, \mathcal{E}_B$ – оддий ўзини-ўзи дренаж қиладиган ва Вентури қузури мавжуд бўлган гелиоконтурлардаги насосларнинг ишлашига сарфланадиган энергия миқдорлари, Вт·ч/йил; $\Delta p_{Hac}^0, \Delta p_{Hac}^B$ – оддий ўзини-ўзи дренаж қиладиган ҳамда Вентури қузури мавжуд бўлган гелиоконтурлардаги насослар томонидан ҳосил қиладиган босимлар фарқи, Па; n – бир йилда насосларнинг ишлаш соати; η_{Hac} – насос қурилмасининг ФИК[3].


$$\frac{D}{d} = \sqrt[4]{1 + \frac{2gH}{W_2^{*2}}} \quad (1.1)$$

Вентури қузури диаметри D/d нинг иссиқлик билан таъминлаш тизими қувурларидаги иссиқлик ташувчиси ҳаракатининг рухсат этилган тезликларидаги ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоконтур геометрик баландлиги H нисбатига боғлиқлик графиги $W^* = 1; 1,5$ м/с (1,1) формула бўйича қурилган ва 1-расмда келтирилган. Вентури қузури мавжуд бўлган ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоконтурда насос ўтказгичидаги энергия нисбий тежалиши формуласини оламиз:

$$\Delta \bar{\mathcal{E}}_B = \frac{\left(\frac{D}{d}\right)^4 \left(\frac{\alpha_1}{\alpha_2} - \frac{1}{\alpha_2} \zeta_B\right) - 1}{\frac{\alpha_1}{\alpha_2} \left(\frac{D}{d}\right)^4 + \frac{1}{\alpha_2} \zeta_{prg}} \quad (1.2)$$

Қуёш воситасида иситиш иссиқлик ташувчининг кам сарфлари билан тавсифланади, бунинг натижасида гелиоконтурда қўлланиладиган кам ҳажмли торайтирувчи мослама учун санаб ўтилган талаблар бажарилишининг имкони йўқ[4]. Бундан ташқари, сув сўрилиши жадаллигини ва тайёрлаш технологиклигини ошириш учун мослама мос равишда ўзгартирилиши лозим. Шу сабабли, гелиоконтур учун кичик ҳажмли торайтирувчи мосламани ҳисоблашда Вентури стандарт соплоси гидродинамик тавсифларидан уларни аниқлаштирмасдан фойдаланишнинг имконияти йўқ.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Б.И.Яньшин томонидан турли шаклдаги конфузор-диффузор ўтказгичлардаги босим йўқотилишини аниқлаш бўйича кенг тадқиқотлар ўтказилган. Унинг маълумотларига кўра, конуссимон бурчакли тўғри чизиқли диффузори $\alpha_\phi = 7 \div 10$ мавжуд бўлган Вентури қувури энг кичи қаршиликка эга, радиуси бўйича конфузор $\alpha_k = 30 \div 40^\circ$, ёки бирикиш бурчакли тўғри чизиқли конфузор $R_k = 0,5 \div 1,5d$, бунда: $\alpha_\phi = 7^\circ$ ва $\alpha_k = 30^\circ$ ёки $R_k = 0,5 \div 1,5d$ ли ўтказгичлар оқилона бўлиб ҳисобланади[5].



2-расм. Вентури қувури диаметрининг иссиқлик билан таъминлаш тизими қувурларидаги иссиқлик ташувчиси ҳаракатининг рухсат этилган тезликларидаги



ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоконтур геометрик баландлиги нисбатига боғлиқлик графиги.

Хулоса. Вентури қузури мавжуд бўлган ўзини-ўзи дренаж қилувчи гелиоконтур энергетик самарадорлиги назарий йўл билан аниқланди.

Вентури қузури диаметрининг иссиқлик билан таъминлаш тизими қувурларидаги иссиқлик ташувчиси ҳаракатининг рухсат этилган тезликларидаги ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоконтур геометрик баландлигига боғлиқлик нисбати аниқланди.

Вентури қузури жойлашган жойини ўзини-ўзи дренаж қиладиган гелиоконтурни гидродинамик тавсифларига таъсири баҳоланди. Вентури қузуридаги босим йўқотилиши, уларнинг оқилона шакллари ва маҳаллий қаршилик коэффицентлари аниқланди. Ўзини-ўзи дренаж қилувчи гелиоконтуридаги. Вентури қузурининг геометрик ўлчамлари ва гидродинамик кўрсаткичларини ҳисоблаш йўллари таҳлил қилинди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Рашидов Ю.К., Қаршиев Ш.Ш. Разработка способов защиты самодренируемых гелиоустановок от гидравлических ударов при пуске и остановке циркуляционных насосов. //2019 yilning 29-30 mart. Farg'ona politexnika institutida "Muxandislik kommunikatsiyalari loyihalash, qurish va foydalanishda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi, Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani. 69-72 бет.
2. Қаршиев Ш.Ш. Энергия тежамкор инновацион яратилган лаборатория стендини қуёш иссиқлик таъминоти тизимларида синаб кўриш усуллари //



Архитектура, қурилиш ва дизайн илмий-амалий журнали. – Ташкент: ТАҚИ, 2021. – №3, 190-194 бет

3. Рашидов Ю.К., Каршиев Ш.Ш., Исмоилов М.М. Повышение эффективности плоских солнечных коллекторов в системах теплоснабжения путём оптимизации их режимных параметров. //Международная научно-практическая конференция «Экологическая, промышленная и энергетическая безопасность–2019», Севастополь 23-26 сентября 2019 года, стр.1366-1371.

4. Рашидов Ю.К., Каршиев Ш.Ш. Самодренируемые гелиоустановки особенности защиты от гидравлических ударов при пуске и остановке циркуляционных насосов. //Международная научно-практическая конференция «Экологическая, промышленная и энергетическая безопасность–2019», Севастополь 23-26 сентября 2019 года, стр.1383-1387.

5. Sharif Karshiev Sherkulovich. Features of effective modes of self-driving helio-fixing with self-adaptable active element. // Турар жой ва жамоат биноларни лойихалашда янги инновацион технологияларнинг роли ва аҳамияти. Республика илмий-амалий анжумани ТАҚИ: Тошкент-2019, 229-231 бет.



O'QUVCHILARNI NUTQINI OSHIRISH VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI ZAMONAVIY TASHKIL QILISHNING METODIK USULLARI

Sadiyeva Gulbahor Raimbayevna,

Sirdaryo viloyati, Xovos tuman 2-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Аннотация: Целью данной работы является совершенствование речи учащихся младших классов и реализация теоретико-методических основ организации начального обучения современными способами, систематическое внедрение методов их использования непосредственно в учебном процессе, модернизация обучения нерешенных проблем в образовании, практическое обоснование роли и значения традиционного метода в развитии личности школьника.

Ключевые слова: теоретическая методика, основа, средство, форма, технология, содержание образования, организационно-методические, психолого-педагогические условия, речь, развитие, методика, содержание образования, форма, средство, педагогические и информационные технологии, непрерывное образование.

Annotatsiya: Ushbu ishning maqsadi boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni nutqini oshirish va boshlang'ich ta'limni zamonaviy usullarda tashkil etishning nazariy-metodik asoslarini tatbiq etish, ulardan bevosita o'quv jarayonida foydalanish usullarining tizimli yo'lga qo'yilishi, zamonaviy ta'limda yechilmayotgan muammolarni o'rganish, an'anaviy metodikaning o'quvchi shaxsi rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini amaliy asoslab berish.

Kalit so'zlar: Nazariy metodik, asos, vosita, shakl, texnologiya, ta'lim mazmuni, tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit, nutq, rivojlantirish, metodika, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, vosita, pedagogik va axborot texnologiyalar, uzluksiz ta'lim.

Bolalar nutqini rivojlantirish va uni o‘stirish metodi

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont’ev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta’siri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o‘rinlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o‘zlashtirish va ijtimoiy o‘zaro hamkorlik – o‘zaro bog‘liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o‘zlashtirib olishlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.



Maktabgacha yoshdagi bolalarning lugʻatni oʻzlashtirishlarida ikki jihat ajratib koʻrsatilgan: atrofdagi olam lugʻatini (soʻz boyligini) anglash bilan birgalikda rivojlantirish; lugʻatni til birligi sifatida oʻzlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantigʻida ham, til mantigʻi borasida ham soʻz ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga toʻgʻri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni oʻrganishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha boʻlgan bosqich muhim rol oʻynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining soʻz hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni oʻrganish va tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga eʼtiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lugʻatining va soʻzlarning assotsiatsiya asosida bogʻlanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy oʻzgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan oʻzgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bogʻlangan holda soʻzning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»

Nutq ontogenezi haqidagi zamonaviy tasavvurda bola nutqini rivojlantirish, bir tomondan, tashqi taʼsirlar bilan belgilanishi, oʻzga tomondan esa – toʻsatdan yuz berishlik, «oʻzini-oʻzi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Bolalarning passiv nutqni oʻzlashtirib olishlari va ularning dastlabki soʻzni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi



uch jihatga, ya'ni emotsional aloqalar, birgalikdagi harakat chog'idagi aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo'lgan kommunikativ omilga bog'liq bo'ladi.

Bolalar nutqini o'stirishga oid nazariy ishlar.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan.

Bolalarni dialogik nutqqa o'rgatish muammolari.

Dialogik nutq ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu nutq keng jummalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda ko'p bo'ladi. Bunday nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham uchraydi.

Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari:

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi

Bolalar bog'chasida o'qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

- a) erkin nutqiy muloqot
- b) maxsus mashg'ulotlarda

Dialog ko'proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo'ladi va u bolalar lug'atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko'nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish, ravon nutq ko'nikmalariga ega bo'lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg'ulotlarda o'qitiladi (oyiga 1–2 ta mashg'ulot); Bolalar bog'chasida bo'lib turgan vaqti mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar



bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og‘zaki nutqni) o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zlari o‘rtasida fikr almashish shaklida ro‘y beradi.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatsiya metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so‘zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

Bolalarga dialogik nutqni o‘rgatish usullari.

Dialogga bo‘lgan ehtiyoj, predmetli harakatlarni o‘zlashtirish bolaning o‘z faol nutqini ham talab qiladi. Nutq asosida umumlashtirishlar, fikrlashning ramziy vazifasi, ya’ni real narsalarning o‘rnini almashtira olish hamda o‘rnini bosuvchi narsalar va til belgilari bilan amallar bajarish qobiliyatlari rivojlanadi. Biroq nutqqacha predmetli harakatlarni aynan bir narsa bilan turli harakatlarni yoki turli narsalar bilan aynan bir xil harakatni bajarish, juftlik o‘yinlarni rivojlantirish va umumlashtirishga oid uzoq yo‘lni bosib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Bola uchun katta yoshli odam – bitmas-tuganmas ijobiy emotsiyalar, qiziqarli taassurotlar va borgan sayin so‘z muhim ahamiyatga ega bo‘lib boradigan o‘yinlar manbai hisoblanadi. Kattalar bilan dialogga kirishish, narsalar va o‘yinochqlarga egalik qilishga intilarkan, bola ushbu maqsadlarga erishish uchun so‘zdan foydalanish haqidagi chaqiriqqa javob beradi, ba’zida o‘zi tashabbus ko‘rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishadi, bolaning bir so‘zli fikrlarini grammatik jihatdan to‘liq shakllantirilgan iboraga aylanatirish orqali uning kamchiliklarini «tuzatadi» (Temur dadasining mashinasini ko‘rib qoldi: «Bi-bi, dada». Ona: «Dadasining mashinasi. Ketdik, dadaga boramiz»).

Bola tilni faol o‘zlashtiradi. So‘z ortida turgan tasavvur yagona o‘xshashlikdan («lyalya» - katta va kichik qo‘g‘irchoq) ko‘proq o‘xshatishlargacha, keyinroq esa



nisbatan aniq umumlashtirmalargacha («mol» soʻzidan sigir, qoʻy, echki va ot-eshaklarni ifodalashda foydalanishdan boshlab keyinchalik «mol» soʻzini faqat sigir va buzoqchalarga nisbatan qoʻllashgacha) rivojlanadi. Ayni bitta soʻz yordamida koʻp obrazli munosabatlar ifodalanadi («nanna» soʻzi bir vaqtning oʻzida «bu non», «non bering», «non tushib ketdi» kabi maʼnolarni anglatishi mumkin va h.k.). Bola asta-sekin bu munosabatlarni grammatik jihatdan rasmiylashtirilmagan ikki soʻzli, keyinroq esa uch soʻzli gaplar orqali ifodalashni oʻrganadi. Ikkinchi yilning oxiriga kelib, dastlabki grammatik shakllar paydo boʻladi. Bola- ning soʻz zaxirasi ortadi. 1 yoshu 6 oyda uning soʻz zaxirasi 30–40 ta soʻzni tashkil qilishi lozim. Fikrlar asosan bir tarkibli gaplardan iborat boʻladi. Bunda nonutqiy dialog vositalari (ifodali harakat, bevosita namoyish qilish, koʻzlarning toʻqnashuvi, mimikalar, imo-ishoralar va boshq) hamon hukmron boʻladi. Bola maishiy vaziyatlar maʼnosini va ularda qoʻllanilayotgan nutq mazmunini tushunib yetadi.

Jismoniy daqiqa:

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

1. *Maktabgacha taʼlim muassasasi qaysi koʻchada joylashgan?*
2. *U necha qavatli?*
3. *Maktabgacha taʼlim muassasamizning qanday xonalari bor?*
4. *Uning kiraverishi qanday bezatilgan?*
5. *Kimning hikoyasi sizga yoqdi?*

Oʻzbek xalq maqollari bolalarni tarbiyalaydi va ularga hayotdagi yangiliklarni oʻrgatadi.

Oʻzbek xalq maqollari

Ishlagan - tishlaydi,

Ishlamagan – kishnaydi.

Bog'ni boqsang, bog' bo'ladi,

Botmon dahsar yog' bo'ladi.

Boqimsiz bog' tog' bo'ladi,

Yurak-bag'ring qon bo'ladi.

Dehqon bo'lsang kuz hayda,

Kuz haydamasang, yuz hayda!

O'zbek xalq topishmoqlari

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,

Tongda turib, yo'q deysan.

(Yulduz)

Keragida suvga otasan,

Qimirlashin poylab yotasan.

(Qarmoq)

Qo'shaloq tovoq,

Ichi to'la yog'.

(Yong'oq)

Tez aytishlar

Erkin egatga ertagi ekinni ertalab ekdi.

Shokir sholipoyada shovqin solib, shaqildoqni shaqillatdi. Bir juft cho‘p ko‘pmi,
qo‘sh juft cho‘p ko‘pmi.

Jamila jiydani joyiga joyladi.

Shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk. Tez aytishni tez-tez ayt.

Bolalar nutqini rivojlantirish samaradorligiga erishish uchun ularning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy qobiliyati xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat ertaklar bilan tanishtirish avvalombor ularni asosli ravishda tanlash, eng ahamiyatli so‘zlarni ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi, ya’ni sifat tarkibi, ma’nosi bo‘yicha o‘rganishni ta’minlash ham dolzarb masaladir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasining:”Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2016-yil 15-sentabr. 132(6826)-son
3. Boshlang‘ich sinflarning takomillashtirilgan o‘quv dasturi. Boshlang‘ich ta’lim.2017, 5-son, 38-bet.
4. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang‘ich ta’lim. “O‘qituvchi”, 1998,4-son, 16-21-betlar.



G'ARB VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY ASARLARIDA SAN'ATNING INSON ONGI VA TAFAKKURIGA TA'SIRI HAQIDAGI QARASHLARI.

Qalandarova Nilufar G'iyosiddinova

Navoiy viloyati Xatirchi tumani XTB tasarrufidagi 26-umumiy o'rta ta'lim
maktabining tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolamizda g'arb va sharq mutafakkirlarining ilmiy asarlari, hamda qarashlarida san'at(estetika) g'oyalarining birlashtiruvchi, hamda farqlovchi jihatlari haqida ilmiy izlanish olib borilgan. Ularning asarlarini qiyosiy taxlil qilish orqali estetik g'oyalarining bugungi kun uchun qanchalik dolzarbligi ochib berilgan.*

Annotatsiya: *В данной научной статье проведено научное исследование объединяющих и дифференцирующих аспектов идей искусства (эстетики) в научных трудах западных и восточных мыслителей. Путем сравнительного анализа их произведений выявлена актуальность их эстетических идей на сегодняшний день.*

Abstract: *In this scientific article, scientific research was conducted on the unifying and differentiating aspects of the ideas of art (aesthetics) in the scientific works of Western and Eastern thinkers. Through a comparative analysis of their works, the relevance of their aesthetic ideas for today has been revealed.*

Kalit so'zlar: *san'at, estetika, I.Kant, emotsional, Suqrot, Aristotel, mimesis, V.Gegel, D.Didro, Abu Nasr al-Farobiy, Ibn Sino, O. Balzak, Lev Tolstoy. N.G.Chernishevskiy.*

Ключевые слова: *искусство, эстетика, И. Кант, эмоциональность, Сократ, Аристотель, мимесис, В. Гегель, Д. Дидро, Абу Наср аль-Фараби, Ибн Сина, О. Бальзак, Л. Толстой. Н. Г. Чернышевский.*

Keywords: *art, aesthetics, I. Kant, emotional, Socrates, Aristotle, mimesis, V. Hegel, D. Diderot, Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, O. Balzac, Leo Tolstoy. N. G. Chernyshevsky.*



Estetika tarixida san'atning mohiyati xususida juda ko'p tortishuvlar bo'lgan: "Antik davr mutafakkirlari estetikaning asosiy muammolarini shakllantirdilar va estetikaning muhim tushuncha va atamalarini yaratganlar. Taqlid, ilxom, go'zallik, tragediya, komediya, ixtizo, me'yor, mutanosiblik, ideal kabi tushunchalar qadimgi yunonlar tomonidan shakllantirilgan va keyinchalik estetika va san'atshunoslik adabiyotlariga muhrlangan. Antik estetika o'z davrini badiiy jarayonlarini falsafiy idrok etishga bo'lgan urinishlari orqali vujudga kelgan. O'z davrining zamonaviy san'ati va buyuk muammolari bilan bo'lgan aloqadorlik antik tafakkurni bag'oyat qiziqarli jihatlarini bizga namoyon etadi".

Suqrot voqealardagi estetik xususiyat, ya'ni narsa va hodisalarning estetik xossasi ularning foydaliligi bilan bog'liq degan fikrni ilgari surgan, haykaltarosh Kliton bilan bo'lgan suhbatlarda ham, Suqrot uning realizm bilan yo'g'rilgan asarlarini ko'rib, qoyil qoladi. Suqrot: sening haykallaringda katta hayot bor, chunki sen ularga tirik odamlarning xususiyatlarini jo etasan, deydi. Demak, haykaltarosh o'z asarlarida qalb holatini ifodalashi kerak⁶³. Badiiy hayotning turli sohalari haqida Suqrot juda kuchli, tizimli, oqilona fikrlar aytdi. U barcha sohalar, xususan, badiiy ijod, gimnastika, musiqa, raqs, she'riyat, dostonchilik san'ati mohiyatini tushuntirdi. U san'at asarlarining odamlarga faqat estetik zavq berib qolmay, ularni adolatli, vatanparvar, bag'rikeng, mehr-shafqatli, yolg'onchi, munofiq, zolimlarga nafratli, el-yurtga sadoqatli etuk insonlar qilib tarbiyalashga yordam beruvchi qudratli vosita ekanligini isbotlab berdi.

Aristotelning "mimesis"⁶⁴ ta'limotiga ko'ra san'at voqelikka taqlid qilib obraz yaratishdir. Mimesisning maqsadi – Aristotel fikricha, bilimlarni egallash va taqlid qilish orqali ongni qo'zg'atish, predmetni anglash va mushohada etishdir. Platon estetikasida

⁶³ Ўша манба. – С.89-91.

⁶⁴ Мимисес (тақлид назарияси) – концепцияси антик эстетикада Пифагорчилар, Демокрит, Афлотун, Аристотель томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, ижодкорнинг бадий тамойили, санъат мимесис-тақлидга таянади. Муסיқа-осмон самоларининг ўйғунлиги, тикувчилик санъати – ўргимчакларга тақлид, қўшиқ куйлаш қушларга тақлид, ўй қуриш қалдирғочларга тақлид, шеърят барча ҳақиқат ва фаровонликка тақлид этишдир.



absolyut go'zallik ilohiy g'oyaning erdagi soyasi tarzida zikr etiladi.

O'rta asrlar va uyg'onish davri Evropa mutafakkirlari ijodida san'at va uning mohiyati, san'atni anglash Avreliy Avgustin (354-430)ning san'at to'g'risidagi qarashlarida, keyinchalik, uyg'onish davrida (XIV-XVI a.) Dante, Petrarka, Bokkachcho, Rafael, Rembrant, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rable, Servantes, Shekspir, Leon Battista Albertilarning asarlarida nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama o'rganildi, ilmiy-tarixiy asoslari yaratildi. Masalan, Leonardo da Vinchi, Kampanellolar san'atga barkamol inson ma'naviyatini shakllantiruvchi omil sifatida qaraganlar. Leonardo da Vinchi o'z nazariy qarashlarida "oyna", "ko'zgu" g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, Leon Battista Alberti (1404-1472) san'at nazariyasini yaratadi, go'zallik va estetik tushunchalarni mohiyatini uyg'unlik bilan bog'laydi. "Uyg'unlik go'zallik va nafislikning asosidir. Zero uyg'unlikning vazifasi va maqsadi umuman aytganda, tabiatan har xil bo'lgan qismlarni muayyan mukammal qiyoslash orqali tartibga solish, toki ular bir-biriga mos holda go'zallikni yaratsinlar... unga o'zini namoyon etishi va taraqqiy topishi uchun keng imkoniyat maydoni mavjud: u butun inson hayotini qamrab oladi, barcha narsalarning tabiatiga singib ketadi. Zero, nimaniki tabiat yaratgan ekan-hammasi uyg'unlik qonuni bilan o'lchanadi". Uyg'onish davri faylasuf va ijodkorlari san'atning shaxs takomilidagi rolini yuqori baholadilar. Ular ilgari surgan g'oyalar keyingi davrlar estetikasida ham davom ettirilgan.

"U aylanmoqda! - deydi Galiley, hakamlar qarshisida tiz cho'kar ekan. Shunday bo'lsada, ijodkorlarning cheksiz ta'bi nozikligi – bu ularning boyligidir, nafrati - himmatidir; ilmiy ziddiyatlar, adabiy bahslar – iste'dodini uyg'otuvchi maslakdir. Agarda ular bir-biri haqida fisqi-fasod qilsa, eng qisqa muddatda asl hissiyot ularni yana birlashtiradi. Agarda ularning birlamchi hissiyoti g'araz bo'lsa, bilingki, g'araz ularning san'atga bo'lgan ehtirosidir; lekin tezda ichki kuchli va xaqqoniy ovozlarni eshitgan holda ular haqqoniy mulohaza qilib iliq fikrlar va vijdonan to'g'ri baholar, tahsinlar o'qiydi"⁶⁵.

⁶⁵ Бальзак об искусстве. – Москва-Ленинград: Искусство, 1941. – С.199-200.

I.Kant va V.Gegel san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Kant fikricha: "San'at inson faoliyatining uyg'unlashgan sohasidirki, bunday uyg'unlikni hissiyot va aql birligiga asoslangan estetik maqsadga muvofiqlik yuzaga keltiradi". Muallif hissiyot tushunchasini estetika bilan bog'lash zarurligini aytadi. Shuningdek, XVIII asrda Evropa, xususan, Germaniyada keskinlashib borayotgan ijtimoiy ziddiyatlar, boshlanib kelayotgan ma'naviy inqirozga zamin yaratilayotganini teran anglab etadi va bunday xavfning oldini olish, bartaraf etish uchun yangicha falsafa, dunyoqarash zarur deb biladi. Nemis faylasuf olimlari mana shunday keskinlashuvni go'zallik qonunlari, adabiyot va san'at orqali echimini topishga intiladilar.

Kant "...inson ongining nazariy aqldan yuqori, transendental (aprior) bilish qobiliyati mavjudligi va bu qobiliyat tafakkur bilan emas, balki, inson qalbi, e'tiqodi va adabiyot g'oyalari bilan bog'liqligi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan". Demak, san'atni insonning estetik ongi va estetik faoliyati tashkil etadi. Ushbu ikki xususiyatning mavjud bo'lishi insonni ezgu ishlarga, haqiqat uchun kurashga, go'zallikni targ'ib etishga qaratilgandir.

Gegelnings falsafiy ta'limotida san'at haqiqatni targ'ib etuvchi va teran insoniy maqsadlarni ifodalash usullaridan biridir deb ta'riflanadi. Estetik his-tuyg'uni ruh, haqiqatni ifodalash vositasi, tashqi shakli deb emas, balki mohiyatni o'zida mujassamlashtiruvchi mazmun sifatida olib qaraydi. "San'at asari sof hissiyot emas, deb ta'kidlaydi faylasuf, - balki, hissiyotda namoyon bo'ladigan ruhdur"⁶⁶.

I.Kantning fikricha, narsa va predmetlarni idrok etish jarayonida paydo bo'lgan zavq, rohat hech qachon ob'ektga aloqador emas, u sub'ektga xos bo'lib, ob'ektning sub'ektiv, nisbiy maqsadga muvofiqligini belgilaydi. Biror predmetning formasi shu predmet haqidagi tasavvurga binoan zavq bag'ishlar ekan, bu rohat shu formani idrok etayotgan yagona sub'ekt uchungina emas, bu haqda o'z fikrini bildirganlarning barchasi uchun ahamiyatli bo'ladi. Ana shundagina predmet go'zal deyiladi, undan olingan zavq haqida mulohaza bildirish olish qobiliyati esa did bo'ladi deb ta'kidlaydi. Ayrim faylasuflar (I. Kant)

⁶⁶ Гегель Г.В. Философия духа. Том.3. - Москва: Мысл, 1977. - С.54.



ta'kidlaganidek, estetik hissiyot tug'ma, azaldan berilganmi yoki Didro aytganidek, ijtimoiy "tajriba", "kuzatish" natijasimi?

D.Didro (1713-1784) estetikasida, odamzod his etish va fikrlash qobiliyati bilan tug'iladi, fikrlash qobiliyatining dastlabki qadami idrok etilgan narsalarni birlashtirish, taqqoslash, moslashtirish orqali tahlil qilishdir. Inson yaxshi va yomon, qodir va zaif, qobil va noqobil ehtiyojlar bilan tug'iladi. Bizning ehtiyoj va qobiliyatlarimiz mashqi tug'ilishimiz bilanoq boshlanadi, bizda mutanosiblik, simmetriya, tartib uyg'unlik tushunchalarining paydo bo'lishiga yordam beradi. Mana shu tushunchalarning barchasi sezgi organlarimiz orqali tajriba yordamida hosil qilinadi. Insonning estetik tuyg'ulari Didro fikriga ko'ra, kishini o'ragan voqelikka, hayotning turli-tuman hodisalariga bog'liq. Go'zallik sezgilari, tushunchalari tajriba orqali, oddiy narsalarni his qilish, taqqoslash va o'zaro aloqadorligini anglash orqali vujudga keladi. Didro, san'atni tabiatga taqlid etish sifatida talqin etadi. Mazkur g'oyani konsepsiya darajasiga ko'taradi, shuningdek, teatr, aktyor-analitik konsepsiyalarini ham ishlab chiqadi.

Tabiat go'zalligi ustunmi yoki san'at go'zalligi yuqorimi degan savolga Gegel san'at go'zalligini himoya qilib fikr bildirgan. Gegel qarashlarida san'atning bunchalik yuqori baholanishi uning ma'naviy, ruhiyat va inson iqtidorining ilohiy bir qudrat ekanligini inkishof etish bilan izohlanadi. Har qalay, Gegel fikrining e'tiborga molik tomoni shundaki, san'at tabiat va jamiyatga nisbatan tamomila yangi dunyo hisoblanadi va u hech qachon tabiat va hayotning aynan va mexanistik in'ikosi bo'lmagan. Ana shuning uchun san'atkor talantining o'ziga xos ijodkorlik kuchi va nuri turli sirli pardalar bilan o'ralgan.

A.Shopengauer san'atni mustaqil tarzda "mushohada qilish turi", maqsadi – g'oyani aks ettirish, mohiyati shundaki, unda bir hodisa minglab hodisa uchun javobgar, badiiy g'oyani mantiqiylik emas, balki intuitiv idrok va tasavvur tashkil etadi deydi.

Garchi, nemis klassik estetikasida san'at va go'zallik Kant tomonidan "beg'araz erkin faoliyat", Shillerning "insonning o'yinga bo'lgan ehtiyoji", Gegelning "Mutlaq g'oyani hissiy ifodalash", Shopengauerning "mushohada qilish turi" kabi turli nazariy qarashlar orqali



ta'riflangan bo'lsa-da ularning barchasiga xos san'atning erkin ijodiyot namunasi, insonning voqelikka estetik munosabatlarining badiiy bahosi ekanligi haqidagi fikr qaror topdi. Ular san'atni "erkinlik timsoli", insonning ma'naviy-ruhiy erkinligi ifodasi sifatida talqin etishdi.

Rus manbalarida san'atni ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflab, uning voqelikka o'xshatib badiiy obrazlarda aks ettirish xususiyatini birinchi o'ringa qo'ydilar. San'atning mohiyati haqidagi bahs uzluksiz davom etdi. San'at – odamning odamga o'z his-tuyg'ularini o'tkazish vositasi, deb tushuntiradi Lev Tolstoy. N.G.Chernishevskiyning go'zal chehrani tasvirlash bilan chehrani go'zal tasvirlashning farqi borligini ta'kidlasa-da Gegelga qarama-qarshi tarzda hayotdagi go'zallik san'atdagi go'zallikdan yuqori turadi, degan fikrni ham ilgari surib, san'atni "hayot maktabi" deb bildi.

Umuman olganda yangi davrda Evropa ma'rifatparvarlari nafosat falsafasi, olmon mumtoz estetikasi, romantizm estetikasi, realizm estetikasi, rus mumtoz nafosat falsafasi, eng yangi davrda hayot falsafasi, ruhiy tahlil estetikasi, ekzistensiyachilik estetikasi, yangikantchilik estetikasida san'at to'g'risida bildirilgan nazariyalar badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rta asrlar Markaziy Osiyo badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. "Bu erda turli ilmiy, diniy muzokaralar avj oldi, turli mamlakatlardan kelgan ilm vakillari tomonidan keng ilmiy muhokamalar uyushtiriladigan bo'ldi, ilmgohlar vujudga keldi, kitob ko'chirish, turli tillardan arab tiliga ilmiy kitoblarni tarjima qilish natijasida, maxsus tarjimonlar maktabi vujudga keldi, asar yozishga qiziqish kuchaydi. Bu davrda birinchi akademiya – "Donolik uyi" tashkil topdi va bu erda turli ilmlarning rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Unda xalifalikning turli o'lkalaridan kelgan arab, yahudiy, fors, turk, hind, yunon olimlari birgalikda ish olib bordilar"⁶⁷. Umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, insonparvarlik tamoyillariga sodiqlik ruhi mustahkam tizimga aylana boshladi. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida "Uyg'onish birinchi navbatda, qaramlikdan qutulish, mustaqil tafakkur, mustaqil ijod, mustaqil ma'naviylik

⁶⁷ Ўзбекистон фалсафаси тарихи. I жилд. – Тошкент: Ношир, 2013. – Б.63.



mustaqillikning samarasi bo'ldi"⁶⁸. O'rta asrlar Markaziy Osiyo estetikasi o'zining go'zallikka bo'lgan sharqona munosabati bilan, an'anaviylik va zamonaviylikni sintez qilgan yuksak ta'limot sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

IX-XI asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-fan, san'at va madaniyatning gullab yashnashida olamga va inson mohiyatini estetik anglashga bo'lgan intilishning ahamiyati katta bo'lgan. Qadimiy "Afrosiyob" harobalaridan topilgan qazilmalar o'sha davr ijodkorlarining VII asrda ham turg'un bo'yoqlarni bilganliklarini va mukammal rivojlangan tasviriy san'atga ega bo'lganliklarini yaqqol namoyon qiladi.

Buyuk mutafakkir alloma Abu Nasr al-Farobiy (873-950)ning ijodida san'at: amaliy va nazariyga ajratilgan. Aristotel fikriga qo'shilgan holda, san'atni taqlidiylikdir deb biladi. Bu taqlidiylik idrok etuvchida hissiyot va tasavvurni uyg'otadi. San'atkor o'z hayoliy kuchi, ijodiy qudrati bilan umumiy g'oyalarni yakka qiyofalarda in'ikos ettiradi. San'at insonni taqlidiylikka o'rgatadi. Ya'ni inson hayotida doimo taqlidiylikka buysunadi, doimo yaxshilikka intilib yashaydi, o'zida yaxshi va go'zal fazilatlarni shakllantirib, go'zal hatti-harakatlarni, go'zal qilmishlarni o'rganadi, doimiy tarzda o'z-o'zini ustida ishlash lozimligini ta'kidlaydi⁶⁹. San'at turlari xilma xil predmet, alohida yo'nalish va usullardan iborat bo'lishiga qaramasdan, ular odamlar tasavvuri va sezgilarini bir maqsadga – taqlid qilishga yo'naltiradi degan fikrni ilgari surgan. Alloma "go'zal fazilatlar", "go'zal ishlar" kabi iboralarga o'z asarlarida juda ko'p e'tibor qaratgan. "She'r san'ati", "Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida" risola, "Musiqqa haqida katta kitob" asarlarida san'atning yuzaga kelishida garmoniya, mukammallik, xaos, ichki va tashqi ta'sir, maromli harakat, taqlidning o'rniga alohida e'tibor qaratgan.

Balzak "T.Manro qarashlari arab tilida ijod qilgan boshqa bir O'rta Osiyoning yirik olimi Farobiy fikrlari bilan hamohangdir. Manro tomonidan san'atga qiyoslangan oshpazlik, attorlik mollari bilan shug'ullanish, o'zini tuta bilish qoidalarini o'rganish, Farobiydagi san'at darajasiga ko'tarilgan tikuvchilik, tibbiyot, notiqlik san'ati va x.k.lar aslida badiiy ijod

⁶⁸ Ўша жойда. – Б.68.

⁶⁹ Абу Наср Фарабий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.112-113.



emas, aksincha, dunyoni anglashning har xil shakl va usullaridir va ularda estetik element mavjud bo'lib, ular faqatgina maqsadga muvofiqlik qonuniyatlariga emas, balki, go'zallik qonuniyatlariga ham asoslanadi. Ammo, Farobiy va Manro fikrlarida ratsionallik ham mavjud"⁷⁰, deb ta'kidlaydi. Garchi, Markaziy Osiyo xududlarida estetika fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, biroq o'rta asrlarning yirik qomusiy allomalari ijodida san'atning mohiyati keng tadqiq etilgan.

Jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan qomusiy olim Ibn Sino (980-1037) asarlarida san'atning insonga ham ma'nan, ham jisman ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan. Ibn Sinoning 3 ta asari san'atga taalluqli bo'lib, "Fan ash-she'r" asarida she'r san'ati taqlidiy fikr natijasida uch xil yo'l bilan yuzaga keladi, ya'ni "lahn-uyg'unlik", "kalom-so'z" (majoziy obrazli so'z), "vazn". She'r san'ati inson fe'l-atvori, ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, insonni to'lqinlantiradi, ya'ni inson hissiyotga beriladi, taajjubga tushadi, g'arazli ishlardan tiyiladi deydi. SHuningdek, she'rga quyidagicha ta'rif beradi: "She'r deb, obrazli so'zlardan iborat bo'lgan maromli, bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga o'xshash bo'lgan satrlarga aytiladi". Musiqa san'ati esa insonga lazzat bag'ishlaydi, harakatga keltiradi, go'zallikni xis qilishga undaydi. Allomaning "Salomon va Ibsol", "Yusuf qissasi", "Qush risolasi" asarlarida inson g'am, alam bilan emas, xursandchilik, kulgi bilan yashashi lozim, inson umrini gul obraziga o'xshatadi, inson ham gul kabi insoniyat hayotiga mazmun, go'zallik va xushbuy tarovat baxsh etadi deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning san'at haqidagi nazariyalari "Umar Xayyom, Mirzo Bedil singari Sharqning buyuk ruboiynavislariga namuna bo'lib xizmat qildi".

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, san'at shunday tafakkur, nazariy aqldan yuqori turuvchi transendental bilimni hosil qiluvchi inson faoliyatining sohasiki, unda aprior his-tuyg'u va aprior aql, tafakkur o'zaro ichki uyg'unlikda (garmoniya) go'zallik va ulug'vorlik mezoni bilan baholanadigan transendental (ilohiy, intuitiv) bilim hosil qiladi. Ma'naviy jarayon sifatida, san'at o'z murakkab ichki tizimi tufayli inson tafakkurining

⁷⁰ Боров Ю. Эстетика. – Москва: Политиздат, 1988. – С.33.

barcha yorug‘ va qorong‘u, baland va past, chuqur va yuzaki holatlarini ifodalaydi. U odamlarda tasvirlangan, ifodalangan narsa, hodisa va kechinmalarning estetik qadriyatligini namoyon qiladi, narsa-hodisalarga nisbatan estetik baholash qobiliyatini shakllantiradi. O‘quvchi va tomoshabin voqelikni san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rishga majbur bo‘lsa-da uning estetik didi, olam, tabiat va inson mohiyatini anglaydigan estetik ongini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - B.112-113.
2. O'zbekiston falsafasi tarixi. I jild. - Toshkent: Noshir, 2013. - B.63.
3. Академия художеств Узбекистана, 2001. - С.132-133. Ахмедова Э., Габидулин Р. Культурология. - Ташкент: Мировая культура.
4. Бальзак об искусстве. - Москва-Ленинград: Искусство, 1941. - С.199-200.
5. Боров Ю. Эстетика. - Москва: Политиздат, 1988. - С.33.
6. Гегель Г.В. Философия духа. Том.3. - Москва: Мысл, 1977. - С.54.



MUNDARIJA

1	YOSH-AVLODNI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA INNOVATSION YONDASHUV. Murodov Texron Furkat o'g'li	4
2	FUQAROLIK JAMIYATINI QURISH JARAYONI: O'ZGARISHLAR VA ISTIQBOLLAR. Saparov Bobur Hudayberdievich	10
3	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ZAMONAVIY HARBIY KADRLAR TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI K.Xaydarov	17
4	SHARQ ALLOMALARI ILMIY MEROSIDA HARBIY KADRLAR MASALASINING YORITILISHI Mullajonov Islomjon Yuldashevich	25
5	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI Musiddinova Shoir	30
6	O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA TA'LIMIY VA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR Matchanova Yulduz Rahmanovna	33
7	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI Berdirasulova E	38
8	"BUGUNGI TA'LIM ERTANGI KELAJAK SARI" Kuchkarova Madina Abdusakimovna	44
9	СУГУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲОЛАТИНИ КОМПЛЕКС ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Алимов Баходир Батирович	46
10	ҚОРАҚОЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АМУДАРЁ ВА ХОДЖАЙЛИ ТУМАНЛАРИ ХУДУДЛАРИДА УЧРАЙДИГАН (HEMIPTERA-НЕТЕРОПТЕРА) ТУРКУМИ ВА МИРИД (MIRIDAE)ОИЛАСИГА КИРУВЧИ ҚАНДАЛАЛАРНИНГ ТАБИИЙ ЭКОТИЗМДА ҲАМДА ҒЎЗА, БЕДА ВА САБЗАВОТ АГРОБИОЦЕНОЗЛАРИДА ЎСИМЛИКЛАР БИЛАН ОЗИҚЛАНИШИ. Адамбой Болтабаев Садуллаевич Абдусаматова Зебо Дилшод қизи	67
11	TIMSS XALQARO TADQIQOTINING BOSHLANG"ICH SINFLAR UCHUN AHAMIYATI Yusupova Nigora Mansurboyevna	86
12	РОЛЬ ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО АСПЕКТА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ Валиева Насиба Хадиятуллаевна	91
13	INNOVATSION TEXNOLOGIYLARNING JISMONIY TARBIYANI O'QITISHDAGI O'RNI Ko'charova Fotima Djo'raqulovna	102
14	OPPORTUNITIES OF NON-TRADITIONAL EDUCATIONAL SYSTEM Nodira A. Mukhitdinova	107
15	YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH OMILLARI Sharipova Gulnoza	113
16	AVITSENA GEOMETRIK OPTIKAVA, ISSIQLIK VA ELEKTR ENERGIYASI MASALALARI Muslihiddinov Zuxuriddin Mastakovich	140



17	В ИСКУССТВЕ КИНО СВЕТОВЫЕ И ЦВЕТНЫЕ ФИЛЬМЫ ПРЕКРАСНЫ ВЛИЯНИЕ НА РЕШЕНИЕ Икбол Мамасадыкович Меликузиев	151
18	МАМЛАТИМИЗДА МОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТ ВА ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ Алиев А.А	171
19	UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY QADRUYYATLARNI SHAKLLANTIRISH. Tursunbayev Alim Samatovich	174
20	ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОЛИЯВИЙ МУАММОЛАРИ Бобакулов Тулкин Ибодуллаевич	177
21	“YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA BUGUNGI KUN TA'LIMI UCHUN DOLZARB” Sherbekova Sevara Abduxakimovna	186
22	ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПАРАЗИТОВ РЫБ В ПРУДОВЫХ ХОЗЯЙСТВАХ БАССЕЙНА АМУДАРЬИ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ Алламуратова З.Б.	189
23	IT-ЛОЙИҲАЛАР ПОРТФЕЛИНИ БОШҚАРИШ: УСУЛ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ Садриддинов Бахтиёр Бахриддинович	196
24	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA BERISH MASALALARI Durmanova Gulchehra Dusiyarovna	203
25	УСТАНОВЛЕНИЕ ОБЪЕМА ЗАИЛЕНИЯ КАНАЛОВ И ОРГАНИЗАЦИЯ ОЧИСТНЫХ РАБОТ В УСЛОВИЯХ РЕКИ АМУДАРЬИ Азамат Курбанов Илхом угли	208
26	ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АФЗАЛЛИК ТОМОНЛАРИ. Ўразова Орзигул	213
27	“TINCHLIGIMIZ - TINCH BO'LSIN ELIMIZ”. Shukurov Bekzod Baxramovich	221
28	МАТЕМАТИКА FANIDAN INTEGRATSIYALASHGAN DARSLAR VA ULARNING AHAMIYATI Maxamova Dildora Shirinboyevna	238
29	TA'LIMDAGI O'ZGARISHLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH-BUGUNGI DAVR TALABI Xasanova Nigora Nizomovna	244
30	O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Iroda Yorboboyeva	249
31	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MEHR-OQIBAT TUSHUNCHASINI SINGDIRISH Isayeva Dilfuza	255
32	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI Tadjibayeva Kamola Adilxanovna	260

33	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	264
	G'aybullayeva Husnida G'ulamovna	
34	MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	268
	Musabayeva Noilabonu Tulkun qizi	
35	YOSH AVLODGA TA'LIM VA TARBIYA BERISHDA O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	274
	Toshpo'latova Shoxista Qurbanovna	
36	THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF ELECTRIC CARS IN OUR LIFE	279
	Inoyathodjaev Jamshid Shukhratullaevich	
37	YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YOSHLARNING O'RNI	285
	Muhitdinov Orifjon Abdulazizovich	
38	ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАШКИЛ ЭТИЛАДИГАН ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНЛАР ТАХЛИЛИ	290
	Нодирбек Абдугаппарович Исмаилов	
39	O'QUVCHILARNI TOG'ADABTATSIYA SHAROITIGA FUNKSIONAL HOLATIGA MOSLASHISH.	300
	Jamolov Sohibjon Jamoliddin o'g'li	
40	TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY YANGILANISHLAR: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR	303
	Xudayorova Zebuniso Otanazarovna	
41	JIZZAX VILOYATINING QADIMIY TARIXI	309
	Davlatova Hakima Babaydavlatovna	
42	МЕДИАМАТНДА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАДҚИҚИ (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида)	323
	Яхъяева Навруза Холбўтаевна	
43	O'QUVCHI TARBIYASIDA OILA-MAHALLA HAMKORLIGI	316
	Usmonova Nozima Bahodirovna	
44	УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТЕХНОЛОГИЯ ЎҚУВ ФАНИНИНГ МАҚСАД ВА ВАЗИФАЛАРИ	328
	Махмудова Мухлисахон Авазбековна	
45	ЎЗБЕКИСТОННИНГ МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШДАН МИЛЛИЙ ЮКСАЛИШ БОСҚИЧИДА	332
	Маъмурова ДилафERRUЗ Авазбековна	
46	ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ИМКОНИАТЛАРИ	336
	Қодиров Барҳаётжон Собиржонович	



47	ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА СССРНИНГ ШАРҚИЙ ҲУДУДЛАРИГА ЭВАКУАЦИЯНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ	343
	Атажанов Ахтам Юсупович	
48	БОБУРИЙЛАР ВА ТУРКИСТОН АЛОҚАЛАРИ	348
	Саидов Зоҳиджон Хабибуллаевич	
49	ҲАРБИЙ ТАЪЛИМДА КРЕАТИВЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИ ЗАМОНАВИЙЛАШТИРИШНИНГ МУҲИМ ШАРТИ	351
	Шеров Мансур Болтаевич	
50	ЖАДИД АДИБЛАРИНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИДА ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАРИ	359
	Хаитов Баҳодир Турсунович	
51	HARBIY JAMOANI JANGOVAR HOLATGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH	366
	Rajabov Voxidjon Normurotovich	
52	"ROBOTLAR VA ROBOTOTEXNIK TIZIMLAR"	370
	Paluonova Mexribanım Ayapbergenovna	
53	ДАРС МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА LMS(LEARNING MANAGEMENT SYSTEM) ДАН ФОЙДАЛАНИШ. GOOGLE CLASSROOM МИСОЛИДА LMS ЎЗИ НИМА?	400
	Оухо'jayeva Umida Abdumajidovna	
54	ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ ИННАВАЦИОН ЮКСАЛИШ МОДЕЛИ	405
	Эрназарова Сайёра Холмирзаевна	
55	THE IMPORTANCE OF LISTENING SKILLS IN LERNING ENGLISH ONLINE	410
	Akhmedov Hasan Uzairovich Sharipova Nodira	
56	УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБ ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ИНДИВИДУАЛ КАСБИЙ РИВОЖЛАНИШ ТРАЕКТОРИЯСИНИ ЛОЙИҲАЛАШ	414
	Маллаева Озода Махрамовна	
57	FITRAT IJODIDA MILLIY HURRIYAT G'OYASINING AKS ETTIRILISHI	421
	Akramov Qurbonali Ro'ziqulovich	
58	O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMASINI SAMARALI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI	428
	Nurmamatov Abdumalik Shermatovich	
59	ИНГЛИЗ ТИЛИДА ФАЗАНИ ИФОДАЛАШНИНГ КОНТЕКСТЛИ ВОСИТАЛАРИ	437
	Латипов Азиз Акбаралиевич	
60	MAQOLLARNING DARS JARAYONIDA QO'LLASHNING SAMARASI"	444
	Ergasheva Gulshanoy Maxmudovna	



61	BUGUNGI YOSHLARNI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISH VA KITOBXONLIKNI OSHIRISH MASALASI Mamadvaliyeva Barno Mamarasulovna	447
62	БАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ УКИТИШНИНГ АХАМИЯТИ Жўраев Ҳамза	451
63	ENSURING ENERGY SAVING AND RELIABILITY IN SELF-DRAINAGE OF SOLAR COLLECTORS WITH VENTURY PIPE. Қаршиев Шариф Шерқулович	459
64	O'QUVCHILARNI NUTQINI OSHIRISH VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI ZAMONAVIY TASHKIL QILISHNING METODIK USULLARI Sadiyeva Gulbahor Raimbayevna	467
65	G'ARB VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY ASARLARIDA SAN'ATNING INSON ONGI VA TAFAKKURIGA TA'SIRI HAQIDAGI QARASHLARI. Qalandarova Nilufar G'iyosiddinovna	475